



Z.J. RASULOV

ANTIINQIROZIY BOSHQARUV



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

Z.J.RASULOV

ANTIINQIROZIY BOSHQARUV

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus
ta‘lim vazirligi tomonidan o‘quv qo‘llanma
sifatida tavsiya etilgan*

**TOSHKENT
“IQTISOD-MOLIYA”
2019**

UO'K: 338.24

KBK: 65.9 (5O'zb)-97

Professor J.R. Zaynalovning umumiy tahriri ostida

Taqrizchilar: - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
professori **i.f.n. E.N. Xodjaev**
- Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
dotsenti v.b., **i.f.n. B.Sh. Xusanov**

R 26 Antiinqiroziy boshqaruv. O'quv qo'llanma /
Z.J.Rasulov; – T.: 2019. – 300 b.

Ushbu o'quv qo'llanma xo'jalik yurituvchi subyektlarida inqirozga yo'l qo'ymaslik shu bilan birga uni oldini olishda nazariy va amaliy jihatlari haqidagi ma'lumotlardan iborat bo'lib subyektlar faoliyatini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Mazkur qo'llamaning muhim jihati korxonaning bankrotlikka yuz tutmasligiga oid jihatlarni ilmiy tadqiq etilganligidir. Har bitta mavzu va unda o'rganiladigan masalalar xorijiy amaliyot bilan uyg'unlikda o'rganilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma fan dasturi asosida tayyorlangan bo'lib, oliy o'quv yurti talabalari, tadqiqotchilari va o'qituvchilari, ilmiy xodimlar va mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

UO'K: 338.24

KBK: 65.9 (5O'zb)-97


ISBN 978-9943-13-883-4

© Z.J.Rasulov, 2019

© "IQTISOD-MOLIYA", 2019

MUNDARIJA

KIRISH	7
I BOB. ANTIINQIROZIY BOSHQARUV ASOSLARI, AHAMIYATI VA BOSHQARISH MEXANIZMLARI	10
1.1. Inqiroz tushunchasining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.....	10
1.2. Inqiroz turlari, bosqichlari va uning paydo bo'lishi omillari	21
1.3. Iqtisodiy va moliyaviy inqirozning asosiy sabablari	30
1.4. Antiinqiroziy boshqaruvning tushunchasi va mohiyati	43
1.5. Antiinqiroziy boshqaruv mexanizmi	48
II BOB. KORXONA FAOLIYATINI TAHLIL QILISHDA QO'LLANILADIGAN AXBOROT MANBAALARI.....	58
2.1. Korxonada boshqaruv va moliyaviy hisob – qaror qabul qilish jarayonini axborot bilan ta'minlash manbai sifatida	58
2.2. Moliyaviy hisobot shakllari va korxonani tahlil qilishda ulardan axborot manbai sifatida foydalanish	61
2.3. Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlaridan axborot manbai sifatida foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari.....	64
2.4. Korxona balansi tushunchasi va uning tarkibi.....	72
III BOB. KORXONA TO'LOV QOBILIYATI TUSHUNCHASI VA TO'LOVGA LAYOQATSIZLIKNING KELIB CHIQISH SABABLARI.....	76
3.1. Korxonaning to'lov qobiliyati haqida tushuncha	76
3.2. Korxonada majburiyatlar, ularning vujudga kelishi va turlari	79
3.3. Korxonada to'lovga layoqatsizlikning kelib chiqish sabablari	83
IV BOB. TO'LOV QOBILIYATSIZ KORXONANING IQTISODIY HOLATINI TAHLILI HAMDA UNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARINI BAHOLASH.....	87
4.1. Inqirozning turli bosqichlaridagi korxonalar faoliyatining joriy tahlili.....	87
4.2. Korxonalarda bankrotlikning yashirin bosqichi- moliyaviy nobarqarorlik, yaqqol inqiroz.....	



4.3. To'lov qobiliyatsiz korxonaning moliyaviy tahlili. Moliyaviy tahlil maqsadi va vazifalari. Korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirishning mohiyati va uning korxonalar faoliyatini rivojlantirishdagi ahamiyati	96
4.4. Biznesni baholash zaruriyati va maqsadi. Biznesni baholashda qiymatlar turlari: bozor qiymati; investitsion qiymat; ichki qiymat; faoliyatdagi korxona qiymati; tugatish qiymati; balans qiymati	105
4.5. Korxonani baholashda daromadli yondoshuv. Faoliyatdagi korxonani baholashga bozor yondoshuvi: kapital bozori usuli va shartnomalar usuli	109
V BOB. INQIROZGA QARSHI MARKETING STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH	121
5.1. Inqirozga qarshi kurashishda marketingning tarkibi, roli va funktsiyalari. Marketing vositalari	121
5.2. Inqirozga qarshi marketing strategiya va taktikasi	126
5.3. Marketing-miks va zamonaviy strategik marketing xususiyatlari. Marketing strategiyalarining tizimi va ko'rinishlari...	136
5.4. Korxona hayotiyligida marketing tadqiqotlarini samarali tadbir etish	140
5.5. Marketingni boshqarish yo'nalishlari	145
VI BOB. INQIROZGA QARSHI INVESTITSION SIYOSAT.....	150
6.1. Investitsion strategiya - inqirozga qarshi strategik rejalashtirishning bir qismi sifatida	150
6.2. Investitsion qarorlarni qabul qilishning ba'zi qoidalari	150
6.3. Investitsion loyihalarni baholashning kriteriylari	151
6.4. Inqirozga qarshi davlat investitsion strategiyasi, uning maqsadi	152
6.5. Moliyaviy resurslarni taqchilligi sharoitida investitsiyani moliyalash manbalari	155
6.6. Chet el kapitalini investitsiyalash	159
6.7. Investitsion tadbirkorlik loyihalarini tuzish	165
6.8. Investitsiya loyihasini texnik-iqtisodiy asoslash (TIA)ning namunaviy tarkibi	170

VII BOB. INQIROZLI KORXONA PERSONALINI

BOSHQARISH..... 179

- 7.1. Korxonalarda antiinqiroziy kadrlar siyosatining ahamiyati 179
- 7.2. Korxonalarda kadrlarni antiinqiroziy boshqarishning o'ziga xos tizimi..... 183
- 7.3. Korxonalarda kadrlar salohiyatining qiymati, uni baholash va qayta shakllantirish..... 185
- 7.4. Inqirozli korxonalarda personalni boshqarish tamoyillari va usullari 187
- 7.4. Inqiroz sharoitida kadrlarni ijtimoiy himoyalash va ijtimoiy-psixologik holatlarni yaxshilash 198

VIII BOB. KORXONANI TUGATILISHINING TASHKILIY

MEXANIZMI 201

- 8.1. Korxona tugatilishining qiymatini baholash xususiyatlari. Baholash maqsadi va funksiyalari. Tugatish qiymati, uni amalga oshirish shartlari va turlari 201
- 8.2. Korxona aktivlarining tugatish jadvalini ishlab chiqish 202
- 8.3. Korxona aktivlarining joriy qiymatini hisoblash. Korxona balansining aktiv va passivlarini aniqlash 206
- 8.4. Korxonaning tugatish xarajatlarini aniqlash 207

IX BOB. O'ZBEKISTONDA BANKROTLIK TO'G'RISIDAGI

QONUNNING TAKOMILLASHUVI 214

- 9.1. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi kuzatilgan davrda davlatlarning inqirozga qarshi siyosati 214
- 9.2. Mamlakatimizda bankrotlik institutining shakllanish sabablari. 218
- 9.2. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozigacha bo'lgan davrda Respublika bankrotlik institutining bosqichma-bosqich rivojlanishi 224

X BOB. KORXONANING BANKROTLIGI VA MOLIYAVIY

SOG'LOMLASHTIRISH TAOMILLARINING HUQUQIY

TARKIBI..... 235

- 10.1. Bankrotlik taomillarining turlari va tarkibi..... 235
- 10.2. Sudgacha sanatsiya qilish asosi 246
- 10.3. Kuzatuv 248
- 10.4. Kelishuv bitimini tuzish..... 253

10.5. Sud sanatsiyasi.....	256
10.6. Tashqi boshqaruv	261
10.7. Tugatishga doir ish yuritish taomili.....	265
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	273

KIRISH

Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiy o'sishi barqarorligini ta'minlash hal qilinishi muhim bo'lgan masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Buning asosida mamlakatda ishlab chiqarishni rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish, innovatsion texnologiyalarni tez suratlarda amaliyotga joriy etish va boshqa biror chora-tadbirlar yotadi. Bu borada mamlakatimizda juda ko'p ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, davlat mulklarini xususiylashtirishda yangi usullarni qo'llash orqali ulardan maqsadli va samarali foydalanish, kichik va o'rta biznes subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, past likvidli davlatning yirik korxonalariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, shuningdek 2008 yildan bo'yon davom etayotgan dunyoning ko'pgina davlatlarida salbiy oqibatlarni keltirib chiqargan moliyaviy-iqtisodiy inqirozga qarshi Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan choralar dasturining amalga qo'llanilishi shular jumlasidandir.

Bugungi kunda fuqarolarni tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun davlat va nodavlat tashqilotlar tomonidan juda katta imkoniyatlar berilmoqda. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishi bilan bir qatorda bozorlarda raqobat ham oshib boradi. Ayniqsa raqobatli bozor sharoiti har qanday faoliyatni izdan chiqarib, korxonaning inqirozga yuz tutishiga olib kelishi mumkin. Ushbu omillar boshqaruv nazariyasi va amaliyotiga antiinqiroziy boshqaruv tushunchasining kirib kelishiga turtki bo'ldi.

Antiinqiroziy boshqaruv korxonalarning tugatilishi, shakllanishi va rivojlanishida namoyon bo'ladi. Chunki har qanday holatda ham korxonalarning boshqarilishi talab etiladi. Korxonalarning shakllanishi va rivojlanish yo'nalishlari aniq bo'lsa ham moliyaviy mablag'larning talab etilishi sir emas. Chunki har qanday korxonaning faoliyati bevosita ana shu mablag'larga bog'liq bo'ladi. Shunday ekan, antiinqiroziy boshqaruvning mohiyati ham bevosita moliyaviy resurslardan

foydalanishda yuzaga keladigan quyidagi munosabatlarda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, korxonalar o'rtasida amal qiluvchi moliyaviy munosabatlarning oqsashida.

Ikkinchidan, korxonalar bilan moliyaviy institutlar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarning yomonlashuvini bartaraf etish kabilar.

Shuni yana alohida ta'kidlash kerakki, antiinqiroziy boshqaruvning mohiyati huquqiy va tashqiliy munosabatlarni talab darajasida chiqarilmasligi hamda uning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, antiinqiroziy boshqaruv korxona oldida turgan majburiyatlarning bajarilmasligida ham namoyon bo'ladi.

Qarzdor korxonaga nisbatan qo'llaniladigan chora-tadbirlar yig'indisi va bankrotlik holatini oldini olish va nochor korxona faoliyatini tugatish. Sudgacha sanatsiya qilish, kuzatish va tashqi boshqaruv chora-tadbirlari, qarzdor korxonaning sud tomonidan majburiy tugatilishi hamda to'lovga layoqatsiz korxonalarning kreditorlar nazorati ostida ixtiyoriy tugatilishi.

Korxonaning butun hayoti mobaynida uning faoliyatiga xos bo'lgan voqealar tufayli iqtisodiy jihatdan salbiy oqibatlar paydo bo'lishining tabiiy jarayoni va shu bilan bir vaqtda, inqiroz tufayli har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt uchun, uning doirasida korxonani rivojlanishga olib keluvchi o'zgarishlarning yuz berishi.

Bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlar amaliyotida korxonalar nochorligi yoki bankrot bo'lishi oddiy holatlari. Korxona bankrot bo'lgan hollarda uni tugatishning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari jamiyat uchun og'ir kechishi. Iqtisodiy islohotlar sharoitida esa bankrotlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, uning ijtimoiy oqibatlari esa o'ta salbiy oqibatlarga olib kelishi shular jumlasidandir.

Inqirozning negizida inqirozga qarshi kurash emas, balki korxonani yangi strategiyaga va hamkorlar bilan o'zaro foydali munosabatlarga mos bo'lgan tarkibiy o'zgartirishlar yotishi. Bankrot bo'lgan tadbirkorlik korxonalarini chiqarib yuborish emas, balki ularni

bankrot bo'lishi oldini olish, davomli rivojlanishini ta'minlash – yanada muhim vazifa bo'lib hisoblanadi shu jumladan inqirozga qarshi boshqarish deb nomlanuvchi chora-tadbirlar tizimi aynan ushbu vazifani hal etishga yo'naltiriladi.

I BOB. ANTIINQIROZIY BOSHQARUV ASOSLARI, AHAMIYATI VA BOSHQARISH MEXANIZMLARI

1.1. Inqiroz tushunchasining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sir etgan har bir davlatning milliy iqtisodiyotiga jiddiy talofat ko'rmasdan qolmadi. Jumladan, inqirozning "vatani" hisoblangan AQSH va boshqa uning iqtisodiyotiga rivojlanishi bog'liq bo'lgan davlatlar (Angliya, Germaniya, Yaponiya va sh.k.) tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar ham ko'zlangan darajada o'zini oqlamadi.

Shu munosabat bilan aytish mumkinki, inqiroz har bir iqtisodiy tizim va unda amal qilayotgan tarmoqlarning faoliyatini orqaga ketishi bilan bog'liq holatni yuzaga keltiradi.

Sanoat korxonalarida inqirozlar boshqa tarmoq yoki iqtisodiy tizimdagi qiyinchiliklar hisobiga va tarmoqning ichida ham vujudga kelishi mumkin. Bu o'rinda inqirozlarga olib kelishi mumkin bo'lgan boshqa tarmoqlarga tegishli barcha sabablar sanoat korxonalaridagi inqirozlarni ham vujudga keltiradi.

Inqiroz deganda insonning ko'z oldida hech qanday moddiylik gavdalanmaydi va inqirozni hech qanday shakli-shamoyili bo'lmaydi. Aynan shu mavhumiylikka ega bo'lgan hech qanday moddiy ko'rinishi mavjud bo'lmagan tushuncha tovar va pul munosabatlarini nomuvofiqlashtirish, makroiqtisodiyotni izdan chiqarish, ocharchilik, taqchillik, qimmatchilik kabi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarish hamda boshqa turli darajadagi qiyinchiliklarni shakllantirish quvvatiga ega.

Moddiy ashyodan samarasiz foydalanilganda va (yoki) u turib qolganda jamiyat hayotiga zarar yetkazishi mumkin, lekin o'zi ko'rinmagan narsa qanday zarar yetkazadi degan fikr ham yo'q emas. Bu holatda mavhum tushunchalarning deyarli barchasi insonga u yoki bu darajada ham ijobiy, ham salbiy xususiyatlari bilan hayotini mos ravishda bir tomonga o'zgartirishi mumkin ekanligini anglash mumkin.

Misol, ishlab chiqarish korxonasining mulkdori bo'lgan aksiyador korxona faoliyati orqaga ketib aksiyalarining bozor qiymati u sotib olganidan ko'ra pasayganida tabiiy ravishda ruhiy tushkunlika tushib qoladi. Bu holatda ham mavhum tushunchalar o'z kuchini ko'rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inqiroz faqatgina amal qilgandagina insonlar yodiga tushadi. Agar mavjud bo'lmasa uni hech kim eslamaydi. **Bu ham iqtisodiy inqirozni vujudga keltiruvchi sabablardan biri ekanligini unutmazlik lozim.** Chunki, inson o'z nomi bilan unutuvchi, u bo'lgan voqea hodisalarni yozib, qayd etib borsada yana bir bor takrorlanmagunigacha xato qilaveradi. Bu esa obyektiv qonuniyat. Shu sababdan ham, inqirozlarni fazalar orqali namoyish etganda, u har bir davr odamining boshidan hech bo'lmaganda bir marotaba o'tganligini guvohi bo'lamiz. Inqirozning tabiatan takrorlanuvchanligi ham shundan iborat.

Inqirozni tushuncha sifatida kengroq tahlil qilganda, oqibati ham moddiy, ham ma'naviy zarar bilan tugaydigan va insonlar boshiga turli qiyinchiliklarni soladigan voqea-hodisalar to'plamidan iborat jarayon ekanligini ko'rish mumkin. Inqirozni tabiati va u haqda berilgan ta'riflar mohiyatan yagona tushuncha mazmunini beradi. Inqirozlarni xususiyati haqida gapirilganda esa, ularni kelib chiqish mohiyati va xarakteriga qarab buzg'unchilik, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy tizimlarni emirilishi va katta iqtisodiy-moliyaviy zararlar nazarda tutiladi. Shu bois, inqiroz hech kimni tasavvurida yorqin ijobiy hodisa emas, salbiy taasurotlarni vujudga keltiradi.

Inqirozni to'liq mohiyatini ochish uchun albatta u haqda berilgan fikrlar va mulohazar, shuningdek, ta'riflarni birma-bir ko'rib chiqish lozim.

O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida inqiroz (krizis) **so'ziga taraqqiyotda orqaga ketish, tanazzul deb ta'rif bildiriladi**¹. Mazkur ta'rif, inqirozga berilgan ta'riflarning eng ilmiysi deb hisoblansa xato bo'lmaydi. Chunki, olimlar tomonidan inqirozga berilgan ta'riflar

¹ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 4-жилд. Зебунисо-Конигил. Тахрир Хайъати: М.Аминов, Т.Даминов, Т.Долитмов ва б. Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2002. – 704 б. (197-бет)

faqatgina, iqtisodiy-moliyaviy nuqtai nazardan yoritilgan bo'lib, bir tomonlama xarakterga ega.

Zamonaviy adabiyotlarda inqirozni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonidagi holati bo'yicha hali ham bitta tan olingan xulosaga kelinmagan. Inqirozlar bozor iqtisodiyoti sharoitida amal qiladi, lekin ma'muriy tizimda mavjud emas degan tushunchalar mavjud.

Ba'zilar iqtisodiy inqirozlar haqida so'z yuritib, faqat davlat miqyosida amal qilib mikrodarajada bo'lmaydi, korxona inqirozlarini boshqaruvdagi muammo, xato va kamchiliklardan iborat deb tushuntiradilar. Bunday tushunishlar hato fikr hisoblanadi. Agar ularning fikrini to'g'ri hisoblab, shu vaziyatdan turib holatga baho beradigan bo'lsak, firma boshqaruvida inqirozni rivojlanishini, strategiyasini oldindan ko'ra bilishning ilojisi yo'q va hisobga olib ham bo'lmaydi.

Inqiroz tushunchasi boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish uslubiga ko'p tomonlama ta'sir qiladigan risk tushunchasi bilan o'zaro bog'liq².

Rossiyalik inqirozga qarshi boshqaruv maktabi vakillari ham inqiroz haqida o'z fikrlarini bildirib o'tganlar. E.A.Babushkina, O.Yu.Biryukova, L.S.Vereshaginalarning ta'riflariga ko'ra, **inqiroz – bu** korxonaning hayot faoliyatiga maksimal darajada qarama-qarshi ta'sir qiluvchi jarayon bo'lib, faqatgina kapitalistik tizimga xos bo'lgan holatdir³.

Shu kabi fikrlarni E.P.Jarkovskaya va B.E.Brodskiylar ham bildirishgan bo'lib: **inqiroz – bu** korxonaning ichki ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy hamda tashqi muhit bilan munosabatlarini keskinlashuvidir. Inqiroz korxonaning rivojlanish va tiklanish, ishlab chiqarishni kengayishi holatida ham pasayish sifatida aks etishi mumkin⁴.

Angliyalik iqtisodchi olimlardan biri Djon Von Eykenning inqirozga bergan ta'riflari boshqa olimlarning mulohazalaridan ajralib turadi. U inqirozni bir necha ta'riflar yordamida tushuntirgan.

²Антикризисное управление: Учебник. – 2-е изд., доп. и перераб./Под ред. проф.Е.М.Короткова – М.:ИНФРА – М, 2009. – 620 с. – (Высшее образование)

³ Бабушкина И.А. Антикризисное управление : конспект лекции / И.А.Бабушкина, О.Ю.Бирюкова, Л.С.Верешагина. – М.: Эксмо, 2008. – 160с. – (Екзамен в кармане)

⁴ Жарковская Иелена Павловна Антикризисная управления: Учебник – 4-е изд., - М.: Омега – 2007. – 365 с.

1-ta'rif: inqiroz – bu xavfli nobarqaror vaziyat va ish holati bo'lib, voqea hodisalarni yaxshi yoki yomon tomonga qarab rivojlanishiga eng katta ta'sir qiladigan omildir;

2-ta'rif: inqiroz – bu tashqilotning moliyaviy holati yoki obro'-e'tiboriga ta'sir qiluvchi barcha salbiy holatlardir;

3-ta'rif: inqiroz – bu korxonaning rahbarlari, hamkorlari uchun o'z oldilaridagi imkoniyatlarini ochish haqida qaror qabul qilishga majbur etuvchi takroriy holatdir⁵.

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, inqirozga berilgan ta'riflar turlicha bo'lgani bilan ularni mohiyati yagona fikr ostida birlashadi. Lekin aytib o'tish zarurki, berilgan ta'riflarni inqirozni turli nuqtadan tahlil qiladi.

Ta'riflarni tahlil qilganda quyidagilarni kuzatish mumkin. Babushkina E.A., Birukova O.Y., Vereshagina L.S. larning bergan ta'riflarida inqiroz kapitalistik tizimdagina uchraydigan va sotsialistik iqtisodiy tizimga yot tushuncha sifatida ta'riflanadi. Bunday fikrga sabab, davlat boshqaruvida va mulkida bo'lgan korxonalar doimiy ravishda davlat qaramog'ida bo'ladi va hech qachon inqirozga uchramaydi degan mulohazadir. Lekin sotsialistik tizimlarda ham inqiroz bo'ladi. Sotsialistik tizim asoschilaridan biri K.Marks ham o'zining Iqtisodiy siklining nazariy egri chizig'ida ko'rsatib o'tgan. Ya'ni iqtisodiyot ma'lum cho'qqini zabt etgandan so'ng muqarrar ravishda inqirozlarni ham boshdan kechirishini isbotlab bergan. Demak, sotsialistik tizimda inqirozlar mavjud bo'lmaganda edi K.Marks ham bu fikrni tasdiqlamagan bo'lar edi. Faqat unda bozor iqtisodiyotidan farqli ravishda avval davlat inqiroz yoqasiga keladi.

Yana shuni ham aytish kerakki, ular inqirozni natural xo'jaliklarda ham mavjud bo'lmashligi⁶ haqida fikr bildirganlar. Lekin inqirozni o'zlari tomondan berilgan ta'rifda ham xo'jalik faoliyatiga qarama-qarshi ta'sir qiluvchi jarayon sifatida aytib o'tilgan. Natural xo'jalikda faoliyatga

⁵Вон Эйкен Дж. Кризис – осталя в живых! Настоящая книга для руководителей, предпринимателей и владельцев бизнеса / Джон Вон Эйкен. – М.: Алпина Бизнес Букс, 2009. – 352 с.

⁶Бабушкина Й.А. Антикризисное управление: конспект лекции / Й.А.Бабушкина, О.Ю.Бирюкова, Л.С.Верешагина. – М.: Эксмо, 2008. – 160с. – (Экзамен в кармане)

qarama-qarshi ta'sir qiluvchi kuchlar, omillar etarli. Bularga tabiiy omillarni misol qilib ko'rsatishning o'zi kifoya. Xulosa qilish mumkinki, inqirozga berilgan ta'rifni birinchi qismi maqsadga muvofiq tartibda berilgan bo'lishiga qaramasdan uni tahlilida olimlar inqirozga ta'sir qiluvchi omillarni e'tiborga olmaganlar.

E.P. Jarkovskaya va B.E. Brodskiylar yuqoridagi olimlardan farqli ravishda inqirozni unga ta'sir qiluvchi tashqi va ichki omillarni e'tiborga olgan holda ta'riflaganlar va korxonaning umumiy munosabatlarini keskinlashuviga olib kelishini tushuntirganlar. Mazkur ta'rifni tahlilini o'rganib shunday xulosa qilish mumkinki, fikr bir tomonlamalik xarakterga ega. Chunki inqirozni ta'rif iqtisodiy va moliyaviy tomonga bog'langan ravishda berilgan. Lekin inqiroz korxona xo'jalik faoliyatida faqatgina iqtisodiy va moliyaviy sabablar natijasida vujudga kelmaydi faqatgina uni oqibati bunga borib taqaladi. Bundan ko'rinadiki, ta'rif omillarni oqibatiga yo'naltirilgan. To'g'ri inqirozni oqibati iqtisodiy va moliyaviy zarar keltirgani uchun ham xatarli hisoblansada, ammo ruhiy oqibatlarni ham yoddan chiqarmasalik zarur. Shuning uchun ham, inqiroz hatarlar girdobi hisoblanadiki, uni oqibati qaysi shaklda bo'lishidan qat'i nazar faqatgina zarar keltiradi. Inqirozni foydali tomonlari ham mavjud bo'lib, u haqda keyinroq fikr yuritiladi.

Bugungi kunda korxonalarning ish faoliyatini aktivlashtirish va ishchanlik darajasini oshirish bo'yicha eng ko'zga ko'rinarli ishlarni amalga oshirayotgan olimlardan biri – bu Djon Von Eykendir. U korxonalarni qayta tarkibiy tuzish strategiyasini ishlab chiqish bo'yicha 17 yillik⁷ tajribaga ega. U bir necha ta'riflarni tahlili bilan izohlab bergan bo'lib, xozirgi davrdagi eng to'g'ri fikrlar deb hisoblash mumkin.

U inqirozga bergan barcha ta'riflarida uni kelib chiqishi, omillarni ta'sir qilishi va oqibatlarini inobatga olib bergan. Shu bilan birgalikda e'tiborga loyiq tomoni inqirozni yomon holat sifatidagina emas, balki rahbar va hodimlarni o'z imkoniyatlarini ochishlari uchun zamin deb

⁷Вон Эйкен Дж. Кризис – остаца в живых! Настоящая книга для руководителей, предпринимателей и владельцев бизнеса / Джон Вон Эйкен. – М.: Алпина Бизнес Букс, 2009. – 352 с.

hisoblagan. Bundan inqirozni kelajakda fan texnika taraqqiyotini ildamlatadigan va hodimlarni o'z imkoniyatlarini yuqori darajada ko'rsata olishiga yordamlashadigan jarayon deb ham atab o'tilgan.

Shu kabi iqtisodchi olimlar va klassiklar tomonidan inqirozga ko'plab ta'riflar berilgan bo'lib, har biri o'z mohiyatiga ko'ra korxona xo'jalik faoliyatiga ta'sir qiluvchi xatarni u yoki bu tomonini ifodalaydi.

Tadqiqotlardan ko'rinib turibdiki, haqiqattan ham inqiroz deganda bir hayotiylik tizimida rivojlanib borayotgan obyekt yoki subyektni taraqqiyotidagi orqaga ketishi tushuniladi. Inqirozda harakatlanayotgan jism o'zini tiklay olmasa yo'q bo'lib ketishi muqarrar. Inqiroz faoliyat va jarayonning har bir bosqichida to'satdan yoki ma'lum va noma'lum sabablarga ko'ra paydo bo'lishi va uni harakatlanib ketayotgan yo'lidan **bir turtki** bilan chiqarib yuborishi mumkin. Shu xususiyati bilan ham u xatarlarning manbaasidir.

Har qanday iqtisodiy tizim inqirozlarsiz bo'lmaydi. Buni e'tiborga olgan holda, inqirozga qarshi doimiy ravishda qo'shimcha tadbirlar ishlab chiqish talab qilinadi.

Iqtisodiy sikl bo'yicha inqirozga baho berilganda, u siklning har bir fazasida, ya'ni jonlanish, ko'tarilish yoki turg'unlik davrida paydo bo'lishi mumkin. O'z mohiyatidan kelib chiqib inqiroz har bir grafikda pasayish tarzida aks etadi.

Ushbu fan nuqtai nazaridan qaraganda, inqirozga yondosh tushunchalar qatoriga bankrotlik, iqtisodiy nochorlik, zarar ko'rib ishlash kabi tushunchalar ham qo'llaniladi.

Inqirozga qarshi boshqaruv jarayoniga iqtisodiy tomondan baho berilganda – avvalambor, iqtisodiy nochor va zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarni moliyaviy-iqtisodiy tomondan sog'lomlashtirish bo'lib, boshqaruvning bu usulini harakatga keltiruvchi omil iqtisodiy nochorlik belgilari va zarar ko'rib ishlash hisoblanadi. Respublikamiz qonunchiligida iqtisodiy nochorlik bankrotlik tushunchasi bilan bir xil atama sifatida qo'llaniladi.

Buni «Bankrotlik to'g'risida»gi qonun 3-moddasining birinchi qismida berilgan ta'rifdan ko'rish mumkin: bankrotlik (iqtisodiy

nochorlik) - xo'jalik sudi tomonidan e'tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini to'la hajmda qondirishga va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini to'la hajmda bajarishga qodir emasligi.

Boshqa MDH mamlakatlarida, jumladan Rossiya Federatsiyasida ham bu tushunchalar o'zaro sinonimdir⁸.

O'tkazilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'ldiki, bankrotlik – amaliyotda ikki xil ma'noda qo'llaniladi. Bir tomondan iqtisodiy nochor korxonalarni sog'lomlashtirish yoki tugatish bilan bog'liq taomillar kompleksiga nisbatan ishlatilsa, ikkinchi tomondan, istiqbolsiz korxonalarni tugatish davridagi holatiga baho berishda foydalaniladi. Bankrotlik atamasi taomillar tizimi hamda istiqbolsiz korxonaning holatini anglatadi.

Bir qator olimlar “nochorlik” va “bankrotlik” atamalarini jinoiy huquq bilan bog'liq bo'lmagan holda, bir-biridan farqlash kerakligi haqida aytiladi.

O.Bulko va L.Shefchuklar⁹ nochorlik va bankrotlik tushunchalarini to'lovsizlik alomati bo'yicha differensiallash kerak deb hisoblaydilar.

Le Xoaning¹⁰ fikricha, nochorlik va bankrotlikni sinonim sifatida tushunmaslik lozim. Nochorlik – bu to'lovga qobiliyatsizlik, ya'ni, qarzdor o'z vaqtida o'ziga qarashli majburiyatlarni to'lay olmaslik holatidir. Doimiy va davom etuvchi nochorlik mutloq to'lovga noqodirlikka olib keladi. U holda qarzdor o'z moliyaviy holatini tiklay olmaydi, uni faoliyatini davom ettirish mumkin bo'lmay qoladi va maqsadli emas. Bunday nochor tashqilot bankrot bo'ladi. Shunday ekan, Le Xoaning fikricha, bankrot – qarzdor tomonidan likvidatsiya bo'lish haqida qaror qabul qilish holatidir.

B.Klob¹¹ nochorlik va bankrotlik tushunchalarini quyidagicha shakllanishini taklif qiladi: “Nochorlik arbitraj sudi tomonidan tan olinishi yoki kreditorlarning pul majburiyati bo'yicha talablarini to'la

⁸ Балдин К.В., Бистров О.Ф., Рукоусов А.В. Антикризисное управление: макро- и микроуровни: Учебное пособие. – М.: Дашков и Ко, 2005. – С. 316

⁹ Булко О., Шевчук Л. Законодательство о банкротстве. Вариант Белоруссии//Хозяйство-право. – Москва, 1992. – №5. – с. 42.

¹⁰ Ле Хоа. Новый закон Российской Федерации о несостоятельности (банкротстве): взгляд зарубежного экономиста//Экономика и жизнь. – Москва, 1998. – №1. – с. 20.

¹¹ Клоб Б. Состав преступления и понятие банкротства//Законодательство. – Москва, 1998. – №1. – с. 48-49.

hajmda qondira olmaslik va (yoki) uning to'lov qobiliyatini tiklash maqsadida qarzdorga nisbatan tashqi boshqaruv taomilini qo'llagan holda, majburiy to'lovlar bo'yicha majburiyatlarni to'lashni amalga oshirish.

Bankrotlik – arbitraj sud tomonidan tan olinishi yohud pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini to'la hajmda qondira olmasligi haqida qarzdor tomonidan e'lon qilinishi va (yoki) qarzdorning mavjud aktivlari doirasida kreditorlar talablarini qondirish maqsadida qarzdorga nisbatan tanlovli ishlab chiqarish taomilini qo'llab majburiy to'lovlar bo'yicha majburiyatlarni bajarish". Shunday ekan, ko'rib chiqilgan mualliflar guruhi nochorlikni oddiy to'lovga to'lovga qobiliyatsizlik, bankrotlikni esa – xo'jalik sudi tomonidan tan olingan to'lovga qobiliyatsizlik deb ataganlar.

Shunday ekan, keltirib o'tilgan mualliflar jamoasi, nochorlikni to'lovga qobiliyatsizlik (majburiyatlarni bajara olmaslik), bankrotlik esa – sud tomonidan tan olinishi deb hisoblashni taklif etdilar. Bizning fikrimizcha, bunday nuqtai nazar bahsli, modomiki, bu huquqiy maqsadlardan ko'ra iqtisodiy maqsadlardan kelib chiqadi.

Korxonada bankrotlik alomatlarining¹² vujudga kelishi natijasida dastlab sudgacha sanatsiya qilishga ehtiyoj tug'iladi.

Iqtisodiy nochorlik – korxonaning moliyaviy natijalari, iqtisodiy ahvoli va to'lov qobiliyatini pasayishi bo'lib, o'z majburiyatini belgilangan muddatda bajara olmagan sharoitlarda vujudga keladi. Aslida, to'lovga qobiliyatsizlik iqtisodiy nochorlikni keltirib chiqaradi. Amaliyotda ham to'lovga qobiliyati yo'qolgandan so'ng iqtisodiy nochor korxona, deb yuritiladi, lekin bir paytda bankrot atamasi ham qo'llanib ketaveradi. Shu sababli, bankrotlik kategoriyasiga nisbatan iqtisodiy nochorlik kategoriyasi yuzaga kelish davri va mazmuni jihatidan farq qilishi bo'yicha aniq mezonlarni ishlab chiqish zarur.

¹² Bankrotlik alomatlari – bu qarzdor-korxona tomonidan tegishli majburiyatlar va (ekni) tuloqlar majburiyatni yuzaga kelgan kundan e'tiboran uch oy davomida bajarilmasligi, kreditorlarning pul majburiyatlari b'uyicha kreditorlar talablarini qondirishga va (ekni) majburiy tuloqlar b'uyicha u'z majburiyatini bajarishga ko'dir zmasligi hisoblanadi.



Nochorlik va bankrotlik kategoriyalarini ajratib turuvchi xususiyatlari quyidagilardan iborat:

– Jonlantiruvchi taomillarni qo‘llagandan so‘ng, korxonani to‘lov qobiliyatini tiklash imkoniyati bo‘lmagan holda, bankrotlik alomatlari mavjudligi haqida arbitraj sudning ajrimi;

– Barcha to‘lov qobiliyatini tiklash imkoniyati yo‘qotildi deb, korxoning moliyaviy holati tavsiflanganda fuqarolik huquqiy me‘yori bo‘yicha arbitraj sudning ajrimi.

To‘lovga qobiliyatsizlik keyinchalik iqtisodiy nochorlik, moliyaviy nobarqarorlik, korxona resurslarining nomutanosibligini yuzaga keltiradi. Agar korxona shu holga tushib, uni sog‘lomlashtirishning iloji bo‘lmasa, tugatishga doir ish yuritish taomili qo‘llaniladi. Buni quyidagi rasm orqali ham ko‘rish mumkin (1.1-rasm).



1.1-rasm. Sanoat korxonalarida bankrotlik holati kelib chiqishi bosqichlari ketma-ketligi

Zarar ko‘rib ishlash sanoat korxonalarida hisobot davridagi resurslarning yo‘qotilishini bildiradi. Zarar – mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlar shu mahsulotning bozorda sotilishidan kelib tushuvchi tushumdan ko‘pligini anglatadi. Sarflangan xarajatlar esa korxona resurslarining ma‘lum maqsadda chiqib ketishi bilan aniqlanadi. Ularning qaytib kelishi esa daromad ko‘rinishida bo‘ladi. Korxona o‘z


imkoniyatlaridan foydalanib, foyda olish maqsadida tavakkalchilik sharoitida o'z resurslarini sarflaydi.

Zaraming mohiyati xarajat qilingan resurslarning sarflangan holatiga nisbatan kamayib qaytishi hisoblanadi. Masalaga dialektik yondashilsa, jamiyat boyligi bu holatda kamaymaydi deb xulosa qilish mumkin. Lekin yo'qotilgan resurs korxonaga qaytarilmasligi sotilgan mahsulot iste'molchilar tomonidan arzon baholanganligini e'tiborga olib, korxona zarar ko'rganida resurlar jamiyat a'zolari o'rtasida notekis taqsimlanadi va bozordagi raqobatga salbiy ta'sir qiladi deb aytish mumkin.

Zararga olib keluvchi sabab, faqat arzonga sotish emas, balki tayyor mahsulot iste'molchiga yetib bormasdan omborda turishi, chirishi, tabiiy yo'qotilishi ham mumkin. Bu holatda korxona resursining zarar ko'rinishida yo'qotilishi jamiyat boyligining kamayishiga olib keladi. Shuning uchun korxonalar nochorligi va zarar ko'rib ishlashini tahlil qilishda ularning sonidan ko'ra, ko'rilgan zarar miqdori, yo'qotilgan resurslar hajmini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ko'rilgan zarar miqdorini tahlil qilish korxona faoliyatining kelgusidagi holatini oldindan baholashni osonlashtiradi hamda boshqaruv qarorlari qabul qilish jarayoni samaradorligini ham ko'rsatib beradi.

Aytib o'tilganidek, sanoat korxonalari zarar ko'rishi oqibatida iqtisodiy resurslarning muntazam kamayib borishi, korxonada moliyaviy qiyinchiliklar yuzaga kelayotganligidan dalolat beradi. Kreditorlik qarzlarning esa ko'payishi bankrotlik taomillarini qo'llash ehtiyojini hosil qiladi.

Iqtisodiy nochorlik zarar ko'rib ishlashning hosilasi hisoblanadi. Chunki korxona tomonidan ko'rilgan zarar hajmi ortgani sari, to'lov qobiliyati ham pasayib boraveradi. Bu holatni korxona kapitalining shakllanishi yordamida tahlil qilish iqtisodiy inqirozning ehtimollik darajasini aniqlash imkonini beradi. Ko'rilgan zaraming iqtisodiy nochorlikka ta'siri korxona kapitalining qaysi manbadan ko'proq shakllanganligiga bog'liq.



1.2-rasm. Sanoat korxonasida iqtisodiy-moliyaviy zarar oqibatida inqirozli muhitning tarkibiy tuzilishi

1.2-rasmga ko'ra, sanoat korxonalarida iqtisodiy nochorlik zarar ko'rib ishlash oqibatida vujudga keladi. Lekin zaraming korxona resurslariga uch xil ko'rinishdagi ta'siri iqtisodiy nochorlik va inqirozning ehtimollik darajasini belgilab beradi.

Masalaga iqtisodiy tahlil nuqtai nazaridan yondashilsa, korxona jami iqtisodiy resurslarining shakllanish manbaini ikki katta guruhga bo'lish mumkin. Iqtisodiy nochorlik belgilari shu guruhlarining o'zaro mutanosibligiga bog'liq holda vujudga keladi (1.2-rasm).

Birinchi holatda, sanoat korxonasi o'z kapitalining asosiy qismi odatda uzoq muddatli aktivlardan tashkil topgan bo'ladi deb hisoblansa, chetdan jalb qilingan mablag' ko'proq aylanma mablag'larning shakllanishiga asos bo'ladi. Muntazam ravishda past rentabelli yoki zarar ko'rib ishlash yuqorida ta'kidlanganidek, korxona iqtisodiy resurslarining chiqib ketishini ta'minlaydi.

Xususiy kapital o'zgarmagan sharoitda, chetdan jalb qilingan aylanma mablag'lar tabiiy kamayib boradi. Oqibatda korxonada jalb qilingan mablag'larning kamayib ketishiga olib keladi, to'lov qobiliyati ham pasayib kreditor qarzdorlikning muddatdan o'tgan qismi paydo bo'ladi va korxonada iqtisodiy nochorlik alomatlari vujudga keladi.

Ikkinchi holatda agar sanoat korxonalari uzoq muddatli aktivlarini chetdan mablag' jalb qilish hisobiga shakllantirib, o'z mablag'laridan aylanma mablag' sifatida foydalanayotgan bo'lsa, zarar hisobiga kamayish o'z mablag'lariga ta'sir ko'rsatadi va uni kamaytiradi. Birinchi holatdan farqli o'laroq bu jarayonda iqtisodiy nochorlikka o'z mablag'larining chiqib ketishi sabab bo'ladi.

Uchinchi holatda agar korxonada joylashgan aktivlar manbalarini aniqlashning iloji bo'lmaganda, zarar umumiy jihatdan yana aktivlarni kamaytiradi va to'lov qobiliyatini pasaytiradi.

Keltirilgan har bir holatda, aktivlarning chiqib ketishiga nisbatan kirib kelishining davriy ravishda pasayishi e'tiborga olinsa, korxonada o'z mablag'larining kamayishi yoki chetdan jalb qilingan mablag'larning kamayishidan qat'i nazar iqtisodiy nochorlik yuz beraveradi va korxona har qanday vaziyatda ham huquqiy jihatdan aybdor hisoblanadi. Bu esa korxonaga mablag'ni chetdan jalb qilish uni o'zlashtirish ekanligi va zarar yoki foyda ko'rib ishlashdan qat'i nazar uni qaytarish zarurligini ko'rsatadi.

Iqtisodiy nochorlik esa korxonaga chetdan mablag'lar jalb qilganda vujudga keladi. Lekin ta'kidlash zarurki, birinchi holatda korxonaning bankrot bo'lish ehtimoli boshqa holatlarga nisbatan yuqoriroq. Chunki aylanma mablag'larga chetdan jalb qilingan mablag'ning uzoq muddatlilarga nisbatan qaytarish davri tezroq bo'ladi. Korxonaning zarar bilan ishlashi esa ularni qaytarish imkoniyatini kamaytiradi. Shu sababli korxona kapitalini tashkil etish jarayonida chetdan jalb etilgan mablag'lar uzoq muddatli aktivlarga investitsiya qilish maqsadida yollansa va o'z mablag'lari aylanma mablag'larni shakllantirishga yo'naltirilsa, bankrotlik ehtimolligi kamayadi.

1.2. Inqiroz turlari, bosqichlari va uning paydo bo'lishi omillari

Korxonalarda inqirozga qarshi boshqaruvni samarali ishlab chiqilishi va natijasi bevosita uning turini, tavsifini va xususiyatini qay darajada aniqlab olinishiga bog'liq. Sababi inqirozning turi va xususiyatini to'g'ri aniqlash, korxonaning xo'jalik faoliyatiga qo'yilgan

tashxisni aniqlashtiradi va muammoning manbaasini topishga yordam beradi. Muammoni to'g'ri aniqlanishi keyinchalik uni bartaraf etish ishlarini samaradorligini oshiradi. **Masalan, shifokor huzuriga kelgan bemorni kasalligi nima ekanligini aniq topa bilish shifokordan tajriba va bilim talab qiladi, shu bilan birgalikda uni davolash jarayonida kasallikni tezroq davolashga zamin tayyorlaydi. Agar shifokor tashxisni noto'g'ri qo'yadigan bo'lsa, kasallik jarayoni uzoq davom etadi va yanada og'irlashishi mumkin.**


Zamonaviy adabiyotlarda inqirozni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonidagi holati bo'yicha hali ham bitta tan olingan xulosaga kelinmagan. Inqirozlar bozor iqtisodiyoti sharoitida amal qiladi, lekin ma'muriy tizimda mavjud emas degan tushunchalar mavjud

Ba'zilar inqirozlar faqat davlat miqyosida amal qilib mikrodarajada bo'lmaydi, uni faqatgina boshqaruvdagi muammo, xato va kamchiliklardan iborat deb tushuntiradilar. Bunday tushunchalar xato fikr hisoblanadi. Agar ularni fikrini to'g'ri hisoblab shu pozitsiyadan turib holatga baho beradigan bo'lsak, firma boshqaruvida inqirozni rivojlanishini, strategiyasini oldindan ko'ra bilishning ilojisi yo'q va hisobga olib ham bo'lmaydi.

Inqiroz tushunchasi boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish uslubiga ko'p tomonlama ta'sir qiladigan risk tushunchasi bilan o'zaro bog'liq.

Inqiroz tushunchasida inqiroz faqatgina sabablar emas, balki oqibatlari ham katta ahamiyatga ega. Inqiroz oqibatlari ikki ko'rinishdagi omillar bilan bog'liq: sabablari va inqirozning rivojlanish jarayonlarini boshqarish imkoniyatlari.

Inqirozning turli xil oqibatlari faqatgina uning xarakterini emas, balki inqirozni yumshatishi yoki qattiqlab yuborishi mumkin bo'lgan inqirozga qarshi boshqaruvning tavsifini ham aniqlaydi. Bu munosabatlardagi boshqaruv imkoniyatlari professionalizm, boshqaruv san'ati, motivatsiya tavsifi, sabablarni va oqibatlarni tushuna olish va mas'uliyatning maqsadlariga bog'liqdir.



1.3-rasm. Tashkilotning ijtimoiy-iqtisodiy tizimida inqiroz xavfini vujudga kelishi

Inqirozlarni ham turini to'g'ri ajrata bilish va xususiyatlarini turiga qarab bir-biridan farqlay olish inqirozga qarshi boshqaruv jarayonini soddalashtiradi va to'lovga noqobillikni tiklanishini tezlashtiradi. Amaliyot va nazariyada inqirozni juda ko'p turlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Inqirozning bu turlari ularni muayyan guruhlariga ajratish imkonini beradi va xususiyatlarini aniqlashtiradi. Lekin shuni ta'kidlab o'tish lozimki, inqirozlarni guruhlariga ajratishda bu soha vakillari tomonidan ba'zi chalkashliklarga yo'l qo'yilgan. Ya'ni, inqiroz turlarini bir-biridan ajratishda sabablari va oqibatlari yuzasidan vujudga kelishiga qaramasdan aralashtirib yuborganlar.


Amaliyot inqirozlar nafaqat maqsad va oqibatlaridan kelib chiqib, balki o'z mohiyatiga ko'ra ham bir xil emasligini ko'rsatadi. Agarda inqirozni xarakteri to'g'risida aniq ma'lumot bo'lsa, u holda uni kuchsizlantirish, xavfsizligini ta'minlash uchun sarflanadigan vaqtni va xarajatni qisqartirish imkoniyati ortadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inqirozlarni vujudga kelishiga olib keluvchi omillarning turlariga ko'ra inqirozlar quyidagilarga bo'linadi:

- Siyosiy inqirozlar;
- Ijtimoiy inqirozlar;

- Tabiiy inqirozlar;
- Iqtisodiy inqirozlar.

Quyida berib o'tilgan guruhlar inqirozlarni vujudga kelishi jihatidan eng katta guruhlari bo'lib hisoblanadi. Inqirozning bu turlari boshqa faoliyatlardagi inqirozlarni vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Bundan tushunish mumkinki, ular ham o'z o'rnida inqirozning boshqa xususiy turlariga bo'linib ketishi mumkin. Inqirozning mazkur turlariga makro va mikro darajada yondoshish mumkin. Umumiy jihatdan olib qaraganda, ular quyidagicha izohlanadi:



1.4-rasm. Inqirozni vujudga keltiruvchi omillariga ko'ra turkumlanishi

Siyosiy inqirozlar – makro darajada vujudga keladi va davlat siyosatini sustlashuvi bilan bog'liq tarzda boradi. Siyosiy inqirozlar katta-kichik urushlar, millatni qirib tashlanishi, hukmron partiyalarning parchalanishi va davlat tuzumining ag'darilishi natijasida paydo bo'ladi. Siyosiy inqiroz natijasida subyekt yo'qolib ketmasligi mumkin, lekin uni hukmronligi sustlashadi va boshqaruv doirasi torayadi. Unga quyidagilarni kiritish mumkin:

- urushlar;

- genotsid – butun bir millatni qirib yuborish;
- partiyalarning parchalanishi;
- davlat tuzumining ag‘darilishi.

Ijtimoiy inqirozlar – ko‘proq aholi, millat va xalqlarning dunyoviy va diniy qarashlari bilan bog‘liq ravishda kechadi. Ijtimoiy inqirozlar natijasida ma‘lum dinlardan odamlar yuz o‘giradi va boshqasiga o‘tadi, millatlar o‘z urf-odatlarini unutadilar, tillarini o‘lik tilga aylanishiga sababchi bo‘ladilar, aholining populyasiyasida – qarishning ko‘payishi, tug‘ilishning kamayishi va unga nisbatan o‘lim darajasini ko‘tarilishi kabi muammolar vujudga keladi. Unga quyidagilarni kiritish mumkin:

- diniy inqirozlar;
- milliy inqirozlar;
- aholining populyatsion inqirozlari, qarish darajasini ko‘tarilishi;

Tabiiy inqirozlar – bu insonni xohish irodasidan tashqarida shakllanadi va paydo bo‘ladi. Faqatgina ba’zi tabiiy inqirozlarni paydo bo‘lishiga inson sababchi bo‘lishi mumkin, lekin ularni to‘xtata olmaydi va boshqara olmaydi. Tabiiy inqirozlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- tabiiy boyliklarning yo‘qolib ketishi;
- turli tabiiy ofatlar;
- iqlim o‘zgarishi va boshqalar.

Iqtisodiy inqirozlar. Olimlar A.V.Vohobov, N.H.Jumayev va E.A.Hoshimovlar tomonidan iqtisodiy va moliyaviy inqirozlar haqida fikrlar bildirilgan. Ularning fikricha, iqtisodiy inqiroz retsessiyaga tenglashtirilgan.

Inqirozlarni miqyosi jihatidan ikki turini ajratib ko‘rsatish mumkin: makro va mikro darajadagi inqirozlar.

Makrodarajadagi inqirozlar moliya va iqtisod sohasidagi qarorlar real iqtisodiy qonuniyatlardan farqli ravishda qabul qilinganda muammolar ko‘zga ko‘rinmagan holda to‘planib borib katta “BUM” bilan boshlanadi. Bunga dunyodagi eng yirik inqirozlarni o‘rganib guvohi bo‘lish mumkin.

Bugungi kunda, dastlabki inqirozlar qaysi davlatlarda sodir bo‘lganligi va uni bartaraf etish mexanizmlarini izohlash bo‘yicha

olimlar o'rtasida ixtiloflar mavjud.

Ba'zi iqtisodchilar¹³ inqirozni bundan 2200 yil avval Qadimiy Rimda bo'lgan deb ta'kidlasalar, boshqalari AQSHda XIX asrda dastlabki inqirozlar paydo bo'lgan deb tushuntiradilar. Lekin bir narsani tan olib aytish kerakki, agar tarixiy chuqurlashib borilsa, Odam Ato va Momo Havolarning jannatdan quvilishini eng dastlabki insoniyatning inqirozi deb atash mumkin. Ammo masalani bunday tushunish ishni chigallashtiradi xolos.

Shu sababdan, inqirozlarning tarixini o'rganishda AQSHda 1857 yilda bo'lib o'tgan inqirozdan boshlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu qarashni Finansoviy direktor jurnalidan olingan ma'lumotlar ham tasdiqlagan.

Demak, eng birinchi inqiroz 1857 yil kuzda AQShda fond bozoridagi kotirovkalarning pasayishi natijasida vujudga kelgan. Inqiroz shu yilning o'zida Angliyani va keyingi yili esa Germaniyagacha bo'lgan hududni qamrab olgan. Bu inqirozning sababi ham bank tizimini asosiga shakllangan. Qisqa muddat ichida 200 ga yaqin banklar 6 oyga yopilgan. 1857 yilning 13 oktabr kuni banklar ertalabdan tushgacha bo'lgan davrda ishlagan va tushdan keyin o'zlarini bankrot deb e'lon qilganlar. Shuningdek inqirozdan yengil sanoat korxonalari va mashinasozlik sanoati korxonalari eng katta zarar ko'rgan.

1858 yillar oxiriga borib AQSh iqtisodiyoti inqirozdan qutulib o'sa boshlagan. Angliya banklari esa dastlab inqirozdan qutulish uchun qayta moliyalash stavkasini 2 baravarga oshirishga harakat qilganlar, bu ijobiy natija bermagach qo'shimcha banknotalarni emissiya qila boshlaganlar va bu 1858 yilning kuziga borib inqirozdan qutulish uchun imkon yaratgan.

Uzun inqiroz. 1873 yilning may oyida birjadagi tartibsizliklar natijasida Venada tarixdagi eng katta inqiroz boshlandi. Inqirozning sababi Avstro-Vengriya va Germaniyada mulkchilik bozorining tezkorlik bilan o'sishi bo'ldi. Uy solayotganlarga katta miqdorda kreditlar berilgan lekin ular oxir oqibatda qaytara olmagan. Yevropa birjalarida boshlangan vahima AQSh va keyinchalik Rossiya birjalariga

¹³ Попов А. Финансовый кризис 2009. Как выжить? / А. Попов. – М.: АСТ, СПб.: Астрел-СПб, 2009. – 218 [6]с.

ham ko'chib o'tdi. Ya'ni XIX asrning oxirlarida Avstro-Vengriya, Fransiya va Germaniya hukumatlari poytaxt qurilishlari uchun mablag' ajratishdi. Shu davrdan boshlab qurilish ishlari uchun alohida banklar loyihaga jalb qilindi va ipoteka qimmatli qog'ozlari birinchi marta emissiya qilinib sotuvga qo'yildi. Qurilish kompaniyalarining qarzlar tezkorlik bilan ortib bordi, unga qo'shilib ko'chmas mulkning bozor baholari ham ko'tarilib bordi. 1873 yil 9 mayda (чёрная пятница) qora juma kuni fond birjasida narxlar keskin tushib ketdi. 1873 yilning kuziga borib Yevropa va AQShda ishsizlik darajasi 25-30 %gacha ortib ketdi. Aholi o'rtasida vahima boshlandi.

Mazkur moliyaviy inqirozning bartaraf qilinishida Amerikalik taniqli bankirlardan biri Dj.P.Morganning o'rni katta bo'lgan. U hukumatga 62 mln.dollarlik oltin topshirgan. Natijada bu inqirozni yumshatdi va yangi korporatsiyalar tashkil topdi. Masalan, 1876 yilda Tomas Edison o'z laboratoriyasini ochdi. Bir qancha yil o'tgandan so'ng esa 1896 yilda tarixga birinchi kotirovka sifatida kirgan Dou Jons indeksi (Dov Jones Industrial Average) sifatida kirgan Edison Jeneral Elektrik Kompani tashkil topdi (Edison General Elektrik Kompany).

Buyuk inqiroz. Buyuk inqirozning sabablari haqida yagona fik mavjud emas. Asosiy sabablar etib: pul va tovar massasi o'rtasidagi disprporsiya; birja ko'piklari (ishlab chiqarishga keragidan ortiqcha investitsiya kiritish); import uchun bojxona bojini oshirib yuborilishi va natijada aholining to'lov qobiliyatini pasayib ketishi kabilar ko'rsatiladi. Inqirozdan eng katta talofat ko'rgan davlatlar AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya va Kanadadir.

Inqiroz shu darajada kuchayib ketganki, 1933 yilda har oltinchi odamning bittasi ishsiz qolgan. Sanoatda ishlab chiqarish 3-4 barobarga pasayib ketgan. Buyuk inqiroz 1929-1933 yillarini qamrab olgan.

Inqirozdan chiqish uchun asosiy choralar sifatida sanoat davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan, banklar soni qisqartirilgan va dollar kursi pasaytirilgan.

Energetika inqirozi. Energetika sohasidagi eng katta inqiroz Suriya va Misr Isroil bilan urushganda 1973 yilning oktabrida sodir bo'lgan. OPEK davlatlari neft qazib olishni kamaytirgan va AQSh,

Gollandiya hamda Isroilning ittifoqdosh davlatlariga neft narxini 70 foizga oshirib yuborganlar. AQSHda ishsizlar soni 15 mln. odamga etgan. Shu davrdan boshlab mutaxassislikni o'zgartirish bo'yicha qayta o'qitish va malaka oshirish kurslari tashkil topa boshlagan. Bu ishga birinchi bo'lib Universitet o'qituvsi Djon Sperling asos solgan. AQShning 85 foiz aholisi shu davrda shaxsiy avtomobilga ega edi. Shu sababli yoqilg'i quyish shahobchalarida avtomobillar qatori bir necha chaqirimgacha cho'zilib ketgan. Avstriya Germaniya Federativ Respublikasida avtomobillarni yurishini ta'qiqlab ham qo'yilgan.

“Qora dushanba”. 1987 yilning 19 oktabrida Dou Jons indeksi (Dov Jones Industrial Average) keskin tushib ketgan. Amerika fond bozorining vahimali to'liqini natijasida bir qancha katta transmilliy kompaniyalarning kapitalizatsiyasini umumiy darajasi pasayib ketgan va Avstraliya, Yangi Zenlandiya, Gonkong, Janubiy Koreya va boshqa Lotin Amerikasi davlatlarining birja kotirovkalari tushib ketgan. To'g'ri keyingi kuni indeks 12 foizga ko'tarilgan. Bundan keyingi davrlarda ham indeks doimiy ravishda ko'tarilib tushib turgan, lekin inqiroz yuz bergan kuni davlatning moliya sektori izdan chiqib ketgan. Natijada 15 ming broker va treyderlar ishsiz qolgan. Shundan so'ng, Dou Jons indeksi 1989 yildagina o'zining oldingi mavqeyiga qaytgan.

1990 yillarda ham Rossiyada, Osiyoda yana bir qancha shu kabi katta-kichik inqirozlar yuz bergan. Ularning ham asosiy sabablari bank-moliya tizimining shikastlanishiga borib taqaladi.

Mikrodarajadagi inqirozlar ham ma'lum davrlar oraliq'ida sodir bo'lishiga qaramasdan makro inqirozlardan farqli ravishda kichik hajmdagi miqyosni qamrab oladi. Mikro inqirozlar asosan korxona, tashqilot va firmalarning inqirozlari darajasida tavsiflanadi. Ular asosan inqirozning iqtisodiy turiga mansub bo'lib, uning sababi nima bo'lishidan qat'i nazar obyektga moddiy zarar yetkazish bilan yakunlanadi. Mikro inqirozlarga: korxonalarning iqtisodiy nochorlikka tushib qolishlari; tarkibiy o'zgartirilishi; tugatishga doir ish yuritilishi; boshqa korxonalar tarkibiga qo'shilib ketishi kabilarni kiritish mumkin.

Mikro inqirozlarning zarari makro miqyosdagi kabi katta bo'lmasligi mumkin, ammo o'z vaqtida oldi olinmasa u kattalashib


makrodarajadagi inqirozlarga aylanib ketishi muqarrar. Shu sababdan, inqirozning alomati vujudga kelishi bilan u bilan kurashish choralarini ko'rib qo'yish talab etiladi. Aslida har bir korxonada inqiroz xavf solmagan taqdirda ham unga qarshi immunitetni ishlab chiqish u bilan kurashishni yengillashtiradi.

Mikro inqirozlar aksariyat hollarda, noto'g'ri qabul qilingan qaror natijasida vujudga keladi. Qarorning darajasi va holati qandayligiga qarab inqirozning miqyosi belgilanadi.

Professor E.M. Korotkova tahriri ostida Moskvada chop etilgan "Inqirozga qarshi boshqaruv" darsligida yozilishicha, inqirozlarning turlari va oqibatlarini qanday bo'lishi uni olib kelgan sababga bog'liq. Inqirozlarning bunday turkumlanishi ularning xarakteri, sabablari va oqibatiga qarab turkumlanadi (1.1-chizma).

1.1-chizmadan ko'rinadiki, inqirozga qarshi boshqaruvning samarali tashkil etilishi inqirozlarning sabablari, tavsifi va oqibatlariga bog'liqdir. Inqiroz sabab natijasida shakllanadi. So'ng uning xarakteri (tavsifi) ya'ni turi vujudga keladi hamda sabab va tavsif o'zaro inqirozning oqibatini tashkil etadi.

1.1-chizmada inqirozning sabablari umumiy tartibda berilgan, ular: obyektiv, subyektiv; ichki, tashqi; tasodifiy, qonuniy; notabiiy va tabiiy kabilardir. Natijada inqirozlar xarakteriga qarab: yengil, og'ir; qisqa muddatli, uzoq mudatli; mahalliy, umumiy; yashirin, ochiq bo'lishi mumkin. Inqiroz oqibatini esa og'ir yoki yengil bo'lishi undan oldingi ikki omilga bog'liq. Muallif inqirozni shu tariqa tushuntirib, inqiroz namoyon bo'lishining har qanday shakli uning oqibatini yengil yoki og'ir bo'lishiga ishora qilgan. Darhaqiqat, inqirozni o'rganishning maqsadi ham u bilan kurashishni yengillashtirish maqsadida amalga oshiriladi. Chizmada inqirozning turlari ham keltirilgan bo'lib ular bilvosita sabab, tavsif va oqibat natijasida namoyon bo'lishi aytilgan. Dastlab inqirozning tabiiy, jamoaviy va ekologik turlari ko'rsatilgan. Jamoaviy inqirozlarga ijtimoiy tus berib uni: tashqiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik va texnologik guruhchalarga bo'lingan. 1.1-chizmada inqirozga makro va (yoki) mikro darajada emas, balki umumiy tomondan yondoshilgan.



1.1-chizma. Inqirozlarning turkumlanishi

1.3. Iqtisodiy va moliyaviy inqirozning asosiy sabablari

Iqtisodiy inqiroz - tovar va xizmatlarga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi muvozanatning buzilish holatidir. Iqtisodiy inqirozning oqibatlari sifatida real YaMMning kamayishi, ommaviy bankrotlik va ishsizlik, aholi turmush tarzining pasayishi kabilarni keltirish mumkin.

Iqtisodiy inqiroz (retsessiya) – iqtisodiyotning shunday holatiki, mamlakat yalpi ichki mahsulotining mutloq hajmi kamida ikki chorak mobaynida ketma-ket qisqaradi. Iqtisodiy inqiroz bozor iqtisodiyotiga xos hodisa bo'lib, ma'lum davriylik bilan takrorlanib turadi.

Iqtisodiyot nazariyasida iqtisodiy inqiroz deganda, mamlakat iqtisodiy holatining birdaniga yomonlashuvi tushunilib, u ishlab

chiqarishning keskin pasayishi, ishlab chiqarish aloqalarining buzilishi, korxonalarning bankrotligi, yoppa ishsizlik, milliy valutaning devalvatsiyalanishi, kapitalning qochishi, aholi turmush tarzining pasayishi kabilarda namoyon bo'ladi.

Moliyaviy inqiroz ma'lum bir moliyaviy instrumentning qiymati kutilmaganda keskin pasayishi, shuningdek, pulning yetishmasligi holatini ifodalashda qo'llaniladigan tushunchadir. Bundan tashqari, mazkur tushuncha moliya bozorida, xususan, fond bozorida moliyaviy aktivlar bahosining noxolis shakllanishi natijasida yuzaga kelgan **"sovun ko'piklari"**ning **"yorilishi"** holatini ifodalashda ham qo'llaniladi.

Moliyaviy inqiroz – bu davlat moliya mexanizmining tizimli buzilishi bo'lib, bunda inflyasiya ko'rsatkichining sezilarli darajada o'sishi, qimmatli qog'ozlar bahosining beqarorligi, byudjet daromadlarining uning xarajatlariga nisbatan keskin nomuvofiqligi, milliy pul birligining almashuv kursining beqarorligi va pasayishi, iqtisodiy subyektlar o'rtasida to'lovsizlik muammosining kuchayishi, kapitalning mamlakatdan tez sur'atlarda chiqib ketishi, muomaladagi pul massasining pul muomalasi qonuni talablariga mos kelmasligi kabilar kuzatiladi.

Moliyaviy inqiroz – fond bozori hajmining 20% dan ortiq kamayishi, banklararo kredit bozorida foiz stavkalarining ikki marta oshishi, milliy valuta kursining 10% dan ortiq pasayishi holatidir¹⁴.

Shunday qilib, iqtisodiy inqirozlar – o'z ichiga davlatning pul-kredit, moliya, byudjet va iqtisodiy sohalarini, shu bilan birgalikda korxonalarning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasi, pirovard natijalari va to'lovga qobillik darajalaridagi tushkunliklarni olib davlat va korxona iqtisodiyotini orqaga ketishi uni rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillarni paydo bo'lishi tushuniladi. Iqtisodiy inqirozlar foiz stavkasining ko'tarilishi, iste'mol tovarlarini kamayishi va narxlarining ko'tarilishi, moddiy resurslarni taqchilligi, ishlab chiqarish darajasining pasayishi, retsessiya, disproporsiya, va boshqa umumiy iqtisodiy

¹⁴ А.В. Вахобов, Н.Х. Жумаев, Э.А. Хошимов Жаҳон мoliyaviy-iqtisodiy inqirozi: sabablari, xususiyatlari va iqtisodiyotga ta'sirini yumshatish yo'llari. T.: "Akademnaشر"-2009. – B. 23-24.

ko'rsatkichlarni pasayishi oqibatlarini paydo bo'lishi bilan tushuntiriladi. U iqtisodiyotning bosh muammosi "Resurslarning taqchilligi va ehtiyojlarning cheksizligi" sharoitida yuzaga keladi. Sababi resurslarning taqchilligi sharoitida faoliyat olib borayotgan davlat va uning subyektlari doimiy ravishda turli umumjamiyat muammolariga va to'siqlariga duch keladi. **Mazkur muammolarga duch kelishning o'zi inqiroz.** Undan chiqib keta bilmaslik esa, inqiroz muddatini uzaytiradi. Iqtisodiy inqirozlar o'z ichiga quyidagilarni oladi:

✓ **Moliyaviy inqirozlar** – bu muomaladagi pul massasini ortib ketishi, davlat byudjetini taqchilligi, qimmatli qog'ozlar kursini tushib ketishi, investitsiyalarni susayishi, valuta qadrini pasayishi kabilardir;

✓ **Narxlarni ko'tarilashi oqibati yuzaga keladigan inqirozlar** – bu aholini to'lov qobiliyatini va real daromadlarini pasayishi hisoblanib, yashash farovonligini tushib ketishiga olib keladi. Shu bilan birgalikda xomashyoni ham narxini oshib ketishi va ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ham tannarxini ortish evaziga bozor narxlarini ko'tarilishidir. Bunday inqirozlar davlat miqyosida nisbatan boshqalariga qaraganda bozor iqtisodiyoti sharoitida og'ir kechadi. Sababi erkin bozor narxlarining mavjudligi narxlarni jilovlash imkoniyatini davlat qo'lidan olib qo'yadi;

✓ **Disproportsiya** – bu iqtisodiyotdagi muvozanatlarni buzilishi hisoblanadi. Masalan, tovar va pul o'rtasidagi bog'liqlikni yo'qolishi va tovarni pulga nisbatan yoki pulni tovarga nisbatan bir necha barobar o'sib ketishi. Bunda agar pul tovarga nisbatan o'sib ketsa, narxlar ko'tarildi va inflyatsiya darajasi oshib ketadi. Agar tovar pulga nisbatan ko'tarilib ketsa, jamiyatda defdeflyatsion jarayonlar yuz beradi. Aylanuvchanlik pasayadi va u oxir oqibat ishsizlikni ortib aholi daromadlarini pasayishiga ham olib kelishi mumkin. Shu sababli iqtisodiyotdagi barcha ko'rsatkichlar proporsional tartibda ushlab turishga harakat qilinadi;

✓ **Retsessiya** – bu ikki kvartal yoki 180 kun davomida davlatni YalMni yoki boshqa ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish ko'rsatkichlarini pasayshidir. Retsessiya ishsizlikni ortishi va ishlab

chiqarish quvvatlaridan maksimal darajada foydalanilmagan holatlarda vujudga keladi;

✓ **Moddiy resurslarning taqchilligi natijasida vujudga keladigan inqirozlar.** Bu kabi inqirozlar jahon iqtisodiyotida tez-tez kuzatilib turiladi. Natijada taqchil resursni narxi oshadi yoki undan o'z ishlab chiqarish jarayonida foydalanayotgan korxonalar faoliyatini to'xtatishga majbur bo'ladi;

✓ **To'lovga noqobillik** – bu korxonalarning inqirozli holatlari bilan bog'liq tushuncha bo'lib, o'z majburiyatlarini bajarishga imkon bo'lmagan holatlarda vujudga keladi;

✓ **Bankrotlik** – bu korxonalarni o'z qarz majburiyatlarini aktivlari bilan qoplay olmaganliklarida vujudga keladi. Bankrotlik tushunchasi juda ham keng tushunchalardan biri bo'lib, butun dunyoda iqtisodiy nochor korxonalarga nisbatan ishlatiladi.

Inqirozga qarshi boshqaruvda korxonadagi inqirozni yuzaga kelishiga sababni topmasdan va uni turini aniqlamasdan turib u bilan kurashish samara bermaydi. Demak, inqirozga qarshi boshqaruvning eng birinchi sharti uni vujudga keltirgan sababni o'rganishdan boshlanadi.

Ko'plab iqtisodchilar korxona miqyosidagi inqirozlarning sababi marketing sohasidagi kamchiliklardan paydo bo'lishini ta'kidlaganlar. Korxonaning ishlab chiqarish va bozor faoliyati o'rtasidagi ma'lumot almashinuvining buzilishi yoki uzilishlar u yoki bu darajadagi muammolarni paydo bo'lishiga olib keladi. Bu muammolar ishlab chiqarilgan mahsulotlarning turib qolishi, aylanma mablag'larning aylanuvchanligini pasayishi, pul oqimining yetarli emasligi kabilarda hosil bo'ladi. Natijada korxona faoliyatiga inqiroz xavf sola boshlaydi.

Inqirozni vaqtida oldi olinmasa, o'zidan keyin boshqa inqirozlarni ham multiplikatsiya ko'rinishida shakllantiradi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, inqirozni vujudga keltiruvchi sabablar ko'p bo'lib, eng katta sabab inqirozni o'zi hisoblanadi. Inqirozga olib keluvchi sabablarni turkumlansa, xususiylarini aniqlash mumkin.

Lekin olimlar o'rtasida inqirozga olib keluvchi sababalar turkumini belgilab olishda yagona nuqtai nazar keltirilmagan. Chunki, inqirozlarning sababi bir xil bo'lmaydi. Inqirozlar to'planib qolgan xato

va kamchiliklar hisobiga paydo bo'ladi. Shuning uchun bitta tan olingan sabablar tizimi keltirilmagan. Bu fikrni Rossiyalik iqtisodchi olimlar¹⁵ o'z ilmiy ishlarida tasdiqlab o'tishgan. Shuningdek, inqirozga olib kelgan sabab oqibatini tahlil qilishda aniqlanadi. To'g'ri ba'zi inqirozlarni iqtisodiy jarayonlarning borishiga qarab oldinidan taxmin qilish mumkindir, lekin inson omili bilan bog'liq inqirozlarni bu kabi bashoratlab bo'lmaydi. Ularni faqatgina oqibati natijasida aniqlanadi.

Inqiroz sabablarini o'rganishda ba'zi olimlar¹⁶ uni to'lovga qobiliyatsizlikning kelib chiqishi deb ta'riflaydilar. U holda, uning sababi ishlab chiqarish va bozor o'rtasidagi nomutanosiblik emas, balki majburiyatlarni aktivlardan ortib ketishida namoyon bo'ladi. Unda e'tibor korxona moliyasini izdan chiqishiga qaratilib moliyaviy jarayonlarning tuzilmasi o'rganiladi. To'lovga noqobillik yoki inqiroz sabablari deb ajratish to'g'riligi haqida mushohada yuritib aytish mumkinki, korxonaning to'lovga layoqatsizlikka tushib qolishi inqiroz hisoblanadi. Bu inqirozning dastlabki bosqichidir. Negaki, korxonalarining iqtisodiy-moliyaviy faoliyati tashxislanayotganda asosan to'lovga layoqatsizlik tahlil qilinadi. Balki shu sababdan ham to'lovga layoqatsizlik sababi deyilar. Unda sabablarni o'zini ikki turkumga bo'lib o'rganish zarurati vujudga keladi: to'lovga layoqatsizlik sababi; inqiroz sababi. Agarda korxona to'lovga layoqatlilik tiklanmasagina inqiroz sabablari o'rganiladi. Inqiroz yoqasidagi korxona o'zini tiklab olsa, u holda to'lovga layoqatsizlik sabablari o'rganilgan bo'ladi. Lekin bunday tushunish o'zak tushunchadan fikrni uzoqlashtiradi. Masalani tub mohiyatiga etish uchun ishlab chiqarishni turib qolishi foydani kamaytiradi va oqibatda majburiyatlar to'lovini kechiktiradi deb izohlasa bo'ladi. Ammo inqirozni boshqa sabablari ham borki, ular faqatgina ishlab chiqarish bilan bog'liq emas. Ular ham majburiyatlarni vaqtida bajarilishiga to'sqinlik qiladi va barcha sabab to'lov layoqatini pasayishi va oqibatda inqirozni vujudga keltiradi. Shu sababdan ham,

¹⁵ Бабушкина Йе. А. Антикризисное управление: конспект лекции / Й. А. Бабушкина, О. Ю. Бирюкова, Л. С. Верещагина. – М.: Эксмо, 2008. – 160 с. – (Екзамен в кармане)

¹⁶ Жарковская Йелена Павловна Антикризисная управления: Учебник – 4-е изд., - М.: Омега – 2007. – 365 с.

menejment nuqtai nazaridan inqiroz sabablari, tahlil nuqtai nazaridan to'lovga layoqatsizlik sabablari deb atash maqsadga muvofiqdir.

Korxonalarni inqirozga olib keluvchi sabablar shaxslarning ta'siriga bog'liq holda obyektiv va subyektiv turlarga bo'linadi. Obyektiv sabablar ko'proq tabiiy holatda yuz beradigan inqirozlarni shakllantiradi. Masalan, korxona tomonidan ishlab chiqilgan mahsulotni urfdan qolishi, fan texnika taraqqiyotida orqada qolish va sh.k. Subyektiv sabablar insonning ta'siri natijasida ataylab yoki sun'iy ravishda inqirozni uyushtirish tushuniladi.

Inqirozga olib keluvchi sababalarni korxona ta'sir doirasidaligiga qarab tashqi va ichki turlarga ham bo'lish mumkin. Ichki sabablar korxonaning qaror qabul qilish qamrovi bilan o'Ichansa, tashqi sabablar korxona ta'sir doirasidan tashqarida bo'lib ularni boshqarib bo'lmaydi.

Inqirozga olib keluvchi ichki sabablarga quyidagilarni kiritish mumkin:

Birinchidan, kadrlar malakasini pastligi. Bu omil korxonani kadrlari bilan bog'liq muammolarni vujudga keltiradi. Hozirgi kunda juda ko'plab Farg'ona viloyatidagi yengil sanoat korxonalarida marketing tadqiqotlari, amaliyotga asoslangan biznes-rejalar tuzish, boshqaruv faoliyatini samarali yo'lga qo'yish, ishlab chiqarish jarayonini rekonstruksiya qilish yoki bozor talablariga mos qayta qurollantirish va shu kabi ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirishda mavjud korxonalardagi kadrlar malakasini va kvalifikatsiyasini pastligi to'sqinlik qilmoqda. Natijada, investitsiya yangi kiritilgan korxonalar ham ichki boshqaruvda malakaning etishmasligi oqibatida inqirozga yuz tutmoqda;

Ikkinchidan, mehnat intizomining yomonligi. Korxona ishlab chiqarish jarayonida eng katta va ahamiyatli ulushni asosiy ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi mehnat jamoasi egallaydi. Bu jamoa – asosiy vosita va xomashyoni o'zaro harakatga keltirib mahsulot ishlab chiqaradi. Shu sababli ham korxonalarda mehnat jamoasidagi tartib buzarlilar va ishga layoqatsizlik bilan yondoshish, guruhbozlik, ishga vaqtida kelmaslik va erta ketish kabi illatlar jamoadagi ijobiy ruhiy muhitni buzadi va natijada ishchilar o'rtasida ishga bo'lgan qiziqish

yomonlashadi. Bu kabi omillar korxonadagi mehnat intizomini buzilishiga yaqqol misol bo'la oladi. Bu hol faqatgina mahsulot ishlab chiqaruvchi ishchilar o'rtasidagina emas, balki, ma'muriyat hodimlari o'rtasida ham sodir bo'ladi va vaqtida oldini olmaslik keyinchalik korxonani talon-taroj bo'lib ketishiga ham sabab bo'ladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda yengil sanoat korxonalarida ma'muriyat hodimlari o'rtasida mehnat intizomi ko'proq guruhbozlik natijasida buzilsa, ishchilar o'rtasidagi intizom ularni orasida yosh ishchilarni ko'p bo'lishi sababidan buzilmoqda;

Uchinchidan, mahsulot sifatining yomonligi. Korxona bozorda va raqobatchilar ichida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi ishlab chiqarilayotgan mahsulotni xaridorgirligi va sifatiga bog'liq. Agarda mahsulot sifati yomon bo'lsa, korxona mahsulotiga bo'lgan talab pasayadi, natijada aylanma mablag'larning aylanuvchanligi susayib bu keyinchalik korxonaga naqd pul mablag'larni yetishmasligiga sabab bo'ladi. So'ng korxonada tayyor mahsulotni ushlab turish bilan bog'liq xarajatlar ko'payadi, majburiyatlar summasi ortib boradi va korxonani to'lov qobilligi pasayib bankrotlik alomatlari vujudga keladi. Bu holat ham xozirda Farg'ona viloyatidagi yengil sanoat korxonalarida, ayniqsa payabzal ishlab chiqaruvchi korxonalarda ko'zga tashlanmoqda. Texnika-texnologiyaning eskiligi, mahsulot sifatining yomonlashishiga sabab bo'lmoqda va korxonalarimizni raqobatda chet davlatlarining mahsulotlarga bozorni boy berib qo'yishlariga olib kelmoqda;

To'rtinchidan, ishlab chiqarishda braklarni va chiqindilarni ko'payib ketishi. Ishlab chiqarishda brak va chiqindilar ko'proq ishlab chiqarish texnologiyasi noto'g'ri tanlanganda va ishchilarning malakasi past bo'lganda vujudga keladi. Bu holat ishlab chiqarish xarajatlarini ortishiga, korxonaning pirovard natijasi bo'lgan sof foydani kamayishiga rentabellikni tushib ketishiga sabab bo'ladi;

Beshinchidan, ishlab chiqarish texnika-texnologiyasining eskiligi. Ishlab chiqarish quvvatlarining eskiligi va ularni yangilash muammosi hozirgi kunda sobiq ittifoqdan ajralib chiqqan davlatlarda kuzatilmoqda. Boshqa bozor iqtisodiyotiga erta qadam qo'yan davlatlarda esa ishlab chiqarishini yanada o'stirish maqsadida inson

ongiga ruhiy ta'sir masalalariga e'tibor qaratilmoqda. Bizda ham eng katta muammolardan biri – texnika-texnologiyaning eskiligi muammosi bo'lib u boshqa salbiy holatlarni ham vujudga keltirmoqda;

Oltinchidan, norentabel ishlab chiqarish darajasining o'sishi. Norentabel ishlab chiqarish darajasini o'sishi o'z navbatida rentabellikni va ishlab chiqarishning samaradorligini pasaytiradi. Bu holat ham yuqoridagi omillar natijasida sodir bo'ladi;

Yettinchidan, kreditorlik qarzdorlikni ortib ketishi va ularni qaytarish imkoniyatining mavjud emasligi. Bu ichki sababni korxona moliyasini uquvsiz boshqarish deb atasa bo'laveradi. Mahsulotning bozorda sotilmasligi korxona aylanma mablag'larini aylanuvchanligini pasaytirishi haqida so'z yuritilgan edi. Ayni shu jarayon, korxonada naqd pul muammosini vujudga keltiradi va qarzdorlik massasini ortib ketishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari qarzdorlik massasini ortib ketishiga tashqi sabablar ham mavjud bo'lib, ulardan biri davlatning valuta-kredit siyosatini natijasida milliy valuta kursini chet el valuta kursiga nisbatan pasayib ketishidir.

Inqirozga olib keladigan tashqi sabablar korxonaning boshqaruv muhiti va imkoniyatidan tashqarida sodir bo'lib, ularni boshqarishni deyarli imkoniyati yo'q. Faqatgina korxona ichki imkoniyatlarini ishga solib ularga nisbatan immunitet hosil qilishi mumkin. Shu sababli ham, korxona tashqi muhitni esdan chiqarmasdan uni doimo kuzatib borishi va har qanday holatga tayyor turish maqadga muvofiqdir. Inqirozga olib keluvchi tashqi sabablarga quyidagilar kiradi:

Birinchidan, bozordagi raqobat. Bozorda raqobatning kuchayishi korxona faoliyatini passivlashtiradi va aylanma mablag'larni aylanuvchanligini susaytiradi. Korxona boshqa raqobatchilarini boshqara olmaydi, bozorda mag'lub bo'lmasligi uchun esa ichki imkoniyatlarni ishga solishga to'g'ri keladi;

Ikkinchidan, bozor narxlarini tannarxdan pasayib ketishi. Mahsulot narxini bozorda tannarxdan pasayib ketishi raqobatchilar tomonidan dumping qo'llanilayotganligini bildiradi. Bu esa korxonani ma'lum davr zararga faoliyat ko'rsatishga majbur qiladi.

Uchinchidan, haridorlarni e'tiboridan chetda qolish. haridorlarni e'tiboridan chetda qolishni sabablari ko'p ulardan biri reklama faoliyatini mukammal yo'lga qo'yilmaganligi bo'lsa, ikkinchisi, mahsulot sifatini yomonlashuvi. Bu holat haridorlarga ta'sir yuzasidan tashqi sabab, lekin korxona sifati va reklama faoliyatini boshqarish yuzasidan ichki sababdir;

To'rtinchidan, korxona faoliyatiga qarshi qonunchilikning shakllanishi. Bunday holat kamdan kam uchraydi. Qachonki korxona aholi va davlat manfaatlariga zid bo'lgan mahsulot ishlab chiqarsa yoki xizmat ko'rsatsa, unga nisbatan davlat tomonidan qarshi qonunchilik joriy etilishi mumkin va (yoki) monopoliyaga qarshi qonunchilik;

Beshinchidan, davlat pul-kredit siyosatini yomonlashuvi va valuta kursidagi salbiy farqni o'sib ketishi. Pul-kredit siyosatini yomonlashuvi xorijiy valutada kredit olgan yoki xorijiy davlatlardan mahsulot sotib oladigan korxonalarni faoliyatiga jiddiy moliyaviy xavfni soladi. Chunki ular valuta kursini pasayshi va xorijiy valutani kursini ortishi hisobiga valuta kursidan katta zarar ko'radilar. Bunday holatda korxonani jami aktivlari majburiyatlarni qoplash evaziga emirilib ketish xavfi ostida qoladi;


Oltinchidan, xomashyoning sifatsizligi. Hom-ashyoni sifatsizligi hamkor korxonalarni faoliyati bilan bog'liq holda bo'lib korxona buni boshqara olmasada bundan qutilishi mumkin. Chunki, sifatsiz xomashyo mahsulot sifatini pasaytiradi va ishlab chiqarishda braklarni ko'payib ketishiga ta'sir qiladi;

Yettinchidan, eng kam ish haqini ko'tarilishi. Minimal ish haqini ham ko'tarilishi korxonaning borshqaruv jarayonidan tashqarida bo'lib, uni davlat miqyosida ko'tarilishi korxona xarajatlarini oshirishiga majbur qiladi. To'g'ri, eng kam ish haqi faqat davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan tashqilotlarning ishchilariga belgilansada, boshqa korxonalar ham majburiy ravishda uni oshiradilar. Chunki, oshirmasalar ishchilar tomonidan turli xil noroziliklar va ish tashlashlar bo'lishi va keyinchalik ham baribir oshirishga majbur bo'lishlari mumkin;

Sakkizinchidan, transport xarajatlarini ko'tarilishi. Transport xarajatlari soliqlar, to'lovlar yoki yoqilg'i narxlari ko'tarilganda ortadi.

Bu korxonani mahsulot tannarxini ortishiga yoki boshqa xarajatlarni ortishiga sababchi bo'ladi va natijada korxona yo narxni ko'taradi yoki xarajatlarni sof foydani ma'lum qismini kechishi evaziga qoplaydi;

To'qqizinchidan, iqlimni yomon kelishi va korxona mavsumiyligi ritmini buzilishi. Agar korxona mavsumiy mahsulot ishlab chiqarsa unga yillik iqlimni qanday kelishi juda ham muhim. Chunki, iqlimni yomon kelishi ayniqsa agrosanoat majmuasi tarkibiga kiruvchi korxonalarga yoki shu kabi faoliyat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqdagi korxonalarga juda jiddiy ta'sir qilishi mumkin;



1.2-chizma. Inqirozlarning bo'lishi mumkin bo'lgan oqibatlari

O'ninchidan, debitorlik qarzdorlikni kutilmaganda o'sib ketishi va qaytishini kechiqishi. Ko'p korxonalarning rivojlanishi o'zaro zanjir sifatida bir-biriga bog'liq bo'ladi. Chunki, hech qaysi

korxona oldindan to'lov evaziga bozorda samarali faoliyat ko'rsata olmaydi. Ba'zida korxonalar turib qolgan yoki boshqa tovarlarini o'z hamkorlariga tavakkal bo'lsada, kreditorlik qarzi hisobiga sotishga majburlar. Chunki ba'zi tovarlar turgani sari o'z sifatini yo'qotadi va korxonaga katta zarar keltirish mumkin. Qarzga tovar sotish korxona aktivlarini aylanuvchanligini oshiradi, agarda o'z vaqtida qarzarlar to'lansa, aks holda korxonaning to'lov qobiliyati pasayishi va u ham bankrotlik yoqasiga kelib qolishi mumkin. Sanoat korxonalarini inqirozga olib keluvchi sanab o'tilgan sabablar korxona umumiyqtisodiy muvozanatini buzadi. Moliyaviy qiyinchilik sifatida korxona xo'jalik faoliyatida vujudga keladi. Oqibatlarni quyidagicha guruhlashtirish mumkin (1.2-chizma).

Rasmdan ko'rinadiki, inqiroz oqibati korxona darajasida ko'p hollarda salbiy ta'sirlar qoldiradi. Ba'zi hollardagina, undan yumshoq chiqish mumkin.

Iqtisodiy-moliyaviy inqiroz oqibatlarini korxona miqyosida ixtisoslashtirilganda quyidagi oqibatlarga olib kelishi mumkin:

- ✓ Aylanma mablag'lar debitor va tayyor mahsulot sifatida turib qolishi;
- ✓ Debitorlik va kreditorlik qarzdorligini proporsional oshib ketishi;
- ✓ To'lov muddati 3 oydan o'tib ketgan kreditorlik qarzlarini ortishi;
- ✓ Operatsion va moliyaviy faoliyatdan sof pul oqimlarini kamayishi;
- ✓ Moliyaviy ta'minotning sustlashuvi;
- ✓ Korxona byudjeti rejasini xarajatlar ko'payib ketishi hisobiga bajarilmasligi;
- ✓ Majburiyatlarni joriy aktivlardan ortib ketishi;
- ✓ Korxona majburiyatlarini o'z mablag'lari hisobiga qoplay olmasligi;
- ✓ Investitsion faollikni pasayishi;
- ✓ Asosiy vositalarning eskirgan qismini ko'payishi;
- ✓ Tartibsizliklar va talon-tarojning vujudga kelishi va sh.k.

Sanoat korxonalari faoliyatiga xavf solyotgan inqirozni o'z vaqtida oldi olinmasa, uning oqibatlari ijtimoiy darajadagi muammolarni ham olib keladi.

O'tkazilgan tadqiqotlar va olib borilgan ishlardan ko'rinadiki, korxona faoliyatini bir qadar insonning korxonadagi harakatiga bog'lash mumkin. Korxona faoliyati bevosita inson hayoti bilan o'xshash tomonlari ham mavjud. Bu bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlardan E.P. Jarkovskiy va B.E. Brodskiylarni fikricha¹⁷ inson hayoti va korxona faoliyati o'rtasida ma'lum tomondan bog'lanish mavjud. Bu bog'lanish 10 ta bosqichga bo'lib ko'rsatilgan. Uni quyidagi jadval yordamida ifodalash mumkin (1.1-jadval).

1.1-jadval

Inson hayoti va korxona faoliyatining bosqichlari

Inson hayoti va korxona faoliyatining bosqichlari		
№	Inson hayoti bosqichlari	Korxona faoliyati bosqichlari
1.	Insonni dunyoga kelishi	Korxonani ro'yxatdan o'tkazish
2.	Insonni o'sib ulg'ayishi, rivojlanishi	Korxonani rivojlanishi va o'sishi
3.	Ota-ona sifatida farzand ko'rishi	Sho'ba korxonasini tashkil etilishi
4.	Insonda turli xil kasalliklarni paydo bo'lishi	To'lovga noqodirlik va moliyaviy nobarqarorlik alomatlarini paydo bo'lishi
5.	Kasalligi bo'yicha insonni tahlil qilish va tashxis qo'yish hamda uni davolash uchun dori-darmonlar ro'yxatini tuzib chiqish	Korxona faoliyatini biznes diagnostikasini amalga oshirish va uni barqarorligini tiklash uchun tadbirlar ishlab chiqish
6.	Dori-darmonlarni qabul qilish asosida insonni sog'ayishi	Diagnoz natijasida belgilab berilgan tadbirlarni moliyaviy sog'lomlashtirishni amalga oshirish uchun tatbiq etish
7.	Inson sog'ligini yomonlashuvi,	Doimiy takrorlanib turuvchi

¹⁷ Жарковская Йелена Павловна Антикризисное управления: Учебник – 4-е изд., - М.: Омега – 2007.– 365 с.

	davolash tadbirlarini yordam bermaligi	moliyaviy nobarqarorlikni yomonlashuvi
8.	Insonni saqlab qolish uchun jarrohlik operatsiyasini o'tkazish	Norentabel ishlab chiqarishni qisqartirish
9.	Qayta jonlantirish bo'limida saqlash	Inqirozli holatni paydo bo'lishi
10.	Insonnig vafoti	Tugatishga doir ish yuritish

1.1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, inson hayoti singari korxona faoliyatida ham murakkab vaziyatlar ko'plab uchrab turadi. Bu holatlarni bartaraf etish uchun esa oldindan tayyorgarlik qilib borish muhimdir.

Makroiqtisodiy va global inqirozlarning asl sababi insonlarning boshqaruvni bilmasligida emas, balki tabiiy iqtisodiy qonuniyatlarni amaliyotga tatbiq etilishidagi to'planib qolgan kamchiliklardadir. Buni hamma ham tushunmasligi mumkin. Ya'ni har qanday iqtisodiy qonuniyat real hayotda huddi nazariyadek amal qilmaydi. Uning amalga oshirish jarayonidagi kamchiliklar esa to'planib borib kuchayadi va inqiroz sifatida chiqib ketadi. Buni huddi vaqtga o'xshatish mumkin. Ya'ni bir yil 365.25 kundan iborat. Har to'rt yilda esa u vaqtdagi bir kunlik hatoga aylanadi. Shu hatoni bartaraf etish uchun esa kabisa yiliga asos solingan. To'rtinchi yil 366 kun sifatida belgilanadi va vaqtning hatoligi tuzatiladi.

Shunday ekan, inqirozning mohiyatini tushunish uni butunlay insoniyatning lug'atidan chiqarib yuborish uchun emas, balki u vujudga kelgan davrda unga qarshi tura olish va uni tezkorlik bilan bartaraf etish uchungina kerakdir. Inqirozni hech qachon butunlay yo'q qilib bo'lmaydi, uni profilaktika qilish mumkin. Inqiroz bo'lmagan vaqtlarda uni o'rganmaslik va inqiroz yuzaga kelishi bilan hamma uni o'rganishga intilishi tabiiy holdir.

Sanoat korxonalarida inqirozga qarshi immunitetni joriy etish uchun esa doimiy ravishda korxona faoliyatini nazorat qilib borish va mavjud muammolarni o'z vaqtida hal etib borish lozim. Korxona hodimlarida qabul qilinayotgan qarorlarning barchasi inqirozga qarshi

kurashishning ko‘rinishi degan tasavvurni ham shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

1.4. Antiinqiroziy boshqaruvning tushunchasi va mohiyati

Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik bilan shug‘ullanish bir muncha murakkabdir. Ayniqsa raqobatli bozor sharoiti har qanday faoliyatni izdan chiqarib, korxonaning inqirozga yuz tutishiga olib kelishi mumkin. Ushbu omillar boshqaruv nazariyasi va amaliyotiga “antiinqiroziy boshqaruv” tushunchasining kirib kelishiga turtki bo‘ldi.

Antiinqiroziy boshqaruvning mohiyati korxonalarning tugatilishi, shakllanishi va rivojlanishida namoyon bo‘ladi. Chunki har qanday holatda ham korxonalarning boshqarilishi talab etiladi. Korxonalarning shakllanishi va rivojlanish yo‘nalishlari aniq bo‘lsa ham moliyaviy mablag‘larning talab etilishi sir emas. Chunki har qanday korxonaning faoliyati bevosita ana shu mablag‘larga bog‘liq bo‘ladi. Shunday ekan, antiinqiroziy boshqaruvning mohiyati ham bevosita moliyaviy resurslardan foydalanishda yuzaga keladigan quyidagi munosabatlarda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, korxonalar o‘rtasida amal qiluvchi moliyaviy munosabatlarning oqsashida.

Ikkinchidan, korxonalar bilan moliyaviy institutlar o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlarning yomonlashuvini bartaraf etish kabilar.

Shuni yana alohida ta’kidlash kerakki, antiinqiroziy boshqaruvning mohiyati huquqiy va tashqiliy munosabatlarni talab darajasida ochiqarilmasligi hamda uning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, antiinqiroziy boshqaruv korxona oldida turgan majburiyatlarning bajarilmasligida ham namoyon bo‘ladi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, quyidagi ta’rifni keltirib o‘tamiz. Antiinqiroziy boshqaruv deganda aniq bir korxona (qarzdor)ga nisbatan qo‘llaniladigan antiinqiroziy chora-tadbirlar shakl va usullarining yig‘indisi tushuniladi.

Qarzdor korxonaga nisbatan qo'llaniladigan chora-tadbirlar yig'indisi ikki asosiy guruhga ajratiladi: bankrotlik holatini oldini olish va nochor korxona faoliyatini tugatish. Birinchi guruhga sudgacha sanatsiya qilish, kuzatish va tashqi boshqaruv chora-tadbirlari kirsa, ikkinchi guruhga qarzdor korxonaning sud tomonidan majburiy tugatilishi hamda to'lovga layoqatsiz korxonalarning kreditorlar nazorati ostida ixtiyoriy tugatilishi kiradi.

Ilmiy manbalarda berilgan ta'riflarni inobatga olganda, inqiroz – bu har qanday korxonaning butun hayoti mobaynida uning faoliyatiga xos bo'lgan voqealar tufayli iqtisodiy jihatdan salbiy oqibatlar paydo bo'lishining tabiiy jarayoni hisoblanadi. Shu bilan bir vaqtda, inqiroz tufayli har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt uchun, uning doirasida korxonani rivojlanishga olib keluvchi o'zgarishlar yuz beradi.

Bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlar amaliyotida korxonalar nochorligi yoki bankrot bo'lishi odatiy holat hisoblanadi. Biroq korxona bankrot bo'lgan hollarda uni tugatishning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari jamiyat uchun og'ir kechadi. Iqtisodiy islohotlar sharoitida esa bankrotlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, uning ijtimoiy oqibatlari esa o'ta salbiy tavsifga ega bo'ladi.

Tadqiqotchilar inqirozga ijobiy tavsifga ega hodisa sifatida qarashadi. Chunki uning negizida antiinqiroziy kurash emas, balki korxonani yangi strategiyaga va hamkorlar bilan o'zaro foydali munosabatlarga mos bo'lgan tarkibiy o'zgartirishlar yotadi. Shunday qilib, bozordan bankrot bo'lgan tadbirkorlik korxonalarini chiqarib yuborish emas, balki ularni bankrot bo'lishi oldini olish, davomli rivojlanishini ta'minlash – yanada muhim vazifa hisoblanadi. Antiinqiroziy boshqarish deb nomlanuvchi chora-tadbirlar tizimi aynan ushbu vazifani hal etishga yo'naltiriladi.

Iqtisodiy nazariya va antiinqiroziy boshqarishga doir ilmiy ishlarida inqirozning mohiyatiga turlicha ta'rif berilgan. Chunonchi, antiinqiroziy boshqarish ko'pincha pablik releysins (public relations)ning jihatlaridan biri sifatida tushuniladi. Shu munosabat bilan, aksariyat holatlarda, masalan, antiinqiroziy boshqarish funksiyalarini ta'riflashda kommunikativ jihatga e'tibor qaratiladi. Yana shunday fikr

mavjudki, antiinqiroziy boshqarish real tartibotlar emas, balki munosabatlar sohasida yotadi. G'arb iqtisodiy adabiyotida antiinqiroziy boshqarishning boshqa qisqa ta'rifi mavjud: antiinqiroziy boshqarish – bu salbiy vaziyatlar boshlanganda zudlik bilan qabul qilinishi lozim bo'lgan harakatlar dasturi. Bundan tashqari, antiinqiroziy boshqarish kompaniyaga tahdid solishi mumkin bo'lgan turli xildagi inqirozlar va kuchlarni izchil o'zaro bog'liq ravishda baholash sifatida ham ta'riflanadi.

“Antiinqiroziy boshqaruv” atamasi iqtisodiyotimizda bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan yaqinda kirib kelgan dolzarb tushunchalarning biri bo'lib, ishbilarmonlar doirasida keng qo'llana boshlandi.

“Antiinqiroziy boshqaruv” atamasining asl mohiyatini inqiroz holatidan chiqish yoki inqiroz profilaktikasi deb izohlashimiz mumkin.

Korxonani inqiroz holatlarini yumshatish yoki bartaraf qilish bo'yicha chora – tadbirlar tizimi xorijda “krizis-menejment” (crisis – management) deb yuritiladi.

Antiinqiroziy boshqaruv – iqtisodiyot va huquq sohasida tez rivojlanayotgan - mamlakatimiz tajribasidagi eng yosh iqtisodiy fanlardan biridir.

Antiinqiroziy boshqaruv – bu mustaqil iqtisodiy kategoriyadir. Bu fanning o'z maqsadi, metodi, predmeti, nazariyasi va qo'llanish sohalariga ega.

Antiinqiroziy boshqaruvning iqtisodiy mohiyati – bu inqiroz xavfini oldindan payqash, uning belgilarini tahlil qilish, salbiy oqibatlarini kamaytirish bo'yicha tadbirlar amalga oshirish va uni omillarini keyingi rivojlanishida qo'llashga qaratilgan kompleks boshqarish tizimidir.

Antiinqiroziy boshqaruv - bu:

- makro - mikromuhit holatini tahlil qilish va korxonaga maqbul missiyasini tanlash;

- inqiroz holatlarini yuzaga kelishini oldindan bilish va uning iqtisodiy mexanizmlarini o'rganish;

- korxonaning iqtisodiy nochorligini bartaraf qilish strategiyasini ishlab chiqish va strategik kontrolling (nazorat)ni amalga oshirish;

- korxonani moliyaviy holatining tahlili, uni operativ baholash va iqtisodiy nochorlik (bankrotlik) vujudga kelishini aniqlash - operativ kontrollingni tashkil qilish;

- korxonani inqiroz sharoitida va u holatdan chiqarish bo'yicha maqbul siyosat ishlab chiqish;

- tadbirkorlik faoliyati risklarini doimiy hisobini olib borish va uni kamaytirishga doir tadbirlar ishlab chiqish.

Antiinqiroziy boshqaruvning asosiy maqsadi - korxonani inqiroziga barham berish maqsadida uni faoliyati davomida, rivojlanishini hamma bosqichlarida to'lovga layoqatsizligini bartaraf qilish hamda moliyaviy barqarorligini tiklash va ta'minlashdan iborat.

Antiinqiroziy boshqaruvning metodi – bu korxonani Antiinqiroziy boshqaruv jarayonlarini tadqiqoti uchun qo'llanadigan vositalar, kategoriyalar va nazariy printsiplar yig'indisidir.

Antiinqiroziy boshqaruvning predmeti – bu korxonani Antiinqiroziy boshqaruv jarayonlarida yuzaga keladigan boshqaruv, iqtisodiy, ishlab chiqarish va huquqiy munosabatlar tizimidir.

Antiinqiroziy boshqaruv:

1. Makrodarajada – bu davlatning, hududning yoki ma'lum tarmoqning Antiinqiroziy boshqaruvidir. Bunda Davlat quyidagi Antiinqiroziy boshqaruv siyosatini olib boradi:

- xalq xo'jaligining asosiy tarmoqlarining raqobatbardoshligini qo'llab-quvvatlaydi;

- iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan sohalar inqirozdan ogohlantirish va unga yo'l qo'ymaslik;

- korxonalar bankrotligini salbiy oqibatlarini kamaytirish va uning xodimlarini, kreditorlari manfaatlarini to'liq qondirish.

2. Mikrodarajada – bu turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik subyektlaridagi Antiinqiroziy boshqaruvidir (1.3-chizma).

ANTIINQIROZIY BOSHQARUV TURLARI

Inqirozni oldini olishga (profilaktika maqsadida) yo'naltirilgan Antiinqiroziy boshqaruv	Inqirozli vaziyatlardagi Antiinqiroziy boshqaruv	Bankrotlik holatidagi Antiinqiroziy boshqaruv
Yo'nalishlari: Korxona faoliyatini doimiy kuzatish uchun inqirozga qarshi monitoringi tashkil qilinadi. U salbiy holatlarni (ishlab chiqarish sur'atini tushib ketishi, sifat va raqobatbardoshlikni pasayishi, sotuv hajmidagi o'zgarishlar) oldini olishga qaratiladi; Korxonaning hamma funksiyalari (moliya, marketing, ishlab chiqarish, texnika va texnologiya, menejmenti, strategiyasi,	Yo'nalishlari: Inqiroz holatlari ta'siriga tezkor ravishda javob berish; Inqiroz holatlarini oqibatlarini yumshatish va bartaraf qilishda kompensatsion va tiklash chora-tadbirlarini qo'llash; Maxsus kommunikativ-ma'lumot aloqalar setini tashkil etish; Rahbar majburiyatlarini qayta taqsimlash; Inqirozga qarshi choralarni ishlab chiqish va tatbiq etish	Yo'nalishlari: Boshqarishning bu turi arbitraj sudi orqali bankrot deb tan olingan korxonada amalga oshiriladi. Korxonaning ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyati to'xtatiladi, qarzdorning mol-mulki sotiladi va sotuvdan tushgan daromaddan qonuniy tartibda qarz to'lanadi. Bunda qarzdorning kreditori talablarini to'liq qondirishga qaratiladi.

raqobatbardoshligi) tashxislanadi; Korxonani inqirozga olib keluvchi sabablarni bartaraf etish chora-tadbirlari ko'riladi.	bo'yicha boshqaruv xodimlarining operativ guruhini tuzish va boshqalar.	
--	--	--

Korxonalarda Antiinqiroziy boshqaruvning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Korxona faoliyatidagi inqirozlarni oldindan ko'ra bilish va unga tayyorgarlik ko'rish;
- Inqirozlarning xavfli omillari tarqalishiga yo'l qo'ymaslik;
- Inqiroz rivojlanishini boshqarish (tezlashtirish, sekinlashtirish, yumshatish, kuchaytirish);
- Inqiroz holatidagi korxonani yashash faoliyatini ta'minlash;
- Inqirozning salbiy oqibatlarini kamaytirish;
- Korxona rivojlanishida inqiroz oqibatlari va omillaridan foydalanish;
- Inqiroz sharoitidagi boshqaruv alohida yondashuvlar, instrumentlar, bilim va mahoratni talab qilinadi.

Demak, Antiinqiroziy boshqaruv inqiroz ehtimol qilinishida, hamda inqiroz sharoitida ham korxonani inqirozga qarshi rivojlanishini ta'minlashi lozim.

1.5. Antiinqiroziy boshqaruv mexanizmi

Inqirozga qarshi moliyaviy boshqaruv tizimi quyidagi asosiy **tamoyillarga** asoslanadi:

1. Korxonada moliyaviy barqarorlikni buzilishiga nisbatan doimiy tayyorlik tamoyili. Ma'lumki, korxona o'z iqtisodiy rivojlanishi davrida moliyaviy barqarorlik juda o'zgaruvchan bo'ladi. Bu o'zgaruvchanlik asosan korxonaning xo'jalik faoliyatining ichki va tashqi sharoitidagi (holatidagi) o'zgarishlar ta'sirida sodir bo'ladi.

Ushbu holatlarning (sharoitlarning) mavjudligi korxonaning raqobat pozitsiyasi va bozor qiymatini mustahkamlasa, ayrimlari, aksincha, uning moliyaviy rivojlanishida inqiroz holatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Korxona rivojlanishidagi mazkur holatlarning paydo bo'lishi moliyaviy menejerlardan uning moliyaviy barqarorlikni buzilishiga doimiy ravishda tayyor bo'lishlikni talab etadi.

2. Korxonani moliyaviy faoliyatidagi inqiroz holatlarini oldindan diagnostika (tashxislash) qilish – undan inqirozni o'z vaqtida oldini olish chora – tadbirlarini amalga oshirish maqsadida foydalaniladi.

3. Korxonani moliyaviy rivojlanishi uchun inqiroz holatlarining indikatorlarini xavflilik darajasi bo'yicha differentsiatsialash tamoyili. Moliyaviy menejment korxona bankrotligini diagnostika qilish jarayonida bir qator indikatorlarni qo'llaydi. Bu indikatorlar korxona moliyaviy faoliyatining har xil jihatlarini ifodalaydi va ularning bankrotlik xavfidagi o'rni va ta'siri ham bir xil emas. Shuning uchun xo'jalik subyektini Antiinqiroziy boshqaruv jarayonida ushbu indikatorlarning inqiroz holatida xavflilik darajasini o'rganish zarur. Chunki, bu korxonani moliyaviy barqarorligini tiklashga qaratilgan chora – tadbirlarni ishlab chiqishda albatta inobatga olinadi.

4. Korxonani moliyaviy rivojlanishidagi ayrim (alohida) inqiroz holatlariga tezkor javob qaytarish tamoyili. Tashxis qilingan har bir inqiroz holatlari bo'yicha inqirozga qarshi mexanizmlarni ishga solish korxonani moliyaviy barqarorligini tiklash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu tamoyilda quyidagi asosiy maqsadlar amalga oshiriladi:

- Korxonani to'lovga qobiliyatsizligini bartaraf qilish;
- Korxonani moliyaviy mustahkamligini tiklash (qisqa muddatlarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash);
- Korxonani barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash maqsadida moliyaviy strategiyani o'zgartirish moliyaviy mustahkamligini tiklash (uzoq muddatlarda moliyaviy barqarorlikka erishish);
- O'z – o'zini moliyalashtirish.

5. Korxonani moliyaviy barqarorligiga real tahdidlar darajasiga mos javob qaytarish tamoyili. Bankrotlik tahdidlarini neytrallash bo'yicha foydalaniladigan mexanizmlar tizimi asosan moliyaviy xarajatlar yoki yo'qotishlar talab qiladi. Bu mexanizmlar tahdidlarning real darajasiga mos bo'lishi kerak. Agar mexanizmlarning faoliyati etarli bo'lmasa kutilgan samaraga erishib bo'lmaydi, yoki aksincha, uning ko'pligi esa korxona o'zini oqlamaydigan xarajatlarni amalga oshirishiga olib keladi.

6. Korxonani inqirozli vaziyatdan chiqarishda uning ichki imkoniyatlarini to'liq ishga solish tamoyili. Bankrotlik tahdidlari bilan kurashishda, asosan uning dastlabki bosqichlarida, diagnostikasida korxona o'z ichki moliyaviy imkoniyatlariga suyanadi. Tajribadan ma'lumki, agar korxona normal marketing pozitsiyasiga ega bo'lsa, bankrotlik tahdidlarini o'z ichki moliyaviy imkoniyatlar evaziga bartaraf qilishi mumkin. Faqat bunday holatlarda korxona qayta tarkiblash jarayonidan holi bo'lishi mumkin.

7. Korxonani sanatsiyalashning samarali shakllarini tanlash tamoyili. Agar korxona inqirozli moliyaviy holatini ko'lami, ichki mexanizmlar va moliyaviy zaxiralardan foydalanish hisobiga inqirozdan chiqishiga imkon bermasa, unda u tashqi ko'makka muhtoj bo'ladi va u sanatsiyalashning shaklini qabul qilishga majbur. Korxonani sanatsiyalash bankrotlash jarayoni o'tkazilguncha, yoki o'sha jarayon mobaynida o'tkazilishi mumkin.

Umumiy holda inqirozga qarshi moliyaviy boshqarish siyosati bankrotlik tahdidlarini oldindan tashxislash usullar tizimini ishlab chiqish va korxonani moliyaviy sog'lomlashtirish mexanizmlarini inqirozdan chiqarishga qo'llashdan iborat.

Har qanday boshqaruv turida mavjud bo'lganidek, Antiinqiroziy boshqaruvda ham boshqarish obyekti va boshqarish subyekti bor.

Antiinqiroziy boshqaruvning obyekti – turli mulkchilikka asoslangan korxonalar, tashqilotlar, hududiy iqtisodiy strukturalar kiradi.

Antiinqiroziy boshqaruvning subyektlari – korxona va tashqilotlarning mulk egasi va menejerlari, davlat organlari, kreditorlar, krizis-menejerlar, arbitraj boshqaruvchilardan tashkil topadi.

Antiinqiroziy boshqaruv sistemasi negizida korxonalarda *inqirozga qarshi moliyaviy boshqaruv sistemasi* ishlab chiqilgan. U korxonani dastlabki diagnostikasining moliyaviy usullari va uni bankrotlikdan saqlash chora-tadbirlarini o'z ichiga oladi.

Inqirozga qarshi moliyaviy boshqaruv - bu inqiroz sharoitidagi korxonani moliyaviy nochorligini oldini olish yoki barham berish jarayonidir.

Korxonalar inqiroziga qarshi moliyaviy boshqaruvning asosiy maqsadi – korxonani moliyaviy inqiroz holatidan chiqarishni ta'minlash uchun uning to'lovga layoqatsizligini tezkor ravishda bartaraf qilish hamda moliyaviy barqarorligini tiklash va ta'minlash chora- tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirishdan iborat. Shu qo'yilgan maqsad asosida korxonaning umumiy moliyaviy strategiyasi doirasida *inqirozga qarshi moliyaviy boshqaruv siyosati* ishlab chiqiladi. Mazkur siyosat xo'jalik subyekting bankrot bo'lish ehtimolini bashoratlash modellari va metodlari hamda uni moliyaviy sog'lomlashtirish mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Ular quyidagilar:

➤ Korxonani moliyaviy holatini doimiy monitoringini o'tkazish. Uning maqsadi inqiroz belgilarini oldindan aniqlashdan iborat;

➤ Korxona inqirozining ko'lamini aniqlash;

➤ Inqiroz rivojlanishining asosiy omillarini aniqlash. Uning natijasida moliyaviy inqiroz holati darajasiga ta'siri va ko'lamii aniqlanadi va salbiy holatlar rivojlanishi bashorat qilinadi;

➤ Inqirozdan chiqish yo'llari aniqlanadi. U xo'jalik subyektini to'lov qobiliyatini va moliyaviy barqarorligini tiklashga qaratilgan bo'ladi;


➤ Moliyaviy mustahkamlikning samarali ichki mexanizmlarini tanlash va qo'llash;

➤ Inqirozdan chiqishni tezlashtirish maqsadida tashqi moliyaviy manbalarni qidirish va ularni jalb qilish;

➤ Inqirozga qarshi tadbirlar o'tkazishni nazorat qilish.

Inqirozga qarshi moliyaviy siyosat bosqichma – bosqich amalga oshiriladi. (1.4-chizma)

1.4-chizma



Antiinqiroziy boshqaruv negizida korxonani moliyaviy holati inqirozini oldindan diagnostika qilish va uning moliyaviy barqarorligini, to'lov qobiliyatini va rentabelligini tiklash dasturlarini ishlab chiqish maqsadida doimiy monitoringi tashkil qilinadi.

Korxonaning moliyaviy holati *monitoringi* inqiroz tahdidini ertaroq bilishga yordam beradi. Doimiy moliyaviy holat monitoringining asosiy vazifasi inqirozni oldindan tashxislash va profilaktika (oldini olish)ni amalga oshirishdan iborat. Shu nuqtai nazardan, inqirozning ilk belgilarini tashxislash barobarida muayyan korxonaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi o'z dasturlarini yaratish o'rindir.

Monitoringni amalga oshirishda moliyaviy xizmat oldindan tashxislash va profilaktikaning analitik modelini ishlab chiqadi.

Monitoring tomonidan qo'llanadigan asosiy iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlar quyidagi jadvalda keltirilgan:

**Monitoring tomonidan qo'llanadigan asosiy iqtisodiy va
moliyaviy ko'rsatkichlar**

Korxonadagi tahlil obyekti	Ko'rsatkichlar
Mol – mulk holatini baholash	1. Korxona ixtiyoridagi mablag'larning umumiy summasi va ularning dinamikasi 2. Oborotdan tashqaridagi aktivlar hajmi va ularning aktivlarning umumiy summasidagi ulushi 3. Asosiy vositalar eskirishining koeffitsienti
Ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini baholash	1. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmi 2. Ishlab chiqarish quvvatlari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti
Moliyaviy holatni baholash	1. Likvidlik, to'lovga qobiliyatlik, moliyaviy barqarorlik, kredit to'lov qobiliyati koeffitsientlari 2. Samaradorlik va faol ishchanlik koeffitsientlari 3. Foyda 4. Korxonaning bozor qiymati

Olingan ko'rsatkichlar normativ bilan taqqoslanadi va inqiroz rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar aniqlanadi.

Moliyaviy nochorlikni oldindan bilish ehtimolini baholash monitoringning ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi. Tahlildan olingan natijalar moliyaviy nochorlikni va inqiroz holatini profilaktikasini tadbirlar tizimini ishlab chiqishga imkon beradi.

Inqiroz (bankrotlik)ni profilaktika qilish xo'jalik subyekting to'lovga layoqatsizligini bartaraf etish va moliyaviy barqarorlikni

ta'minlash bo'yicha qator tadbirlarni o'z ichiga oladi. Ushbu tadbirlar moliyaviy resurslardan foydalanishni qisqartirgan holda ijobiy pul oqimlarini o'sishiga va o'z moliyaviy resurslarini ko'paytirish, oborot aktivlari aylanuvchanligini tezlashtirish, rentabel mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish, debitor qarzdorlikni kamaytirish va hakazolarga erishishdan iborat.

Inqirozni boshqarish quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

➤ Moliyaviy menejerlar inqirozning belgilari paydo bo'lishiga doimiy tayyor bo'lishlari;

➤ Korxonaga inqirozning ta'sir darajasini aniqlash;

➤ Inqiroz tahdidlariga o'z vaqtida javob qaytarish;

➤ Ichki moliyaviy zaxiralarni to'liq jalb etish;

➤ Korxonani tezroq inqirozdan chiqarish uchun restrukturizatsiyalash va sanatsiyalashning har xil shakllaridan foydalanish.

Inqirozga qarshi moliyaviy siyosatni amalga oshirishni nazorat qilish asosan rahbarlar va korxona egalari tomonidan amalga oshiriladi. U joriy va operativ boshqaruv doirasidagi korxona byudjetini ishlab chiqish vositasida balanslashgan ko'rsatkichlar tizimidan (BKT) foydalangan holda o'tkaziladi. Balanslashgan ko'rsatkichlar tizimi (BKT) o'zgarishlar sifatini baholashga va ularni bartaraf qilishga qaratilgan tadbirlar tizimini ishlab chiqishga imkon beradi.

Antiinqiroziy boshqaruv yechishi mumkin bo'lgan **muammolar** quyidagicha guruhlanadi:

1. Inqirozni rivojlanish bosqichlari bo'yicha:

- Inqiroz holatini oldindan bilish;
- Inqirozga barham berish;
- Inqiroz holatidagi korxonani faoliyatini ta'minlash;
- Korxonani inqiroz holatidan olib chiqishni ta'minlash;
- Inqiroz oqibatlarini tugatish.

2. Inqirozga qarshi qo'llanadigan tadbirlar yo'nalishi bo'yicha:

- Metodologik;

- Moliyaviy – iqtisodiy;
- Tashkiliy;
- Huquqiy;
- Ijtimoiy – psixologik;
- Konfliktlilik.

3. Boshqarish texnologiyasi bo'yicha:

- Ma'lumot qidirish (uning ishonchliligini ta'minlash);
- Inqiroz yuz berganda korxonani yurgizishga doir variant va modellar ishlab chiqish;
- Inqiroz holatlari (turi, chuqurligi, oqibatlarini)ni baholash va tahlil qilish;
- Antiinqiroziy boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish.

4. Vositalar qo'llanishi bo'yicha:

- marketing (noaniqlik va resurslarning cheklanganlik sharoitida)
- inqirozli korxonani sanatsiya yoki restrukturlash;
- Inqirozga qarshi investitsion, innovatsion siyosatni olib borish;
- Xodimlarni tanlash;
- Konfliktlarni boshqarish.

Antiinqiroziy boshqaruv negizida korxonani moliyaviy holati inqirozini oldindan diagnostika qilish va uning moliyaviy barqarorligini, to'lov qobiliyatini va rentabelligini tiklash dasturlarini ishlab chiqish maqsadida doimiy monitoring tashkil qilinadi.

Antiinqiroziy boshqaruv tizim sifatida quyidagi mustaqil **tarkibiy elementlardan** tashkil topgan:

- **Krizis-menejment** - asosan korxonani nochorligini va uni moliyaviy sog'lomlashtirishni boshqarishni o'z ichiga oladi;

- **Bankrotlik menejmenti** - korxonani ixtiyoriy yoki majburiy ravishda tugatishni boshqarishga qaratilgan. Uning vazifasi quyidagilardan iborat:

➤ Bankrot korxonani o'z kreditorlari oldidagi qarzdorligi miqdorini aniqlash;

➤ To'lovga noqobil korxonaga tegishli mol – mulk hajmini aniqlash;

➤ korxonaga tegishli mol – mulkni sotish dasturini ishlab chiqish va uni sotish;

➤ kreditorlar talabini belgilangan qonun tartibida qondirishdan iborat.

➤ **Moliyaviy sog'lomlashtirish menejmenti** - korxonani inqirozdan chiqarish va uning moliyaviy - iqtisodiy holatini yaxshilashga, bankrotlikni oldini olishga, uning raqobatbardoshligini oshirishga va har tomonlama mustahkam rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar tizimini boshqarishni bildiradi;

➤ **Strategik menejment** korxonani inqirozga qarshi strategiyasini ishlab chiqish, uni amalga oshirish va mazkur strategiyaga mos ravishda taktikani aniqlashga yo'naltirilgan. Uning tarkibiy elementlari quyidagilardir:

- korxona missiyasini tanlash;
- xo'jalik subyekting bozor imkoniyatlari tahlili;
- uning tashqi va ichki muhiti tahlili;
- korxona strategiyasini ishlab chiqish va uni joriy etish.

➤ **Risk – menejment** - bu risklarni boshqarish bo'lib, korxona faoliyatidagi yo'qotishlarni va inqirozlar oqibatlarini kamaytirishga yo'naltirilgan. Uning asosiy elementlariga quyidagilar kiradi:

- risklarni tasniflash va risk klassifikator yaratish;
- yuqori riskli joyni aniqlash;
- risk ehtimoli darajasini aniqlash;
- riskni oldini olish dasturini ishlab chiqish;
- riskli holatlar sodir bo'lish natijasida moddiy zararlarni qoplash;
- riskni oldini olish va uni tahlil qilish.

➤ **Reinjiniring** - bu korxonaning biznes jarayonlarini fundamental va qayta o'zgartirish bo'lib, uning faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari qiymat, sifat va o'sish sur'atini tubdan o'zgartirishga erishish tushuniladi;

➤ **Benchmarking** - bu inqirozga qarshi boshqarish elementi bo'lib, ilg'or korxonaning ish usuli, texnologiyasi, standartlari, nazoratini va faoliyati tajribasini joriy qilishni boshqarish hisoblanadi.;

➤ **Restrukturizatsiyalash** - bu korxonani bankrotligini oldini olish maqsadida zarar ko'rib ishlayotgan ishlab chiqarishni va uning bo'linmalarini tugatish, ortiqcha oborotdan tashqari aktivlarni sotish va pul oqimlarini reorganizatsiyalash asosida uni qayta tuzish hisoblanadi.

Tayanch so'z va iboralar:

Inqiroz, bankrotlik, uzun inqiroz, buyuk inqiroz, energetika inqirozi, makro inqiroz, mikro inqiroz, siyosiy inqiroz, ijtimoiy inqiroz, tabiiy inqiroz, iqtisodiy inqiroz, moliyaviy inqiroz, disporsiya, retsessiya.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Inqiroz turlari, bosqichlari va uning paydo bo'lishi omillari mavjud?

2. Inqiroz tushunchasining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati yoritib bering?

3. Antiinqiroziy boshqaruvning tushunchasi va mohiyati aytib bering?

4. Iqtisodiy va moliyaviy inqirozning asosiy sabablari keltirib o'ting?

5. Antiinqiroziy boshqaruv mexanizmini tushuntirib o'ting?

II BOB. KORXONA FAOLIYATINI TAHLIL QILISHDA QO'LLANILADIGAN AXBOROT MANBAALARI

2.1. Korxonada boshqaruv va moliyaviy hisob – qaror qabul qilish jarayonini axborot bilan ta'minlash manbai sifatida

Boshqaruv hisobi boshqaruvni axborot bilan qo'llab-quvvatlash tizimidir. Boshqaruv hisobining maqsadi – barcha darajadagi korxonalarning menejerlarini boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur axborot bilan ta'minlashdan iborat. U mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish va xarajatlarni boshqarish, uzoq muddatli rejali va byudjet tuzish, byudjetlar ijrosini nazorat va tahlil qilish, og'ishlar bo'yicha boshqaruv usullarini, xilma-xil va ko'p sonli vaziyatga oid boshqaruv qarorlari uchun axborot tayyorlashni o'z ichiga oladi.

Boshqaruv hisobi buxgalteriya hisobining alohida kichik tizimi bo'lib, moliyaviy hisobni qamrab oladi, ularning har birini o'z maqsad va vazifalari bor.

Moliyaviy hisobning maqsadi korxona hisobotini tuzish uchun zarur ma'lumotlarni to'plash va taqdim qilishdir. Moliyaviy hisobot ma'lumotlari taqqoslanadigan bo'lishi va undan tashqi foydalanuvchilar, investorlar va kreditorlar korxonaning moliyaviy holatiga uning to'lov qobiliyatiga obyektiv baho bera olishlari uchun zarur axborot bo'lishi lozim. Moliyaviy hisob Buxgalteriya Hisobining Milliy Standartlari kabi aniq standart va belgilangan me'yorlar asosida yuritilishi lozim.

Boshqaruv hisobi korxonani boshqarishning hamma darajalarida rahbariyat tomonida ichki foydalanish uchun hisob axborotining barcha turlarini qamrab oladi. Boshqaruv hisobini menejerlarga rejalashtirish, nazorat qilish, qaror qabul qilish kabi jarayonlarda yordam berish maqsadida ularga moliyaviy va nomoliyaviy axborot berish deb ta'riflash mumkin.

Korxona rahbariyati uchun mo'ljallangan boshqaruv hisobi axborotlariga qo'yiladigan talablar moliyaviy hisobotlarga chva tashqi foydalanishga taqdim qilingan ma'lumotga qo'yiladigan talabdan boshqachadir.

Boshqaruv va moliyaviy hisob o'rtasida o'xshashliklar ko'p, chunki ikkalasi ham korxonaning hisob tizimidan foydalanadi. Biroq boshqaruv va moliyaviy hisobga oid adabiyotlarda ular o'rtasida katta farq mavjud ekanligi haqida yoziladi. Hisobning bu turlari o'rtasidagi eng muhim farqlar quyidagilardan iborat:

Hisob maqsadi. Moliyaviy hisob – bu rasmiy hisob bo'lib uni yuritish barcha korxona va tashqilotlar uchun majburiydir. Moliyaviy hisob hujjatlari mahalliy soliq idoralari va statistika boshqarmalariga taqdim etiladi. Ular auditorlik tekshiruvi obyektlari hisoblanadi, e'lon qilinishi majburiydir.

Boshqaruv hisobi – bu boshqaruv qarorlarini qabul qilish, ishlab chiqarishni o'zgarayotgan sharoitlarini tez e'tiborga olish uchun korxona rahbariyatiga va mutaxassislariga zarur bo'ladigan hisob bo'lib, uning ma'lumotlari tijorat siri bo'lib hisoblanadi.

Axborot manbaalari. Moliyaviy hisob uchun faqat tashqilot hisob tizimining ma'lumotlari va soliqqa tortish tizimining elementlari axborot manbai bo'lib hisoblanadi.

Boshqaruv hisobi uchun korxona hisob tizimi ma'lumotlaridan tashqari moddiy resurslarni sarflash, texnologik chiqitning me'yorlari, bozordagi vaziyatni o'rganish, ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish to'g'risidagi hisobotlar, ularning natijalaridan ishlab chiqarishning mavjud sharoitlarida foydalanish imkoniyatlari, tomonlar xo'jalik shartnomalarini bajarmagan taqdirda beriladigan jarima choralari va boshqalar axborot manbai bo'ladi.

Hisob natijalaridan foydalanuvchilar. Moliyaviy hisobni ba'zan tashqi hisob deyiladi va uning natijalari odatda e'lon qilinadi. Bundan tashqari hisobotlarda faqat moliyaviy axborotlar emas korxona faoliyati yutuqlarini, uning yangi mahsulotlarini ko'rsatadigan reklama tusidagi ma'lumotlar ham bo'ladi. Bu axborot korxonaning aksiyadorlariga, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni ushlab turuvchilarga va bo'lajak investorlarga zarurdir.

Boshqaruv hisobini ichki hisob deyish mumkin. Uning natijalaridan faqat korxona hodimlari foydalanadi.

Hisobot axborotini taqdim etish shakllari. Moliyaviy axborot soliq organlariga qonunda belgilangan shakllar bo'yicha taqdim etiladi. Boshqaruv hisobi natijalari istalgan shaklda taqdim etilishi mumkin. Majburiy shakllar va blankalar mavjud emas. Bundan tashqari boshqaruv hisobi axborotlarini yuritish yoki yuritmaslikni korxona rahbariyatining o'zi hal qiladi.

Hisob axboroti o'lchov birliklari. Moliyaviy hisobot axborotlarida xo'jalik jarayonlarini umumlashtirish uchun pul o'lchovlaridan foydalaniladi. Ular universal bo'lib, xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatning milliy valutasida ifodalanadi.

Boshqaruv hisobi axborotlari o'lchovning barcha turlaridan – natura, mehnat va pul o'lchovlaridan iborat bo'ladi. Axborot uzatilayotgan shaxsga axborot o'lchov birligining qulaylik darajasiga qarab o'lchov shakli tanlanadi.

Hisobot axborotlarini taqdim etish muddatlari. Moliyaviy hisobotlar uchun aniq qat'iy muddatlar belgilab qo'yilgan. Hisobot yilning har choragi va yil tugaganidan so'ng taqdim etiladi. Boshqaruvchilar uchun tayinlangan axborotlarning muddatlari qat'iy vaqt bilan cheklab qo'yilmagan, ular istagan paytda boshqaruv hisobi orqali uzatiladi. Bunday hisobotlarni taqdim etish muddatlarini korxona rahbari belgilaydi.

Hisob obyekt. Moliyaviy hisobot umuman tashqilotning o'zini hisob obyekt deb biladi.

Boshqaruv hisobi uchun mas'uliyat markazi deb yuritiladigan markazlar, xizmatlar, va buyumlar bo'yicha xarajat markazlari obyekt bo'lib xizmat qiladi. Yaxlit korxonaning o'zi, ayrim sexlar, uchastkalar, bo'linmalar shunday obyekt bo'lishi mumkin.

Hisob usullari. Moliyaviy hisob axborotlari asosan birlamchi buxgalteriya ma'lumotlariga tayanadi.

Boshqaruv hisobidagi axborotlar avvalo tashqilotning ichki bo'limlarida mujassamlashgan birlamchi ma'lumotlarni, o'tgan davr materiallarni va kelajakka taxminiy baholarni qo'shib olib borishga asoslangan.

Hisob qoidalari. Moliyaviy hisob umumiy qabul qilingan ikki yoqlama yozuv tamoyili, ma'lumotlarni qiyoslanishi kabi qoidalarga asoslanadi.

Boshqaruv hisobining umumiy qabul qilingan qoidalari yuk. Eng muhimi foydalanish uchun qulayligidir.

Ko'rinib turibdiki, boshqaruv hisobi ham moliyaviy hisob ham turli yo'llar bilan boshqaruv qarorlarini axborotlar bilan ta'minlashga harakat qiladi. Korxonada inqirozga qarshi boshqaruv jarayoni amalda bo'lgan hollarda, boshqaruv hisobining o'rni ichki boshqaruvni axborotlar bilan ta'minlashda belgilanadi. Moliyaviy hisob esa kreditorlarni axborot bilan ta'minlashda qo'l keladi. Bu ikki axborot tizimlarini korxonada samarali faoliyatini yo'lga qo'yilishi qabul qilingan qarorlarning samaradorligini oshiradi.

2.2. Moliyaviy hisobot shakllari va korxonani tahlil qilishda ulardan axborot manbai sifatida foydalanish

Inqirozga qarshi boshqaruvning samaradorligi korxonaning inqiroz oldi vaziyati va inqiroz davridagi moliyaviy holatini to'g'ri tahlil qilish va inqiroz sabablarini aniqlashga bog'liq. Bunda moliyaviy hisobot shakllaridan tahlilning axborot manbaasi sifatida keng foydalaniladi.

Inqirozga uchragan yoki inqiroz xavfi mavjud bo'lgan korxonalarda moliyaviy xo'jalik faoliyatiga to'g'ri tashxis qo'yish va u bo'yicha malakali xulosa chiqarish tahlilda foydalaniladigan axborot manbaalari bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq. Korxona faoliyatini qanchalik darajada chuqur va atroflicha tahlil qilinsa, moliyaviy va iqtisodiy holat haqidagi xulosalar shunchalik aniq bo'ladi. Tahlil jarayonini axborot manbalari bilan ta'minlashda beshta shakldagi moliyaviy hisobot shakllaridan foydalaniladi. Ularga quyidagilar kiradi:

- 1-sonli shakl. Buxgalteriya balansi.
- 2-sonli shakl. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot.
- 3-sonli shakl. Asosiy vositalar harakati to'g'risigi hisobot.
- 4-sonli shakl. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot.
- 5-sonli shakl. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot.

Korxonaning 1-sonli shakli Buxgalteriya balansi hisoblanib, u korxona aktivlari va ularning tashkil topish manbaalarini ma'lum davrdagi holatini aks ettiradi. Balans so'zi lotincha **bis**-ikki marta, **lanx**-tarozni pallasiga degan ma'noni anglatadi. Demak, balans so'zi tarozini ikki pallasiga ya'ni tenglik ma'nosini anglatadi.

Korxona va tashqilotlarning mablag'lari doimo harakatda bo'lib, ular ham miqdor, ham qiymat jihatidan o'zgarib turadi. Korxonaning ixtiyorida bo'lgan ushbu xo'jalik mablag'lari va ularning manbaalari buxgalteriya hisobining obyekti sifati hisoblanib, ularning harakati buxgalteriya schyotlarida hisobga olib boriladi. Ammo korxonani boshqarish uchun mablag'lar va ularni tashkil topish manbaalari to'g'risidagi ma'lumotlarni schyotlardan olish ancha qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun schyotlardagi mablag'larni va ularning manbaalari to'g'risidagi ma'lumotlarni ma'lum sanaga umumlashtirish kerak. Buning uchun buxgalteriya balansidan foydalaniladi.

Adabiyotlarda keltirilishicha, buxgalteriya balansi sxematik tarzda tuzilgan ikki tomonlama jadval bo'lib, chap va o'ng tomonlarga bo'lingan ikki qismdan iborat. Mos ravishda ular aktiv va passiv tomon deb yuritiladi. Aktiv tomonida xo'jalik mablag'larining joylashuvi va passiv tomonida xo'jalik mablag'larining manbaalari joylashgan bo'ladi. Uning mazmuni aktiv va passiv tomonning doimo teng bo'lishini anglatadi. Chunki, korxona hisobida mavjud bo'lgan har qanday mablag' yoki boshqa aktivlar o'zining aniq kelib chiqish manbaiga ega bo'lishi lozim. Aks holda, hisob siyosati buzilib ketadi. Bu jihatdan Buxgalteriya balansi korxonaning jami mol-mulki va mablag'lari tartibotini olib boradi. Balansning qisqacha ko'rinishi quyidagi jadvalda o'z aksini topgan (2.1-jadval).

Keltirilgan jadvalga ko'ra, buxgalteriya balansiga quyidagicha ta'rifni berish mumkin: buxgalteriya balansi – bu korxona xo'jalik mablag'lari tarkibini, joylanishini, manbaalarini va ishlatilishini hisobot davrining ma'lum bir kuniga pul ifodalarida ko'rsatib beruvchi ikki yoqlama jadvaldir. Bundan ko'rinadiki, balans momentli hisobot shakli bo'lib xo'jalik operatsiyalari natijasida korxona aktiv va passividagi o'zgarishlarning yagona davrdagi holatini ko'rsatib beradi.

2.1-jadval

Buxgalteriya balansining soddalashtirilgan ko‘rinishi**Aktiv****Passiv**

Xo‘jalik mablag‘larining tarkibi va joylashishi	Summa ming so‘m	Xo‘jalik mablag‘larining paydo bo‘lish manbaalari	Summa ming so‘m
I. Uzoq muddatli aktivlar		I. O‘z mablag‘lari manbaalari	
II. Joriy aktivlari		II. Majburiyatlar	
Balans		Balans	

Balansning aktiv va passiv tomonlarida korxona xo‘jalik mablag‘lari tarkibi, joylanishi va ishlatilishi yuqorida keltirilgan guruhlar bo‘yicha alohida-alohida turlari yoki ularning alohida guruhchalari bo‘yicha ko‘rsatiladi. Bunda xo‘jalik mablag‘lari va ularning manbaalarini alohida nomlari balans moddolari deyiladi.

Buxgalteriya balansining aktiv va passiv moddalarining umumiy balans tarkibidagi ulushi yoki proporsiyasiga qarab bu korxonaning qaysi mulk shakliga asoslanganligini yoki tarmoq xususiyatini bilib olish mumkin. Masalan: sanoat korxonalarining balansining aktiv tomonida xomashyo, tugallanmagan ishlab chiqarish, qurilish korxonalarining balansida kurilish materiallari va o‘rnatilmagan jihozlar, savdo korxonalarida esa tovar va tovarlarni umumiy balans summasidagi salmog‘i ko‘proq bo‘ladi.

Buxgalteriya balansining uzoq muddatli aktivlar qismida eng kam ish haqining 50 baravaridan yuqori bo‘lgan va bir yildan uzoq muddat xizmat qiladigan korxona aktivlari va joriy aktivlar qismida bir yildan kam xizmat qiladigan va eng kam ish haqining 50 baravaridan kam qiymatga ega bo‘lgan korxona aktivlarining puldagi ifodasi aks etadi. Bundan tashqari, balansda aktivlar likvidlik prinsipi asosida joylashgan.

Passiv tomon ikki qismdan iborat bo‘lib, 1-qism o‘z mablag‘lari manbaalari deyiladi. Mazkur qismda korxona tashkil topishida korxona muassislari tomonidan ta‘sis etilgan va boshqa korxonaga tegishli bo‘lgan barcha mablag‘lar ko‘rsatiladi. Majburiyatlar qismida esa

korxonaning jami qarzlar va kelgusi davr xarajatlarining pul qiymatidagi shakli aks etgan bo'ladi.

Inqirozni aniqlashda korxona buxgalteriya balansining aktivlari va majburiyatlarning jami balans tarkibidagi ulushi va boshqa shu kabi ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Korxonada inqirozning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini hisoblashda mahsulotning bozordagi sotilish darajasi, korxona xarajatlarining iqtisodiy nochorlikka ta'siri va rentabellik ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Buni Moliyaviy natijalar to'g'risidagi 2-sonli hisobot shaklini tushunmasdan amalga oshirib bo'lmaydi.

2.3. Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlaridan axborot manbai sifatida foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot choraklik hisobot bo'lib, uning asosiy maqsadi korxonaning pirovard natijasi – sof foydani aniqlash hisoblanadi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot shaklidan korxonaning ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan va bog'liq bo'lmagan xarajat turlarini ajratish imkoniyati vujudga keladi. Xarajatlarni bu tartibda turkumlash iqtisodiy nochorlik yoki zarar ko'rib ishlashning asl sababini aniqlashga va xarajatlarning samarali boshqaruvini yo'lga qo'yishga yordam beradi.

Hisobotda korxona tomonidan muayyan davr mobaynida topilgan daromadlarning ham manbaalari aks etgan bo'lib, sof foydaga erishishga asosiy faoliyat yoki boshqa faoliyat daromadlari qanchalik darajada ta'sir qilganligini ham tahlil qilish mumkin. Buning muhim jihati shundan iboratki, amaliyotda ba'zi korxonalar iqtisodiy nochor bo'lgani holda sof foyda bilan yilni yakunlashlari mumkin. Shunda moliyaviy atijalar to'g'risidagi hislbttni chuqurrov tahlil qilish foydaning manbaini aniqlab beradi.

Mazkur shaklni tuzishda qatorlarning o'zaro kombinatsiyalarini to'g'ri tushunib olish moliyaviy natijalarning mantig'ini tushunish uchun xizmat qiladi.

1. Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum qatori. Mahsulot sotishdan olingan sof tushum summasi mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan olingan jami tushum summasidan sotishga soliqlar to'lovlar va ajratmalar summasini chegirish asosida aniqlanadi.

Sotishga soliqlar, to'lovlar, ajratmalarga quyidagilar kiritiladi:

- qo'shilgan qiymat solig'i;
- Aksiz solig'i;
- Reklama solig'i;
- Mahsulot hajmidan ijtimoiy sug'urta bo'limiga ajratma va x.k.

2. Mahsulot sotishdan yalpi foyda. Mahsulot sotishdan olingan yalpi moliyaviy natija foyda yoki zarar mahsulot (ish va xizmat) larni sotishdan olingan sof tushumdan shu mahsulot (ish va xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxini ayirish asosida aniqlanadi.

Korxona foydasining asosiy qismini bevosita mahsulot (ish va xizmat) lardan olingan foyda tashkil etishi lozim, aks holda inqirozga qarshi choralarni jadallashtirish shart.

3. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijasi (Foyda yoki zarar). Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijasi mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan olingan foyda summasidan davr xarajatlari tarkibiga kiruvchi sotish xarajatlari, ma'muriy xarajatlar va boshqa umumxo'jalik xarajatlarini ayirish hamda asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan olingan daromad va xarajatlarni tartibli farqlash asosida aniqlanadi.

4. Moliyaviy faoliyatdan olingan foyda (zarar). Moliyaviy faoliyatdan olingan foyda va zararlar qatoriga moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda quyidagi umumlashgan ko'rsatkichlar kiritilgan.

- Sho'ba va uyushma korxonalardan olingan dividendlar;
- Boshqa olingan dividendlar;
- Sho'ba va uyushma korxonalarga berilgan va olingan qarzlar bo'yicha foizlar;
- Boshqa to'langan va olingan foizlar;
- Valuta kursining o'zgarishidan farqlar;
- Moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar va xarajatlar.

Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijasiga moliyaviy faoliyatdan olingan natijani qo'shish asosida umumxo'jalik faoliyatidan moliyaviy natija (foyda, zarar) aniqlanadi.

5. Umumxo'jalik faoliyatidan moliyaviy natija. Umumxo'jalik faoliyatidan olingan moliyaviy natija soliq to'loviga qadar foyda summasidan yoki hisob foydasi summasidan favqulodda foyda va zararlar summasini mos ravishda qo'shishi yoki ayirish orqali aniqlanadi.

Umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda summasi moliyaviy natijaning shakllanish qatori emas, balki uni jamlovchi qator sifatida tarkiblanadi.

6. Favqulodda foyda (zarar). Favqulodda foyda (zarar) – korxona tamonidan odatiy hol hisoblanmagan va uch yillik oraliqda bunday faoliyat bilan shug'ullanmagan holatlardan oladigan daromad va yo'qotishlar favqulodda foyda va zararlar qatoriga kiritiladi.

Lekin amaliy kuzatishlar natijasi shuni ko'rsatadiki ularning shakllanish ehtimoli nihoyatda qisqa yoki kam. Bo'lgan taqdirda ham faqat zarar shaklida bo'lmoqda.

7. Soliq to'lagungacha bo'lgan foyda (zarar). Soliq to'loviga qadar foyda (zarar) summasi umumxo'jalik faoliyatidan foyda (zarar) summasiga favqulodda foyda (zarar) summasini qo'shish asosida aniqlanadi. Soliq to'loviga qadar foyda summasi axborot iste'molchilari e'tiboridagi va kuzatuvidagi qator hisoblanadi.

U bevosita asosiy faoliyatning moliyaviy natijasidan, moliyaviy faoliyatning moliyaviy natijasidan hamda favqulodda foyda va zararlar jamlangan summasidan iborat bo'ladi.

8. Sof foyda (zarar). Sof foyda korxona ixtiyorida qoladigan foyda summasini ifodalaydi. Ushbu qator soliq to'loviga qadar bo'lgan foyda summasidan foyda (daromad)dan to'langan soliqlar va boshqa solikli to'lovlarni chegirish asosida aniqlanadi.

Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi 3-sonli hisobot shakli Buxgalteriya balansida keltirilgan asosiy vositalar haqidagi ma'lumotlarni chuqur tahlil qilishda foydalaniladigan hujjatdir.

Mazkur shakl ham momentli hisobot bo'lib, asosiy vositalarning yil davomidagi kirim-chiqimini, ya'ni harakatini ifodalaydi. U o'z ichiga quyidagi asosiy vositalarning yil davomidagi harakatini ko'rsatadi: bino, inshoot, uzatish moslamalari, mashina va jihozlar, transport vositalari, asbob-uskunalar, ishlab chiqarish inventarlari, xo'jalik inventari, ishchi va mahsuldor hayvonlar, ko'p yillik ekinlar, yer holatini yaxshilashdagi kapital xarajatlar (inshootsiz) va boshqa asosiy fondlar.

Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobotning afzalligi korxonada eskirgan asosiy vositalarning tarkibini va uni ishlab chiqarish bilan bog'liqlik darajasini tahlil qiladi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot korxonadagi muayyan vaqt ichidagi pulning kirib kelishi va chiqib ketishi hamda ular o'rtasidagi farqni tahlil qilishda foydalaniladigan hujjatdir. Unda joriy (operatsion), investitsiya, moliyaviy va soliqqa tortish faoliyatlari bo'yicha pul mablag'larini kirimi va chiqimi ifodalangan hisoblanadi.

Joriy (operatsion) faoliyat – xo'jalik jarayonlarini korxonaning pul mablag'lariga, foyda miqdoriga ta'sirini ifodalaydi. Bu bo'limga quyidagilar kiradi:

- Jo'natilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun kelib tushgan pul mablag'lari;

- Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga to'langan pul mablag'lari;

- Xodimlarga va ular nomidan to'langan pul mablag'lari;

- Operatsion faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari.

Investitsion faoliyat orqali nomoddiy va uzoq muddatli aktivlarni sotib olish va sotish bo'yicha to'langan pullar va hisob-kitob raqamiga kelib tushgan naqd pullar ifodalanadi. Bu bo'limga quyidagilar kiradi:

- Asosiy vositalarni sotib olish va sotish;

- Nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish;

- Uzoq va qisqa muddatli investitsiyalarni sotib olish va sotish;

- Investitsion faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari.

Moliyaviy faoliyat pul oqimlarida korxonaning moliyaviy foaliyati bilan bog'liq kirim va chiqimlar keltiriladi. Bu bo'lim o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- Olingan va to'langan foizlar;
- Olingan va to'langan dividendlar;
- Aksiyalar chiqarishdan yoki xususiy kapital bilan bog'liq bo'lgan boshqa instrumentlardan kelgan pul tushumlari;
- Xususiy aksiyalar sotib olingandagi pul to'lovlari;
- Uzoq va qisqa muddatli kredit va qarzlar bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari;
- Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari;
- Moliyaviy faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot inqirozga qarshi sog'lomlashtirish tadbirlari tayyorlanayotgan davrda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, sog'lomlashtirish jarayonida kreditorlik qarzlarining tezlik bilan uzilishi pul oqimlarining jadalligiga bog'liq.

O'z mablag'lari tahlilini olib borishda xususiy kapital to'g'risidagi hisobotdan keng foydalaniladi. Mazkur shakl korxona xususiy kapitalining yil davomidagi ko'payishi yoki kamayishini tahlil qiladi va o'z ichiga quyidagi ko'rsatkichlarning o'zgarishlarini oladi:

- Ustav kapitali;
- Qo'shilgan kapital;
- Rezerv kapitali;
- Taqsimlanmagan foyda;
- Xususiy kapital bilan qoplanmagan zarar.

Shaklning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, boshqa hisobot shakllarida barcha ko'rsatkichlar faqat pul ifodasida berilsa, xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda naturada aksiyalar soni keltiriladi. Bu hisobot shakli inqiroz davrida korxonaning moliyaviy mustaqilligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot ham qolgan hisobot shakllari kabi korxona to'lov qobiliyatini o'rganishda muhim manbaa bo'lib hisoblanadi. Hisobotda korxonaning o'ziga qarashli barcha mablag'lar hisobi va ularning manbaalari aniq ko'rsatib o'tiladi.

Korxonada inqiroz sabablarini aniqlash, tashxis qo'yish jarayonlarida tahlil maqsadida foydalanilayotgan axborot va

ma'lumotlarning o'zaro xususiyatlariga jiddiy e'tibor qaratish zarur bo'ladi. Chunki, xulosa qaror qabul qilish jarayoniga uzatilganida, mazkur axborotning qanchalik aniq va to'g'ri berilganligi qabul qilingan qarorning samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun, yig'ilgan axborotlarni tahlil qilish va kerakli xulosa chiqarish aniq belgilangan ishlarni talab qiladi.

Eng avvalo tahlil uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlarni o'rganib chiqish zarur. Tahlil uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlarni mazmuniga qarab quyidagi turlarga ajratish mumkin: iqtisodiy ma'lumotlar, huquqiy-me'yoriy ma'lumotlar, ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar, tabiiy-ekologik ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlar.

Iqtisodiy ma'lumotlarni biznes reja, turli xil axborot manbaalar, texnologik ma'lumotlar, operativ-texnik, me'yoriy va moliyaviy hisobot xujjatlari tashkil etadi. Bu manbaalardan tahlilda eng ko'p foydalaniladi.

Huquqiy-me'yoriy ma'lumotlarga esa Respublikamizda amal qilayotgan barcha qonunlar, me'yoriy xujjatlar va aktlarda rasmiylashtirilgan axborotlardan foydalanish tushuniladi.

Ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar, eng yangi taraqqiyot, jahondagi o'zgarishlar, fan va texnika yutuqlarini o'zida mujassam etgan axborotlardir. Bu axborotlar tahlil uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabiiy-ekologik ma'lumotlar, tabiat, yer, iqlim va boshqa ekologik omillarni mujassamlashtirgan axborotlarni iqtisodiy tahlilda muhim manbaa sifatida o'rganiladi.

Boshqa manbaalarga esa, iqtisodiy, huquqiy, ilmiy-texnikaviy, tabiiy-ekologik manbaalarda aks etmagan ma'lumotlar tushunilib, bunga ommaviy axborot vositalari, ro'znoma va oynomalardagi, radio va televideniya-dagi keltirilgan axborotlardan kiradi.

Quyida moliyaviy hisobot shakllarining axborotlarini o'ziga xos xususiyatlari va ularga qo'yiladigan talablar aks ettiriladi. Moliyaviy hisobotlarning o'ziga xos xususiyati, eng avvalo ular korxonadagi iqtisodiy voqea-hodisalarni to'g'ridan to'g'ri ishtirokchilari bo'lgan hodimlar tomonidan tuziladi.

Ikkinchidan, moliyaviy hisobot shakllarini tuzishning asosiy maqsadi tashqi voydalanuvchilarni axborotlar bilan ta'minlash bo'lgani

uchun, u korxonaning moliyaviy holatiga oid ma'lumotlarni to'liqligicha qamrab oladi.

Uchinchidan, moliyaviy hisobotlarda korxonaning tijorat siri hisoblangan axborotlar mutlaqo taqdim etilmaydi;

To'rtinchidan, moliyaviy hisobotlar istagan vaqtda emas, balki har chorak, yarim yillik va bir yillik hisobotlar sifatida taqdim etiladi. Shu sababli, tahlil korxonaning istalgan davri uchun emas, balki, moliyaviy hisobotlarda belgilangan aniq muddat uchun o'tkaziladi. Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, moliyaviy hisobot shakllari yordamida korxonaning holatiga aniq tashxis qo'yib bo'lmaydi. Ya'ni, moliyaviy hisobot shakllari korxonaning moliyaviy holatini, barqarorligini va debitorlik-kreditorlik qarzlarning ko'rinishigina aks ettiradi. Ammo, inqirozning asl sababini nima ekanligini bilish uchun boshqaruv hisobi axborotlari ham zarur bo'ladi. Aniq xulosalar, korxonaning ichki holati bilan bog'liq bo'lgan hodisalarga qarab beriladi.

Tahlil o'tkazishdan avval, unda foydalaniladigan axborot manbaalarining aniq tamoyillarini ishlab chiqish zarur. Mazkur tamoyillar quyidagilardan iborat:

Haqqoniylik va xolisonalik tamoyili. Bu tamoyil tahlil uchun yig'ilayotgan axborotlarni aniq dalillar asosida yig'ilishini va xolis hech qanday ortiqcha qo'shimchalarsiz bo'lishini ta'minlaydi. Shunda soxta yoki yashirin bankrotlik kabi inqirozga qarshi boshqaruv bilan bog'liq jinoiy ishlar kamayadi. Chunki, tahlil qilinayotgan ma'lumotlarning haqqoniy va xolis jamlanmaganligi va unga yolg'on axborotlarni firib berish yoki yana boshqa g'araz maqsadlarda qo'shilishi olingan xulosa hamda korxona moliyaviy holati uchun qo'yilgan tashxisni noto'g'riligini ta'minlaydi.

Manbaalar tahlil qilinishi uchun keng imkoniyatli bo'lishligi. Ya'ni reja, hisob va statistik ma'lumotlar hodisa va jarayonlar mazmunini to'liq yoritishi, talab qilingan vazifalarni yetarli darajada bajarishi kerak, bo'lmasa, tahlil uchun zarur ma'lumotlar aniq tashxis qo'yishda kamlik qiladi. Shu sababli, axborotlarni yig'ish jarayonida oldindan barcha kerakli ma'lumotlar uchun alohida ro'yxat qilinishi va unda axborot manbaalari aniq ko'rsatib qo'yilishi kerak. Mazkur

ro'yxatni ma'lumotlar yig'ishga kirishishdan avval mutaxassislarga ko'rsatib qo'yish zarar qilmaydi.

Iqtisodiy xodisa va voqealarni ifodalovchi manbaalar aniq o'lchamda aks ettirilishi. Bu moliyaviy hisobot shakllarini tahlilga tayyorlovchi hodimlarning to'g'ridan to'g'ri e'tibor qaratishi zarur bo'lgan funksional vazifasidir. Tahlil uchun tayyorlanayotgan barcha axborotlarning o'lchov birligi va hisobot davri bir xil tartibga keltirilishi kerak. Agar barcha hisobotlarda o'lchov birligi ming so'mda belgilansa, qolgan axborotlar ham shunga taqqoslanishi va bir xillashtirilishi lozim. Qiymat, natura o'lchovlari tahlil davrida aralashtirib yuborilmasligi va bir xil davrni aks ettirishi kerak.

Barcha manbaalarning umumiy birligi va uzviy bog'liqligining saqlanishi. Barcha axborot manbaalari bir-birini keltirib chiqargan va uzviy bog'langan bo'lishi lozim. Masalan mehnat unumdorligining o'zgarishi bo'yicha axborot taqdim etilayotganda ishchilar soni asosiy, yordamchi va xizmatchi ishchi-hodimlar ko'rinishida, mahsulot hajmini esa ishlab chiqarilgan hamda sotilgan mahsulot hajmi ko'rinishida alohida berish maqsadga muvofiqdir. Ko'p hollarda tahlilchilar korxona mehnat unumdorligini hisoblashda 2-sonli shakldagi sotilgan mahsulot hajmi ko'rsatkichning o'zi bilan cheklanib qoladi. Aslida bu noto'g'ri. Sababi korxona ishlab chiqargan mahsulotiga nisbatan bir necha barobar oz mahsulotni realizatsiya qilgan bo'lishi mumkin. Bu holat mehnat unumdorligini keskin tushib ketishiga olib keladi. Shu sababli, bu holatga tahlilda tushuntirish berib ketish zarur. va h.k.

Yuqoridagi talablarga javob beruvchi barcha axborotlar tahlilning aniq bajarilishi, sermazmun bo'lishligiga imkon yaratadi.

Iqtisodiy taxlilda foydalaniladigan barcha manbaalarni ishonchlilikini, aniqliligini va to'g'riligini tekshirish natijalarni samarali bo'lishiga zamin yaratadi. Kerakli manbaalarning turli-tumanligi, sermazmunlilik va ko'pligi ularning sifatli shakllanishiga e'tiborni qaratilishni taqozo etadi. Barcha yig'ma ma'lumotlarni xar tomonlama to'g'riligini tekshirish:

- Texnik (yuzaki) tekshirish usuli;
- Mantiqiy yoki mazmunan tekshirish usullariga ajratiladi.

Texnik tekshirish, axborot manbaalarini arifmetik jihatidan to'g'riligini, rasmiylashtirish qoidalariga rioya qilinganligi va ko'rsatkichlarning bir-biriga mosligini e'tiborga olgan xolda o'rganishdir.

Mazmun jihatidan tekshirish, ma'lumotlarning xaqqoniy ekanligi, unda aks ettirilgan raqamlarning haqiqatda borligi aniqlashni o'z ichiga oladi. Bunday tekshirish o'z ichiga buxgalteriya hisobi boshlang'ich xujjatlaridagi keltirilgan raqamlarni inventarizatsiya o'tkazish orqali taqqoslash, sanab ko'rish va o'lchash yo'li bilan to'g'riligiga ishonch xosil qilishdir.

Ayniqsa yillik moliyaviy hisobot ma'lumotlarini mazmunan tekshirish taxlil ishlarini samarali o'tishini ta'minlashda muxim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda ma'lumotlarni taxlil qilishdan oldin ularning to'g'riligi tekshirib olinadi. Ma'lumotlarning to'riligiga ishonch xosil qilish uchun esa ayrim ko'rsatkichlarni ma'lum bir hisobot ma'lumotlari bilan taqqoslab ularning bir-biriga mosligi o'rganiladi. Agar bir xil ko'rsatkichlar turli manbalarda bir xil tartibda aks ettirilgan bo'lsa, u xolda ushbu ma'lumotlar to'g'ri deb tan olinishi mumkin bo'ladi.

2.4. Korxona balansi tushunchasi va uning tarkibi

Inqirozga uchragan yoki inqiroz xavfi mavjud bo'lgan korxonalarda moliyaviy xo'jalik faoliyatiga to'g'ri tashxis qo'yish va u bo'yicha malakali xulosa chiqarish tahlilda foydalaniladigan axborot manbaalari bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq. Korxona faoliyatini qanchalik darajada chuqur va atroflicha tahlil qiinsa, moliyaviy va iqtisodiy holat haqidagi xulosalar shunchalik aniq bo'ladi. Tahlil jarayonini axborot manballari bilan ta'minlashda beshta shakldagi moliyaviy hisobot shakllaridan foydalaniladi. Ularga quyidagilar kiradi:

- 1-sonli shakl. Buxgalteriya balansi.
- 2-sonli shakl. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot.
- 3-sonli shakl. Asosiy vositalar harakati to'g'risigi hisobot.
- 4-sonli shakl. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot.

-5-sonli shakl. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot.

Korxonaning 1-sonli shakli Buxgalteriya balansi hisoblanib, u korxona aktivlari va ularning tashkil topish manbaalarini ma'lum davrdagi holatini aks ettiradi. Balans so'zi lotincha **bis**-ikki marta, **lanx**-tarozi pallası degan ma'noni anglatadi. Demak, balans suzi tarozini ikki pallası ya'ni tenglik ma'nosini anglatadi.

Korxona va tashqilotlarning mablag'lari doimo harakatda bo'lib, ular ham miqdor, ham qiymat jihatidan o'zgarib turadi. Korxonaning ixtiyorida bo'lgan ushbu xo'jalik mablag'lari va ularning manbaalari buxgalteriya hisobining obykti sifati hisoblanib, ularning harakati buxgalteriya schyotlarida hisobga olib boriladi. Ammo korxonani boshqarish uchun mablag'lar va ularni tashkil topish manbaalari to'g'risidagi ma'lumotlarni schyotlardan olish ancha qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun schyotlardagi mablag'larni va ularning manbaalari to'g'risidagi ma'lumotlarni ma'lum sanaga umumlashtirish kerak. Buning uchun buxgalteriya balansidan foydalaniladi.

Adabiyotlarda keltirilishicha, buxgalteriya balansi sxematik tarzda tuzilgan ikki tomonlama jadval bo'lib, chap va o'ng tomonlarga bo'lingan ikki qismdan iborat. Mos ravishda ular aktiv va passiv tomon deb yuritiladi. Aktiv tomonida xo'jalik mablag'larining joylashuvi va passiv tomonida xo'jalik mablag'larining manbaalari jylashgan bo'ladi. Uning mazmuni aktiv va passiv tomonning doimo teng bo'lishini anglatadi. Chunki, korxona hisobida mavjud bo'lgan har qanday mablag' yoki boshqa aktivlar o'zining aniq kelib chiqish manbaiga ega bo'lishi lozim. Aks holda, hisob siyosati buzilib ketadi. Bu jihatdan Buxgalteriya balansi korxonaning jami mol-mulki va mablag'lari tartibotini olib boradi. Balansning qisqacha ko'rinishi quyidagi jadvalda o'z aksini topgan (2.2-jadval).

Keltirilgan jadvalga ko'ra, buxgalteriya balansiga quyidagicha ta'rifni berish mumkin: buxgalteriya balansi – bu korxona xo'jalik mablag'lari tarkibini, joylanishini, manbaalarini va ishlatilishini hisobot davrining ma'lum bir kuniga pul ifodalarida ko'rsatib beruvchi ikki yoqlama jadvaldir. bundan ko'rinadiki, balans momentli hisobot shakli

bo'lib xo'jalik operatsiyalari natijasida korxona aktiv va passividagi o'zgarishlarning yagona davrdagi holatini ko'rsatib beradi.

2.2-jadval

Buxgalteriya balansining soddalashtirilgan ko'rinishi

Aktiv		Passiv	
Xo'jalik mablag'larining tarkibi va joylashishi	Summa ming so'm	Xo'jalik mablag'larining paydo bo'lish manbaalari	Summa ming so'm
I. Uzoq muddatli aktivlar		I. O'z mablag'lari manbaalari.	
II. Joriy aktivlari		II. Majburiyatlar	
Balans		Balans	

Balansning aktiv va passiv tomonlarida korxona xo'jalik mablag'lari tarkibi, joylanishi va ishlatilishi yuqorida keltirilgan guruhlar bo'yicha alohida-alohida turlari yoki ularning alohida guruhchalari bo'yicha ko'rsatiladi. Bunda xo'jalik mablag'lari va ularning manbaalarini alohida nomlari balans moddolari deyiladi.

Buxgalteriya balansining aktiv va passiv moddalarining umumiy balans tarkibidagi ulushi yoki proporsiyasiga qarab bu korxonaning qaysi mulk shakliga asoslanganligini yoki tarmoq xususiyatini bilib olish mumkin. Masalan: sanoat korxonalarining balansining aktiv tomonida xomashyo, tugallanmagan ishlab chiqarish, qurilish korxonalarining balansida kurilish materiallari va o'rnatilmagan jihozlar, savdo korxonalarida esa tovar va tovarlarni umumiy balans summasidagi salmog'i ko'prok bo'ladi.

Buxgalteriya balansining uzoq muddatli aktivlar qismida eng kam ish haqining 50 baravaridan yuqori bo'lgan va bir yildan uzoq muddat xizmat qiladigan korxona aktivlari va joriy aktivlar qismida bir yildan kam xizmat qiladigan va eng kam ish haqining 50 baravaridan kam qiymatga ega bo'lgan korxona aktivlarining puldagi ifodasi aks etadi. Bundan tashqari, balansda aktivlar likvidlik prinsipi asosida joylashgan.

Passiv tomon ikki qismdan iborat bo'lib, 1-qism o'z mablag'lari manbaalari deyiladi. Mazkur qismda korxona tashkil topishida korxona

muassislari tomonidan ta'sis etilgan va boshqa korxonaga tegishli bo'lgan barcha mablag'lar ko'rsatiladi. Majburiyatlar qismida esa korxonaning jami qarzlar va kelgusi davr xarajatlarining pul qiymatidagi shakli aks etgan bo'ladi.

Inqirozni aniqlashda korxona buxgalteriya balansining aktivlari va majburiyatlarning jami balans tarkibidagi ulushi va boshqa shu kabi ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Tayanch so'z va iboralarlar:

Boshqaruv hisobi, moliyaviy hisob, buxgalteriya hisobi, axborot manbalari, buxgalteriya balansi, aktiv, passiv, uzoq muddatli aktivlar, joriy aktivlar, majburiyatlar, sof tushum, yalpi tushum, favqulodda foyda (zarar), soliq to'langungacha bo'lgan foyda(zarar).

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Korxonada boshqaruv va moliyaviy hisob – qaror qabul qilish jarayonini axborot bilan ta'minlash manbalarini aytib bering?
2. Moliyaviy hisobot shakllari va korxonani tahlil qilishda ulardan axborot manbai sifatida foydalanish yullarini tushuntirib bering?
3. Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlaridan axborot manbai sifatida foydalanishning o'ziga xos xususiyatlarini ayting?
4. Korxona balansi tushunchasi va uning tarkibini keltirib uting?
5. Umumxo'jalik faoliyatidan moliyaviy natijalarini aytib bering?

III BOB. KORXONA TO'LOV QOBILIYATI TUSHUNCHASI VA TO'LOVGA LAYOQATSIZLIKNING KELIB CHIQISH SABABLARI

3.1. Korxonaning to'lov qobiliyati haqida tushuncha

Milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi ishlab chiqarish korxonalari o'zlarining tijorat faoliyatlari davomida soliq organlari, tijorat banklari, sug'urta tashqilotlari, mol yetkazib beruvchilar, ishlab chiqarishga yaqindan yordam beruvchi infratuzilma subektlari va boshqa shu kabi korxona va tashqilotlar bilan iqtisodiy munosabatlarga kirishadi. Huddi shuningdek, mazkur xo'jalik subyektlari ishlab chiqarish korxonasi bilan hamkorlikka kirishadi. Bunday iqtisodiy hamkorlik aloqalari tomonlardan to'lovga layoqatli bo'lishni, shartnomada keltirilgan yetkazib berish shartlari va to'lov majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish talabini qo'yadi. Aks holda, hamkorlikka ishonchsizlik aralashib iqtisodiy munosabatlarga putur etadi. Shu o'rinda savol tug'iladi. Tomonlar shartnoma tuzishdan avval nimalarga e'tibor qaratishlari zarur?

Darhaqiqat, shartnoma shartlari bajarilish sharoitida buzilmasligi va har ikkala tomonning ham o'zaro aloqalariga putur etmasligi uchun tomon (hamkor)lar o'zaro shartnomani bajarish qobiliyatlarini oldindan o'rganib tahlil qilib chiqishlari zarur. Shartnoma shartlarining o'z vaqtida bajarilmasligi ishlab chiqarish sohasida inqiroz hatarini vujudga keltiruvchi asosiy omillardan biridir.

Har qanday hamkorlik ortida iqtisodiy manfaat va iqtisodiy qiziqishlar yotadi. Buni pul qiymatida ifodalaganda, shartnoma yoki sherikchilikning qiymatini ko'rish mumkin. Mazkur qiymatni to'lov majburiyati bir tomonga va uni qiymati darajasidagi xizmat ko'rsatish va (yoki) mahsulot yetkazib berish mas'uliyati ikkinchi tomonga tushadi. Bunday vaziyatda, aksariyat hollarda to'lov majburiyatini o'z bo'yniga olgan tomonga mas'uliyat va talab ko'proq bo'ladi. Chunki, hamkorlik qilishni istagan har qanday yuridik shaxs avvalo bo'lajak sherigini to'lov qobiliyatini shuningdek, aktivlari va majburiyatlari o'rtasidagi o'zaro

nisbatlarni o'rganishga intiladi. Sababi keyingi hamkorlikdagi aloqalarda sherikchilik bilan bog'liq to'lov munosabatlari yuzaga keladi. Bu sharoitda to'lov xatari yuzaga kelmasligi va muammolarni oldindan bartaraf etish maqsadida ham hamkorning to'lov qobiliyati tubdan o'rganiladi.

Bunday aloqalar natijasida hamkor tashqilotlar o'rtasida haqdorlik va qarzdorlik munosabatlari yuzaga kelishi tabiiy hol hisoblanadi. Xar bir korxona oddiy mahsulot yetkazib berish sharoitida o'z vaqtida to'lovlar to'lanishini istaydi. Chunki, boshqa korxonaga yetkazib berilayotgan tayyor mahsulot ishlab chiqarish jarayoniga xomashyo sifatida olib kelingan va unga qo'shilgan qiymatni qo'shilishi natijasida tayyor ko'rinishga keltirilgan. Qo'shilgan qiymat ham o'zida boshqa tashqilotlar bilan bog'liq to'lovli munosabatlarni vujudga keltirganligi sababli, o'z vaqtida majburiyatlarni bajarishi uchun tovar sotayotgan korxona ham sotib olayotgan korxonadan to'lov intizomiga rioya qilishini talab etadi. Aks holda, to'lov muddati etib kelib to'lanishi kechikkan debitorlik va kreditorlik qarzlari vujudga keladiki, bu holat bitta to'lov tizimida qatnashayotgan korxona va tashqilotlarni to'lov qobiliyatini tushib ketishiga olib keladi. Bunda qatnashayotgan shaxslar bozor munosabatlari tilida mol yetkazib beruvchi, xizmat ko'rsatuvchi, haridor, to'lovni kechiktirib to'lashda qarzdor va kreditor deb nomlanadi.

Xizmat ko'rsatish yoki mahsulot yetkazib berish mas'uliyatini bo'yniga olgan korxona va tashqilotlar uni shartnoma doirasida bajarishga harakat qiladi va ko'p hollarda bunga erishadi. Shu sababdan, asosiy e'tiborni to'lov mas'uliyati tushgan shaxsga qaratiladi.

To'lov mas'uliyati ko'p hollarda shartnomalar asosida vujudga keladi. Ya'ni, ishchi va korxona o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida ish haqini o'z vaqtida to'lash mas'uliyati, ko'rsatilgan xizmat, bijarilgan ish va yetkazib berilgan xomashyo va materiallar uchun to'lov majburiyati. To'lov majburiyati shartnomasiz vujudga kelishi ham mumkin. Bu byudjet va byudjetdan tashqari amalga oshirilishi zarur bo'lgan to'lovlar mas'uliyatida o'z aksini topadi.

Korxonada soliq organi bilan hech qanday shartnoma tuzmagan holda, davriy qarzdorlik vujudga keladi. Xozirda ko‘plab korxonalarda byudjet va byudjetdan tashqari jamg‘armalarga to‘lovlarni o‘z vaqtida to‘lamasligi oqibatida bankrotlik alomatlari sezilmoqda. Bunga sabab, inqirozga qarshi boshqaruvni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligidir. Bunday holatlarning keskin ko‘payib ketishi to‘lov qobiliyati o‘zi nima ekanligi haqida nazariy va amaliy bilimlarni talab qiladi.

Inqirozga qarshi boshqaruv jarayonida korxona to‘lov qobiliyati nima va uni aniqlash qanday usullar bilan amalga oshirilishini bilish hamkorlikni amalga oshirayotgan korxonalarning o‘z vaqtida to‘lovlarni to‘lab qobiliyatsizlik riskini kamaytirish imkonini beradi. Chunki, to‘lov qobiliyatini to‘g‘ri aniqlay bilish to‘lov mas‘uliyati tushgan korxona uchun shartnomani qiymati maksimum qancha bo‘lganida to‘lash imkoniyati mavjud ekanligini anglatrsa, ikkinchi tomon uchun debitorlik riskini oldini oladi.

To‘lov qobiliyati – bu korxona majburiyatlarini o‘z vaqtida bajara olish imkoniyati. To‘lov qobiliyati korxonaning bozordagi mavqeiga eng katta ta’sir qiluvchi moliyaviy holat bo‘lib, korxonada to‘lov qobiliyati mavjud bo‘lgandagina, bozor munosabatlarining faol qatnashuvchisiga aylanadi. Aks holda, korxonaga nisbatan ishonchsizlik hosil bo‘ladi va boshqa iqtisodiy inqirozni vujudga keltiruvchi muammolarni yuzaga keltiradi.

Korxonaning to‘lovga qobilligini ifodalovchi mashhur ko‘rsatkichlarga to‘lov layoqati va likvidligi kabi tushunchalar kiradi. Likvidlik tushunchasi korxona majburiyatlarini aktivlar bilan qoplay olish darajasi sifatida aks etadi. Likvidlikni boshqacha tushunchasi ham mavjud bo‘lib, bu korxona aktivlarini pulga aylanish tezligini aks ettiradi.

Odatda korxona to‘lov qobiliyatini aniqlashda joriy aktivlar va joriy majburiyatlarning o‘zaro nisbatidan foydalaniladi. Natijada, joriy majburiyatlarni joriy aktivlar orqali qancha qismini qoplay olish mumkinligi aniqlanadi. Shu orqali korxonaning joriy davrdagi to‘lovga qobilligi o‘rganiladi. Bundan tashqari, korxona to‘lov layoqatining

mavjudligi haqida aniq xulosa qilish uchun quyidagilarga ham e'tibor qaratish talab qilinadi:

- korxona aylanma mablag'lari aylanuvchanligining tezligi;
- debitorlik qarzlarni undirish tezligi;
- korxonaning bozordagi imidji;
- jami aktivlar tarkibida joriy aktivlarning ulushi (tarmoq xususiyatiga e'tibor beriladi);
- joriy aktivlarning tarkibida debitorlik qarzlarning ulushi;
- joriy aktivlar tarkibida pul mablag'lari va tovar moddiy zaxiralarining ulushi;
- to'lov intizomiga rioya qilish tarixi;
- korxona mahsulotiga bozorda bo'lgan ehtiyoj holati.

Keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, korxona to'lov qobiliyati haqida birgina ko'rsatkich bilan aniq xulosa berish qiyin. Uni batafsil o'rganish uchun esa yuqorida aytib o'tilgan xususiyatlarni ham muntazam o'rganib borish zarur.

3.2. Korxonada majburiyatlar, ularning vujudga kelishi va turlari

Bozor munosabatlarida ishtirok etuvchi barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov jarayonlarida qarzdor yoki kreditor bo'lib ishtirok etadi. Chunki, bozorda faoliyat olib borish sharoitida korxonalarda muntazam moliyaviy imkoniyatlari etarli bo'lmaydi. Masalan, mahsulot sotilganidan so'ng kni puli hisob-kitob raqamiga kelib tushkingacha bo'lgan jarayonda, yoki ishchilarga ish haqi va soliq to'langandan so'ng korxonada pul mablag'larini uzilishi davriy ravishda ro'y beradi, bu holda korxonada hamashy va materiallarga bo'lgan talab vujudga kelib qolsa, u qarz hisobiga mahsulot sotib olishga majbur bo'ladi. Boshqa hollarda, qarzga mahsulot sotishga majbur bo'ladi. Shunday ekan, korxona balansida majburiyatlarni vujudga kelishi tabiiy hol hisoblanadi. Qachonki, debitor va kreditor qarzdorlik muddatidan o'tib ketsagina, salbiy hisoblanadi. bu tushunchalarni batafsil ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

Qarzdor – bu turli ko‘rinishda va turli operatsiyalar natijasida o‘zgalar oldida majburiyat vujudga kelgan shaxs hisoblanadi. Boshqa ta’riflarda **qarzdor** – pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlarning talablarini qondirishga va (yoki) majburiy to‘lovlar bo‘yicha o‘z majburiyatini bajarishga qodir bo‘lmagan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor¹⁸. Bundan ko‘rinadiki, qonunga asosan qarzdor faqatgina yuridik yoki yakka tartibdagi tadbirkordir. Jismoniy shaxs ham qarzdor bo‘lishi mumkin. Lekin milliy qonunchiligimizda faqatgina yuridik shaxs va yakka tartibdagi tadbirkorlargagina bankrotlik taomili qo‘llanilganligi uchun qarzdor sifatida ular e’tirof etilgan.

Kreditorlar esa qarzdor tomonidan qaraganda undan haqdor shaxslar. Unga qonunda quyidagicha ta’rif berilgan: **kreditorlar** – qarzdor pul majburiyatlari bo‘yicha va (yoki) majburiy to‘lovlar majburiyatini bajarish bo‘yicha qaysi yuridik yoki jismoniy shaxs oldida javobgar bo‘lsa, ayni shu yuridik yo jismoniy shaxslar (qarzdor qaysi fuqaroning hayoti yoki sog‘ligiga zarar yetkazganligi uchun javobgar bo‘lsa, ayni shu fuqaro, shuningdek o‘z ishtirokidan kelib chiqadigan majburiyatlar bo‘yicha qarzdor yuridik shaxsning muassislari (ishtirokchilari) bundan mustasno)¹⁹. Qonunda kreditorlar sifatida sof hamkorlar hisobga olinadi. Lekin qarzdordan o‘z majburiyatini vaqtida bajarishni har qanday shaxs talab qiladi. Shuni e’tiborga olgan holda ta’rifni mavzu doirasida kengaytirish mumkin. Ya’ni **kreditor** – bu shunday shaxski, u boshqa qarzdor shaxs oldida o‘ziga nisbatan majburiyatni vujudga keltirgan.


Majburiyat iqtisodiy munosabatlarda korxonalarni ishtiroki nuqtai nazaridan olib qaraganda, korxonani boshqa yuridik va jismoniy shaxslar oldidagi pul mablag‘lari va boshqa ko‘rinishdagi qarzdorlik bo‘lib hisoblanadi. Korxona buxgalteriya balansida aktivlarni chetdan jalb qilingan mablag‘lar hisobiga shakllangan manbaini aks ettiradi.

Majburiyatni korxonada vujudga kelishi bo‘yicha yuqorida dastlabki tushunchalar berib o‘tildi. Bundan tashqari, korxonada

¹⁸ Ўзбекистон Республикасининг “Банкротлик тўғрисида”ги Қонунига шарҳлар // Муаллифлар жамоаси М.К.Азиев ва бошқ. – Тошкент: 2007 – 640 б.

¹⁹ Ўзбекистон Республикасининг “Банкротлик тўғрисида”ги Қонунига шарҳлар // Муаллифлар жамоаси М.К.Азиев ва бошқ. – Тошкент: 2007 – 640 б.

majburiyatlarning bajarish imkoniyati quyidagi hollarda vujudga kelishi mumkin:



3.1-rasm. Majburiyatlarni bajarish imkoniyatlarini kamayish sabablari

Korxona majburiyatlarini muntazam nazorat qilib borish va ularni oqilona boshqarish inqirozga qarshi boshqaruv jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Chunki, pul mablag'lari kirim-chiqimini, korxona to'lov qobiliyatini muntazam kuzatib borish majburiyatlarni boshqarish asnosida sodir bo'ladi.

Korxonalarni inqirozga yuz tutishi va iqtisodiy nochorlikni boshdan kechirishining oxirgi sababi ham mana shu majburiyatlarni keskin darajada ko'payib ketishi natijasida, to'lov qobiliyatini tushib ketishi bilan ifodalanadi. Shu sababli, majburiyatlarni turli klassifikatsiyasi bo'yicha to'g'ri boshqarib borish, kreditorlar bilan doimiy iliq munosabatni shakllantirish inqiroz riskini kamaytiradi.

Korxona qarzдорligin shartli ravishda quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

-Fiskal tizim oldidagi qarzlar. Bu davlat byudjeti oldidagi qarzlar hisoblanib, unga korxona o'z ixtiyoridan tashqari majburiy belgilangan tartibda to'laydigan to'lovlar kiradi. Bular soliqlar, pensiya fondiga

ajratmalar, yagona ijtimoiy to'lov va shu kabilar. Shuni ham ta'kidlash lozimki, byudjet oldidagi qarzdorlik jazolovchi bo'lishi ham mumkin. Ya'ni penchlar turli ko'rinishdagi jarimalar bunga misol bo'la oladi.

-Moliya-kredit tizimi oldidagi qarzdorlik. Bunga turli moliya muassasalari, moliya bozorlari bilan bo'ladigan munosabatlarda vujudga keladigan qarzdorliklar kiradi. Bular davriy foiz to'lovlari, kreditning tani, qimmatli qog'ozlar yuzasidan vujudga kelgan to'lovlardan qarzdorliklar hisoblanadi. Shu bilan birgalikda bu turdagi qarzdorlikka sug'urta kompaniyalar oldidagi qarzdorliklarni ham kiritish mumkin.

-Kreditorlarga ular tomonidan taklif etilgan tovarlar va xizmatlar uchun majburiyatlar. Bu boshqa hamkorlar, mol yetkazib beruvchilar va turli xizmat ko'rsatuvchilar bilan tuzilgan shartnomalar yuzasidan kelib chiqadigan qarzdorlikni anglatadi. Bugungi kunda korxonalar qarzdorligini eng katta qismi shu turdagi majburiyatlarga to'g'ri kelmoqda. Bu esa o'z vaqtida korxonalar o'rtasidagi immobilizatsiyalashgan pul mablag'lari hajmini ortib kelishiga olib kelmoqda.

-Aksiyadorlar va korxona ishchi hodimlari oldidagi qarzdorlik (ichki qarzdorlik). Bu guruhga ish haqi to'lovlaridan, turli mukofot va xizmat safari uchun to'lovlardan, dividend va boshqa to'lovlardan qarzdorliklar kiradi. Ichki qarzdorlikni o'sib ketishi korxona imidjini omma oldida pasayib ketishiga va investor va ishchi-xizmatchilar o'rtasida ishonchni yo'qolib ketishiga olib keladi.

Korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijasida vujudga kelgan majburiyatlarni aniq bajarish vaqtlari mavjud. Majburiyatlarni o'z vaqtida bajarmaslik, to'lov intizomini buzilishi hamkorlar va boshqa kreditorlarning xatar darajasini oshiradi. Korxonaning to'lov qobiliyati bo'yicha hatar darajasini ortib borishi va to'lov muddatini uzayib ketishi muassislar, investorlar, hamkorlar oldidiga korxonaga bo'lgan ishonchni pasaytiradi. Bunday korxonalar o'z faoliyatlarini ishonchsiz sheriklar bilan davom ettirishga majbur bo'ladilar. Va ular bevosita jamiyat oldida intizomsiz to'lovchiga aylanadilar.

3.3. Korxonada to'lovga layoqatsizlikning kelib chiqish sabablari

Majburiyatlar ixtiyoriy bo'ladimi yoki majburiy bo'ladimi ularni to'lov muddatini o'tishi korxonalarni to'lov qobiliyatini pastligidan va iqtisodiy nochorlik alomatlarini mavjudligidan dalolat beradi. Majburiyatlarni bajarilmasligi yana aytish mumkinki, korxona faoliyatini susayishi hamda inqiroz xatarini ortib borayotganligini ko'rsatadi. Lekin aytish mukinki, har qanday faoliyatni yuz foizlik oldindan to'lov bilan amalga oshirish mushkul asli mumkin emas. Deyarli barcha tashqilotdalarda davriy tartibda majburiyatlar mavjud bo'ladi. Bundan xamma korxonalar ham to'lovga noqobil deb aytib bo'lmaydi. Chunki korxonalar o'zaro shartnomalar tuzayotganda mol yetkazib berish va to'lov muddatini ko'rsatib o'tadilarki, ungi rioya qilgan korxonani moliyaviy barqaror deb aytish mumkin. Vaholanki, tovar etib kelgandan muddatdan boshlab 3 kun ichida pulni mol yetkazib beruvchini mijoz bankidagi hisob raqamiga o'tkazib berishga kelishilgan bo'lsa, mol etib kelgandan so'ng korxona yetkazib beruvchi oldida 3 kungacha qarzdor bo'ladi. Bu uni majburiyati bor demak to'lovga qobiliyatsiz deyishga asos bo'lmaydi. Shu sababdan ham korxonalarni to'lovga noqobilligi tahlil qilinayotganda eng muhimi muddati o'tib ketgan kreditorlik qarzdorligi hisoblanadi.

To'lovga noqobillikning davriy xususiyat mavjud. Ko'p ishlab chiqarish korxonalarida buni yaqqol ko'rish mumkin. Fasllarni almashinishi yoki, ma'lum moda va urflarni o'zgarishi deyarli barcha korxona uchun mavsumiylikni mavjud ekanligini isbotlaydi. Korxonalar esa mavsumga moslashib toki bozor segmentini ushlab qolgunlaricha muayyan muddat to'lov qobiliyatlari pasayib boradi. Moliyaviy barqaror korxonalar ham tez-tez yangi mavsumga moslashib olishlari uchun bunday holatlarni boshdan o'tkazadilar. Bu holatda o'zini tezlik bilan tiklab olishlik korxona barqarorligini oshirsa, bu davrda esankirab qolish korxonani butkul muammolar girdobiga tashlab qo'yadi.

Korxonaning to'lovga noqobilligi (to'lovga layoqatsizligi) – bu to'lov muddati kelgan majburiyatlarini shartnomada kelishilgan va (yoki) qonun bilan belgilangan muddatlarda bajara olmasligi. To'lov

qobiliyatining mavjud emasligi korxonaning o'z majburiyatlarini vaqtida bajarishiga to'sqinlik qiladi va iqtisodiy nochorlik holatini yuzaga keltiradi. Inqirozga qarshi moliyaviy boshqaruvning asosiy vazifasi korxona to'lov layoqatini tiklash bo'lib hisoblanadi. Chunki, korxona to'lov layoqatini pastligi inqirozga qarshi boshqaruvni samarasiz faoliyatidan darak beradi. Agar korxona to'lov layoqati tiklanmaydigan bo'lsa, korxonadagi inqirozli vaziyat yanada avj oladi.

Korxona to'lovlarni muddatidan biroz kechiktirib to'lashi va muddatini o'tkazib yuborishi to'lov qobiliyatini pasayib ketayotganligidan va inqiroz hududiga tushib qolganligidan dalolat beradi. Hamkor korxonani shu kabi inqirozga tushib o'z majburiyatlarini bajarish imkoniyatini pasayishi boshqa sheriklarini ham to'lov qobiliyatini pasayib borishi natijasida bu holat zanjirsimon ko'rinish olishi mumkin. Bu albatta kreditorlarning moliyaviy holatlariga jiddiy ta'sir ko'rsatib ularning boshqa hamkorlari oldidagi majburiyatlarini bajara olmasliklariga olib keladi. Boshqa so'zlar bilan aytish mumkinki, to'lovga noqobillik korxona kreditorlariga moliyaviy zarar yetkazadi, o'z resurslaridan samarali foydalanishiga to'sqinlik qiladi. Oxir-oqibat to'lovga noqobillik korxona kreditorlarining oldiga bir qancha variantlarning tanlovini qo'yadi:

- korxonaning to'lovga noqobilligi sharoitida unga inqirozdan chiqish va to'lov qobiliyatini tiklash uchun imkoniyat berish;

- o'z haqini tezroq undirish maqsadida korxona mulkini sotish, tugatishga doir ish yuritishni xo'jalik sudidan so'rash.

Bu yerda xamma narsa faqatgina kreditorga bog'liq bo'lmaydi. Qarzdorning o'zi ham xususiy tartibda inqirozli vaziyatni va majburiyatlarini bajara olish imkoniyati yo'qligini to'g'ri baholagan holda kreditorlar bilan kelishuv ishlarini amalga oshirishi mumkin. Hattoki, korxona sifatida o'z-o'ziga nisbatan tugatishga doir ish yuritish (likvidatsiya)ni qo'llashi mumkin.

Tadqiqotlardan ko'rinadiki, to'lovga noqobillikni keltirib chiqaruvchi sabablarga barcha olimlar turlicha fikr bildirganlar. Ba'zilar noqobillikni vujudga keltiruvchi asosiy omil marketing siyosatini to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi deb baholasa boshqalar moliyaviy menejmentni

to'g'ri tashkil etilmaganligi bilan bog'laydi. Darhaqiqat, korxonalarda to'lovga noqobillikni keltirib chiqaruvchi omillar xilma-xil bo'lib ular bozor yoki ichki muhitda ishlarni tashkil etilganlik darajasi bilan bog'liq bo'ladi. Masalani bu nuqtai nazar orqali o'rganish, huddi inqiroz kabi to'lovga noqobillikni ham keltirib chiqaruvchi sabablar tashqi va ichki sabablarga bo'linishini ko'rsatadi.

Fikrimizcha, inqirozga ko'proq tashqi omillar ta'sir ko'rsatsa, to'lov layoqatini yo'qotishga ichki omillar ta'sir kuchli bo'ladi. Bundan, inqiroz va to'lov layoqatini yo'qotish aynan bir xil vaziyat emasligini bilish mumkin. Iqtisodiy inqiroz to'lov layoqatini yo'qotishga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, korxona inqirozga uchrashidan avval to'lov layoqatini yo'qotadi va shu payitda boshqa tashqi sabablarning salbiy ta'siri natijasida o'zini tiklay olmasdan, inqirozga yuz tutadi. Ya'ni, korxona ichki muhitida, boshqaruvida vujudga kelgan muammolar va vaqtinchalik qiyinchiliklar to'lovga layoqatsizlikni hosil qiladi, shu davrda korxonani faoliyatiga salbiy ta'sir qiluvchi tashqi omillarning vujudga kelishi inqiroz hatarini yanada kuchaytiradi. Demak, to'lovga noqobillik inqirozning dastlabki bosqichi ekanligini anglash mumkin.

Umumiy qilib olganda, korxona to'lov layoqatini buzilishiga quyidagi omillar olib keladi:

- Kadrlar malakasini pastligi natijasida moliyani boshqarish ishlarini to'g'ri tashkil etilmaganligi;
- Mahsulot sifatini pasayishi oqibatida sotishni kamayishi;
- Valuta kursidagi farqlarni ortib ketishi;
- Jarima va penyalarni ko'payib ketishi;
- Yirik debitorlik qarzlarini qaytarilmasligi;
- Favqulodda hodisalar natijasida aylanma mablag'larning kamayishi va sh.k.

Keltirib o'tilgan asosiy noqobillikni keltirib chiqaruvchi sabablar oxir-oqibat korxona aylanma mablag'larini keskin kamayib ketishiga olib keladi. Joriy aktivlarning joriy majburiyatlardan kamayib ketishi esa to'lovga noqobillikni keltirib chiqaradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, to'lovga layoqatsizlikni sababi nima bo'lishidan qat'i nazar barcha sabablar bitta hodisaga, ya'ni aylanma

mablag'larni kamayishiga olib keladi. Korxonada aylanma mablag'larning yetishmovchiligi esa naqd pul tanqisligini keltirib chiqaradi so'ng korxona to'lov layoqatini yo'qotadi.

Tayanch so'z va iboralarlar:

To'lov qobiliyati, qarzdor, korxona majburiyatlari, kreditor, korxonaning to'lovga layoqatsizligi, moliya-kredit tizimi, fiskal tizim.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Korxonaning to'lov qobiliyati haqida tushunchalar mavjud?
2. Korxonada majburiyatlar, ularning vujudga kelishi va turlari mavjud?
3. Korxona qarzdorligin shartli ravishda quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin?
4. Korxonada to'lovga layoqatsizlikning kelib chiqish sabablari mavjud?
5. Umumiy qilib olganda, korxona to'lov layoqatini buzilishiga qanday omillar mavjud?

IV BOB. TO'LOV QOBILIYATSIZ KORXONANING IQTISODIY HOLATINI TAHLILI HAMDA UNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARINI BAHOLASH

4.1. Inqirozning turli bosqichlaridagi korxonalar faoliyatining joriy tahlili

Ma'lumki, korxonalar faoliyati davomida turli xil moliyaviy muammolarga duch kelishadi. Korxonalarda ichki tahlilni olib boruvchi subyektlar hamda tashqi tahlil qiluvchi (auditor)lar korxona rivojlanishi hamda inqirozning turli bosqichlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy qiyinchiliklarni, ulardan chiqish yo'llarini, shuningdek, korxonada boshqaruv qarorlaridan samarasiz foydalanish natijasida yoki tasodifan yuzaga keladigan moliyaviy muammolarni oqilona bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqishlari lozim.

Normal sharoitlarda faoliyat olib borayotgan korxona har doim zararsizlik darajasidan yuqori holatda bo'ladi. Bunda korxona tushumi hamda foydasining tebranish darajasi o'rtasidagi farq juda ham katta bo'lmaydi va bu holat korxonaning o'z qarz majburiyatlarini bajarishiga, xususan, bu majburiyatlarni sof foydadan amalga oshirishga sezilarli ta'sir qilmaydi. Aks holatda korxonalar o'zlarining yuqori investitsion faoliyatlarini saqlab qolgan holda, xarajatlarini qo'shimcha kredit yoki qarz mablag'laridan foydalanib amalga oshirishlari mumkin bo'ladi. Korxonalar faoliyatida uchraydigan xavf-xatar darajasini uning rezerv (zaxira)lari va potensial imkoniyatlari bilan tenglashtirish maqsadida korxonalarda turli xil rivojlantirish dasturlari ishlab chiqiladi. Ammo bu dasturlarni oqilona qo'llay olmaslik korxona mahsulotining me'yorida ko'p ishlab chiqarilishiga yoki kredit hajmining oshib ketishiga ham sabab bo'lishi mumkin.

Noqulay sharoitlarda faoliyat olib borayotgan korxona oxir-oqibatda ishlab chiqarish hajmining keskin kamayib ketishiga va natijada zararsizlik nuqtasidan pastga tushib ketish holatiga etadi. Bunday hollarda korxonaning asosiy mahsulotini sotishdan tushadigan

tushum hajmi hamda tannarxni o'zgartirish imkoniyatlaridan foydalanish ham korxonani zarar bilan ishlashini bartaraf etishga, uning investitsion faoliyatini yaxshilashga, shuningdek rivojlanishi uchun etarlicha mablag'ga ega bo'lishi va xarajatlarini qoplashiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Buning oqibatida korxonada kelajakda uning faoliyatiga yanada salbiy ta'sir ko'rsatadigan jarima va penya yig'ilib boradi. Korxona hayot tsiklining ana shunday murakkab, ya'ni boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ulardan foydalanish muddatining qisqarishi davrida korxona faoliyatini tahlil qilish o'ziga xos ahamiyatga ega. Odatda korxona bunday muammolarga hayot tsiklining dastlabki birinchi-ikkinchi yillarida, ya'ni korxonani tashkil etish, unga mablag' kiritish, yangi mahsulot ishlab chiqarish va uni bozorga olib kirish, raqobat muhitining paydo bo'lishi bilan duch keladi. Tahlilchilar, odatda hisobchilar, har qanday holatda ham korxonani ana shunday xavf-xatarlardan himoya qilish uchun strategik qarorlar yoki qisqa muddatli chora-tadbirlarni ishlab chiqishlari talab etiladi. Bunday qarorlar esa korxonada olib boriladigan joriy tahlil natijasida shakllantiriladi. Inqiroz holatidagi korxonaning inqiroz darajasini o'rganish, sabablarini anqlash va unga qarshi sog'lomlashtirish rejalarini ishlab chiqish korxona mutaxassisilaridan tahlil qilishni talab qiladi. Inqiroz holati, uni korxona xo'jalik faoliyatiga ta'siri darajasi va inqirozni vujudga keltirgan omillarning turlari inqirozli holatni tahlil qilishni va shunga muvofiq xulosa berish bilan aniqlanadi. Korxonadagi inqiroz darajasini o'rganishda tahlilning umumiy xususiyatlari va vazifalari bilan tanishib, qaysi ko'rsatkichlar yordamida tahlil qilishni amalga oshirish bo'yicha aniqlik kiritib olish tahlil jarayonidagi muammolarni bartaraf etadi. Shuning uchun, inqirozga qarshi boshqaruvning ajralmas qismlaridan biri inqiroz holatini tahlil qilish jarayonidir.

Tahlil xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini o'rganishni va shunga muvofiq tashxislash imkoniyatlarini yuzaga keltiradi. Tahlil natijasida, korxonada mavjud saqlanib turgan muammolar aniqlanadi va bartaraf etish yo'nalishlari ko'rsatiladi.

Umuman olganda, korxonaning inqiroz darajasini baholash va tahlil qilishning maqsadi – korxonada vujudga kelgan inqirozli holatni o‘rganish va uni bartaraf etish zaxiralarini izlab topishdan iboratdir. Mazkur maqsaddan kelib chiqqan holda, inqirozga qarshi boshqaruv sharoitida tahlil quyidagi vazifalarni bajaradi:

- O‘rganilayotgan korxonaning inqirozli holatiga to‘g‘ri va xolisona baho berish;

- Inqirozga ta’sir etuvchi barcha omillarni aniqlash, ularning ta’sirini hisoblash;

- Sog‘lomlashtirish rejasining bajarilishi natijasida korxonaning moliyaviy barqarorligini ta’minlanishi, uning iqtisodiy qudratini yaxshilanishi, har bir xo‘jalik subyekting raqobatbardoshligini oshirilishi uchun mavjud ichki va tashqi imkoniyatlarni o‘rganish;

- Korxona resurslaridan samarali va oqilona foydalanish darajasiga baho berish;

- Korxonaning iqtisodiy va moliyaviy potensialiga, uning to‘lovga qobiliyatligiga baho berish;

- Inqirozga qarshi boshqaruv jarayonida korxonaning iqtisodiy va moliyaviy holatini muntazam tekshirib turish;

- Korxonada inqirozga qarshi boshqaruv jarayonida samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini aniqlash;

- Korxonaning tijorat sirini saqlagan holda, uning moliyaviy ahvolini tiklanishini keng jamoatchilikka ko‘rsata bilish va tashqi investorlarni korxona faoliyatini yaxshilashga jalb qilish;

- Inqirozga qarshi boshqaruvning eng qulay va nafli usullarini ishlab chiqish, ilg‘or g‘oya va tajribalarni o‘rganilayotgan hodisaga qo‘llash yo‘l-yo‘riqlarini ko‘rsatib berish kabi jarayonlarga tegishli axborotlar manbaini yetkazib berish;

- Inqirozga qarshi boshqaruvning borishi bo‘yicha xulosalar berish;

- Korxonani istiqboldagi strategiya va taktikasini tuzish uchun iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosini aniqlash;

- Sog‘lomlashtirish rejasining bajarilishiga obyektiv baho berish hamda uni bajarishda korxonalarga bog‘liq bo‘lgan va bog‘liq

bo'lmagan omillarni bir-biridan ajratgan holda aniqlash;

-Korxonaning sog'lomlashtirish rejasini tuzish uchun tegishli axborotlar bilan ta'minlash;

-Tuzilgan sog'lomlashtirish rejasini to'g'ri va ilmiy asoslanganligiga baho berish.

Inqirozga qarshi boshqaruv jarayonida tahlilning vazifalari o'sha holatdan kelib chiqib, yana bir qancha darajada ko'payishi mumkin. Bu korxona inqirozini tendensiyasiga bog'liq bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, bu vaziyatda tahlil o'tkazish ishlari juda ham muhim hisoblanib, bu tahlilning oldiga qo'yilgan vazifalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Mazkur vazifalarni to'g'ri va obyektiv bajarilishi inqirozga qarshi boshqaruv jarayonida qabul qilingan qarorlarning samaradorligini yanada oshiradi. Tahlilning barcha vazifalarini bajarilishi darajasi ko'rsatkichlar tizimini to'g'ri tanlanishiga bog'liq.

Bugungi kunda, korxona inqirozini tahlil qiluvchi ko'rsatkichlar tizimini taklif etishda rang-baranglikni kuzatish mumkin.

Korxonada vujudga kelgan inqirozni tahlil qilish jarayoni va uning yo'nalishlari xilma-xil bo'lib, buni uchta katta guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

➤Korxonaning inqirozli holatini turli guruhdagi ko'rsatkichlar kompleksi asosida tahlil qilish.

➤Korxona iqtisodiy ahvolini reyting asosida baholash.

➤Korxona moliyaviy holatini omilli modellari yordamida baholash.

Mazkur ko'rsatkichlar guruhi ko'plab tahlilchilar tomonidan deyarli barcha adabiyotlarda bir xil ko'rsatilib, ularni to'rtta yirik guruhga bo'linadi:

➤Likvidlik koeffitsientlari;

➤Moliyaviy mustahkamlik koeffitsientlari;

➤Ishchanlik faolligi koeffitsientlari;

➤Rentabellik ko'rsatkichlari.

Korxonadagi inqiroz darajasini mana shu ko'rsatkichlar tizimi yordamida to'rt tomondan baho beriladi. Likvidlik ko'rsatkichlari

majburiyatlarni qoplash darajasini, moliyaviy mustahkamlik koeffitsientlari korxonaning moliyaviy holatini, mshchanlik ko'rsatkichlari korxona mablag'larini aylanuvchanligini va rentabellik foydasining nisbiy holatini ko'rsatib beradi.

4.2. Korxonalarda bankrotlikning yashirin bosqichi: moliyaviy nobarqarorlik, yaqqol inqiroz

Korxonaning nochorligi (bankrotligi) alomati - agar shu korxona kreditorlar talablarini ularni bajarish muddati boshlangandan keyin uch oy ichida bajarilishini ta'minlamasa yoki ta'minlay olmasligi ma'lum bolsa va kreditorlarning umumiy talablari summasi eng kam ish haqi miqdorining 500 baravaridan oshsa, uning joriy to'lovlarining to'xtatib qo'yilishidir. Qonun mulkchilik shaklidan kat'i nazar barcha korxonalarga tegishli, byudjet tashqilolari bundan mustasno. Qobiliyatsizlik fakti xo'jalik sudi tomonidan rasmiy e'tirof etilgandan sung bankrotlik kayd etiladi.

Qonunda qarzdor korxonaga nisbatan bir nechta protseduralarning kullanilishi kuzda tutilgan.

Birinchi protsedura - kuzatuv sud tomonidan bankrotlik to'g'risidagi ish kurib chiqilishi davrida qarzdorga nisbatan kullaniladi.

Ikkinchi protsedura - korxonanining to'lov qobiliyatini tiklashga xizmat qiladigan sud sanatsiyasi, bunda korxona mulkdorlari yoki kreditor yoxud boshqa shaxslar (jumladan davlat) qarzdor korxonaga moliyaviy yordam ko'rsatadi. Sanatsiya utkazish uchun asos sifatida to'lov qobiliyatini tiklashning real imkoniyati karaladi.

Uchinchi protsedura - tashqi boshqaruv bo'lib, bunda xo'jalik sudi tashqi boshqaruvni tayinlaydi. Unda korxonaning boshqarish bo'yicha barcha funksiya va vakolatlari tashqi boshqaruvchiga utadi. Korxonaning layoqatsizligi haqida ish qo'zg'atish uchun qarzdorning o'zi, yoki kreditor yoxud prokuorning arizasi asos buladi. Karzdorning arizasida tashqi boshqaruvni joriy etish to'g'risida iltimosi bayon etilishi mumkin. Tashki boshqaruvni joriy etish uchun asos sifatida qarzdor

mulkning bir qismini sotish va boshqa tadbirlarni amalga oshirish yuli bilan korxona faoliyatini davom ettirishning real imkoniyati karaladi. Karzdor mulkini tashqi boshqarish muddati 24 oydan oshmasligi kerak. Agar korxona tashqi boshqaruv protseduralarini o'tkazish natijalari bo'yicha uzining to'lov qobiliyatini tiklagan bulsa, bankrotlik to'g'risida ish qo'zg'atishni to'xtatish haqida qaror qabul qilinadi, agar to'lov qobiliyati tiklanmasa, korxona bankrot deb e'tirof etiladi va tugatiladi, uning mulki esa sotuvga kuyiladi.

To'rtinchi protsedura - korxonani bankrot deb e'lon qilish va tugatish ishini ochish. Tugatish qarzdor korxonaning moliyaviy ahvoli nihoyatda tang bo'lib, qayta tashkil qilish amallari yordamida yaxshilanishiga umid bulmaganda kullaniladi. Tugatish ishlari bilan bog'liq barcha xarajatlar koplangedan sung, kreditorlar talablari qonunda belgilangan navbat bilan qoniqtiriladi.

Beshinchi protsedura - kelishuv bitimi bo'lib, u qarzdor va kreditor o'rtasida bankrotlik ishi bo'yicha ishning har kandy bosqichida tuzilishi mumkin. Kreditorlarning aksariyat soni, jumladan garov bilan ta'minlangan kreditorlarniig barchasi roziligi bilan kelishuv bitimi tuzilgan hisoblanadi. Kelishuv bitimi xo'jalik sudi tomonidan tasdiqlanishi kerak.

Bankrotlik jarayoni qarzdor korxonaning keyingi taqdirini belgilovchi qarorlarning qabul qilinishi bilan birga kechadi. Bunday qarorlarning samaraliligi va adolatliligi korxonaning moliyaviy ahvolini baxolash darajasiga, uning barcha imkoniyatlarini aniqlashga boglik.

Bankrotlik alomatlari:

Bozor sharoitida har qanday korxona bankrot bo'lishi yoki «begona» bankrotlikning qurboniga aylanishi mumkin. Biroq mohirlik bilan olib borilgan iqtisodiy strategiya, shuningdek, moliya, investitsiyalar, marketing va narxlarni shakllantirish borasidagi oqilona siyosat korxonaga bankrotlikning oldini olish va uzoq yillar davomida ishchanlikni, daromadlilikni, ishonchli sherik hamda sifatli mahsulot ishlab chiqaruvchisi degan nufuzli nomni saqlab qolish imkonini beradi.

G'arb mamlakatlari tajribasining ko'rsatishicha, bankrot firma muayyan vaziyatlar va sabablar tufayli o'z holicha «sinadi». Shunga qaramay, har qanday bankrotlikka qarshi umumiy vosita mavjud – korxona holatini muntazam moliyaviy tahlil qilish. Bu gullab yashnayotgan firmalarga ham tegishli. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aynan moliyaviy tahlil yetakchi o'rin tutadi, chunki bunday tahlil orqali moliyaviy resurslarni samarali boshqarish mumkin. Ushbu resurslarning qanchalik to'liq va maqsadga muvofiq ravishda asosiy va aylanma vositalarga, shuningdek mehnatga haq to'lash va mehnatni rag'batlantirish vositasiga aylanishi korxonaning, uning mulkdorlari va xizmatchilarining farovonligini belgilaydi.

Bankrotlikni oldini olish yuzasidan tavsiya etiladigan chora-tadbirlar:

Xo'jalik subyekting iqtisodiy nochorligini oldini olish bo'yicha strategiyani ishlab chiqish uchun rahbarga, avvalambor, quyida taklif etilayotgan dastur bo'yicha korxonaning moliyaviy-iqtisodiy ahvolini har tomonlama tahlil qilish tavsiya etiladi:

1. Korxonani boshqarish tuzilmasi va kadrlar tarkibini o'rganish, bunga barcha toifadagi xodimlar jalb kilinadi. Boshkaruvchilarning raxbar tarkibi, tsex raxbarlari, masterlarning kasbiy layoqatini aniqlash hamda ularning joyini o'zgartirish yoki almashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish. Korxonani boshqarish tizimini samarali qayta tashkil qilishni amalga oshirish.

2. Korxonaning so'nggi ikki yil ichidagi va hisobot davri uchun moliyaviy-xo'jalik faoliyati tahlilini o'tkazish, bu byudjetdagi "zaif" joylarni, moliyaviy rejalashtirishdagi, marketing, shartnomaviy ishlardagi (da'volar va e'tirozlarning mavjudligi), ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini aniqlashdagi va boshqa masalalardagi xatolarni aniqlash.

3. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning likvidsizligi yoki cheklangan likvidliligi sabablarini o'rganish va tahlil qilish, bozor talablaridan kelib chiqib mahsulot sifatini keskin oshirish, mahsulot

turlarini kengaytirish va o'zgartirish masalalarini ko'rib chiqish (bunda soliq solish bo'yicha imtiyozlarni qo'lga kiritish maqsadida yangi mahsulotni patentlash imkoniyatini ham hisobga olish lozim).

4. Qarzar, soliqlar, jarimalar tarkibini tahlil qilish va ularni qisqartirish va yo'qotish bo'yicha strategiya belgilash.

5. Tayyor mahsulot qoldiqlarini, keraksiz tovar-moddiy boyliklarni aniqlash maqsadida to'liq inventarizatsiya o'tkazish va bularning qaysilarini o'z oborot mablag'larini to'ldirish uchun korxonaga zarar yetkazmasdan realizatsiya qilish mumkinligini aniqlash.

6. Ishlab chiqariladigan mahsulot tannarxi tarkibini tahlil qilish, uning eng ko'p xarajat talab qiladigan qismlarini aniqlash va xarajatlarni qisqartirish choralari ishlab chiqish.

7. Har bir texnologik o'tish bo'yicha ishlab chiqarish jarayonlarini o'rganish, jixozlar unumdorligi va ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatiga ta'sir qiladigai kamchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf qilish choralari belgilash.

8. Yonilgi-energetika xo'jaligi ahvolini baholash, korxona elektr taminoti va issiqlik ta'minotining ishonchliligiga ta'sir qiladigan kamchiliklarni aniqlash, yonilg'i, elektr energiyasi, suv, siqilgan havo va h.k.ni tejamkorlik bilan sarflash. Iqtisodiy samaradorlikni hisoblab chiqib kamchiliklarni yo'qotish va barcha energiya tashuvchilar sarf-xarajatini qisqartirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish.

9. Texnologik jihozlar parkining texnik holati va eskirganlik darajasini tekshirish, asbob-uskunalarini ta'mirlash va qayta tiklash uchun zarur xarajatlarni belgilash, iqtisodiy samaradorlikni asoslash.

10. Yukorida ko'rsatilgan yunalishlar bo'yicha tadqiqotlar tugaganidan so'ng muxandis-texnik xodimlar bilan yig'ilish o'tkazib, unda olib borilgan taxlil natijalarini muxokama qilish, xar bir bulinma oldiga xarajatlarni qisqartirish, mahsulot ishlab chiqarishni oshirish va uning sifatini yaxshilash bo'yicha muayyan vazifalar qo'yish hamda kutilayotgan iqtisodiy samaradorlikni hisoblab chiqib xar bir bo'linma

bo'yicha tadbirlar rejasini tuzib, ularni bajarish muddatlari va mas'ul shaxslarini ko'rsatish maqsadga muvofiq.

Bunda shuni ham e'tiborga olish lozimki, sanatsiya xakidagi amaldagi nizomga muvofiq, tadbirkorlik subyektlari sanatsiya protsedurasini kuyidagi begaraz va pullik asosda davlat vositalari (yoki ko'magi) ishtirokida yoki ishtirokisiz utkazishi mumkin:

- kreditorlar (ta'sischilar) bilan qarzdorlikni o'zaro hisobga olishni tashkil qilish;

- muddati utgan qarzlarni tulik, yoki qisman sotib olish;

- ishlab chiqarishni raqobatbardosh mahsulot tayyorlashga qayta ixtisoslashtirish (diversifikatsiya, mahalliyashtirish);

- chetdan yukori malakali mutaxassislarni jalb qilish;

- xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash;


- qarzdorning to'lovga kodirligini tiklash va uning faoliyatini davom ettirishdan manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslar moliyaviy yordamini jalb qilish;

- debitorlik qarzdorliklarini undirish, tayyor mahsulot va ishlab chiqarishda kerak bo'lmagan asosiy vositalar (jixozlar, mol-mulk)ni realizatsiya qilish, shuningdek ijtimoiy infratuzilma obyektlarini maxalliy xokimiyat organlariga berish va x.k. orkali ichki rezervlardan foydalanish;

- qarzdor va kreditor o'rtasida kelishuvga erishishga karatilgan kreditorlarga tulanishi kerak bulgan to'lovlarni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash yoxud qarzdor faoliyatini davom ettirish uchun qarzlardan chegirma haqida bitimga kelish va boshqa choralar.

Xo'jalik subyekting iqtisodiy nochorligini oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi aksiyadorlar (ta'sischilar yoki ishtirokchilar)ning umumiy yig'ilishida muhokama qilingandan va tasdiqlangandan so'ng, shuningdek, belgilangan tartibda tasdiqlangan qarzdor va kreditorlar (ta'sischilar) o'rtasidagi kelishuv bitimlari bayonnomalari tadbirkorlik subyekting to'lov qobiliyatini tiklashga xizmat qilishi mumkin.

Bankrotlikni tan olish asoslari quyidagi 4.1-rasmda aks ettirilgan:



4.3. To'lov qobiliyatsiz korxonaning moliyaviy tahlili. Moliyaviy tahlil maqsadi va vazifalari. Korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirishning mohiyati va uning korxonalar faoliyatini rivojlantirishdagi ahamiyati

Inqiroz holatidagi korxonaning inqiroz darajasini o'rganish, sabablarini anqlash va unga qarshi sog'lomlashtirish rejalarini ishlab chiqish korxona mutaxassisilaridan tahlil qilishni talab qiladi. Inqiroz holati, uni korxona xo'jalik faoliyatiga ta'siri darajasi va inqirozni vujudga keltirgan omillarning turlari inqirozli holatni tahlil qilishni va shunga muvofiq xulosa berish bilan aniqlanadi. Korxonadagi inqiroz darajasini o'rganishda tahlilning umumiy xususiyatlari va vazifalari bilan tanishib, qaysi ko'rsatkichlar yordamida tahlil qilishni amalga oshirish bo'yicha aniqlik kiritib olish tahlil jarayonidagi muammolarni bartaraf etadi. Shuning uchun, inqirozga qarshi boshqaruvning ajralmas qismlaridan biri inqiroz holatini tahlil qilish jarayonidir.

Tahlil xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini o'rganishni va shunga muvofiq tashxislash imkoniyatlarini yuzaga keltiradi. Tahlil natijasida, korxonada mavjud saqlanib turgan muammolar aniqlanadi va bartaraf etish yo'nalishlari ko'rsatiladi.

Umuman olganda, korxonaning inqiroz darajasini baholash va tahlil qilishning maqsadi – korxonada vujudga kelgan inqirozli holatni o'rganish va uni bartaraf etish zaxiralarini izlab topishdan iboratdir. Mazkur maqsaddan kelib chiqqan holda, inqirozga qarshi boshqaruv sharoitida tahlil quyidagi vazifalarni bajaradi:

- O'rganilayotgan korxonaning inqirozli holatiga to'g'ri va xolisona baho berish;

- Inqirozga ta'sir etuvchi barcha omillarni aniqlash, ularning ta'sirini hisoblash;

- Sog'lomlashtirish rejasining bajarilishi natijasida korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlanishi, uning iqtisodiy qudratini yaxshilanishi, har bir xo'jalik subyekting raqobatbardoshligini oshirilishi uchun mavjud ichki va tashqi imkoniyatlarni o'rganish;

- Korxona resurslaridan samarali va oqilona foydalanish darajasiga baho berish;

- Korxonaning iqtisodiy va moliyaviy potensialiga, uning to'lovga qobiliyatligiga baho berish;

- Inqirozga qarshi boshqaruv jarayonida korxonaning iqtisodiy va moliyaviy holatini muntazam tekshirib turish;

- Korxonada inqirozga qarshi boshqaruv jarayonida samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini aniqlash;

- Korxonaning tijorat sirini saqlagan holda, uning moliyaviy ahvolini tiklanishini keng jamoatchilikka ko'rsata bilish va tashqi investorlarni korxona faoliyatini yaxshilashga jalb qilish;

- Inqirozga qarshi boshqaruvning eng qulay va nafli usullarini ishlab chiqish, ilg'or g'oya va tajribalarni o'rganilayotgan hodisaga qo'llash yo'l-yo'riqlarini ko'rsatib berish kabi jarayonlarga tegishli axborotlar manbaini yetkazib berish;

- Inqirozga qarshi boshqaruvning borishi bo'yicha xulosalar berish;

- Korxonani istiqboldagi startegiya va taktikasini tuzish uchun iqtisodiy ko'rsatkichlar asosini aniqlash;

- Sog'lomlashtirish rejasining bajarilishiga obyektiv baho berish hamda uni bajarishda korxonalarga bog'liq bo'lgan va bog'liq bo'lmagan omillarni bir-biridan ajratgan holda aniqlash.

-Korxonaning sog'lomlashtirish rejasini tuzish uchun tegishli axborotlar bilan ta'minlash;

-Tuzilgan sog'lomlashtirish rejasini to'g'ri va ilmiy asoslanganligiga baho berish.

Inqirozga qarshi boshqaruv jarayonida tahlilning vazifalari o'sha holatdan kelib chiqib, yana bir qancha darajada ko'payishi mumkin. Bu korxona inqirozini tendensiyasiga bog'liq bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, bu vaziyatda tahlil o'tkazish ishlari juda ham muhim hisoblanib, bu tahlilning oldiga qo'yilgan vazifalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Mazkur vazifalarni to'g'ri va obyektiv bajarilishi inqirozga qarshi boshqaruv jarayonida qabul qilingan qarorlarning samaradorligini yanada oshiradi. Tahlilning barcha vazifalarini bajarilishi darajasi ko'rsatkichlar tizimini to'g'ri tanlanishiga bog'liq.

Bugungi kunda, korxona inqirozini tahlil qiluvchi ko'rsatkichlar tizimini taklif etishda rang-baranglikni kuzatish mumkin.

Korxonada vujudga kelgan inqirozni tahlil qilish jarayoni va uning yo'nalishlari xilma-xil bo'lib, buni uchta katta guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

➤Korxonaning inqirozli holatini turli guruhdagi ko'rsatkichlar kompleksi asosida tahlil qilish.

➤Korxona iqtisodiy ahvolini reyting asosida baholash.

➤Korxona moliyaviy holatini omilli modellari yordamida baholash.

Mazkur ko'rsatkichlar guruhi ko'plab tahlilchilar tomonidan deyarli barcha adabiyotlarda bir xil ko'rsatilib, ularni to'rtta yirik guruhga bo'linadi:

1. Likvidlik koeffitsientlari;
2. Moliyaviy mustahkamlik koeffitsientlari;
3. Ishchanlik faolligi koeffitsientlari;
4. Rentabellik ko'rsatkichlari.

Korxonadagi inqiroz darajasini mana shu ko'rsatkichlar tizimi yordamida to'rt tomondan baho beriladi. Likvidlik ko'rsatkichlari majburiyatlarni qoplash darajasini, moliyaviy mustahkamlik koeffitsientlari korxonaning moliyaviy holatini, ishchanlik

ko'rsatkichlari korxona mablag'larini aylanuvchanligini va rentabellik foydasining nisbiy holatini ko'rsatib beradi.

Iqtisodiyot real sektori korxonalarining kapitallashuv darajasini yanada oshirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish va ularni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash jarayoniga investitsiyalarni, shu jumladan, tijorat banklarining mablag'larini keng jalb etish iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi. Bugungi kunda korxonalar faoliyatini moliyaviy sog'lomlashtirish, bu yo'nalishda davlatning ishtirokini faol ta'minlash, qonunchilik asoslarni mustahkamlash muhim hisoblanadi.

Moliyaviy sog'lomlashtirish - korxoning bankrotligini bartaraf etish yoki raqobatbardoshligini oshirish maqsadida chora-tadbirlar tizimini qo'llash orqali uning moliyaviy holatini sog'lomlashtirish. Boshqacha qilib aytganda, korxonalar faoliyatini moliyaviy sog'lomlashtirish deyilganda, korxona faoliyatini tashqi manbalar hisobiga moliyalashtirish, ularda restrukturizatsiyalash jarayonlarini joriy etish, xo'jalik - moliyaviy faoliyatini modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilish jarayonlarining majmui hisoblanadi. Korxonalar faoliyati moliyaviy sog'lomlashtirishning quyidagi usullari mavjud:

- xo'jalik-moliyaviy faoliyatini tashqi manbalar hisobiga moliyalashtirish;

- bankrotlik taomillarini joriy etish;

- korxonani tashqi investorlarga sotish;

- korxonani qayta tarkiblash;

- ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonini diversifikatsiyalash va boshqalar.

Korxonalar faoliyatini moliyaviy sog'lomlashtirishning yana bir muhim usullaridan biri bu bankrotlik taomillarini qo'llash orqali amalga oshiriladi. Bankrotlik taomillari deyilganda "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonunning 28-moddasiga muvofiq quyidagilar tushuniladi.

Qarzdor yuridik shaxsning bankrotligi to'g'risidagi ish ko'rilayotganda quyidagi taomillar qo'llaniladi:

- kuzatuv;
- sud sanatsiyasi;
- kelishuv bitimi;
- tashqi boshqaruv;
- tugatishga doir ish yuritish.

- Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning bankrotligi to'g'risidagi ish ko'rilayotganda quyidagi taomillar qo'llaniladi:

- kelishuv bitimi;
- tugatishga doir ish yuritish.

Kuzatuv - xo'jalik sudi tomonidan qarzdor yuridik shaxsga nisbatan uning mol-mulki but saqlanishini ta'minlash, qarzdorning moliyaviy ahvoli tahlilini o'tkazish maqsadida qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza qabul qilingan paytdan e'tiboran keyingi taomilga qadar qo'llaniladigan bankrotlik taomili. Kuzatuv bankrotlik to'g'risida ish qo'zg'atilganda xo'jalik sudi qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi arizani ish yuritishiga qabul qilgan sanadan e'tiboran joriy etiladi.

Bugungi kunda, **Inqirozga uchrayotgan korxonalarda moliyaviy sog'lomlashtirish dasturini ishlab chiqish jarayoni** bir muncha murakkab bo'lib hisoblanadi. Xususan, sanoat korxonalarida inqirozga qarshi ichki dasturni tuzish va amalga oshirishda bir qancha muammolar mavjud bo'lib, u quyidagilardan iborat:

- Inqirozga qarshi dasturni tuzish strukturasi yaxshi tushunmaslik;

- Uni biznes-reja bilan aralashtirib yuborish;

- Iqtisodiy nochor korxonalarda dasturni amalga oshirish uchun moliyaviy ta'minotdagi muammolar;

- Dasturni amalga oshirishda malakali hodimlarning etishmasligi va sh.k.

Inqirozga qarshi boshqaruvni bitta andozasi bo'lmagani kabi dastur ham barcha korxonalar uchun bitta tizimga solinmagan. Bu holat, bir tomondan investorlarni qiziqtirishda muammolarni tug'dirsa, ikkinchi

tomondan dasturning mazmunini tushunish va amaliyotga tatbiq etish ma'lum muammolarni vujudga keltiradi. Shu sababdan, amaliyot uchun inqirozga qarshi dasturni davlat miqyosida bitta standartini ishlab chiqish talab qilinadi. Mazkur dastur andozasi sodda, tushunishga oson va turli ortiqcha ma'lumotlardan holi bo'lishi lozim. Iqtisodiy nochor korxonalar uchun inqirozga qarshi dastur tarkibi o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, tadqiqotchi tomonidan tavsiya etilgan quyidagi mezonlar asosida ishlab chiqilsa maqsadga muvofiq bo'ladi:

Birinchidan, korxonaning inqiroz davridagi moliyaviy-iqtisodiy holati e'tiborga olinadi.

Ikkinchidan, korxonaning moliyaviy ta'minot masalalari tahlil qilinadi.

Uchinchidan, ishlab chiqarish darajasi va tayyor masulotga bo'lgan bozor talabi o'rganiladi.

To'rtinchidan, tashqi muhit va hamkorlarning iqtisodiy holati va ular bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar monitoring qilinadi.

Beshinchidan, korxonani restrukturizatsiyaga moslashuvi va undan olinishi mumkin bo'lgan natija aniqlanadi.

Oltinchidan, yuqoridagi mezonlarga asosan, inqirozga qarshi korxona dasturi tarkibiy tuzilishining shakli bo'yicha boshqaruv qarori qabul qilinadi.

Inqirozga qarshi boshqaruvni strategik rejasi ishlab chiqilayotganda quyidagi tamoyillarga e'tibor qaratilsa, boshqaruv samaradorligi yanada ortadi:

Hisobotlarni vaqtida taqdim etish. Ma'lumki, hozirgi sharoitda ishlab chiqarish korxonalari ichki boshqaruv hisob siyosatiga katta e'tibor qaratmoqda. Chunki, rahbariyat tomonidan ishlab chiqarish faoliyatini samarali boshqarishda bu juda asqotadi. Ko'p hollarda ichki boshqaruv hisob siyosatidagi ma'lum raqamlar, ko'rsatkichlar tashqi foydalanuvchilarga e'lon qilinmaydi – sir saqlanadi. Hisobotlarni vaqtida taqdim etib turish orqali korxonada kechayotgan jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar oydinlashib boradi. Shu sababli, korxonaning har bir bo'limida sodir bo'layotgan voqealarni hisobot tarzida aks ettirib markazlashtirilgan hollarda boshqaruvchiga topshirib turish lozim. Bu

ko'plab ijobiy oqibatlariga olib keladi. Ayniqsa, inqirozga qarshi boshqaruv yo'lga qo'yilgan davrda vaqtida hisobotlarni boshqaruvchiga taqdim etish tezlik bilan qaror qabul qilish jarayoniga yordam beradi. Hisobotlarni tuzishda ish bo'yicha obyektiv ma'lumotlarni ko'payishi noto'g'ri axborot oqimini qisqartiradi. Buning uchun ichki boshqaruv hisob siyosatida ko'proq pul mablag'larini harakatini rentabellik darajalari to'g'risida axborotlarni ko'paytirish lozim.

Detallashtirish. Hisobotlarni vaqtida taqdim etish tamoyiliga asoslanib, korxona balansida turuvchi va unga bevosita qaram bo'lgan filial, sho'ba korxona, hududiy ofislar va boshqa barcha bo'limlardan topshirilayotgan axborotlar iloji boricha detallashtirilgan, qismlarga bo'lingan holda taqdim etilgan bo'lishi kerak. Boshqarilayotgan obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilayotganda detallarga ajratib topshiriladi. Bu axborotlar korxonani har qanday sharoitda qaror qabul qilinishi va boshqaruvini soddalashtiradi.

Xarajatlarning qisqartirilishini o'ziga xosligi. Xarajatlarni qisqartirishda korxona rahbariyatidan ehtiyot bo'lish talab qilinadi. Qisqartirilayotgan xarajatlar aksincha korxonaga zarar ham keltirish mumkin. Ko'p joriy xarajatlar mahsulot uchun hayotiy zarur xarajatlar sifatida aks etadi va ularni qisqartirib bo'lmaydi. Shu sababli, reja tuzishni birinchi bosqichida xo'jalik yurituvchi subyekt uzoq muddatli rivojlanish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni qisqartirishi lozim: masalan, ilmiy tadqiqotlar bilan bog'liq xarajatlarni, kapital qurilish, ko'p tomonlama marketing va boshqa ikkinchi darajali xarajatlarni qisqartirishi shart. Kadrlar bilan bog'liq munosabatlarda xarajatlarni qisqartirishdagi shoshma-shosharlik ahvolni og'irlashtirish mumkin. Iqtisodiy inqiroz xavfi hali to'liq aniqlanmagunga qadar kadrlarni ishdan bo'shatish yoki o'rni almashtirish kabi hodimlar boshqaruviga tegmaslik lozim. Faqatgina, yangi ishchi va mutaxassislarni qabul qilishni to'xtatib turish talab qilinadi.

Rejalarni qayta ishlab chiqish. Moliyaviy zararga olib kelayotgan har qanday strategiyani o'zgartirish kerak. Buning uchun avvalambor, uni o'rniga muqobil variantdagi reja ishlab chiqiladi. Chunki, talabga javob bermaydigan biznes-reja korxonaning maqsad va vazifalarini

bajarilishini nazoratini yo'qotadi. Bu boshqaruvning samaradorligi va korxonaning provard natijasini kamayishiga olaib keladi.

Aybdorlarga qarshi chora. Korxonaga inqiroz xavf solayotganda, xavf tug'ilishiga sabab bo'lgan subyekt kim bo'lishidan qat'i nazar ularga qarshi chora ko'rilishi kerak. Agar korxonadagi nobarqaror vaziyat mas'ul shaxsning shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan bo'lsa, masalani jinoiy javobgarlikka qadar olib borish talab qilinadi. Chunki, bu boshqa hodimlarning keyingi harakatlariga ham turtki bo'ladi.

Korxonaning kelishi mumkin bo'lgan tahdidiga doim tayyor turish. Bunda xavfni oldinidan aniqlash va unga qarshi choralarni ko'rishga asosiy e'tibor qaratiladi. Korxona menejeri tashqi va ichki hatarlarni muntazam e'tiborda ushlab turishi va uni nazoratini qarshi choralalar bilan o'z nazoratida ushlab turishi zarur. Shunda korxona keyingi barcha qarshi immunitet hosil qiladi. Bu korxona muvaffaqitining kafolatidir.

Korxona faoliyatini muntazam tahlil qilib borish va ertaroq tashxis qo'yish. Bu o'z ichiga doimiy tahdidlardan saqlanish uchun uzluksiz tahlilini va tashxislashni o'z ichiga oladi va shu bilan birgalikda korxonaning ichki foydalanilishi mumkin bo'lgan imkoniyatlarini muntazam hisob-kitob qiladi.

Korxona rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan iqtisodiy inqirozlarga differensial yondoshuv. Bunda paydo bo'layotgan har bir hatarni tabaqalashtiradi va shunga mos strategiya ishlab chiqadi. Bu korxonaning inqirozga ta'sirchanligini oshiradi.

Har qanday moliyaviy hatarlarga moslashuvchanlik. Ya'ni korxona hatarni xuddi oldindan sezgandek unga moslasha olishi va uni to'liq nazoratda ushlashi lozim. Inqirozni to'liq nazoratga olish uni nazorat qilish va tartibga solishni anglatib, hatarlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy inqirozdan chiqish uchun korxonaning barcha imkoniyatlarini to'liq ishga sola olish qobiliyati. Bunda korxona ichki imkoniyatlarinin baholab borishi va kerak bo'lganda bor kuchini sarflay olish strategiyasini ishlab chiqish lozim. Korxona iqtisodiy salohiyatidan foydalanish darajasini maksimallashtirish moliyalashtirishning tashqi

manbalariga ehtiyojni kamaytiradi va iqtisodiy mexanizmni takomillashuviga olib keladi.

Bundan ko'rinib turibdiki, korxonaning moliyaviy sog'lomlashtirish dasturi qanday tuzilmada bo'lishi uning umumiy mezonlari natijasida aniqlanadi. Shunday ekan, inqirozga qarshi dasturning tarkibiy tuzilishi quyidagi bloklardan iborat bo'lishi tavsiya qilinadi:

1. Inqirozning turi va sababini aniqlash bloki.

2. Korxonaning hozirgi holatini tahlil va monitoring qilish bloki.

3. Korxonani sog'lomlashtirish uchun amalga oshiriladigan tadbirlar bloki.

4. Inqirozni bartaraf etish uchun zarur bo'ladigan mablag'lar va ularning manbaasini aniqlash bloki.

5. Agar zarur bo'lsa, restrukturizatsiya usulini tanlash bloki.

6. Inqirozga qarshi boshqaruv davridagi korxona byudjeti bloki.

7. Inqiroz davridagi korxonaning boshqaruv apparati va ishchi xodimlari bloki.

8. Davlat tomonidan korxonaga berilgan imtiyozlar va davlat bilan munosabatlarni takomillashtirish uchun mas'ul shaxslar bloki.

9. Korxona inqirozini bartaraf etish muddati va ishlarni bajaruvchi mas'ul shaxslar bloki.

Yuqorida keltirilgan inqirozga qarshi boshqaruv strategiyasi dasturining tarkibiy tuzilishi O'zbekiston Respublikasi monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish Qo'mitasi tomonidan iqtisodiy nochorlik yuzaga kelgan sanoat ishlab chiqarish korxonalariga nisbatan yoki korxonalar tomonidan mustaqil ravishda amaliyotga tatbiq etilsa, quyidagi yutuqlarga erishiladi:

Birinchidan, davlat miqyosida bankrotlik taomillari qo'llanilayotgan sanoat korxonalarining ma'lumotlar bazasi bixillashtiriladi.

Ikkinchidan, iqtisodiy nochor sanoat korxonalari uchun yagona davlat siyosatini ishlab chiqish imkoniyati va uning samaradorligi ortadi.

Uchinchidan, inqirozga qarshi boshqaruvda iqtisodiy nochor korxonalar o'rtasida tajriba va ma'lumot almashish imkoniyati axborotlar bazasining o'xshashligi natijasida ortadi.

To'rtinchidan, inqirozga qarshi boshqaruv tizmini tashqilotlarda joriy qilishning ichki mexanizmi shakllanadi.

Umuman olganda, inqirozga qarshi boshqaruv strategiyasi va taktikasining Respublika sharoitiga xos amal qilishi yuqorida keltirilgan tavsiyalar natijasida takomillashadi. Bugungi kunga kelib dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, moliyaviy sog'lomlashtirish dasturlariga kiritilgan loyihalar bo'yicha jami 1 408,2 mlrd. so'mlik investitsiya o'zlashtirilib, uning 756,2 mlrd. so'mini tijorat banklarining kredit mablag'lari tashkil etdi. 1881,7 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, shundan 48 mln. dollardan ortiq mahsulotlarni eksport qilishga erishildi, 22,6 mingga yaqin yangi ish o'rinlari barpo etildi va bu ishlar izchillik bilan davom ettirilmoqda.

4.4. Biznesni baholash zaruriyati va maqsadi. Biznesni baholashda qiymatlar turlari: bozor qiymati; investitsion qiymat; ichki qiymat; faoliyatdagi korxona qiymati; tugatish qiymati; balans qiymati

Antiinqiroziy boshqaruv jarayonida ko'pgina holatlarda biznesni baholash zaruriyati paydo bo'ladi. Bunday holatlar quyidagilar:

- korxonani to'liq sotish;
- korxona ustav kapitalida ta'sischilar ulushlarining yoki korxona aksiya paketining bozor bahosini aniqlash;
- meros va hadya etish bo'yicha sud jarayoni;
- korxonaning soliqqa tortiladigan bazasini aniqlash;
- bank yoki boshqa sohalaridan investitsiya kiritish;
- qo'shma korxonalar yoki xolding kompaniyalarni tashkil etish;
- korxonani sotish.

Biznesni baholash maqsadi korxona duch keladigan yuqoridagi holatlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, maqsadni to'g'ri tanlash avvalo:

- korxonaning bozor qiymatini,
- ustav kapitalida ta'sischilar ulushining bozor qiymatini,

- meros va hadya etish jarayonida mulkning asoslangan qiymatini hamda korxona mulkning soliqqa tortiladigan darajasini,
- korxonaning investitsion qiymatini;
- korxonaning sotish qiymatini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro amaliyotda biznes qiymatini aniqlashda ma'lum bir tushunchalar shakllangan. Quyida eng ko'p qo'llaniladigan biznesni baholash qiymatlari keltirilgan:

1. Asoslangan bozor qiymati – bu hozirgi vaqtda (hozirgi iqtisodiy holatda) bir qator o'ziga xos shartlarga amal qilib, ma'lum bir korxona uchun beriladigan eng maqbul qiymatdir. Bunday shartlar sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

- sotuvchi va xaridorni korxona faoliyati bilan to'la ta'minlanganligi;
- sotish va xarid qilishning eng maqbul vaqtini belgilash;
- sotuvchi va xaridor har qanday bosimdan holi, forsmajor holatlarining uchramasligi va h.k.

2. Ushbu shartlarga amal qilmaganda yuzaga keladigan qiymat **bozor qiymati** deb ataladi. Kapital tarkibi korxonaning bozor bahosiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Harakatdagi korxonaning bozor bahosi uning kelgusidagi pul oqimlarini baholash bilan aniqlanadi. Hisoblash daromadlilik darajasiga asoslangan diskontlash stavkasini tanlash va kutilayotgan riskni baholash bilan bog'liq.

Korxonaning bozor bahosini aniqlash bir necha bosqichdan iborat.

Birinchi bosqichda korxonaning uzoq muddatga joriy daromadining kutilayotgan qiymati bashoratlanadi. Korxonaning joriy daromadi- foizlar to'languniga qadar, lekin soliqlar to'langanidan keyingi daromad. Bu bilan pul oqimlarining korxona joriy faoliyatini moliyalashtirish manbalari tarkibiga bog'liq bo'lmasligiga erishiladi. So'ng joriy daromad hisobdan chiqarilgan asosiy kapital va nomoddiy aktivlarning edirilish qiymati va qoldirilgan soliqlar summasiga ko'paytiriladi, shuningdek pul oqimlarida aks ettirilmagan boshqa elementlar hisobga olinadi.

Ikkinchi bosqichda ishlab chiqarish faoliyatini ta'minlash va korxona daromadining joriy darajasini ushlab turish uchun zarur bo'lgan kelgusidagi kapital xarajatlarning umumiy qiymati aniqlanadi. Ularga mashina va uskunalar sotib olish, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, aylanma kapitalni oshirish xarajatlari kiradi. Natijada korxonaning bozor bahosini baholashda qo'llanadigan, korxona sof pul oqimlari olinadi.

Sof pul oqimlari korxona ixtiyorida bo'lgan va korxona investorlar oldida o'z majburiyatlarini bajarishda (foizlar, dividendlarni to'lashga, qarzni to'lash va o'z aksiyalarini sotib olishga) ishlata oladigan kapitalni ifodalaydi.

Korxonaning bozor bahosi (V) bo'yicha sof pul oqimlari summasini daromadlilikning ma'qul stavkasi bo'yicha diskontlash natijasida olingan sof joriy narxga teng:

$$V = \sum_{t=1}^n D_t : (1+r)^t \quad (12)$$

bu yerda, D - yillik sof pul oqimlari;

r - daromadlilik stavkasi;

t - yillar soni.

Agar korxona daromadlari bir necha yil davomida taxminan bir xil, faoliyat muddati esa ma'lum yillar soni bilan cheklanmagan, deb tasavvur qilsak, u holda formula soddalashadi:

$$V = D : r \quad (13)$$

Bu yerda daromad sifatida foizlar to'languniga qadar bo'lgan, daromad solig'i va boshqa daromaddan majburiy to'lovlar qiymatiga kamaytirilgan foyda ko'rsatkichi ishtirok etadi.

Daromadlilikning ma'qul stavkasi sifatida kapitalning o'rtacha chamalangan qiymati (W) ishlatiladi. Bu korxona har yil, aksionerlarga dividend to'lovlari va kreditorlarga foizlar kiradigan, kapitalning shakllanish manbalariga xizmat ko'rsatishga sarflanadigan xarajatlarni qoplash uchun ishlatiladigan, bir xil darajadagi daromad oladi degani. Shunday qilib, korxonaning joriy bozor bahosi (V) quyidagi formula bo'yicha topilishi mumkin:

$$V = EBIT(1-T) : W, \quad (14)$$

bu yerda, $EBIT(1-T)$ - korxonaning soliq to'langandan keyin, lekin foizlar to'lanishidan oldingi sof daromadi;

W - kapitalning o'rtacha chamalangan bahosi.

3. Asoslangan qiymat – bu yopiq turdagi aksionerlik jamiyatlari kapitalining jamiyat tugatilishida chegirmalar bermaydigan nazorat qilinmaydigan ulushini qiymati hisoblanadi. Bu qiymat yopiq turdagi aksionerlik jamiyatlarida kam ulushga ega bo'lgan ta'sisshilar huquqlarini himoya qilishda qo'llaniladi.

4. Investitsion qiymat - bu aniq bir investitsion loyihani amalga oshirish uchun korxonaning qiymati hisoblanadi. Investitsion qiymat har doim korxonaning asoslangan bozor qiymatidan yuqori bo'ladi, chunki investitsion loyihani amalga oshirishda bu korxonadan boshqa maqbul korxona uchramasligi mumkin.

5. Ichki yoki fundamental qiymat – bu korxonaning tahliliy baholash qiymati bo'lib, u nafaqat korxonaning joriy iqtisodiy holati natijalari bilan, balki:

- ishlab chiqarish vositalarining texnologik jarayonda mavjudligi, tarkibi va to'liqligi;

- menejerlar va mutaxassislarning mavjudligi, tarkibi, malaka va tajribasi;

- korxonaning rivojlanish (foйда olish) istiqbollarining mavjudligi bilan ham aniqlanadi.

Korxonani baholashda ichki qiymat eng aniq va obyektiv qiymat bo'lib hisoblanadi.

6. Faoliyatdagi korxona qiymati deganda o'z mablag'iga, tovar-moddiy boyliklari zaxirasiga va doimiy ishchi kuchiga ega bo'lgan, shuningdek, bankrotlik holatiga uchramasdan faoliyat olib borayotgan korxona qiymati tushuniladi. Bunda korxona qiymatiga moddiy boyliklardan tashqari nomoddiy aktivlar guruhi ham qo'shib hisoblanadi.

7. Korxonani tugatish qiymati – bu mulkdor korxonani tugatish va aktivlarni sotish paytida ega bo'ladigan qiymat (summa) hisoblanadi.

8. Balans qiymati – korxona balansi orqali aniqlanib, jami aktivlardan eskirish qiymatini, shuningdek, korxonaning qisqa va uzoq muddatli majburiyatlarini chiqarib tashlash natijasida hosil bo‘ladi.

4.5. Korxonani baholashda daromadli yondoshuv. Faoliyatdagi korxonani baholashga bozor yondoshuvi: kapital bozori usuli va shartnomalar usuli

Hozirgi kunda korxonani baholash usullaridan eng keng tarqalgan guruhi daromadli yondashuv usuli bo‘lib, daromadli yondashuv deganda kelajakdagi daromadlarni diskontlashga, ya’ni kelajakdagi daromadlar qiymatini ularning baholash sanasidagi qiymatiga keltirishga asoslangan usullar tushuniladi. Bularga:

- kelajakdagi foyda yoki pul oqimlarini diskontlash;
- me’yorlashtirilgan foyda yoki pul oqimlarini kapitalizatsiyalash;
- qoplanish muddati usuli va h. misol bo‘ladi.

Ushbu usullar mavjud barqaror bozor uchun ishonchli natijalarni qo‘lga kiritish imkonini beradi.

Korxonada baholash obyektlari qiymatini daromad yondashuvi bilan baholash pul oqimlarini diskontlash usuli yoki to‘g‘ridan to‘g‘ri kapitallashtirish usuli yordamida amalga oshiriladi.

Pul oqimlarini diskontlash usuli (keyingi o‘rinlarda matnda POD usuli deb yuritiladi) pul oqimlari beqaror bo‘lgan korxonalarni baholash uchun qo‘llaniladi va baholash obyektlarining qiymatini prognoz va prognozdan keyingi davrlarda (davrning oxirida) undan kutilayotgan pul oqimlarining joriy qiymatlarini qo‘shish yo‘li bilan aniqlashga asoslanadi.

Hisoblashlar quyidagi formula bo‘yicha amalga oshiriladi:

$$PV = \frac{CF_1}{1+DR} + \frac{CF_2}{(1+DR)^2} + \dots + \frac{CF_n}{(1+DR)^n} + \frac{FV}{(1+DR)^n},$$

bu yerda:

PV - joriy qiymat;

CF - n-chi davr pul oqimi;

FV - reversiya, prognozdan keyingi davrda korxonaning qoldiq qiymati;

DR - diskontlash stavkasi;

n - prognoz davrining oxirgi yili.

Prognoz yilining o'rtasida pul oqimlarini olish mo'ljallanayotgan bo'lsa (ishlab chiqarish mavsumiy bo'lganda, daromad yil mobaynida bo'lib-bo'lib olinganda), pul oqimi prognoz davrining o'rtasidan boshlab diskontlanadi.

Hisoblashlar quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi:

$$PV = \sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+DR)^{t-0.5}} + \frac{FV}{(1+DR)^n}$$

Quyidagilar korxona (aksiyalar paketlari, ulushlar, paylar)ni POD usuli bilan baholashning asosiy bosqichlari hisoblanadi:

- a) pul oqimi modelini tanlash;
- b) prognoz davrining davom etish muddatini aniqlash;
- v) retrospektiv tahlil, tushum, xarajatlar va investitsiyalarni prognoz qilish;
- g) har bir davr uchun pul oqimi miqdorini hisoblash;
- d) diskontlash stavkasini aniqlash;
- e) prognozdan keyingi davrdagi qiymat (reversiya qiymati) miqdorini hisoblash;
- j) bo'lg'usi pul oqimlari va reversiya joriy qiymatlarini qo'shish;
- z) yakunlovchi tuzatishlar kiritish.

Xususiylashtirilayotgan korxona (aksiyalar paketlari, ulushlar, paylar)ni baholash vaqtida xususiy kapital uchun pul oqimi modeli qo'llaniladi.

4.1-jadval

Xususiy kapital uchun pul oqimi

Harakat belgisi	Ko'rsatkich
Plyus	Soliqlar to'langanidan keyingi sof foyda
Plyus	Amortizatsiya ajratmalari
Plyus (minus)	Xususiy aylanma kapitalning kamayishi (o'sishi)

Plyus (minus)	Asosiy vositalarga investitsiyalarning kamayishi (o'sishi)
Plyus (minus)	Uzoq muddatli qarzning o'sishi (kamayishi)
Minus	Imtiyozli aksiyalar uchun dividendlar
Jami:	Xususiy kapital uchun pul oqimi

Ayrim hollarda baholash obyektni baholash haqidagi vazifada POD usuli bilan hisoblashlarda investitsiya kiritilgan kapital uchun pul oqimi modelidan foydalanish belgilanishi mumkin.

Prognoz davrining davom etish muddatini aniqlash korxonaning rivojlanish rejalarini, qiymat ko'rsatkichlari (tushum, tannarx, daromad, narxlar va boshqalar) dinamikasini, talab, ishlab chiqarish va sotuv hajmlarining o'zgarish tendentsiyalarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Prognoz davrining davom etish muddati besh yil qilib belgilanadi. Baholash haqidagi vazifada prognoz davrining bundan kattaroq muddati belgilanishi mumkin.

Korxonaning mavjudligini tugatish uchun obyektiv sabablar bo'lmasa, u nomuayyan muddat mavjud bo'lishi mumkinligi faraz qilinadi. Korxonaning keyingi mavjudlik muddati ikki qismga: baholovchi pul oqimlari dinamikasini prognoz qiladigan prognoz davriga va pul oqimi o'sishining uzoq muddatli sur'atlari hisobga olinadigan prognozdan keyingi davrga bo'linadi.

Retrospektiv tahlil va prognoz korxona va umuman tarmoq faoliyatining retrospektiv ko'rsatkichlari bilan mantiqan mos kelishi lozim.

Yalpi tushum tahlili va prognozi quyidagi omillarni o'rganishni talab etadi:

- ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasini;
- ishlab chiqarish hajmlari va mahsulot narxlarini;
- korxonaning o'sish sur'atlarini;
- mahsulotga bo'lgan talabni;

- mavjud (shu jumladan hali ishga solinmagan) ishlab chiqarish quvvatlarini;

- kapital qo'yilmalarning imkoniyatlari va ehtimol tutilgan oqibatlarini;

- korxonaning rivojlanish rejalarini.

- Xarajatlarni prognoz qilishda baholovchi:

- retrospektiv ma'lumotlar va tendentsiyalarni hisobga olishi;

- o'zgarmas va o'zgaruvchan xarajatlar tuzilishini o'rganishi;

- bir martalik va alohida (zaruriy) xarajatlar moddalarini o'rganishi;

- kreditlar bo'yicha foizlar to'lash uchun xarajatlarni qarzdorlikning prognoz qilinayotgan darajalariga muvofiq hisoblashi;

- prognoz qilinayotgan xarajatlarni raqib korxonalarning tegishli ko'rsatkichlari yoki tarmoqdagi o'rtacha o'xshash ko'rsatkichlar bilan taqqoslashi;

- eskirgan uskunalarni almashtirish uchun xarajatlar (qo'yilmalar) qilish zarurligini prognoz qilishi va asoslashi;

- aktivlarning amortizatsiya ajratmalarini ularning o'sishi va hisobdan chiqarilishini hisobga olib aniqlashi lozim.

Investitsiyalarni (investitsiyalar, moliyalash manbalari, investitsiyalar siyosatiga bo'lgan ehtiyojni) tahlil va prognoz qilishda baholovchi:

- mablag'lar jalb qilish (kreditlar olish, aksiyalar chiqarish va boshqalar)ga bo'lgan zaruriyatni tahlil qilishi;

- ortiqcha yoki etishmayotgan aylanma vositalarni aniqlashi;

- asosiy kapital eskirishiga qarab uni almashtirish va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish maqsadida kapital qo'yilmalarning zaruriy miqdorini aniqlashi;

- uzoq muddatli qarzdorlikning o'zgarishi (ko'payishi yoki kamayishi)ni hisoblashi lozim.

Prognoz davrining har bir yiliga pul oqimi miqdorini hisoblash uchun bilvosita va bevosita usullar qo'llaniladi.

Bilvosita usul faoliyat yo'nalishlari bo'yicha pul mablag'lari harakatining tahliliga yo'l qo'yadi. U daromaddan foydalanish va mavjud pul mablag'larini investitsiyalashni amalda namoyish etadi.

Bevosita usul kirim va chiqim moddalari, ya'ni buxgalteriya schyotlari bo'yicha pul mablag'lari harakatining tahliliga asoslanadi.

Pul oqimi hajmini hisoblashda baholovchi korxonaning rivojlanish rejalarini o'rganadi va zarur holda ularga tuzatish kiritadi.

Diskontlash stavkasining miqdori 8-son MBMSning 36-bandiga (36. Daromad yondashuvi doirasida to'g'ridan to'g'ri kapitallashtirish usuli yoki pul oqimlarini diskontlash usuli qo'llaniladi.

Daromad yondashuvi usullari bilan baholash diskontlash stavkasi va (yoki) kapitallashtirish stavkasidan foydalanishni nazarda tutadi.

Diskontlash stavkasi miqdori O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining baholash sanasiga qadar bo'lgan qayta moliyalashtirish stavkasining (baholash obyektiga investitsiyalash tavakkalchiligi uchun ustamani hisobga oluvchi) 1,5 koeffitsientiga ko'paytmasi sifatida aniqlanadi.

Kapitallashtirish stavkasi sifatida 2% ga teng deb olinadigan pul oqimi uzoq muddatli o'sish sur'ati hajmi ayirib tashlangan diskontlash stavkasi qabul qilinadi.) muvofiq aniqlanadi.

Prognoz davridagi reversiya qiymatini hisoblash xususiy kapitalning barcha aktivlari tuzilishiga qarab amalga oshiriladi.

Korxona aktivlari (xususiy kapital) asosan uzoq muddatli aktivlar (asosiy vositalar, kapital qo'yilmalar, investitsiyalar va boshqalar)dan iborat bo'lsa, reversiya qiymati prognozdan keyingi davr sanasidagi korxona sof aktivlarining bozor qiymatini diskontlash yo'li bilan hisoblanadi.

Bunda, prognozdan keyingi davrda korxona sof aktivlarining bozor qiymati sifatida korxona qiymatini xarajat yondashuvi bilan hisoblash natijasi olinadi.

Hisoblashlar quyidagi formulalar bo'yicha amalga oshiriladi:

$$S_1 = V * I * (1-A)$$

$$S_2 = S_1 * I * (1-A)$$

$$S_3 = S_2 * I * (1-A)$$

...

$$S_n = S_{n-1} * I * (1-A)$$

$$FV = S_n * 1,02$$

bu yerda: $S_1, S_2, S_3, \dots, S_n$ - sof aktivlarning tegishli prognoz davrlaridagi bozor qiymati;

V - baholash sanasida korxona sof aktivlarining bozor qiymati;

I - baholanayotgan korxona tarmog'iga qarab, baholash sanasidan oldingi yil yakunlariga ko'ra aniqlangan narxlarning yillik qimmatlashuv indeksi;

A - asosiy vositalar amortizatsiya ajratmalarining o'rtacha hajmini 5 foiz miqdorida belgilovchi 0,05 koeffitsienti;

FV - prognozdan keyingi davrda kutilayotgan qiymat (reversiya qiymati);

n - prognoz davrlari soni.

Korxona aktivlari asosan joriy aktivlar (pul mablag'lari, tayyor mahsulot, tovarlar va boshqalar)dan iborat bo'lgan holda, reversiya qiymati prognozdan keyingi birinchi davr pul oqimini pul oqimi o'sishining uzoq muddatli sur'atlarini hisobga oluvchi kapitallashtirish stavkasi bo'yicha hisoblanadi. Hisoblashlar quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi:

$$FV = \frac{CF_t}{DR - t}$$

FV - prognozdan keyingi davrda kutilayotgan qiymat (reversiya qiymati);

CF_t - prognozdan keyingi (qoldiq) davrning birinchi yilidagi pul oqimi (oxirgi prognoz davrining pul oqimi $1+t$ ga ko'paytiriladi);

DR - diskontlash stavkasi;

t - qoldiq davrda pul oqimi o'sishining uzoq muddatli (shartli ravishda o'zgaras) sur'atlari.

Xususiylashtirish maqsadida baholash obyektlarini baholash vaqtida POD usuli qo'llanilganda prognozdan keyingi davrda pul oqimi o'sishining uzoq muddatli sur'atlari yiliga 2 foiz hajmida belgilanadi.

Prognoz davrida pul oqimlari va reversiya joriy qiymatini hisoblash ularning ko'rsatkichlarini birlik joriy qiymatining tegishli koeffitsienti (diskontlash omili) bo'yicha diskontlash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Pul oqimlari va reversiya joriy qiymatini hisoblash

Ko'rsatkich	1-chi prognoz yili	2-chi prognoz yili	...	n-chi prognoz yili	Prognozdan keyingi davr
Pul oqimi (CF _n , CF _r)	CF ₁	CF ₂	...	CF _n	CF _r
Reversiya qiymati (FV)	-	-	-	-	FV
Joriy qiymat koeffitsienti (K _n)	$K_1 = \frac{1}{(1+DR)}$	$K_1 = \frac{1}{(1+DR)^2}$	...	$K_n = \frac{1}{(1+DR)^n}$	$K_n = \frac{1}{(1+DR)^n}$
Pul oqimlari va reversiya joriy qiymati (PV _n)	PV ₁ = CF ₁ * K ₁	PV ₂ = CF ₂ * K ₂	...	PV _n = CF _n * K _n	PV _r = FV * K _n
Korxona qiymati (V)	$V = PV_1 + PV_2 + \dots + PV_n + PV_r$				

POD usulini qo'llaganda baholash obyekti prognoz davrida keltiradigan davriy pul oqimlarining joriy qiymatlari va baholash obyektining prognozdan keyingi davrdagi joriy qiymatini qo'shish lozim.

Bo'lg'usi pul oqimlari va reversiya joriy qiymati aniqlanganidan so'ng zarur holda yakunlovchi tuzatishlar kiritiladi.

Qiymatni POD usuli bilan hisoblashda korxonaning ishlab chiqarishda va daromad olishda ishtirok etmaydigan (shu jumladan konservatsiya qilingan) aktivlari qiymatini hisobga olish lozim.

Shuningdek, xususiy aylanma kapitalning amaldagi miqdoriga tuzatish kiritish zarur: ortiqcha xususiy kapital boshlang'ich qiymat miqdoriga qo'shilishi, taqchillik esa - undan ayrilishi lozim.

Korxonani POD usuli bilan baholash natijasida likvidli korxonaning yoki korxonadagi likvidli nazorat (50 foizdan ortiq) ulushning qiymatini olamiz. Agar nazorat ulushi baholanayotgan bo'lmasa, nazorat huquqlarining etishmagan qismiga chegirma qilish lozim. Tuzatish kiritish ulushning har 10 foiziga 0,01 koeffitsientini qo'llash yo'li bilan amalga oshiriladi.

To'g'ridan to'g'ri kapitallashtirish usuli xo'jalik faoliyatining daromadli tarixiga ega bo'lgan, aktivlarni jamg'arishga ulgurgan va barqaror faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni baholash uchun qo'llaniladi. Usul baholash sanasidan keyingi birinchi yil mobaynida olinadigan bo'lg'usi daromadni kapitallashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

36. Daromadni kapitallashtirish usuli bosqichlari:

- a) daromadlar olishning barqarorligini asoslash;
- b) kapitallashtiriladigan daromad turini tanlash;
- v) kapitallashtiriladigan daromad miqdorini aniqlash;
- g) kapitallashtirish stavkasini hisoblash;
- d) daromadni kapitallashtirish;
- e) yakuniy tuzatishlarni kiritish.

Daromadlar olishning barqarorligini (nisbiy barqarorlikni) asoslash tuzatilgan moliyaviy hisobot tahlili asosida amalga oshiriladi.

Kapitallashtiriladigan daromad sifatida tushum yoki amortizatsiya ajratmalarini hisobga oluvchi ko'rsatkichlar: soliqlar to'langanidan keyingi daromad (ishlayotgan korxonalar, aksiyalarning paketlari, ulushlar uchun), soliqlar to'langunga qadar bo'lgan daromad (ko'chmas mulk uchun) amal qilishi mumkin. Pul oqimini kapitallashtirish korxona uzoq vaqt mobaynida taxminan bir xil miqdorda daromad olishi kutilayotgan vaziyatlarga mos keladi.

Kapitallashtirish lozim bo'lgan daromad sifatida quyidagilar tanlanishi mumkin:

baholash sanasidan keyin bir yilga prognoz qilingan miqdor;
retrospektiv va balki, prognoz (uch yil uchun) ma'lumotlari asosida hisoblangan, tanlangan turdagi o'rtacha o'lchangan miqdor.

Pul oqimiga tuzatish kiritish, ya'ni bir martalik og'ishlarni bartaraf etish lozim.

Kapitallashtirish stavkasining miqdori 8-son MBMSning 36-bandiga (36. Daromad yondashuvi doirasida to'g'ridan to'g'ri kapitallashtirish usuli yoki pul oqimlarini diskontlash usuli qo'llaniladi.

Daromad yondashuvi usullari bilan baholash diskontlash stavkasi va (yoki) kapitallashtirish stavkasidan foydalanishni nazarda tutadi.

Diskontlash stavkasi miqdori O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining baholash sanasiga qadar bo'lgan qayta moliyalashtirish stavkasining (baholash obyektiga investitsiyalash tavakkalchiligi uchun ustamani hisobga oluvchi) 1,5 koeffitsientiga ko'paytmasi sifatida aniqlanadi.

Kapitallashtirish stavkasi sifatida 2% ga teng deb olinadigan pul oqimi uzoq muddatli o'sish sur'ati hajmi ayirib tashlangan diskontlash stavkasi qabul qilinadi) muvofiq aniqlanadi.

Pul oqimini kapitallashtirish quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi:

$$V = CF / CR, \text{ bu yerda:}$$

V - kapitallashtirilgan qiymat;

CF - pul oqimi;

CR - kapitallashtirish stavkasi.

Korxona (aksiyalar paketlari, ulushlar, paylar) qiymatini to'g'ridan to'g'ri kapitallashtirish usuli bilan hisoblashda korxonaning ishlab chiqarishda va daromad olishda ishtirok etmaydigan (shu jumladan konservatsiya qilingan) aktivlari qiymatini hisobga olish lozim.

Shuningdek, xususiy aylanma kapitalning amaldagi miqdoriga tuzatish kiritish zarur: ortiqcha xususiy kapital boshlang'ich qiymat miqdoriga qo'shilishi, taqchillik esa - undan ayrilishi lozim.

Korxonani to'g'ridan to'g'ri kapitallashtirish usuli bilan baholash natijasida likvidli korxona qiymatini yoki korxonadagi likvidli aksiyalarning nazorat (50 foizdan ortiq) paketining (ulushning, payning) qiymati olinadi. Agar nazorat paketi baholanayotgan bo'lmasa, nazorat huquqlarining etishmagan qismiga chegirma qilish lozim. Chegirma POD usulida qo'llangan tartibda kiritiladi.

Faoliyatdagi korxonani baholashda qo'llaniladigan kapital bozori usuli taqqoslanadigan korxonalar aksiyalarining bozor bahosini qo'llashga asoslanadi. Ushbu usulning ijobiy tomoni shundaki, bu usuldan foydalanganda taxminiy (bashorat qilingan) ma'lumotlar emas, faqatgina aniq ma'lumotlar qo'llaniladi. Bu usul quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Tahlil olib boriladigan korxona aniqlanadi. Ushbu usul 2 bosqichdan iborat:

ma'lumot to'plash;

tahlil qilinadigan korxonani tanlashda nomzodlarni aniqlash.

Bu jarayon quyidagi ko'rsatkichlar orqali amalga oshiriladi:

- 1) ishlab chiqarilayotgan mahsulot (yoki tarmoq) nomenklaturasi;
- 2) ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi va sifati;
- 3) tahlil davri;
- 4) ishlab chiqarish quvvatlari hajmi va rivojlanish bosqichi;
- 5) korxonaning rivojlanish strategiyasi;
- 6) korxona joylashgan hudud va iqlimning o'ziga xos xususiyatlari;
- 7) korxonaning moliyaviy holati.

2. Moliyaviy tahlil o'tkaziladi va ma'lumotlar taqqoslanadi. Korxonada baholashning maqsadi va qo'llaniladigan usullarga bog'liq holda quyidagilar o'zgaradi:

1) tahlilning yo'nalishi – korxonadagi o'zgarishlar tahlili va baholanadigan sanadagi holatining tahlili;

2) tahlilda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar va kriteriyalar (mol-mulk tarkibi, rentabellik, to'lovga qobiliyatlilik, likvidlik, rentabellik dinamikasi, kapital tarkibi va h.).

Korxonada moliyaviy tahlilni olib borishda buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot asosiy ma'lumotlar manbai bo'lib hisoblanadi. Korxona holatining moliyaviy tahlili moliyaviy hisobotlarni va joriy-moliyaviy koeffitsientlarni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi.

3. Baholovchi multiplikatorlarni tanlash va hisoblash. Multiplikatorlar, odatda ma'lum bir davr uchun yoki baholash sanasiga hisoblanadi. Korxonani baholashda eng keng qo'llaniladigan multiplikatorlar quyidagilar:

“baho/sof foyda” koeffitsienti = korxona aksiyalarining bozor bahosi / sof foyda = (bitta aksiyaning bozor bahosi* aksiyalar soni)/ sof foyda.

“baho/ sof pul oqimi” koeffitsienti. Bu ko'rsatkich korxona aksiyalarining bozor bahosini sof foyda va amortizatsion ajratmalar yig'indisiga nisbati bilan aniqlanadi.

“investitsion kapital/tushum” koeffitsienti xususiy kapital va uzoq muddatli qarzarlar yig'indisining soliq to'langungacha bo'lgan foyda va foiz to'lovlariga nisbati bilan aniqlanadi.

“baho/ dividendlar” koeffitsienti aksiyalar bozor bahosining to'langan dividendlar qiymatiga nisbati bilan aniqlanadi.

“baho/tushum” koeffitsienti aksiyalar bozor bahosining sotishdan tushgan tushumga nisbati bilan aniqlanadi.

4. Baholanayotgan korxonaga nisbatan multiplikatorlarni qo'llash.

5. Korxonaning oxirgi qiymatiga tuzatishlar kiritish, agar talab etilsa.

Faoliyatdagi korxonani baholashda qo'llaniladigan shartnomalar usuli kapital bozori usulining xususiy holati bo'lib, taqqoslanadigan korxonalar aksiya paketlarini sotib olish bahosini va korxonani to'liq sotib olish bahosini tahlil qilishga asoslanadi. Taqqoslanadigan korxonalarni tanlab olish, moliyaviy tahlilni o'tkazish kapital bozori usulidagi kabi tashkil etiladi. Bu usulda moliyaviy tahlil taqqoslanadigan korxonalarni aniqlash va qulay baholovchi multiplikatorlarni aniqlash uchun qo'llaniladi. Odatda bu usulda "baho/ sof foyda" va "baho/ balans qiymati" multiplikatorlari qo'llaniladi. Kapital bozori usulida korxonani to'liq boshqarish imkonini beruvchi korxona aksiya paketi qiymatining darajasini aniqlashda qo'llanilsa, ikkinchisi korxona bahosini nazorat qilinmaydigan aksiya paketi darajasida qo'llaniladi.

Tayanch so'z va ibolar:

Tahlil, moliyaviy nobarqarorlik, yaqqol inqiroz, moliyaviy tahlil, biznesni baholash, ichki qiymat, balans qiymati, daromadli yondashuv.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Inqirozning turli bosqichlari mavjud?
 2. Korxonalarda bankrotlikning yashirin bosqichlari mavjud?
 3. To'lov qobiliyatsiz korxonaning moliyaviy tahlilini aytib bering?
 4. Moliyaviy tahlil maqsadi va vazifalari majud?
 5. Korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirishning mohiyati va uning korxonalar faoliyatini rivojlantirishdagi ahamiyatini aytib bering?
 6. Biznesni baholashda qiymatlar turlari mavjud?
 7. Korxonani baholashda daromadli yondoshuvlar mavjud?
- Faoliyatdagi korxonani baholashga bozor yondoshuvlari mavjud?

V BOB. INQIROZGA QARSHI MARKETING STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH

5.1. Inqirozga qarshi kurashishda marketingning tarkibi, roli va funksiyalari. Marketing vositalari

Marketing – zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari boshqaruvidagi eng muxim bo‘g‘in (komponent)dir. Korxonaning marketing faoliyati quyidagi to‘rt jarayonni o‘z ichiga oladi:


1. Tovar assortimenti va nomenklaturasini ishlab chiqish;
2. Tovar assortimenti uchun narx siyosatini shakllantirish;
3. Bozorni o‘rganish;
4. Tovar harakati va samarali sotishni tashkil qilish.

Ishlab chiqarish korxonalarida marketing faoliyatini tashkil qilish murakkab vazifa bo‘lib, bunda korxona potentsiali (salohiyati, ichki resurslari) bilan tashqi muxit (bozor) o‘rtasida dinamik muvozanat ta‘minlanishi talab qilinadi. Bundan tashqari marketing faoliyatini tashkil qilish va bu faoliyatning amal qilishini ta‘minlash ma‘lum bir tadqiqot ishlarini olib borishni ham talab qiladi. Shuni ta‘kidlash lozimki O‘zbekiston respublikasidagi ishlab chiqarish korxonalarining ko‘pchiligida marketing faoliyati yo‘lga qo‘yilmagan. Marketing faoliyati tashkil qilingan ayrim yirik ishlab chiqarish korxonalariagi marketing boshqaruvi zamon talablariga javob bermaydi.

Bozorning joriy holati va istiqboldagi talabini haqqoniy ravishda o‘rganish va baholash orqali ishlab chiqarish korxonalarining marketing faoliyati quyidagilarga yo‘naltirilishi lozim:

1. Joriy va strategik (uzoq muddatli) maqsadlarni aniq belgilashga;
2. Belgilangan maqsadlarga etishishning resurslar manbaini aniqlashga;
3. Ishlab chiqariladigan tovar va mahsulotlarning assortimenti va sifatini aniqlashga;
4. Ishlab chiqarish, ta‘minot va taqsimotning optimal strukturasi aniqlashga;
5. Kutilayotgan foydani aniqlashga.

Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumkin. Marketing boshqaruvi korxonani faqatgina sotilishi mumkin bo'lgan va foyda keltiradigan tovarlarni ishlab chiqarishga yo'naltiradi. Buning uchun ishlab chiqarishni tashkil qilish va yuritishning zaruriy sharti sifatida bozor talabi, jamiyat va kishilarning ehtiyojlari o'rganilishi kerak. Shu sababli takror ishlab chiqarish tsikli muomala(sotish)dan boshlanadi degan tushuncha chuqurlashib, iste'moldan boshlanadi degan tushunchagacha keldi. Bu konsepsiya marketing tufayligina hayotda o'z tasdiqini topdi va rivojlanmoqda. Bu 5.1-rasmda aks ettirilgan.



5.1-rasm. Ishlab chiqarish korxonalaridagi marketing faoliyati strukturasi.

Iste'molchilarning ishlab chiqarilayotgan va taklif qilinayotgan tovarlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondira olish va mahsulot ishlab chiqarish uchun sarf qilingan xarajatlarning qoplanishi va foyda olinishini ta'min etuvchi jarayon bozorda sodir bo'ladi. Bozor ishlab chiqarilayotgan va sotilayotgan tovarlarga iste'molchilar ehtiyojlarini

qondira olishi va bundagi sarf-xarajatlar asosililigini aniqlab beruvchi asosiy mezon hisoblanadi. Shuning uchun ham har qanday korxona, tadbirkor o'z faoliyatini belgilangan mezon talablariga muvofiq holda tashkil etishga majbur bo'lib, bu yerda marketing tizimidan samarali foydalanish hisobiga bozorning asosiy subyekti hisoblangan iste'molchining ehtiyojlari, talab-istaklari, didlarini juda ko'plab omillar asosida shakllanishi va qaror topishini o'rganish juda muhimdir. Chunki, ularning qiziqishi, u yoki bu narsani yoqtirishi, o'zlashtirishi, shuningdek, bozordagi xatti-harakatida keskin farqlar mavjudligi tufayli ham iste'molchining turli darajadagi ehtiyojlarini to'la qondirish maqsadida, har bir tovarning xilma-xil turlarini ishlab chiqarish zarur bo'ladi. Ayniqsa, aholining ma'lum bir guruhlari tomonidan juda ham e'zozlanadigan, yuqori darajadagi nafislikni talab qiladigan, ularning didlari va istaklariga o'rnatilgan zardo'zlik mahsulotlari bozorida aniq segmentlar uchun mahsulot ishlab chiqarish va uning savdosini yo'lga qo'yish marketing tizimida juda zarurdir. Bu esa bozor segmentlari, uning mohiyatidan o'rinli foydalanish erkin xo'jalik yuritishga harakat qilayotgan subyektlar faoliyatida muhim o'rin egallaydi.

Korxonalar faoliyatida iste'molchilar uchun qancha mahsulot ishlab chiqarishni bilish, ularning ehtiyojlari, urf-odatlar va yana boshqa ko'plab xislatlarini o'rganish va shu asosda ularni guruhlashtirish orqali aniq xaridorlarga mo'ljallangan maqsadli bozor segmentlarini shakllantirish va rivojlantirish korxonalar uchun zarur jarayon hisoblanadi. Chunki iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirish yo'llari marketing vositalari asosida bozorni segmentlarga ajratib o'rganish tamoyillariga tayanadi. Shuning uchun ham marketing tizimidan foydalangan holda bozorni segmentlarga ajratib o'rganish tamoyillariga tayanish va shu orqali o'ziga jalb qiluvchi segmentlarni aniqlash va shakllantirish, iste'molchilar ehtiyojlarini qondirishda aniq belgilangan strategiyalarga tayangan holda har bir segment uchun mahsulot ishlab chiqarish va sotish zaruriyatini tug'diradi. Bu esa, o'z navbatida, iste'molchini aniq bir maqsadga erishishda marketing tizimidan samarali foydalanish hisobiga, maqsadli bozor segmentlarini tanlash

mexanizmini takomillashtirishni nazariya va amaliyotga tayangan holda amalga oshirish yo'llarini o'rganishni talab qiladi.

Bozorni segmentlarga ajratish va uning jihatlarini bilish hozirgi zamon marketingining asosiy talablaridan biri bo'lib, bozor segmentlarini to'g'ri aniqlash marketing izlanishining hal qiluvchi sharti hisoblanadi va resurslardan samarali foydalanish imkoniyatini tug'diradi.

Bozor segmenti tushunchasi qandaydir belgilar va ma'lum bir omillarni hisobga olib, korxonalar tomonidan asosiy va qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish, ularning iste'molchilari, shuningdek, bevosita mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yoki xizmatlar ko'rsatishni hisobga olib qismlar (segmentlar)ga bo'linishini anglatadi. Aniq va asosli segmentlash – har qanday korxona yoki firmaning o'ylab ish yuritish faoliyatidir. Chunki, bozor odatda ehtiyoji va istaklari turli-tuman bo'lgan xaridorlar guruhidan iborat. Har bir shunday guruh bir-biridan farqli xususiyatlarga ega bo'lgan bozor segmentini tashkil etadi. Bozorni bunday guruhlariga bo'lish jarayoni “segmentlash” yoki “maqsadli marketing” deb ataladi. Ma'lum bir ma'noda segmentlash – bu sotuvchi tomonidan diqqatni jalb qilish va, o'z navbatida, bozorda resurslardan foydalanishni optimallashtirish strategiyasidir.


Segment termini lotincha “segmentum”– bo'lak, ya'ni seg (are) kesish+mentum (otning belgisi) ma'nolarini beradi va umumiy tushunchani aniqlashga monand bo'lib narsalarga bo'linadigan ma'lum bir qism, bo'limni o'zida ifodalaydi. Birinchi bor “bozor segmentatsiyasi” tushunchasi 1956 yilda amerikalik olim U.Smit tomonidan, uning “Marketing strategiyasining muqobili sifatida mahsulot differentsiatsiyasi va bozor segmenti” maqolasida ishlatilgan.

Bozorni segmentlash – ehtiyojni qondirishga tabaqalangan holda yondashish maqsadida tovarlarning turlari, modellari, sifati, miqdoriga ko'ra har xil talab qo'yadigan iste'molchilarni guruhlariga ajratishdan iborat. Bozor mazmunan bir qancha segmentlar doirasida o'ziga xos alohida bir talab namoyon bo'ladigan murakkab tizimli hodisa tarzida o'zini namoyon qiladi. A.Bekmurodovning qayd qilishicha, bozor – har-xil talab-ehtiyojni hoxlovchi ko'plab iste'molchilar tarkibidan va ana

shu ehtiyojni qondirishga tayyor turgan sotuvchilardan tashkil topgan maskan hisoblanar ekan. Shundan kelib chiqqan holda ta'kidlaymizki, bozor amaliyotining asosi iste'molchi yoki mijozni aniqlash mahorati va iste'molchi ehtiyojini qondirishdan iboratdir.

Bozorni segmentlashning asosiy maqsadi muhim omillar asosida korxona, firma uchun yaxshi daromad keltiradigan eng samarali va ma'qul segmentni topib olishdir. Bozorni segmentlash jarayoni korxona, firma uchun strategik ahamiyatga ega, chunki uning faoliyat sohasi va yo'nalishlari, ixtisoslashish chegaralari, tanlangan segmentlarda esa maqsadga erishish vositalari, usullari, tadbirlarini aniqlab olishga xizmat qiladi.

Bozorni kengaytirishda tovarlarni takomillashtirish va sifatini yaxshilash muhim ekanligini e'tiborga olib, integratsion o'sish strategiyasini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bunda o'z do'konlarini tashkil etib, iste'molchilar bilan bevosita aloqani ta'minlashga qaratilgan progressiv integratsiya, shuningdek, kasanachilikdan foydalanish imkonini beradigan gorizontali integratsiya strategiyalari qo'l keladi.



5.2-rasm. Marketingning vazifalari.

Marketingning bosh vazifasi korxonaning mavjud va potentsial imkoniyatlarini baxolash va undan samarali foydalanish evaziga bozorda

talab va taklifni muvofiqlashtirish maqsadida imkoniyatlarni izlab topishdir. Marketingni vazifalari 5.2-rasmda ifodalangan.

□ Marketing yoki tadbirkorlik faoliyati aniq natijaga erishish maqsadida amalga oshiriladi. Marketingni asosiy maqsadlari firmaning asosiy maqsadlari bilan o‘zaro alokadordir.

Ishlab chiqarish korxonasining asosiy maqsadlari va uni belgilovchi ko‘rsatkichlar 5.1-jadvalda keltirilgan.

5.1-jadval

Ishlab chiqarish korxonasining asosiy maqsadlari

Maksadlar	Ko‘rsatkichlar
Bozorni egallash	Bozor ulushi, oborot, tovarni roli va ahamiyati, yangi bozorlarni kamrab olish
Rentabellikni ta‘minlash	Foyda, oborotga nisbatan rentabellik, shaxs kapitalini rentabelligi, umumiy kapitalni rentabelligi
Moliyaviy barqarorlikka erishish	Kreditga layoqatliligi, likvidligi, uz-uzini moliyalashtirish darajasi, kapitalni tuzilishi
Ijtimoiy maqsadlar	Ishdan konikish, daromad darajasi va ijtimoiy ximoya, ijtimoiy integratsiya, shaxsiy rivojlanish
Bozordagi pozitsiya va prestij	Mustakilligi, imidj, siyosiy sharoitga munosabati, jamiyatni tan olishi

5.2. Inqirozga qarshi marketing strategiya va taktikasi

Marketing tadqiqotlari, firma yutuklarining xal kiluvchi omillari va ularning kutilmagan tasodiflarini hisobga olgan xolda imkoniyat istiqbollari aniqlash borasida firma faoliyatining strategik tadqiqoti o‘tkaziladi, marketing strategiyasi va uni amalga oshirish shakllari ishlab chiqiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida iqtisodiy jarayonlarning borishini oldindan aytish juda cheklangan. Firmalar o‘z faoliyatini samarali olib

borishga intilib va tobora uzoqroq muddat uchun oldindan strategik rejalashtirish usulidan foydalanadi.

Bozordagi o'zgarishlar va fan-texnika tarakkiyoti yo'nalishlarini taxlil qilish asosida firmaning strategiyasini ishlab chiqish uchun negiz bo'ladigan umumiy maqsadlar belgilanadi. Firmaning strategiyasi faoliyatning bosh dasturini, marketing, moliya, tashqiliy faoliyat, kadrlar siyosati va boshqa soxalardagi birlamchi yo'nalish va resurslar taqsimotini aks ettiradi.

A. Chendler "Strategiya va struktura" kitobida quyidagicha ta'rif beradi: "Firmaning strategiyasi - bu korxonaning uzoq muddatli asosiy maqsad va vazifalarini shakllantirish, xarakatlar izchilligini ta'minlash, shuningdek bu maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan resurslarni taqsimlashdan iborat".

Marketing strategiyasi deganda ma'lum muddatga belgilangan korxonaning bozordagi xatti-harakatlari tamoyilining modelidan foydalanish tushuniladi. Uning yordamida korxona o'z muvaffaqiyatini ta'minlashga intiladi. Korxona tomonidan ishlab chiqiladigan marketing strategiyalarini uch darajada ko'rib chiqish mumkin:

- korporativ;
- funksional;
- instrumental.

Korporativ strategiyalar asosan korxona resurslaridan bozor ehtiyojlarini qondirish maqsadida yaxshiroq foydalanish imkoniyatlarini belgilaydi. Shu bilan bog'liq holda ular faoliyat hajmining kengayishi, bozor talabini qondirish, korxona ishchilarining tashabbusini va ijodini rag'batlantirish, yangi faoliyat sohalarini yaratish kabi masalalarni hal qilishga moslashtirilgan.

Korporativ strategiyalar uch guruhga bo'linadi: portfelli strategiyalar, o'sish strategiyalari va raqobat strategiyalari.

Marketingning funksional strategiyalari korxona tomonidan maqsadli bozorlarni tanlash va ular uchun mos strategiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan. Ular ham uch guruhdan iborat, ya'ni: bozorni segmentlash strategiyalari, mavqelashtirish va marketing kompleksi strategiyalari.

Marketingning instrumental strategiyalari korxonaga marketing kompleksi doirasida (tovar, narx, siljitish, sotish) maqsadli bozordagi marketing harakatlarining samaradorligini oshirish uchun eng yaxshilarini tanlab olishga (vujudga kelgan bozor holatini hisobga olgan holda) imkoniyat beradi. Strategiyalarni to'rt guruhga bo'lish mumkin: oziq-ovqat strategiyalari, narx strategiyalari, taqsimlash va siljitish strategiyalari.

Portfelli strategiyalar. Marketing amaliyoti «portfel»ni bir-biriga bog'liq bo'lmagan xo'jalik bo'linmalari, bir kompaniya yoki firma strategik birliklarining jamlanmasi ko'rinishida ko'rib chiqadi (moliya sohasida kapitallarni joylashtirishga o'xshash holda). Bular asosida korxonaning turli faoliyat sohalarini ularning bozor ehtiyojlarini qondirish va har bir sohaga kapital qo'yilmalarni amalga oshirishdagi o'rnini va roli nuqtai nazaridan boshqarish bilan bog'liq bo'lgan vazifalar samarali hal etiladi. O'z portfelining tahlili ko'p profilli firmaga cheklangan resurslarni turli xil tovar bozorlari o'rtasida taqsimlashga yordam berishi kerak. Korxona resurslarini bozor faoliyatining xo'jalik yo'nalishlarini tanlash asosida boshqarish «jozibalik - raqobatbardoshlik matritsasi» deb nomlanadigan **Boston konsalting gruppasi (BKG)** uslubidan foydalanish yordamida amalga oshiriladi. Bu uslub «Djeneral Elektrik» va «Makkenzi» firmalariga ham tegishlidir.

BKG matritsasida ikkita mezon qo'llaniladi: o'sishning marketing imkoniyatlari - korxona mahsulotiga talabning o'zgarish sur'atlari ko'rsatkichlari bozorning jozibaligi indikatori sifatida va ichki potensial - eng xavfli raqobatchiga nisbatan olingan bozor ulushi raqobatbardoshlik indikatori sifatida foydalaniladi.

Bozor o'sishining sur'atlari muayyan bozor segmentida tovarlarning haqiqiy sotilishi bilan belgilanadi. Bunda «bozor o'sishining sur'atlari» o'qiga nisbatan o'sishning yuqori va past sur'atlarni ajratib turuvchi asosiy chiziq mazkur tovarning bozorda sotilishini yoki korxona faoliyat yuritayotgan bozorning turli segmentlarida talab o'sishi sur'atlarining o'rtacha qiymatlariga mos kelishi mumkin.

Bozordagi ulush eng xavfli raqobatchi yoki bozor etakchisiga nisbatan hisoblanadi. Bunda «bozor ulushi» o'qi uchun bo'linish chizig'i «l» orqali o'tadi. Bu yerda quyidagi qoida amal qiladi: agar korxona ulushi raqobatchi ulushiga nisbati 1 dan kam bo'lsa, u past bo'ladi, 1 dan katta bo'lsa, u holda korxonaning ulushi baland bo'ladi. To'rtta kvadratdan har biri ham investitsiyalar, ham marketing strategiyalari nuqtai nazaridan alohida yondashuvlarni talab etadigan bir-biridan farq qiluvchi har xil vaziyatlarni tasvirlaydi. Bu yerda quyidagi strategiyalar amal qilishi mumkin:

«Yulduz» - rivojlanayotgan tarmoqda etakchilik qilayotgan tovar yoki tovarlar guruhining shartli belgilanishi. «Yulduz»lardan tushgan foyda juda muhimdir. Lekin shu bilan birga keyingi o'sish uchun katta hajmdagi moliyaviy resurslar zarur bo'ladi. Demak, firma strategiyasining asosiy maqsadi - etakchilikni saqlash va mustahkamlash. Buning uchun mahsulotni takomillashtirish, narxni pasaytirish, reklama tadbirlarini kuchaytirish, keng taqsimot kabilar maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin. Biroq tarmoq rivojlanishining sekinlashishi bilan «yulduz» «sog'iladigan sigar»ga aylanadi.

«Sog'iladigan sigir» deb odatda nisbatan yetuk, rivojlanishi barqarorlashgan va qisqaruvchi tarmoqda etakchi o'rinni egallaydigan tovar va tovar guruhlariga aytiladi. Sotish barqaror holatda ekanligi va asosiy xarajatlar davridan o'tilgan bo'lsa, tabiiyki, sotishdan kelgan foyda hali ham uning bozordagi ulushini saqlab turish uchun zarur bo'lganidan ortiq bo'ladi va boshqa assortiment guruhlar yoki alohida tovarlarni rivojlantirish va saqlab turish uchun ishlatiladi. Bunday sharoitlarda firma maksimal foyda olishga intiladi, erishish vositalari esa odatda sotish kanallarini ta'minlab turish, «eslatuvchi reklama», narxdan chegirmalar, takroriy xaridlarni rag'batlantirish hisoblanadi.

«Qiyin bola» (boshqacha nomi - «so'roq belgisi») - bu tez rivojlanuvchi tarmoqda ishlab chiqaruvchilarning kuchli raqobati va iste'molchilarning uncha ko'p bo'lmagan ko'magi sharoitlarida tovar yoki tovar guruhlar. Bozor ulushi katta emas. Firmaning vazifasi investitsiyalash manbalarini topish va tanlangan yo'nalish doirasida rivojlanishni ta'minlashdan iborat. Strategiyaning yangi sotish

kanallarini topish, tovarni siljitishga xarajatlarning kengayishi, narxni pasaytirish kabi variantlari samarali, bozordan chiqib ketish varianti ham bo'lishi mumkin.

«It» - bu qisqarayotgan bozorda juda kichik ulushdagi tovar yoki tovarlar guruhi. «It» sifatida ko'pincha iste'molchilar tomonidan tan olinmagan tovarlar, yoki raqobatchilar tovaridan ancha orqada bo'lgan tovarlar, yoki ko'p xarajat talab etuvchi va o'sish imkoniyatlari kam bo'lgan tovarlar namoyon bo'ladi. Strategik qarorlarning variantlari: narxning pasayishi va xizmat ko'rsatish hajmining kamayishi, soddalashtirish yo'li bilan foyda olish, bozordan chiqib ketish.

BKG usuli bo'yicha tahlil qilish yagona portfel tarkibida korxonaning o'rnini aniqlash, istiqbolli strategiyalarni prognozlashga imkoniyat beradi. Tez o'suvchi yo'nalishlar investitsiyalarga ehtiyoj sezadi, sekin o'suvchilari esa ortiqcha mablag'larga ega bo'ladi.

Sotishlar hajmi va foyda summasi bo'yicha deyarli har bir yo'nalishning ulushini hisoblash mumkin.

Shu bilan bir qatorda matritsani qo'llash ma'lum darajada cheklangan, chunki u faqatgina barqaror sharoitlar va ko'rsatkichlarning cheklangan doirasi bo'yicha natija berishi mumkin.

Dji-I-Makkenzi matritsasi. Bu ko'p o'lchamli matritsa bo'lib (bozorning «jozibaligi» korxonaning strategik vaziyati), bozorning jozibaligi darajalariga bog'liq holda korxona potensialidan samarali foydalanish bo'yicha ko'proq differensiallangan marketing qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

BKG dan farqli ravishda bu matritsa baholashda qatnashadigan omillar sonini ancha ko'paytiradi va barqaror bo'lmagan rivojlanish sharoitlarida uni qo'llash imkonini yaratadi. «Bozor jozibaligi» ko'rsatkichi quyidagi omillar kompleksi bilan ifodalanadi:

- bozor o'lchamlari va uning o'sishi shartlari;
- narxlar darajasi;
- foyda me'yori;
- raqobat holati;
- bozorga chiqish uchun to'siqlar;
- huquqiy chekllovlar;

□ ijtimoiy roli va boshqalar.

«Strategik vaziyat» ko'rsatkichi (raqobatli vaziyat, ichki potensial), shuningdek, turli xil omillar (sof daromad, moliyaviy ahvol, sotilishlarning samaradorligi, narxning raqobatbardoshligi, korxona madaniyati, boshqarish uslubi, korxona imkoniyatlari va boshqalar) yordamida aniqlanadi. Bu ko'rsatkichlarni baholash korxonaning investitsiya, bozor holatini, shuningdek, uning potentsiali ahvolini hisoblash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Investitsion vaziyat korxona o'sishini ta'minlash uchun investitsiyalarning real va optimal kattaliklarining nisbati sifatida aniqlanadi.

Bozordagi vaziyat amaldagi bozor strategiyasining bozorda etakchilikka erishish va potensial iste'molchilarining ixloslari nuqtai nazardan optimal strategiyaga nisbati bilan baholanadi.

Korxona potentsialining ahvolini uning real ahvolining ishlab chiqarish, xodimlar, moliya va marketingni samarali boshqarishga erishish nuqtai nazaridan optimal holatiga nisbati bilan belgilaydilar. Ko'rsatilgan uchta ko'rsatkichlardan har biri birga teng bo'lsa, korxona bozorda yuqori strategik holatga ega bo'ladi. Ko'rsatkichlardan birortasi nolga teng bo'lsa, korxonaning muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlari kamayadi.

O'sish strategiyalari bozor talablariga yaxshiroq javob berishi uchun korxona qaysi yo'nalishda rivojlanish kerakligini, shuningdek, buning uchun o'z resurslari etarlimi yoki chetdan jalb qilish va o'z faoliyatini diversifikatsiya qilish kerakligini aniqlaydi.

O'sishni boshqarishni Ansoff matritsasi asosida amalga oshirish mumkin. Bu matritsa mahsulotlarni sotish istiqbollarining noaniqlik darajasiga yoki mazkur mahsulotning mazkur bozorga kirish imkoniyatlariga bog'liq holda mahsulot va bozorlarni tasniflash uchun qurol hisoblanadi.

U yoki bu strategiya marketing jihatidan jozibaligi Ansoff matritsasi bo'yicha sotilishlar kattaligi va kutiladigan xavf-xatar darajasi bilan aniqlanadi.

Sotilishlarning potensial hajmi mazkur bozor segmentining sig'imi bilan, xavf-xatar darajasi esa (% ifodasida) ekspert yo'li bilan belgilanadi. Olingan ko'rsatkichlar mazkur strategiyani amalga oshirish uchun kutiladigan xarajatlar kattaligi bilan ham solishtiriladi. Shunday qilib, o'sish strategiyasi muhim bo'ladi, agar korxona bozordagi o'zining tovarlari bilan bog'liq bo'lgan imkoniyatlaridan to'liq foydalanmagan bo'lsa.

Korxonaning marketing urinishlari har bir strategik kvadrantning yo'nalishini shartlab qo'yadi. Xususan, bozorga kirish strategiyasi, qoida bo'yicha, an'anaviy xaridorlar bilan tovarlarni rag'batlantirish, bozor ulushini ko'paytirish, raqobatchilardan xaridorlarni yoki yangi iste'molchilarni jalb qilish.

Bozor rivojlanish strategiyasi - bu asosan yangi iste'molchi segmentlarga, yangi hududiy bozorlarga va yangi sotish tarmoqlariga chiqish.

Mahsulot rivojlanish strategiyasi yaxshilangan yoki yangi tovarlarni tayyorlash (innovatsiya, yangi marka, assortiment modifikatsiyasi, mahsulot parametrlarini yaxshilash, instrumental va emotsional tavsiflarni rivojlantirish) hisobiga sotuv o'sishiga yo'naltirilgan.

Diversifikatsiya strategiyasi yangi bozorlar uchun mo'ljallangan yangi mahsulotlar bilan bog'liq. Albatta, bu strategiya qiyin va hatarli, chunki u korxonani yangi sohalarga olib chiqadi. Ularning muvaffaqiyati uchun yirik kadr va moliya resurslarini jalb qilish talab etiladi.

Raqobatchilar strategiyasi. Korxonaga potensial iste'molchilar va bir vaqtda asosiy raqobatchilarga nisbatan siyosatni ko'proq jalb qilish mavqeidan bozordagi ustunlikni shakllantiradi. Bu yerda, eng avvalo, raqobat tahlili asosida ma'lum jarayon o'rganiladi va korxona o'zining ham, bozordagi raqobatchilarga ham raqobat ustunligiga baho berish zaruriyati paydo bo'ladi. O'z navbatida, **raqobat ustunligi** raqobatchilarga nisbatan ma'lum ustunliklarni yaratuvchi korxonaning bozor faoliyati tavsifini ifodalaydi. Raqobat ustunligini yaratish raqobatchilarning mos harakatlari ustidan ustunlikni ta'minlovchi tovar,

narx, taqsimlash, rag'batlantirish sohasida marketing kompleksini tayyorlash bilan bog'liq.

Raqobat strategiyasining marketing ma'nosi shundan iboratki, ular korxona tomonidan bozorning ma'lum ulushini ushlab qolishga (bozorning alohida segmentini) yoki uning ko'payishiga ko'maklashadi. Buning uchun quyidagi model va matritsalar ishlatiladi: umumiy raqobatchi matritsa, raqobat kuchi modeli, raqobat ustunligi matritsasi va raqobatchi reaksiyasi modeli.

Umumiy raqobatchi matritsa. Amerikalik tadqiqotchi M. Porterning umumiy raqobatchi matritsasi shundan kelib chiqadiki, korxonaning bozordagi raqobat ustunligi uchta asosiy yo'l bilan ta'minlanadi.

Narx etakchiligi mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish mumkinligiga asoslanadi. Bu yerda asosiy bo'lib xarajatlarni boshqarish va nazorat qilish, mukammal texnologiyalarni kiritish, investitsiyalar barqarorligi, standartlashtirilgan tovarlarni ishlab chiqarish hisoblanadi. Ishlab chiqarishning har ikki marta ko'payishida mahsulot birligini ishlab chiqarishdagi xarajatlar 20%ga pasayadi («tajriba egrisi»).

Mahsulot etakchiligi tovarlar differentsiatsiyasi mumkinligi bilan ta'minlanadi. Asosiy o'rinni tovarni mukammallashtirish, markali mahsulotni rivojlantirish, servis, dizayn, imijni tashkil etish va boshqalar bilan bog'liq jarayonlar egallaydi. Iste'molchilar uchun tovar qadrligining oshishi iste'molchining kerakli tovar uchun yuqoriroq narx berish tayyorligiga olib keladi. Shunday qilib, bu yerda hukmron rolini marketing uynaydi.

Bo'shliqda etakchilik narx yoki mahsulot ustunligini bozorning torroq segmentlarida ishlatishni bildiradi. Shu bilan birga korxona tomonidan tanlangan segment kuchliroq raqobatchilar e'tiborini o'ziga tortmasligi kerak. Ma'lum darajada bu amaliyot asosan korxona tomonidan iste'molchilarning tor guruhini ajratish uchun qo'llanilishi mumkin.

Korxonaning raqobat ustunligi matritsasi quyidagi matritsada keltirilgan strategiyalar ifodalangan bo'lishi mumkin (5.1-chizma).

Bozordagi holat	Oldindan harakat qiluvchi strategiyalar	Passiv strategiyalar
Bozor etakchilari	«Ishg'ol qilish» «Himoya»	«Tutib olish» «Bloklash»
Bozor etakchilarini ta'qib qiluvchilar	«Hujum» «Kurs bo'yicha yorib o'tish»	«Kurs bo'yicha bo'ylab borish» «Qo'rshab olish»
To'g'ri raqobatchilikdan qochmoq	«Maydonlarda kuchlarni to'plash»	«Holatlarni saqlash» «Aylanib o'tish»

5.1-chizma. Raqobatchilar ustunligi matritsasi

Korxonaning harakatlar tavsifi va bozordagi egallagan o'rni u yoki bu strategiyani tanlashni oldindan belgilaydi. Shunday qilib, ko'pgina raqobatchilar uchun «sanash nuqtasi» sifatida bozorda ustun o'rinni egallovchi **bozor etakchisi** xizmat qiladi. Bozordagi vaziyatdan qanoatlangan korxonalar, odatda, to'g'ri raqobatdan qochadilar. Biroq, raqobatchi ustunliklari yig'ilishi bilan etakchiga ochikdan ochiq qarshi chiqa oladigan va hujum qila oladigan korxonalar etakchilarni ta'qib qiluvchilarga aylanadilar.

Oldindan harakat qiluvchi strategiyalarni (aktiv) yoki passiv turlarni tanlash, asosan, korxonaning bozordagi holatiga bog'liq bo'ladi.

«**Bozorni ishg'ol qilish**» - bu strategiya narxli yoki mahsulotli etakchilikni qo'llash, yangi iste'molchilarni izlash, iste'mol intensivligini oshirish va boshqa yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin.

«**Bozorni himoyalash**» - korxonaning faoliyat sohasida «vafodor» iste'molchilarni servis xizmati, reklama vositalarini samarali ishlatish, rag'batlantirish yordami bilan ushlab qolishga intilish.

«**Tutib olish**» - qabul qilingan zarur choralarni harakat samarasini pasaytirish maqsadida raqobatchita'qibchilarning yangi kiritishlariga javob harakatlar.

«Bozorni bloklash» - raqobatchita'qibchilar tomonidan marketing-miksni (tovar, narx, siljitish, taqsimlash) ishlatish borasida biror ustunlikka erishish imkoniyatiga yo'l qo'ymaslik.

«Hujum» («ro'paradan qilingan hujum») - raqobatchining o'zi qo'llagan vositalari bilan raqiblarga ta'sir qilishdan iborat. Muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ro'paradan qilingan hujum hujum qiluvchidan yirik kuch ustunligini talab qiladi (harbiy strategiyaga nisbatan analog bo'yicha bu munosabat 3:1 ga teng deb qabul qilingan).

«O'pirish» («yon tomondan yorib o'tish») - etakchi bilan uning zaif joylari ko'rinuvchi strategik yo'nalishda olib boriladigan kurashni nazarda tutadi. Bu strategiyadagi klassik yondashuv - narx orqali hujum qilish, ya'ni o'sha tovarlarni pastroq narxlarda taklif etish.

«Kurs bo'yicha borish» - o'zining echimlarini raqiblar echimi bilan moslashtirgan, kunikuv xatti-harakatni tanlagan, bozorning katta bo'lmagan qismida faoliyat olib boruvchi raqobatchining strategiyasidir. Bunday firmalar «tinch birga yashash» va bozorni oldindan belgilab o'ylab bo'lib olish maqsadini ko'zlaydilar.

«O'rab olish» - etakchining zaif joylarini bilib olish asosida mos ustunlikni jamlab, shu bilan raqobatchining turli tomonlaridan o'tishga shartsharoit yaratish.

«Manfaatli maydonlarga kuchlarni to'plash» - faoliyat hajmi katta bo'lmagan firma o'zining xabardorligini yaxshiroq ro'yobga chiqarishi yoki asosiy raqobatchilar bilan to'qnashuvdan saqlanib qolishi mumkin.

«O'rinni saqlash» - raqobatchilarning e'tiborini olmagan bozor faoliyatida doimiylikni saklash.

«Aylanib chiqish» - raqobatchilar bilan to'g'ri to'qnashuvdan saqlanish. Shu bilan birga firma raqobatga chidamagan tovarlarni ishlab chiqarib servis xizmatlarini yaxshilamay, raqobatchilar nuqtai nazaridan jozibasiz bo'lgan sotish kanallari va rag'batlantirishdan foydalanish va boshqalar.

Marketingning funksional strategiyasiga birinchi navbatda maqsadli bozor strategiyasi, segmentatsiya va mavqelashtirish kiradi. **Maqsadli bozor** - bu aniq bozor, unda firma marketing imkoniyatlarini

to'laroq ro'yobga chiqarish uchun o'zining faoliyatini tashkil etadi. Maqsadli bozorlarni aniqlash jarayoni amaliy marketingda eng mas'uliyatli payt hisoblanadi. Bu yerda uchta yondashish aniqlangan: ommaviy, differensiallashgan va konsentrlashgan.

Ommaviy marketing hamma iste'molchilarning umumiy ehtiyojlarini afzal ko'rgan holda butun bozor ahvolidan xabardorlikni uyushtiradi va bu borada kuchini ommaviy talabli bo'lgan tovarlar sotish hajmini ko'paytirishga qaratadi. Bu yerda potensial iste'molchilarning ahamiyatli sonini jalb qilishga qaratilgan marketing strategiyalari ishlab chiqiladi. Chuqur marketing izlanishlarini olib borish zarurati yo'qolgani sababli marketingga bo'lgan xarajatlar ham nisbatan kam bo'ladi.

Differensiallashgan marketing ayrim segmentlarda, ayrim vaqtda har xil talablar va tavsiflarga ega bo'lgan ularning majmuilarida qo'llaniladi. Bu yerda iste'molchilarning talablarini to'laroq qondirish, bozordagi o'rinni kelajakda mustahkamlash maqsadida korxona tomonidan turli iste'molchilar guruhining ehtiyojlarini chuqurroq o'rganishga to'g'ri keladi, ya'ni chuqur marketing izlanishlarini olib borish, ayniqsa tovar assortimentini kengaytirish, reklama faoliyati, rag'batlantirish va sotish yo'nalishlarida. Bularning hammasi marketingga sarflangan xarajatlarni ko'paytiradi.

Konsentrlashgan marketing alohida iste'molchilar guruhlarining (segmentlarining) o'ziga xos talablarini hisobga oladi, ularga maksimal ravishda moslashadi, yangi iste'molchilarni jalb qilish maqsadida bozorga kirib borishini davom etadi. Korxonaning vazifasi mahsulot sotilishini maksimallashtirish emas, balki barqarorlik, doimiy xarajatlar, bozor ulushining etarligi va iste'molchilarning e'tiborini qozonishga erishishdan iborat.

5.3. Marketing-miks va zamonaviy strategik marketing xususiyatlari. Marketing strategiyalarining tizimi va ko'rinishlari

Marketing kompleksi tushunchasi "aralashma", "aralashtirilgan" deb tarjima qilinadi va korxonada strategik maqsadlarni echishga mo'ljallangan kompleks marketingni nazarda tutadi.

«Marketing-miks» nazariyasi «aralashma», «aralashtirilgan» deb tarjima qilinadi va strategik maqsadlarni echishga mo'ljallangan kompleks marketingni nazarda tutadi.

Marketing-miks - bu bozorning murakkabligi va harakatchanligiga mos keladigan ko'p o'lchamli marketing strategiyasini har xil birikmalar va bog'lanishlarda ishlab chiqishga imkon beradigan turli xil marketing qurollari to'plamidir.

Muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'ladigan amaliy qurollarning nomlari tasdifga ko'ra ingliz tilining R harfidan boshlanadi. Marketing faoliyatining ushbu yig'indisini belgilash uchun «**4R**» formulasi ishlatiladi: **Product (tovar) - Price (narx) - Promotion (siljitish) - Place (taqsimlash)**. Ba'zi holarda unga 5 - "**R**"ni (People - iste'molchilar) ham kiritadilar. Bunda oldingi tarkibiy bloklarga tegishli strategiyani amalga oshirishning sifat darajasini belgilaydigan personal muammolarning kompleksi nazarda tutiladi. Shunday qilib, marketing-miksning marketing strategiyasini shakllantiruvchi 5 ta asosiy muammoli funktsional bloklarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Mahsulot. Iste'molga mo'ljallangan har qanday mahsulot dastavval iste'molchilar talabiga to'lato'kis javob berishi va muayyan ko'rsatkichlar bo'yicha boshqa ishlab chiqaruvchilar (raqobatchilar) mahsulotidan albatta ustun bo'lishi kerak. Bunda eng asosiy mezon bo'lib mahsulot sifati hisoblanadi. O'zining strategik faoliyati asosiga sifat omilini qo'yadigan firma kelajakda foyda olish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'ladi. Biroq marketolog iste'molchilarning umidiga mos tushadigan mahsulotning tashqi ko'rinishi (dizayn, o'rami) haqida unutmasligi kerak. Shu bilan birga tovarning hayotiy davri bosqichlarini ham hisobga olishi kerak.

Narx. Iste'molchilarning boyliklar tizimi o'zgaruvchandir. Shuning uchun narx va narxlashtarishni amalda boshqarish - yuqori professional yondashuvni talab qiladigan murakkab jarayondir. Ba'zi tadqiqotchilar hisoblaydilarki, qiymat bu ishlab chiqarish hajmiga nisbatan mahsulot sifatidir. Hozir ham ko'pgina korxonalarda narx bo'yicha qarorlar faqat moliyaviy yondashuv doirasida qabul qilinadi, ya'ni xarajatlar va rentabellikni hisoblash asosida aniqlanadi. Tovarlar

etarlicha differensiallanmagan va shu bilan birga raqobatchilar ko'p bo'lsa, bu vaziyatda firmaning bozor ta'siri sust bo'lishi mumkin, va odatda, bozordan kelib chiqadigan narx qabul qilinadi. Firma strategik marketingni qo'llasa va buning natijasida bozorda kuchga ega bo'lib borsa, tabiiyki, bunday holda firma uchun narxni belgilash jarayoni tanlangan strategiya uchun markaziy ahamiyatga ega bo'ladi.

Firma darajasida narx ikkilamchi rol o'ynashini unutmashlik kerak. Bir tomondan, u talabni rag'batlantirish omili bo'lib hisoblanadi, boshqa tomondan esa bir vaqtning o'zida uzoq muddatli rentabellikning asosiy qurolini ifodalaydi.

Siljitish. Talab va taklifning samarali muvofiqligini ta'minlash uchun bozor subyektlari o'rtasida (ayirboshlash jarayoni) asosan firmadan chiqadigan axborot oqimlari marka yoki firma da'vo qiladigan o'rinni bozorga etkazishga yo'naltirilishi kerak. Buning uchun siljitishning har xil kanallari ishlatiladi: tijorat personal, reklama, talabni rag'batlantirish va jamoatchilik bilan aloqalar. Firma tomonidan qilingan strategik tanlov samarali tadbiriq etilishi uchun samarali siljitish tizimi bilan qullab-quvvatlangan bo'lishi kerak, aks holda tijorat muvaffaqiyatiga erishish ehtimoli kamroq bo'ladi.

Taqsimlash (joylashtirish kanallari). Taqsimlash (sotish) kanallarining amal qilishi ishlab chiqaruvchi korxona erkin almashinish talablari va iste'molchilar umididan kelib chiqadigan hamma majburiyatlar va funksiyalarni o'z bo'yniga ololmasligi bilan shartlanadi. Zamonaviy texnika va axborot tizimlari ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarni yaqinlashtirsa ham, biroq bu bog'lanishlar turlicha murakkab. Shuning uchun obyektiv ravishda vositachilarni jalb qilish zarurati paydo bo'ladi. Vositachilar yordamiga murojaat qilish o'z navbatida korxona uchun tovar harakati va xizmat ko'rsatish jarayonining ma'lum elementlari ustidan nazoratni yo'qotish tushuniladi. Korxona uchun taqsimlash tarmoqlarini tanlash (sotish tarmog'i) - bu maqsadli segment iste'molchilarining shaxsiy maqsadlari va talablari bilan bog'langan strategik echim. Har qanday taqsimlash tarmog'i almashinishni amalga oshirish uchun zarur bulgan funksiyalar kompleksini bajaradi.

Insonlar. Korxona ishga malakali odamlarni qabul qilishga intilishi kerak. Malakali xodim samaraliroq, unumliroq ishlaydi, shuning uchun yuqoriroq natijaga erishadi. Eng asosiysi insonlardan qanday foydalanilayotganligidir. Turli xil muammolarni echish uchun aniq tavsiyalar paydo bo'ladigan «aql janglari» juda samaralidir. Xodimlar qanday funksiyalarni bajarishini va u yoki bu jarayonlarning qanday usullar bilan amalga oshirilishini bilish ham ancha muhimdir. Marketing strategiyasida asosiy narsa iste'molchi va uning tovaridan foydalanish qobiliyati bo'lganligi sababli uning harakteristikasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Strategik marketingning zamonaviy xususiyatlari globalizm, faollik, innovatsiyalashuvlik, integratsiyalashuvlik, bozor tarkibiy tadqiqotlarining afzalliklari, jamoatchilik bilan aloqalardan faol foydalanish, firmaning, iste'molchilarning va umuman jamiyat manfaatlarining mosligiga maqsadli yo'naltirilishi kabi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi.

Milliy bozorlar o'rtasidagi aloqalarning o'sishi, ehtiyojlar bir xilligining kuchayishi, xalqaro standartlashtirishning rivojlaniish, davlatlararo bitimlar amaliyotining kengayishi va xalqaro raqobatning rivojlanishi **globalizm tamoyilini** keltirib chiqardi.

Strategik marketingning faolligi iste'mol bozorining to'yinib borishi, texnologik jarayonlarning tezlashishi va «nou-xau»larning joriy etilishi, shuningdek, xalqaro savdo-sotiq va hamkorlik uchun to'siqlarning ketma-ket olib tashlanishi bilan ifodalanadi.

Zamonaviy marketingning innovatsiyalashuvi tovar modifikatsiyasi, assortimentni yangilash, ehtiyojlarni qondirishning yangi darajalariga erishish, sotish va xizmat ko'rsatishning mukammal usullari va kommunikatsiyalar shaklidan foydalanish nazarda tutiladi. Bularning hammasi tovar va xizmatlarning sifat ko'rsatkichlarini oshirish uchun sharoit yaratadi.

Integratsiyalashuv - bu tovar bozorlarini strategik tanlash, tanlab olingan, maqsadli bozorlarda talab va taklifni uzoq muddatli prognozlash asosida tovar siyosati, narx hosil bo'lishi, siljitish va sotish faoliyatining bir-biri bilan uzviy bog'likligidir.

Bozor tarkibiy tadqiqotlarining afzalliklari fundamental tadqiqotlarning (amaliy jihatdan dolzarb va mazmunan chuqur) katta bo'lmagan xususiy muammolarini echish doirasida amalga oshiriladigan epizodik tadqiqotlardan ustunligini belgilaydi.

Jamoatchilik bilan aloqalardan faol foydalanish notijorat, byudjet sohalarida marketingning tobora o'sib boruvchi rolini va ijtimoiy yo'naltirilganligini, shuningdek, jamiyat va uning ijtimoiy guruhlarining, marketing ishining natijaviyligiga real ta'sirini tasvirlab beradi. Bu yerda asosiy yo'nalish deb ijtimoiy etika va ekologiya talablarini tan olish kerak.

Firma, iste'molchilar va jamiyat manfaatlarining moslashuvi firmaning mijozlar, raqobatchilar, ta'minotchilar, o'zining xodimlariga munosabat, shuningdek, jamoatchilik va ijtimoiy atrof-muhit bilan munosabatlarni belgilaydigan falsafiy tamoyillardan iboratdir.

5.4. Korxona hayotiyligida marketing tadqiqotlarini samarali tadbqiq etish

Iqtisodiy adabiyotlarda shu vaqtgacha ilg'or marketing qurollarini keng va har tomonlama hisobga oladigan marketing tadqiqotlarini olib borishning to'liq chizmasi chop etilmagan. Bu nuqsonni quyidagicha izohlash mumkin:

Birinchidan, marketing tadqiqotini olib borish algoritmi uning maqsadi va vazifalariga ko'p darajada bog'liq.

Ikkinchidan, marketing tadqiqotlarini rejalashtirish chizmasini amaldagi maqsadga muvofiqligidan kelib chiqqan holda ongli ravishda soddalashtirish.

Uchinchidan, tadqiqotlarni olib borish usullari va metodlarining doimiy ravishda yangi ishlanmalar bilan to'ldirilib borishi.

Marketing tadqiqotlari marketing ehtiyojlarini ta'minlashga yo'naltirilgan ixtiyoriy marketing faoliyatidan boshqa narsa emas, ya'ni muayyan marketing faoliyati uchun ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va prognozlash tizimidir. Demak, marketing tadqiqoti bu yerda korxonaning marketing faoliyati har qandaysiklning boshlanishi va

mantiqiy yakuni sifatida namoyon bo'ladi. Savol kelib chiqadi: bunday tadqiqotning maqsadi nima? Tabiiyki, marketing qarorlarini qabul qilishda duch keladigan noaniqliklarni kamaytirish.

Qayd etish kerakki, adabiyotda har qanday marketing tadqiqoti o'zaro bog'liq bo'lgan ikki qism: muayyan bozorlarni va firmalarning bozorga chiqishi va o'z o'rnini mustahkamlab olishi uchun o'zining imkoniyatlarini o'rganishdan iborat, degan tasavvur paydo bo'lgan. Bundan kelib chiqadiki, bozorni o'rganish - kompleksli marketing tadqiqotining bir qismi. Marketing tadqiqotining majburiy shartlari quyidagilar:

- tadqiqotlar tizimli harakterda bo'lishi kerak, shu holdagina samaradorlikni kutsa bo'ladi;

- marketing tadqiqotlarini olib borishda obyektivlik va aniqlikka asoslangan ilmiy yondashishga rioya etilishi kerak;

marketing tadqiqotlari qaror qabul qilish uchun axborot talab etadigan marketingning har qanday tomoniga nisbatan qo'llanilishi mumkin;

- tadqiqot – ma'lumotlarni to'plash, materiallarni qayd qilish va tahlil qilishni o'z ichiga oladigan ko'p bosqichli jarayon;

- ma'lumotlar korxonaning o'zidan, betaraf tashqilot yoki mutaxassis tadqiqotchilardan kelib tushishi mumkin.

Shu bilan birga keyingi paytlarda marketing tadqiqotlarida keng ma'noda jamoat fikrini baholash, ijtimoiy tadqiqotlar keng qo'llanila boshladi. Xalqaro savdo palatasi **ESOMAR** (Jamoatchilik fikri va marketingni o'rganish bo'yicha Yevropa hamjamiyati)ning 1976 -yilda qabul qilingan marketing va ijtimoiy tadqiqotlar amaliyotiga doir Xalqaro kodeksiga ko'ra marketing tadqiqotlarini olib borishning muayyan yondashish (qoida)lari mavjud. Mazkur holda marketing tadqiqotlari deganda alohida shaxslar va tashqilotlarning iqtisodiy, jamoat, siyosiy va har kunlik faoliyatida ularning xulqatvori, ehtiyojlari, munosabatlari, fikrlariga tegishli ma'lumotlarni tizimli to'plash va obyektiv yozib olish, tasniflash, tahlil qilish va taqdim etish tushuniladi.

Bundan kelib chiqib marketing tadqiqotlarini olib borishning asosiy tamoyillari quyidagicha talqin etilishi mumkin:

1. Marketing tadqiqotlari jamoatchilik ishonchiga bog'liq, ya'ni bu tadqiqotlar haqqoniy, obyektiv, noo'rin aralashuvlarsiz va so'roqqa tutiluvchi shaxslarga zarar yetkazmasdan olib borilishi, jamoatchilik bilan ixtiyoriylikka asoslangan hamkorlikda olib borilishi haqida ishonch bo'lishi kerak.

2. Marketing tadqiqotlari shaxs huquklarini buzmasligi kerak.

3. Marketing tadqiqotlari hamma joyda amal qilinadigan yuqori andozalar darajasida halol raqobat tamoyillariga mos holda olib borilishi kerak.

4. Tadqiqotlarni olib boruvchi mutaxassislar ishning sifati va xulosalarning asoslanganligini baholash uchun kerak bo'ladigan axborotlarni taqdim etishga tayyor bo'lishi kerak.

Marketing tadqiqotlarining hozirgi holati doimiy e'tibor va muhokamaga sazovor bo'lgan uchta tendensiya bilan tavsiflanadi. Bular - tijorat ma'lumotlar bazasining tobora ochiq bo'layotganligi, yangi texnologiyalardan foydalanishning o'sishi va so'raluvchilar o'rtasida so'rov haqidagi fikrning yomonlashuvi. Bu tendensiyalar marketing tadqiqotining ikki yo'nalishga: **kabinetli va dala tadqiqotlariga** bo'linishini taqozo etdi.

Kabinetli tadqiqotlar - allaqachon mavjud bo'lgan ikkilamchi axborotga («yozuv stolidagi tadqiqot») ishlov berish. Ikkilamchi axborot - hozirgi vaqtdagi maqsaddan farqli bo'lgan maqsadlar uchun oldindan to'plangan ma'lumotlar. Ikkilamchi axborotning afzalliklari: ishlar qiymatining pastligi, chunki yangi ma'lumotlarni to'plash kerak emas; materialni to'plash tezligi; bir nechta axborot manbalarining mavjudligi; muammoni oldindan tahlil qilish imkoniyati. Kamchiliklari: o'tkaziladigan tadqiqotning maqsadlariga umumiy xarakteri jihatidan hamma vaqt ham to'g'ri kelmaydi; ma'lumot eskirgan bo'lishi mumkin; ma'lumotlar to'plangan uslubiyat mazkur tadqiqotning maqsadlariga mos tushmasligi mumkin.

Dala tadqiqoti - muayyan marketing tahlili uchun ma'lumotlarni maxsus to'plash va ishlov berish. Dala tadqiqoti birlamchi axborotga, ya'ni muayyan tadqiqot qilinayotgan muammoni hal qilish uchun hozirgina olingan ma'lumotlarga asoslanadi. Birlamchi axborotning

afzalliklari: ma'lumotlar tadqiqotchilik vazifasining aniq maqsadlariga ko'ra to'planadi; ma'lumotlarni to'plash uslubiyati nazorat qilinadi; hamma natijalar korxona uchun ochiq va sir saqlanishi mumkin. Kamchiliklari: moddiy va mexnat xarajatlarining ko'pligi.

Odatda, dala va kabinetli tadqiqotlar amaliyotda bir-birini to'ldiradi. Marketing tadqiqotlarining bir qismi bo'lib bozor konyunkturasini, ya'ni shu paytda mazkur bozorda turli xil sharoitlar yig'indisi ta'sirida vujudga kelgan holatni tahlil qilish hisoblanadi.

Marketing jarayonlarining rivojlanish variantlarini baholashda imitatsion modellash metodlari qo'llaniladi. Ularning mohiyati marketing muhitining nazorat qilinadigan va nazorat qilinmaydigan omillarining matematik modelini tuzishdan iborat. Ko'pgina hollarda marketing tizimi ta'siri natijalarining marketing muhiti omillariga analitik bog'liqligini aniqlash mumkin. Va, albatta, marketing tadqiqotlari natijasida olingan ma'lumotlar korxonaning marketing axborot tizimida to'planishi kerak.

An'anaga ko'ra marketingning dala tadqiqotlarida zaruriy axborotni olish uchun asosan so'rov usuli qo'llaniladi. So'rov og'zaki yoki yozma shaklda bo'lishi mumkin. Dala tadqiqotlarining 90 %ga yaqinida shu usuldan foydalaniladi. Kuzatish axborotni olish usuli sifatida bozor tadqiqotlarida so'rovga qaraganda kamroq ishlatiladi. Sinov bir omilning boshqa omilga ta'siri bir vaqtning o'zida begona omillarni nazorat qilish bilan birga o'rganilishidan iborat.

Tashqi bozorlarni o'rganish. Bu o'rinda xalqaro marketingning metodologik yondashuvlarini qo'llash nazarda tutiladi, chunki korxonaga nisbatan tashqi bo'lgan har qanday bozor o'ziga xos xususiyatlarga, o'zining ijtimoiy-madaniy farqlariga, o'zining raqobat muhitiga ega bo'ladi. Shuning uchun tashqi bozorlarni o'rganishning xususiyatlarini va xalqaro marketing tadqiqotlarining uslublarini ko'rib chiqish zaruriyati paydo bo'ladi.

Imitatsion modellashtirish. Ishning natijalariga qarab marketingning imitatsion modellarini tasniflashning asosiy mezonlari ajratilib ko'rsatiladi. Bunday holda ko'pgina modellarni qanday maqsadlarda ishlab chiqilganligiga qarab uchta sinfga bo'lish mumkin:

- 1) iste'molchilar xatti-harakatlarining modeli;
- 2) javob qaytarish modeli;
- 3) siyosatni ishlab chiqish modeli.

Modellarning har bir sinfini model asosida yotgan takliflar, boshqa kichik sinfchalar bilan bo'lgan munosabatlari, o'zgaruvchilarning optimal qiymatlarini hisoblash usullariga ko'ra kichik sinfchalarga bo'lish mumkin. Qayd qilish kerakki, birlamchi marketing tadqiqotlarida ko'pincha korxonaning marketing faoliyati oqibatlarini hisobga olmaydigan iste'molchilar xatti-harakatlarining modellari ishlatiladi.

Marketing axborot tizimini shakllantirish. Marketing tadqiqotlarining natijalari almashish va tahlil qilishning integratsiyalashgan axborot jarayoniga kiritilgan bo'lsa, muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shu sababli marketing axborot tizimini shakllantirish zaruriyati tadbirkorlik uchun zaruriy bo'lgan rentabellik, shuningdek, mavjud birlamchi va ikkilamchi marketing ma'lumotlarining ko'p marotaba va maqsadli ishlatilishi talabidan kelib chiqadi. Asoslangan boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilish uchun korxonada marketing axborot tizimini - marketing ma'lumotlarini doimiy yig'ish, saklash va ishlov berish tizimini yaratish maqsadga muvofiqdir. U boshqaruvchilik qarorlarini ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar bazasini shakllantiradi.

Aytish kerakki, iqtisodiy adabiyotlarda marketing axborot tizimini shakllantirishga yagona yondashuv vujudga keldi. Bunday marketing tizimi asosiy marketing ma'lumotlari - marketing tadqiqotlari natijalari, tashqi va ichki marketing axborotlari, shuningdek, marketingning asosiy yo'nalishlari bo'yicha faoliyat haqidagi ma'lumotlar - reklama, sotishni rag'batlantirish, korxonaning sotish va narx siyosati bo'yicha ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Marketing axborot tizmining ma'lumotlari, odatda, konfidensial harakterga ega, chunki ular tijorat siridir. Demak, tizim ma'lumotlarini va ular asosida qabul qilinadigan boshqarish qarorlarini himoyalash jarayoni ishlab chiqilishi kerak.

Muammo bo'yicha boshqaruvchilik qarori. Marketing faoliyatining asosiy determinantlariga omillarning ikki guruhi kiradi:

firmaning nazorat qilinmaydigan, yoki tashqi va nazorat qilinadigan, yoki ichki omillari. Nazorat qilinmaydigan omillarga firma bozorda duch keladigan cheklovlar kiradi. Nazorat qilinadigan omillarni to'rtta keng kategoriyalarga birlashtirish mumkin. Xaridor nazari bilan qarasak, ular quyidagilarga mos keladi:

- tovar yoki xaridorning muammosini «hal qilishga», ya'ni yaratilgan boyliklar to'plamiga;

- narxga, tanlangan qarordan foydalanish uchun xaridor qiladigan xarajatlarga;

- joy yoki tovarlarni xaridorlar uchun qulayroq ko'rinishda taqdim etishga;

- siljitishga yoki taklif etiladigan tovarning ijobiy xususiyatlari haqida xabar beruvchi kommunikatsiyalarga.

Shunday qilib, marketingning butun kompleksi bo'yicha boshqaruvchilik qarorlari korxona muhitining ham nazorat qilinadigan, ham nazorat qilinmaydigan omilari bo'yicha integrallashishi kerak.

5.5. Marketingni boshqarish yo'nalishlari

Marketingni boshqarish jarayoni keng ma'noda qaraganda to'rtta komponentni o'z ichiga oladi:

- korxona bozor imkoniyatlarining tahlili;

- maqsadli bozorlarni tanlash;

- marketing kompleksini ishlab chiqish;

- marketing tadbirlarini hayotga tatbiq etish.

Marketing boshqaruvida korxonaning vazifasi shundan iboratki, bozorning tanlab olingan istiqbolli segmentlariga nisbatan marketing kompleksini (tovar, narx, tarqatish va siljitish) ishlab chiqish va marketing axborotini tahlil qilish, marketingni rejalashtirish va marketing nazorati yordamida uni harakatga keltirishdan iborat.

Korxonaning bozor imkoniyatlari - bu korxonaning foyda olish maqsadida bozordagi faoliyatining jozibali yo'nalishlari. Marketing qarorlarini qabul qilish va ularni amalda tatbiq qilish bo'yicha xatti-harakatlarni rejalashtirish uchun korxonaning bozor imkoniyatlarini

tahlil qilish zarur. Buning uchun tahlilning quyidagi usullari qo'llaniladi: **Vaziyatli tahlil; SVOT-tahlil; STEP-tahpil; KAP-tahlil.**

Vaziyatli tahlilning ahamiyati shundan iboratki, marketing tashqi va ichki muhitining asosiy elementlari ketma-ket ko'rib chiqiladi va ulardan har birining korxonaning bozor imkoniyatlariga ta'siri darajasi aniqlanadi. Natijada iste'molchilarning xatti-harakatlarini hisobga olish, bozor vaziyatini bilish, raqobatchilarning xatti-harakatlariga korxonaning javob reaksiyalarini baholash, ta'minotchilar va vositachilarga nisbatan olib borilayotgan siyosat aniqlanib olinadi. Korxonaning bozor imkoniyatlarini tahlil qilish bo'yicha chuqurroq va batafsilroq ma'lumotlarni SVOT-tahlil asosida olish mumkin.

STEP-tahlil (ingliz atamalarining bosh harflarining abbreviaturasi) korxona tashqi muhitining eng muhim elementlari tahliliga asoslanadi. Ya'ni: iqtisodiy, texnik-texnologik, ijtimoiy-demografik, ekologik, siyosiy, etik va huquqiy. Bunda makro-muhitni shakllantirish va muayyan korxona bilan aloqa qilishda o'zgarishlar va tendensiyalarga tegishli bo'lgan axborot to'planadigan ma'lumotlar banki yaratiladi.

KAP-tahlil korxona faoliyatida xohlaydigan va haqiqiy voqealar o'rtasidagi strategik uzilish va farqlarni aniqlashga imkon beradi. Korxona faoliyatidagi kutiladigan natijalar sifatida ko'pincha muayyan korxona erishmoqchi bo'lgan «balandlik» chiqadi. Haqiqatga kelsak, korxonaning vaziyati o'zgarmaganda, haqiqatan erishishi mumkin bo'lgan yoki erishgan natijalar hisoblanadi.

Maqsadli bozorlarni tanlash - bu korxona o'zining marketing xatti-harakatlarini yo'naltirmoqchi bo'lgan jozibali bozorni aniqlashdir. Bu yerdagi qabul qilingan qarorlar yo'nalishlarni, segmentatsiyaning mezonlarini va ko'rsatkichlarini tanlash, shuningdek, segmentatsiyalash usullari va bozorning maqsadli segmentlarini tanlash kabi jarayonlar bilan bog'liq.

Marketing kompleksini ishlab chiqish qo'yilgan maqsadlarga erishishni eng yaxshi tarzda ta'minlay oladigan marketing qurollarining kombinatsiyasini qo'llashdan iborat. Marketing kompleksini shakllantirishga, birinchi navbatda, bozorning tanlangan maqsadli

segmentidagi talabning ahvoli (rivojlanayotgan, salbiy, irratsional va hokazo) ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun vaziyatning xususiyatiga qarab marketing vositalarining muayyan kombinatsiyasi ustuvor yo'nalishlar va strategik qarorlar ko'rsatilgan holda tuziladi.

Marketing tadbirlarini hayotga tadbqiq qilish - bu korxonaning maqsadli bozordagi marketing xatti-harakatlarining aniq rejasidir. U qabul qilingan qarorlarga muvofiq barcha marketing vositalarini o'z ichiga oladi (marketing-miks). Reja quyidagi tuzilmaga ega:


- 1) tadbirning nomi;
- 2) bajarilish muddatlari;
- 3) tadbirni bajarish uchun mas'ul shaxs;
- 4) tadbirni o'tkazish qiymati;
- 5) kutilayotgan natijalar.

Marketingni boshqarishning usul va shakllari namoyon bo'lish xususiyatlari va natijalariga ko'ra nihoyatda xilma-xildir. Ularning xilma-xilligi marketing vazifalarini hal qilishning ko'pgina strategik usullarining mavjudligi, iste'molchilarning ehtiyojlari o'zgarishi, raqobat usullarining xilma-xilligi va boshqalardan kelib chiqadi. Korxonalar tomonidan marketingni qo'llash bo'yicha kasb etgan tajribasi, shu jumladan, uni boshqarish tajribasi ham, bu jarayonda firmaning bosh direktori va uning lavozimi darajasidagi boshqa shaxslar hal qiluvchi rol o'ynashidan dalolat beradi. Ularning marketing, imkoniyatlar to'g'risidagi bilimlarining chuqurligiga, asosiysi esa, qo'yilgan maqsadlarga erisha olishiga korxonada marketingdan ijodiy foydalanishning muvaffaqiyati yoki mag'lubiyati bog'liq bo'ladi. Bosh direktor marketing sohasida chuqur bilimga ega bo'libgina qolmay, marketingni korxonaga joriy etish va bu ishni shaxsan boshqarishga qat'iy bel bog'lashi kerak.

SVOT - korxona faoliyatining tahlili (quyidagi so'zlarning bosh harflaridan olingan qisqa nom: Afzalliklar va Kamchiliklar, korxona uchun Imkoniyatlar va Tahdidlar) tavsiya etilishi mumkin. U chizma shaklida 5.3-rasmda ko'rsatilgan.

Afzalliklar va Kamchiliklarni baholashda asosiy e'tibor korxonaning ichki omillariga, Imkoniyatlar va Tahdidlarni baholaganda esa tashqi muhitni belgilaydigan omillarga qaratiladi.

Korxonaning ichki omillari undan tashqarida yuzaga keladigan iste'molchilar, ta'minotchilar, raqobatchilar, aloqador auditoriyalar va jamoatchilik fikri bilan bog'liq bo'lgan muammolarga qaraganda osonroq aniqlanadi.



5.3-rasm. Korxona faoliyati va rivojlanishining SVOT-tahlili

Afzallik va Kamchiliklarni aniqlashga resurslar va imkoniyatlarning tavsifi yordam beradi. Bunday deyilganda korxona uchun ijobiy deb baholashimiz mumkin bo'lgan har qanday turli ko'rsatkichlar va kattaliklar tushuniladi. Masalan, korxona darajasida bu ilg'or yoki eng yangi texnologiyalar va «nou-xau»lar, ishlab chiqarish va boshqaruv xodimlarining tegishli tayyorgarligi, boshqarish va rag'batlantirish usullarini ishlab chiqish yoki zamonaviylashtirish.

Korxona faoliyatining kuchli va kuchsiz tomonlarini tahlil qilishda jismoniy aktivlar (binolar, inshootlar, asbob-uskunalar, transport vositalari, tovar-moddiy boyliklar, qimmatli qog'ozlar, pul mablag'lari), bozordagi imiji (obro'-e'tibor, maqsadli bozorda korxonaning obro'si) va mehnat resurslari (oliy va o'rta boshqaruv xodimlari, malakali ishchilar) kabi ko'rsatkichlar audit qilinishi mumkin.

Korxonaning kamchiliklariga qandaydir resurslar va imkoniyatlarning etishmasligi kirishi mumkin, ayniqsa, raqobatchilar bilan taqqoslaganda kuchli namoyon bo'ladigan kamchiliklar. Korxonaning imkoniyatlarini korxona uchun umumiy va muayyan tovar bozoriga nisbatan olib qaraladigan ixtisoslashgan holda tasavvur qilish mumkin.

Tayanch so'z va iboralar:

Marketing-miks, strategik marketing, 4"P", 5"P", mahsulot, narxni taqsimlash.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Inqirozga qarshi kurashishda marketingning tarkibi, roli va funksiyalari mavjud?
2. Marketing vositalarini aytib bering?
3. Inqirozga qarshi marketing strategiya va taktikasi mohiyatini aytib bering?
4. Marketing-miks va zamonaviy strategik marketing xususiyatlari mavjud?
5. Marketing strategiyalarining tizimi va ko'rinishlari mavjud?
6. Korxona hayotiylikida marketing tadqiqotlarini samarali tadbir etish mumkin?

VI BOB. INQIROZGA QARSHI INVESTITSION SIYOSAT

6.1. Investitsion strategiya - inqirozga qarshi strategik rejalashtirishning bir qismi sifatida

Korxonada uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan, uning salohiyati, qudrati va raqobatdoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan muhim ustuvor yo'nalish – bu asosiy etakchi sohalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, transport va infratuzilma kommunikatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan strategik ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun faol investitsiya siyosatini olib borishdan iborat.

O'tgan yillar davomida mamlakatimizda inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishda investitsiyalarni jalb etish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo'nalishga aylandi.

Investitsion strategiya va taktika davlat tomonidan tartiblashtirish, potentsial investorlar hamda investitsiyalash obyekti bo'lgan korxona darajasida ishlab chiqiladi. Investitsion strategiya quyidagi yo'nalishlardan iborat:

- riskni boshqarish;
- kapital moliyalashtirishni tashkil etish va maqsadli-dasturiy rejalashtirish;
- strategik tahlil;
- strategik boshqaruv.

6.2. Investitsion qarorlarni qabul qilishning ba'zi qoidalari

Korxonalarda inqiroz sharoitida investitsion qaror qabul qilishda avvalambor moliyaviy resurslarning chegaralanganligini hisobga olish lozim. Shuningdek, quyidagi qoidalarni ham e'tiborga olish lozim:

1) korxonadagi ishlab chiqarish, moliyalashtirish va investitsiyalash jarayonlarini biznesning yagona tizimi sifatida o'rganib, korxona o'zlik mablag'larining bozor qiymatini oshishiga olib kelishiga ta'sir etuvchi omil ekanligini hisobga olish;

2) kelajakda hali aniqlab olinmagan bozor holati asosida riskning mumkin bo'lgan darajasini hamda ko'p variantli bashoratga tayanib investitsion strategiyani ishlab chiqish;

3) pulning vaqtinchalik qiymatini hisobga olish;

4) investitsion loyiha daromadliligining to'g'ri keladigan stavkasini hisoblashda inflyatsiya darajasi va uning oqibatlarini belgilash;

5) investitsiyalash jarayonida chetdan jalb etilgan pul mablag'larining qiymatini tashqi cheklov sifatida batafsil hisobga olish hamda investitsion loyihalarning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan darajadagi daromadlilik darajasini moliyaviy resurslarning ichki cheklovi sifatida hisobga olish.

6.3. Investitsion loyihalarni baholashning kriteriylari

Korxonalarda investitsion qaror qabul qilishda, avvalo korxonani rivojlantirishning samarali yo'llarini (kriteriylarini) belgilash lozim. Bular quyidagilar:

1. Investitsiya tabiatini aniqlash- bu jarayon investitsiyalarni ma'lum bir belgilari bo'yicha klassifikatsiyalashni talab etadi:

- Tarmoq bo'yicha;

- Investitsion loyihani amalga oshirishning majburiyligi nuqtai nazaridan;

- Investitsion loyihadan qo'lga kiritilgan daromadlarga boshqa mavjud bo'lgan investitsiyalarning ta'sir etishiga qarab.

2. Kelajakdagi pul oqimlarini joriy baholash ayniqsa inqirozli holat mavjud bo'lganda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bunda pul oqimlarining kelajakdagi qiymatiga inflyatsiya darajasining ta'sirini aniqlash talab etiladi. Bu jarayon esa bevosita diskontlash usuli orqali amalga oshiriladi.

3. Qo'shimcha pul oqimlarini hisobga olish.

6.4. Inqirozga qarshi davlat investitsion strategiyasi, uning maqsadi

Hududlarning investitsion strategiyasini shakllantirish murakkab jarayon bo'lib, u hudud investitsiya bozori konyukturasini bashoratlashga asoslanadi va investitsiya faoliyati shartlarini amalga oshiradi. Bu jarayonni murakkabligi shundaki, bu davrda hudud investitsiya strategiyalarni shakllantirish, investitsion resurslarni izlab topish, muqobil investitsiya variantlarini baholash bilan birga amalga oshiriladi va u hudud firmalarining imidjini oshiradi va uni rivojlanishi belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday investitsion strategiya tezda o'zgarmaydi, u ushbu hududdagi firmalarning iqtisodiy o'sishining yangi imkoniyatlari va tashqi shartlarini inobatga olgan holda davriy tartibga solishlarni talab etadi.

Hududda investitsion strategiyani shakllantirish shart-sharoitlari korxona va firmalarning iqtisodiy rivojlanishining strategik asosi bo'lib xizmat qiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, hudud investitsiya strategiyasi firmalarning samarali rivojlanishini ta'minlaydigan bosh omil bo'lib hisoblanadi va u investitsiyalarni samarali boshqarishga asoslanadi. Hudud korxonalarining investitsion strategiyasini shakllantirish jarayoni bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich bosqichda hudud investitsiya strategiyasi ishlab chiqiladi va uni shakllantirishni umumiy davri aniqlanadi. U investitsiya bozori va iqtisodiyot rivojlanishini oldindan ko'ra olish, uning davriyligini baholash, korxona va firmalarning asosiy strategiyasini shakllanishi uchun echimni qabul qilish, ularning tarmoqlarini o'lchami kabi shartlar bilan bog'liqdir.

Investitsion faoliyatni shakllantirish maqsadi kapitalning qo'shimcha o'sish sur'atlarini ta'minlashga, investitsiyalarni daromadlilik darajasini o'sishiga, moliyaviy investitsiyalash va texnologik o'zgarishlarga, kapital qo'yilmalar tuzilishining qayta ishlab chiqilishiga hamda pirovard natijada hududda iqtisodiy o'sishga, aholining turmush darajasining oshishiga erishiladi.

Hududdagi korxona va firmalarning investitsion faoliyati strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish firmadagi barcha maqsadlar tizimiga asoslanadi. Bu jarayonda quyidagilar ishlab chiqilishi ko'zda tutiladi:

-istiqbolli davrning alohida bosqichlarida turli investitsiyalash shakllari;


-investitsion faoliyatni tarmoq yo'nalishlari;

-investitsion faoliyatni hudud yo'nalishlari aniqlanadi.

Hududlarda investitsiya resurslarini shakllantirish strategiyasini ishlab chiqish korxona va firmalarning nafaqat investitsion faoliyatining unsuri balki, eng muhim moliyaviy strategiyasining unsuri ham hisoblanadi.

U belgilangan hajmdagi investitsiya faoliyatini uzluksiz ravishda rag'batlantirishni ta'minlaydi hamda shaxsiy moliyaviy vositalardan eng samaralisidan foydalanadi va uzoq muddatli davrda istiqbolda hududdagi korxona va firmalarning moliyaviy barqarorligini oshiradi.

Hududlarda bu strategiyalarni ishlab chiqish quyidagi bosqichlar bo'yicha amalga oshiriladi:



6.1-rasm. Hududlarda investitsion resurslar strategiyasini ishlab chiqish bosqichlar.

Hudud investitsiya strategiyalarini amalga oshirish jarayonida ularning aniq maqsadlarini va strategik vazifalarini belgilangan tartibda qayta ko'rib chiqish jarayonida tashqi va ichki omillarni bir-biriga moslashtiriladi. Tashqi omillar hudud firmalarining strategik investitsiya loyihalarini amalga oshirishni ko'zda tutadi, shuningdek, investitsiya bozori konyunkturasi o'zgarishlarini bashoratlaydi. Ichki omillar investitsiyalashning alohida yo'nalishlarini amalga oshirishni ko'zda tutadi, shuningdek, bu jarayonda investitsiya resurslarini shakllantiriladi.

Fikrimizcha hududda investitsiya strategiyalarini amalga oshirish jarayonida ko'plab omillar hisobga olinishi lozim.

Hudud investitsiya strategiyalarini ishlab chiqishni baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- hudud firmalarining umumiy strategiyasi bilan alohida firmaning investitsiya strategiyasini muvofiqlashtirish. Bu jarayonda strategiyani amalga oshirish bosqichlari, yo'nalishlari hamda muvofiqlik maqsadlari tadqiq etiladi;

- hududda investitsiya strategiyasini ichki muvozanatlashganligi. Bu jarayonda investitsion faoliyat yo'nalishlari va alohida strategik maqsadlar o'rtasidagi bog'lanishlar aniqlanadi va natijalari baholanadi;

- investitsiya strategiyalarini tashqi vositalar bilan muvofiqlashganligi. Bunda hududda ishlab chiqilgan investitsion strategiya bilan mamlakatning investitsion muhitdagi o'zgarishlar muvofiqligi baholanadi, hamda investitsiya bozori konyunkturasi bashoratlanadi;

- hudud investitsiya strategiyasi resurslarini salohiyatini hisobga olgan holda amalga oshirish darajasi. Bu jarayonda avvalo, firmalarning xususiy manbalari hisobidan moliyaviy resurslarni shakllantirish imkoniyati va salohiyati ko'rib chiqiladi. Kelajakda hudud investitsiya strategiyalarini amalga oshirish imkoniyatlari moliyaviy, texnologik, energetik nuqtai-nazardan tahlil etiladi;

- investitsion strategiyalarni amalga oshirishda ularni tavakkal darajasi bilan muvofiqlashganligi. Bu jarayonda hududdagi asosiy

investitsiyani tavakkal darajasi va ushbu hudud firmalarining moliyaviy imkoniyatlarini baholash ko'rib chiqiladi;

-hudud investitsiya strategiyalarini natijaviyligi. Investitsion dasturlarni natijaviyligini baholash ularni iqtisodiy samaradoriligini amalga oshirish bilan baholanadi. Bu baholash jarayonida tashqi iqtisodiy natijalar sifatida firmalar imidjini o'sishi, ishchilarning mehnat sharoitlarini yaxshilanishi va boshqalar tahlil etiladi.

6.5. Moliyaviy resurslarni taqchilligi sharoitida investitsiyani moliyalash manbalari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining asosiy vositalari va aylanma mablag'lariga investitsiyalarni moliyalashtirishning o'ziga xos manbalari shakllantirilgan bo'lib, bunday manbalar korxonalarining o'z-o'zini moliyalashtirish tamoyillariga asoslangan holda quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Korxona va jismoniy shaxslar jamg'armalari;
2. Bank kreditlari hisobiga moliyalashtiriladigan investitsiyalar;
3. Xorijiy investitsiyalar;
4. Davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlar mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan investitsiyalar.

Qishloq xo'jalik korxonalarini moliyalashtirish manbalari 2 turga bo'linadi: a) o'z mablag'lari b) qarz mablag'lari.

O'z mablag'lari:

- xususiy kapital (ustav kapitali, taqsimlanmagan foyda va boshqalar);
- beg'araz yordam.

Qarz mablag'lari:

- imtiyozli kreditlar;
- umumiy tartibdagi tijorat kreditlari;
- chet el kreditlari;
- tayyorlov tashqilotlarining mablag'lari.

So'nggi yillarda investitsiyalar tarkibi, xususan, byudjetdan ajratiladigan investitsiyalar va bank kreditlari ahamiyati keskin o'zgardi.

Monetar siyosatning kuchaytirilishi, korxonalar moliyaviy ahvolining barqaror rivojlanishi, korxona va jismoniy shaxslar mablag'laridan moliyalashtiriladigan investitsion loyihalarning hajmiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Investitsion loyihalarni moliyalashtirishga va korxonalar uchun samarali bo'lishiga iqtisodiy infratuzilmaning markaziy bo'g'ini, moliyaviy mexanizmning tarkibiy qismi bo'lgan soliqlar mexanizmi hisoblanadi. Chunki soliqlar ham har bir korxona miqyosida tuzilgan investitsion loyihalarning iqtisodiy samarasi taqdirini hal qilishda asosiy o'rinni egallaydi. O'zbekistonda ham investitsion loyihalarni tuzishda va moliyalashtirish uchun qulay investitsiya muhitni yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Ularning negizida ikkita asosiy omil yotadi:

-iqtisodiy barqarorlik;

-inflyatsiya jarayonlarini tartibga solish va milliy valuta - so'mning to'lov qobiliyatini oshirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy siyosat.

6.1-jadval

Investitsiya loyihasini moliyalashtirish manbalari va ishtirokchilari tasnifi

Guruhlar	Guruh ishchi guruhlari	Investitsiya faoliyati ishtirokchilari tashqiliy shakllari
Byudjet va nobyudjet fondlar	Davlat byudjeti	Hukumat Iqtisodiyot vazirligi Moliya vazirligi
	Mahalliy byudjetlar	Mahalliy vakolatli organlar
	Nobyudjet fondlar	Pensiya fondi Bandlik fondi Investitsiya fondi va boshqa fondlar
Kredit tizimi	Banklar Kredit muassasalari	Markaziy bank Davlat g'aznachiligi Investitsion banklar Kredit uyushmalari

Sug'urta tizimi	Sug'urta fondlari va tashqilotlari	Davlat sug'urta kompaniyalari Boshqa sug'urta kompaniyalari
Moliyalash- tirishning jamoaviy shakllari	Investitsion tashqilotlar Investitsion banklar Sug'urta tashqilotlari	Investitsiya kompaniyalari va fondlari Nodavlat pensiya fondlari Sug'urta kompaniyalari Payli investitsion fondlar
Xorijiy investorlar	Chet el davlatlari, hukumatlari, XMilar, tijorat banklari, institutsional investorlar, investitsion banklar	XTTB ETTB Xalqaro moliyaviy qo'mita AQSh eksimbanki boshqalar
Korxonalar		Mulkchilikning turli shakllaridagi har qanday korxonalar

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasida qulay investitsiya loyihalarini tuzish va ularni moliyalashtirish bo'yicha quyidagi omillar mavjud:

- investitsion loyihalar bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar yoki xo'jalik subyektlarini rag'batlantirish;

- sanoatning ustuvor sohalari, yoqilg'i, energetika majmualari bo'yicha investitsion loyihalar tuzishni jadallashtirish;

- xalq xo'jaligining ilm-fanga talab kuchli tarmoqlarida ishlab turgan quvvatlarni yangilash va yangilarini barpo etish bo'yicha intellektual investitsion loyihalarni amalga kiritilishi.

Investitsiyalashda aylanma kapitalga ustuvorlik berilishini faqat kapitalning tarkibiy tuzilishi bilan tushuntirish ozlik qiladi. Gap shundaki, dastlabki kapital jamg'arish davrida pulni tez to'plash uchun uni kapital aylanmasi tez amalga oshiriladigan sohalarga joylashtirilishi maqsadga muvofiqdir, chunki bu bilan yuqori foyda normasi yuzaga keladi. Foyda me'yori yuqori joyda esa, uni kapitallashtirish imkoni

katta bo'ladi. Bu omil ham xususiy sektorda pulni aylanma kapitalga aylantirish uchun rag'bat yaratadi. Bozor talablariga binoan tejamli xo'jalik yurita bilmaslik tannarxni ortishiga olib keladi, bu narx o'zgarmagan sharoitda ham zararga olib keladi. Ammo hozirgi o'tish davrida xo'jalikdan tashqarida bo'lgan omillar ta'siri g'oyat kuchli. Bu balanslashmagan inflyatsiya sharoitida davlat xarid narxining mavjudligidir. Bu narx asosiy mahsulotlar (paxta, g'alla, pilla)ga taalluqli bo'lib, uning darajasi resurslar narxiga mutanosib ravishda o'zgarmaydi.

Natijada bu narxlar «qaychisi» paydo bo'lib, bu fermer xo'jaliklarni rentabelli ishlashiga yo'l bermaydi. Davlat narxlari amalda monopol narxlar, ya'ni xaridorning bir yoqlama manfaatidan kelib chiqqan holda belgilanadigan narx bo'ladi, u bozorni monopollashganligini bildiradi. Fermerlar tabiatan tarqoq va erkin xo'jalik, lekin ular erkin bozorga ishlay olmaydi. Bu ziddiyat ularni moliyaviy tanglikka mahkum etadi. Bozorda davlat monopoliyasining saqlanishi monopoliya yo'q sharoitda ham sezilib turadi. Buni, xususan, oziq-ovqat mahsulotlari etishtirishdan iborat, fermer va dehqon xo'jalik mahsuloti narxini sanoat narxiga nisbatan sekin o'sishida, narxning paritetida ko'rish mumkin. Dehqonlar mahsulotining ayirboshlanish ekvivalentining pasayishi tufayli ular foydani kam oladi yoki uni umuman olmaydi. Bu albatta, investitsiyalarni o'z mablag'i hisobidan ta'minlash imkonini cheklab qo'yadi.

Bundan tashqari, inqiroz sharoitida investitsion resurslarni jalb qilishning quyidagi yo'nalishlari ham mavjud:

1. Qisqa muddatli moliyaviy quyilmalarni sotish (asosan qimmatli qog'ozlarni sotish);
2. Tayyor mahsulot zaxirasi va ortiqcha ishlab chiqarish zaxirasini sotish;
3. Debitorlik qarzini sotish;
4. Investitsiyalarni sotish;
5. Muomalada bo'lmagan aktivlarni sotish, ijaraga berish, garov ta'minoti sifatida foydalanish;

6. Samarasiz bo'lgan ishlab chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilmadan voz kechish va h.

6.6. Chet el kapitalini investitsiyalash


Mamlakatimizda ham mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab, milliy iqtisodiyotga ichki investitsiyalar bilan bir qatorda, xorijiy investitsiyalarni ham jalb etish bo'yicha qator chora-tadbirlar izchillik bilan amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, bir qator me'yoriy hujjatlar qabul qilinib, ular davr talabiga mos ravishdatakomillashtirib bormoqda. Misol tariqasida 2014 yilda O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonun qabul qilinib, u milliy iqtisodiyotga joriy etila boshlandi. Zero, mazkur qonun 1998 yilda qabul qilingan bo'lsa-da, biroq davr talablariga ma'lum darajada mos kelmaganligi sababli, uni qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritgan holda qabul qilishga ehtiyoj tug'ildi.

Turli xil yangi me'yoriy hujjatlarning qabul qilinishi albatta qonunchilik bazasining mustahkamlanishiga olib keladi. Buning oqibatida, ya'ni qonunchilik bazasining takomillashuvi, mamlakatimiz iqtisodiyotiga to'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyalarini jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi natijasida milliy iqtisodiyotda turli loyihalar bo'yicha yirik miqyosli investitsiyalash uchun yangi imkoniyatlar ochildi.

Milliy iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarning investitsiya faoliyatini jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini amalga oshirishda xorijiy investitsiyalar, avvalo, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarning o'rni beqiyosdir. Bunda ilg'or texnologiyalarni iqtisodiyotning barqaror va bir maromda rivojlanishini ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, chet el investitsiyasi jalb qilinishi mazkur davlatlarning yuksak darajada taraqqiy etishida hal qiluvchi omillardan biri bo'lgan.

Mamlakatimizda 2017 yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 60719,2 mlrd. so'mni yoki o'tgan yil bilan taqqoslaganda shu davriga nisbatan 107,1 %ni tashkil etdi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha tahlil qilinganda, joriy davrda o'zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi jalb etilgan mablag'lar hisobiga to'g'ri keldi – 34057,3 mlrd.so'm yoki jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 57%i, korhona va aholining o'z mablag'lari hisobidan esa 26673,5 mlrd.so'm yoki jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 43 %ini o'zlashtirildi (6.1-diagramma).




6.1-diagramma. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha taqsimlanishi²⁰

Jalb etilgan mablag'lar tarkibida to'g'ridan to'g'ri va boshqa kafolatlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlarning ulushi katta bo'ldi. To'g'ridan to'g'ri va boshqa kafolatlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlarning joriy davrda o'zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar jami hajmida 20,4 %ni, jalb etilgan mablag'lar hisobidan o'zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida esa 36,4 %ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning markazlashganlik darajasidan kelib chiqib tahlil qiladigan bo'lsak, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 14975,1 mlrd. so'm yoki jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 25%ini hamda markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 45744,2 mlrd so'm yoki jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 75%i o'zlashtirildi.

²⁰ Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг маълумотлари асосида.

Markazlashgan moliyalashtirish manbalarining eng katta qismi 35 %ini Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobiga to'g'ri keldi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar 26%ni, Respublika byudjeti 22%ni, Davlat maqsadli jamg'armalari 16%ni va Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi 1%ni tashkil etdi (6.2-diagramma).



6.2-diagramma. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari tarkibi²¹

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyiholari asosan iqtisodiyotning tog'-kon sanoatida amalga oshirilmoqda. Bunday investitsiya loyihalariga Sho'rtan gaz kimyo majmuasida tozalangan metan asosida sintetik suyultirilgan yoqilg'i ishlab chiqarishini tashkil etish, gazni desulfurizatsiyalovchi 3 ta yangi blok qurilishi, Yoshlik 1 metal konini o'zlashtirish, qurilish sohasi uchun eng asosiy qurilish materiali hisoblangan sement zavodining qurilishi, ammiak va karbamid ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqa investitsiya loyihalarini sanab o'tish mumkin. Markazlashmagan moliyalashtirish manbalarining 39%ini korhona va tashqilotlarning o'z mablag'lari tashkil etadi. Bu korhona va tashqilotlarning asosiy qismi o'z faoliyatlarini kengaytirish hamda

²¹ Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг маълумотлари асосида.

texnik va texnologik qayta qurollantirish maqsadidagi investitsiyalarini avvalambor o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirishlari bilan bog'liq.

Shuningdek, neft va gaz qazib chiqarish uchun imkoniyati bor barcha hududlarda (Ustyurt, Buxoro-Xiva, Xisor, Surhondaryo va boshqa hududlarda) qidiruv burg'ulash ishlarining olib borilishi, gazni desulfurizatsiyalovchi 3 ta yangi blok qurilishi, Sho'rtan gaz kimyo kompleksi ishlab chiqarish quvvatini kengaytirish, Gazli gaz konlarini kompleks ishlab chiqarishga tayyorlash va boshqa ko'plab gaz-kimyo sanoatini rivojlantirish va kengaytirishga yo'naltirilgan investitsiyalar ham boshqa moliyalashtirish manbalari bilan korhona va tashqilotlarning o'z mablag'lari ishtirokida amalga oshirilmoqda.

To'g'ridan to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o'zlashtirilayotgan investitsiyalar hajmi tobora ortib bormoqda. Joriy davrda ushbu moliyalashtirish manbai hisobidan investitsiyalar jami markazlashmagan moliyalashtirish manbalarining 27%ini tashkil etdi. Bunda quyidagi yirik investitsiya loyihalarining ulushi katta: Kandim konlar guruhini ishlab chiqarishga tayyorlash va gazni qayta ishlash zavodini qurish ishlari (1 bosqich), Xisor va Ustyurt investitsiya bloki hududida uglevodorod konlarida qazib chiqarishni yo'lga qo'yish, Qarshi tumanida tekstil kompleksini tashkil etish (2 bosqich), uyali aloqa tizimini kengaytirish, milliy uyali aloqa operatori tarmog'ini shakllantirish va boshqa investitsiya loyiholari. Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida yuqorida ta'kidlab o'tilganidek tog'-kon sanoati etakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 12405,3 mlrd.so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 20,4%i o'zlashtirilgan. Shundan 10895,0 mlrd.so'm yoki jami investitsiyalarning 17,9%i tabiiy gaz qazib chiqarish uchun yo'naltirilgan. Turar joy qurilishiga investitsiyalar aholini namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishi bo'yicha davlat dasturlarining amalga oshirilishi hamda aholi tomonidan yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi hajmlari bilan bog'liq.

Ishlab chiqarish sanoatiga investitsiyalar hajmi 8 746,8 mlrd.so'mni va jami investitsiyalardagi ulushi 14,4%ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarish sanoati tarkibida eng ko'p investitsiya o'zlashtirilgan 3 faoliyat turi quyidagilar: metallurgiya sanoati 1305,6 mlrd.so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 2,2%), oziq-ovqat, ichimlik, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarishi 1265,4 mlrd.so'm (2,1%), tekstil mahsulotlari ishlab chiqarishi 1177,7 mlrd.so'm (1,9%). Joriy davrda 16309,0 mlrd so'm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 26,9%i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirildi.

Joriy yil boshidan oladigan bo'lsak, yilning yanvar-sentabr oylarida xorijiy investitsiya va kreditlarning o'sish surati bir oz pasaygan bo'lsada, yil ohiriga kelib yuqori suratlarda o'sish kuzatildi. Bu albatta yuqorida sanab o'tilgan Buxoro viloyatidagi Kandim konlar guruhini ishlab chiqarishga tayyorlash va gazni qayta ishlash zavodini qurish ishlari bo'yicha investitsiyalarning o'zlashtirilishi bilan bevosita bog'liq.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari: Angren erkin iqtisodiy zonasida qishloq xo'jaligi va avtomobil shinalarini konveyr usulida ishlab chiqarishni tashkil etish, kimyo sanoatida azot kislotasini ishlab chiqarishni tashkil etish, Buxoro va Samarqand viloyatlarida kanalizatsiya tizimini tozalash inshootlarini rekonstruksiya qilish, Buxoro viloyatining Olot va Qorako'l tumanlarini ichimlik suvi bilan ta'minlash tizimini yaxshilash, hududiy avtomobil yo'llarini rivojlantirish (2 va 3 bosqich), Toshkent shahri ko'chalarini yoritish tizimida energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish kabi loyihalar amalga oshirilmoqda.

Hududlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning o'zlashtirilishida Respublikaning 3 ta hududi – Buxoro viloyati, Toshkent shahri va Qashqadaryo viloyati Respublika bo'yicha jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 76%ini qamrab olgan. Bu yuqorida sanab o'tilgan yirik investitsiya loyihalarini aynan shu hududlarda amalga oshirilayotganligi bilan izohlanadi.

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yakuniy natijasi sifatida bir qator ishlab chiqarish quvvatlari va ijtimoiy soha obyektlari ishga tushirildi.

Neft va gaz sohasida bir necha ekspluatatsiya uchun burg'ulangan gaz qudug'i, ko'plab quduqni ishlab chiqarishga tayyorlash, avtomobil vositalariga gaz ballonlarini o'rnatish va hizmat ko'rsatish markazi, yiliga 8 ming tonna polimer mahsuloti ishlab chiqaruvchi obyekt, yiliga 6 mlrd metr kub gazni deflyurizatsiya qiluvchi yangi 3 blok, yiliga 2,5 ming tonna plastik idishlar ishlab chiqaruvchi zavod va boshqa ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirildi.

Mamlakatimiz tarmoqlari ichida hozirgi kunda uglevodorod yoqilg'ini ishlab chiqarish va qayta ishlash sohasiga katta e'tibor berilayotgani bejiz emas, albatta. Chunki biz hozirda neft mahsulotlari bilan to'la-to'kis o'zimizning ichki ehtiyojimizni qondira olmaymiz. Shu bois, neft mahsulotlarining anchagina qismini xorijdan import qilishga to'g'ri kelmoqda. Bunday noqulay vaziyatdan chiqishning birdan-bir yo'li investitsiyalarni aynan shu sohaga yo'naltirib, mamlakatni boshqa neft eksport qiluvchi davlatlarga iqtisodiy bog'liqligini bartaraf etishdir.

Bizningcha, mamlakatimizda yoqilg'i-energetika tarmog'ini rivojlantirish bilan bir qatorda, farmatsevtika sohasiga ham e'tiborni kuchaytarish lozim. Sababi, butun dunyoda ekologik vaziyat noqulay qaror topayotgan bir sharoitda, dori-darmonga bo'ladigan ehtiyoj nafaqat bizda, balki butun jahonda keskin oshish masalasi ko'ndalang bo'lib turibdi. Agar qisqa muddatlarda shu sohani ham davr talabiga mos ravishda rivojlantira olsak, biz nafaqat xorijdan erkin valuta hisobiga dori-daromon mahsulotlari importini cheklaymiz, balki xorijga erkin valuta hisobiga mahsulotlarni eksport qilish imkoniyati ham kengayadi. Bu, o'z navbatida, tarmoqlar iqtisodiyoti va sohalari aa yangi ish o'rinlari tashkil etilishi va yangidan-yangi korxona va tashqilotlar salmog'i va ko'lamining ortishiga yordam beradi.

Mamlakatimizda mahalliy va xorijiy investorlarga moliyaviy imtiyozlar berilayotgan bir sharoitda o'tgan yillar davomida shakllangan erkin iqtisodiy zonalarda investitsion muhitning qulayligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bizningcha, farmatsevtika sohasini dastlab, aynan ushbu zonalarda rivojlantirish masalasini hal etsak, kam xarajat qilib yuqori investitsion natijalarga erishish imkoniyati kengayadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, istiqbolda ustuvor yo'nalishlardan biri mamlakatimizda, eng avvalo, jalb qilinayotgan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish, chet el investorlari uchun yanada keng kafolatlar yaratish hamda ularning ishonchini mustahkamlash maqsadida yanada qulay investitsiya muhitini shakllantirishdan iborat.

6.7. Investitsion tadbirkorlik loyihalarini tuzish

Investitsiya loyihasi (loyiha) - iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa manfaat ko'rish maqsadida investitsiyalar kiritgan holda, oldindan belgilangan muddat mobaynida amalga oshiriladigan o'zaro bog'liq tadbirlar va ishlar majmuidir.

Loyihaoldi hujjatlari - qabul qilingan parametrlarga ko'ra loyihani amalga oshirishning imkoniyati va maqsadga muvofiqligini, shuningdek uning hayotiyligini asoslab beruvchi hujjatlar yig'indisi hisoblanadi. Loyihaoldi hujjatlariga loyihaning texnik-iqtisodiy asoslash (texnik-iqtisodiy hisoblash), materiallar va asbob-uskunalar yetkazib berish, qurilish-montaj ishlarini va ishlarning boshqa turlarini bajarish yuzasidan tender o'tkazish uchun tanlov hujjatlari, loyihani yakuniy texnik-iqtisodiy asoslashi yoki texnik-iqtisodiy hisoblash, shuningdek moliyaviy takliflar yoki kredit va investitsiya shartnomalari (pul mablag'lari jalb etilgan taqdirda) kiradi.

Loyiha hujjatlari - ishchi hujjatlarni ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan qurilish-shaharsozlik echimlari va texnik echimlarni, qurilishning loyiha qiymatini o'z ichiga oluvchi hujjatlar to'plamidir. Loyiha hujjatlari tasdiqlangan texnik-iqtisodiy asoslash asosida ishlab chiqiladi.

Dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash yoki dastlabki texnik-iqtisodiy hisoblash (DTIA yoki DTIH) - variantlarni ko'rib chiqish asosida loyihani oqilona joylashtirish va amalga oshirishning eng samarali texnik, tashqiliy va iqtisodiy echimini tanlashni, umuman loyihaning cheklangan qiymatini, shu jumladan, texnologik asbob-uskunalar qiymatini asoslovchi, uni moliyalashtirishning mumkin bo'lgan

manbalari bo'yicha variantlarni hisobga olgan holda moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyoj hajmini belgilovchi hujjat hisoblanadi.

Yakuniy texnik-iqtisodiy asoslash yoki texnik-iqtisodiy hisoblash (TIA va TIH) - investitsiya loyihasini amalga oshirishning tanlov savdolari asosida va loyihani moliyalashtirish shartlarini hisobga olgan holda aniqlangan yakuniy, eng samarali texnik, tashqiliy va moliyaviy-iqtisodiy echimlarini belgilovchi loyihaoldi hujjati.

Xalqaro moliya va iqtisodiyot institutlari (XMII) - davlatlararo bitimlar asosida tashkil etilgan, O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini moliyalashtiruvchi (birgalikda moliyalashtiruvchi) institutlardir.

Investitsiya loyihasini amalga oshirish shartlariga bog'liq holda investitsiya loyihasi hujjatlari quyidagicha izchillikda ishlab chiqiladi:

a) DTIA - moliyalashtirish manbalari va shartlarini kelishish (tanlov) hujjatlari - TIA - ishchi hujjatlar;

b) DTIH - moliyalashtirish manbalari va shartlarini kelishish (tanlov) hujjatlari - TIH - ishchi hujjatlar;

v) ishchi loyiha-tanlov hujjatlari.

Investitsiya loyihasining DTIA (DTIH) bo'yicha xulosalarni ko'rib chiqish va tayyorlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) O'zbekiston Respublikasi "Davarxitektqurilish" qo'mitasi tomonidan - DTIA (DTIH) hamda tegishli vazirliklar va loyiha tashabbuskorlari bo'lgan idoralarning - Shaharsozlik kodeksi talablariga, normativ hujjatlar talablariga va qabul qilinayotgan qurilish qiymatining qaror topgan bozor kon'yunkturasi darajasiga muvofiqligi yuzasidan tarmoq xulosasi taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda;

b) O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi tomonidan - DTIA (DTIH) va "Davarxitektqurilish" qo'mitasining quyidagilar bo'yicha xulosasi taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda:

DTIA bo'yicha - iqtisodiyotni barqaror, mutanosib rivojlantirishni ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirishni, tarkibiy qayta o'zgartirishlarni, tarmoqlararo kooperatsiyalashni amalga oshirishni, investitsiya siyosatini ro'yobga chiqarishni, ishlayotgan quvvatlardan foydalanishni, shuningdek xomashyo va ishlab chiqarilayotgan

mahsulotlar bozori kon'yunkturasini ta'minlash nuqtai nazaridan loyihani amalga oshirishning umumiy iqtisodiy maqsadga muvofiqligini baholash yuzasidan;

DTIH bo'yicha - ijtimoiy ahamiyatini, ijtimoiy sohaning alohida tarmoqlarini va «boshqa tarmoqlar»ni rivojlantirish bo'yicha Hukumat qarorlariga muvofiqligini ishlab turgan quvvatlardan foydalanishni va ularni joylashtirishni maqbullashtirishni hisobga olgan holda baholash yuzasidan;

v) O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan - DTIA (DTIH) hamda "Davarxitektqurilish" qo'mitasining tavsiya etilayotgan marketing konsepsiyasi, tayyor mahsulotni sotish istiqbollari asosida jahon bozori kon'yunkturasi, shuningdek tavsiya etilayotgan texnologiyaga muvofiq asbob-uskunalar narxlarining cheklangan parametrlari nuqtai nazaridan loyihani amalga oshirish imkoniyatini baholash yuzasidan xulosasi taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda.

Tashabbuskor tomonidan talab qilinayotgan asbob-uskunalar (texnologik liniya), shu jumladan, yakka tartibda tayyorlanayotganlarining to'liq va mufassal ixtisoslashganligini taqdim etish mumkin bo'lmagan taqdirda asbob-uskunalar narxlarining cheklangan parametrlari Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan TIA(TIH)ni ekspertizadan o'tkazish jarayonida baholanishi mumkin. Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi hamda Iqtisodiyot vazirligi o'z vakolatlari doirasida tashabbuskorga investitsiya loyihalarining DTIA (DTIH)ni ishlab chiqishda prognozlanayotgan uch besh yillik davr uchun ichki va tashqi bozorlar marketingini ishlab chiqishni tashkil etishda ko'maklashadilar.

g) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan - DTIA (DTIH) va "Davarxitektqurilish" qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining quyidagilar bo'yicha xulosalari taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda:

DTIA bo'yicha - loyihaning moliya-iqtisodiy samaradorligini va qoplanuvchanligini baholash, loyihaning maqbul parametrlariga

erishishni ta'minlaydigan moliyalashtirish ehtiyojini aniqlash, shuningdek loyihani moliyalashtirishning tavsiya etilayotgan variantlarini baholash yuzasidan;

DTIH bo'yicha - loyihani amalga oshirishning mumkin bo'lgan variantini tanlash, moliyalashtirishning tavsiya etilayotgan sxemasining maqbulligi, loyihaning maqbul parametrlariga erishishni ta'minlaydigan moliyalashtirishga ehtiyojini aniqlash yuzasidan;

d) xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan - DTIA (DTIH) va "Davarxitektqurilish" qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining loyihaning iqtisodiy samaradorligi, loyiha tashabbuskorlarining kredit tarixini o'rganish, pul oqimlari tahlili, tavakkalchiliklarni baholash va loyihaning maqbul parametrlariga erishishni ta'minlaydigan moliyalashtirishga ehtiyojini aniqlash yuzasidan xulosalari taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda moliyalashtirishni byudjet mablag'lari hisobiga (boshqa manbalardan foydalanmasdan) amalga oshirish nazarda tutilayotgan obyektlar bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi bankning ekspert xulosasi talab qilinmaydi.

Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligining ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan obyektlar, jalb etilayotgan kreditlarni to'lash uchun mablag'lar defitsitini byudjet mablag'lari hisobiga o'sishini nazarda tutadigan DTIA (DTIH) bo'yicha xulosalarida nazarda tutilayotgan byudjet mablag'larining maqsadga muvofiqligi (muvofiq emasligi) hamda hajmlari, shu jumladan soliq imtiyozlari berish to'g'risidagi xulosalar mavjud bo'lishi kerak.

Vakolatli ekspertiza organlari qayta tashkil etilgan taqdirda xulosa huquqiy voris bo'lgan tashqilot tomonidan beriladi.

DTIA (DTIH)ni tasdiqlash to'g'risidagi hujjat loyihaning nomi, uning tashabbuskori, qurilishning cheklangan qiymati (shu jumladan, import texnologik va boshqa asbob-uskunalarini sotib olish xarajatlari), obyektning hisoblab chiqilgan quvvatini (ishlab chiqariladigan mahsulotning yillik hajmi va nomenkulasini), shuningdek iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini, shu jumladan eksport hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak.

Loyihaning tasdiqlangan DTIA (DTIH) parametrlari, shu jumladan, xarajatlar turlari bo'yicha moliyalashtirishning cheklangan limitlari asosida loyiha tashabbuskori tomonidan, belgilangan tartibda:

- a) moliyalashtirish manbalari belgilanadi va kelishiladi;
- b) pudratchilarni va loyiha bo'yicha xarid qilinadigan texnologik:

- asbob-uskunalarni yetkazib beruvchilarni aniqlash uchun tanlov hujjatlari ishlab chiqiladi.

XMII va XHMT qarz mablag'lari jalb etilgan holda ro'yobga chiqariladigan loyihalarni ko'rib chiqish va tayyorlash ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda loyiha tashabbuskorlari "Davarxitektqurilish" qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga XMII/XHMTning baholashdan oldingi missiyalari hisobotlari asosida tayyorlangan, loyiha qiymatining dastlabki bahosini va jalb etiladigan qarz mablag'lari miqdorini o'z ichiga oluvchi loyihani amalga oshirish zarurligi to'g'risida takliflar kiritadilar.

XMII/XHMTning loyihani moliyalashtirish (birgalikda moliyalashtirish) yuzasidan roziligi olingan taqdirda ularning baholash komissiyalari hisobotlari asosida O'zbekiston Respublikasi bilan XMII/XHMT o'rtasida o'zaro anglashuv to'g'risidagi memorandum belgilangan tartibda imzolanadi.

Ikkinchi bosqichda loyiha tashabbuskori XMII/XHMTning baholash missiyasi hisoboti asosida TIA ni ishlab chiqadi va ayni bir vaqtda ko'rib chiqish uchun belgilangan vakolatli ekspertiza organlariga taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobiga moliyalashtirishga (birgalikda moliyalashtirishga) tavsiya etilayotgan investitsiya loyihasining DTIA (DTIH) va TIA(TIH) belgilangan talablarni hisobga olgan holda ishlab chiqiladi.

6.8. Investitsiya loyihasini texnik-iqtisodiy asoslash (TIA)ning namunaviy tarkibi

1. Loyihaning maqsadi (rezyume).
2. Loyihaning buyurtmachisi.
3. Loyiha strategiyasi (loyihani yaratish tarixi va shart-sharoitlari).
4. Marketing bozori va konsepsiyasi.
5. Moddiy resurslar.
6. Obyektning joylashgan joyi.
7. Loyihalashtirish va texnologiya.
8. Ishlab chiqarishni tashkil etish va qo'shimcha xarajatlar.
9. Mehnat resurslari.
10. Loyihani amalga oshirish sxemalari.
11. Loyihani amalga oshirish variantlarini moliyaviy baholash.
12. Xulosalar (Loyihaning asosiy afzalliklari va kamchiliklari, qabul qilingan variantning muqobil variantlardan afzalliklari, noaniqlik tavakkalchiliklari va jihatlari, loyihani amalga oshirish imkoniyatini baholash).
13. Milliy va xorijiy valuta xarajatini alohida aks ettirgan holda erkin shaklda moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlar sxemalari.
14. Tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari, shu jumladan quyidagilar mavjud bo'lishi kerak:
 - 14.1. Huquqiy hujjatlar;
 - 14.2. Kontrakt hujjatlari;
 - 14.3. Loyiha hujjatlari va moliyaviy hujjatlar;
 - 14.4. Ekspert hujjatlari va boshqa hujjatlar;
 - 14.5. Tayyor mahsulotni sotish va xomashyo, materiallar xarid qilish marketing tadqiqotlari bo'yicha hujjatlar.

Investitsiya loyxasinining TIAsini bajarish uchun qarz oluvchi loyihaning amalga oshirilishining huquqiy, texnik, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlari to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan hujjatlar to'plamini tayyorlash lozim.

Bu hujjatlar to'plami quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

- qarz oluvchining moliyaviy holati va uning kreditga layoqatliligi;

-xorijlik hamkorning ish faolligi, moliyaviy ahvoli, tashabbuskorligi;

-qarz oluvchi korxona qanday turdagi mahsulotlarni ishlab chiqaradi yoki ishlab chiqarishni rejalashtirmoqda, mazkur mahsulotlarning asosiy xaridorlari kimlar hisoblanadi;

-ichki bozorda qarz oluvchi korxonaning mahsulot ulushi qanday va u jahon bozorida qanday ulushga ega, bozorning qanday sektorlarida o'sish yoki o'zgarishlar kutilmoqda;

-raqobatchilar tomonidan qanday tavakkalchiliklar mavjud va mahsulot sotilishi uchun kim asosiy javobgar hisoblanadi;

-qarz oluvchi korxonaning va kafolat beruvchi korxonaning huquqiy maqomi va tashqiliy tuzilishi qanday;

-qarz oluvchi korxona malakali, yuqori tajribali, yetuk mutaxassis va ishchilarga egami, agar ular yo'q bo'lsa, xodimlarni o'qitish kim tomonidan tashkil etiladi;

-xorijiy hamkorlar va mutaxassislar tomonidan qanday yordamlar qancha vaqt mobaynida ko'rsatilishi lozim bo'ladi, xorijiy mutaxassislarning soni va malakaviy darajasi, ular tomonidan ko'rsatiladigan yordam xarajatlari qanday.

Loyihani byudjet yoki byudjetdan tashqari fondlar orqali, markazlashtirilgan resurslar, davlat korxonalarining o'z mablag'larini to'liq yoki qisman moliyalashtirish uchun TIAning tuzilishi majburiy hisoblanadi.

Kreditlar uchun loyihalarni moliyalashtiish yuqori xavfga bog'liq bo'lganligi uchun ham loyihaning mustahkamligi masalasiga katta ahamiyat beradi. Bu mustahkamlik bahosi kutilayotgan to'liq loyiha tushumlarini kredit qarzдорligi bo'yicha rivojlantirilgan to'lovlarga nisbatan beriladigan **qarzdorlikni yopish koeffitsienti** orqali aniqlanadi. Har qanday holda ham bu ko'rsatgich birdan kam bulmaydi. 1980 yillar dunyo bank amaliyotida kreditlashtirilgan eng quyi chegara qilib 2:1 daraja qabul qilingan bo'lsa, bugungi kunda dunyo bozoridagi mavjud raqobat bu koeffitsientning pasayishiga olib keladi (1,3:1.). Har bir aniq holatda bu koeffitsient bank xavflarining kattaligiga bog'liq ravishda o'rtacha koeffitsientdan farqlanib turadi. Xuddi oddiy

kreditlashda bo'lgani kabi loyihaviy kreditlashda ham bank oldida qarzdorlikni yopish jadvali kelishib olinadi.

Hozirgi zamon amaliyotida tijorat banklari (kreditorlar) tadbirkorlardan investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asoslashlarini ishlab chiqishni biroz o'zgacha tartibda, keng mazmunda va yuqori sifat bilan tayyorlangan bo'lishi lozimligini talab qilmoqdalar.

Mazkur talablar asosida ishlab chiqiladigan TIA-lar quyidagi murakkab tartib va mazmunda, lekin tushunarli, o'zaro bog'liqlikda (bo'limlardan iborat) bo'lishi lozim:

1. Kirish. Ushbu bo'limda qarz oluvchi korxona kimga tegishli va u qanday faoliyat turi bilan shug'ullanishi, uning boshqarish va moliyaviy ahvoli, bozor segmenti qandayligi, kimlar xorijiy hamkorlar hisoblanishi (agar mavjud bo'lsa), korxonani kimlar boshqarishi va ushbu sohada ularning boshqarish tajribasi qay darajadali, korxona ishchilari soni va tarkibi, korxonaning biznes-rejasi mavjudligi va uning kelgusidagi strategiyasi, ko'zda tutilayotgan investitsiyalarning qanday ko'rinishda va maqsadlarda ishlatilishi, loyihada yana boshqa qanday ishtirokchilar qatnashishi va ularning moliyaviy qo'yilmalari qanday ko'rinish kasb etishi kabilar batafsil yoritilishi lozim. Bundan tashqari, korxonaning oxirgi ikki yillik hisobot ma'lumotlari, sotish hajmi, shuningdek eksport miqdori hamda yaqin ikki-uch yillik rivojlanish rejasi o'z aksini topgan bo'lishi kerak.

2. Loyihadagi operatsiyalar. Mazkur bo'limda loyiha maqsadi, uning faoliyat sohasi va mantiqiy ifodasi (asoslanishi), amalga oshirish chora-tadbirlari, loyihaning yangiligi yoki ishlab chiqarishni kengaytarish uchun mo'ljallanganligi, agar ishlab chiqarishning kengaytirilishi nazarda tutilgai loyiha bo'lsa, uning chiqaradigan mahsulotlari, quvvati, zaif tomonlari, kengaytirishdan ko'zlangan maqsad va boshqalar to'liq keltirilgan bo'lishi lozim.

3. Loyihaning afzalliklari va foydaliligi. Bu bo'lim qo'shimcha ishchi kuchini tashkil etish, ekologik ahvolni yaxshilash, mamlakat eksport salohiyatini ko'tarish, qimmatli yoqilg'i importiga ehtiyojmandligini (bog'liqlikni) kamaytirish, import mahsulotlari o'rnini bosuvchi tovarlarni ishlab chiqarish, ishlab chiqarishni kengaytirish va

sifatini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy boshqaruv tizimini tadbiq etish, resurslar va energiyalar sarfini tejash nuqtai nazaridan loyihaning mahalliy ishlab chiqarish va iqtisodiyot uchun muhimligi jihatidan samaradorligini ochib berish vazifasini o'taydi.

4. Loyiha ta'sischi-lari va homiylari. Ushbu bo'lim mazmuni qarz oluvchi korxonaning huquqiy nomlanishi va manzili, bank rekvizitlari, telefon, teleks va fakslari, tashkil etilish vaqti, mulkchilik shakli, rahbarlari, xizmatchilar ro'yxati va tajribasi, ta'sischi-lar va homiylar ish faoliyatining tajribalari to'g'risidagi ma'lumotlar, yillik tovar aylanmasi, aksiyadorlik kapitali, moliyaviy imkoniyatlari, ko'zda tutilgan moliyaviy qo'yilmalar va tavakkalchiliklar, xorijiy hamkorlarning loyihada ishtirok etishining mantiqiy asoslanganligi (agar mavjud bo'lsa) va ta'sischi-larning so'nggi ikki yillik daromadlari va xarajatlari to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari hamda auditorlik firmalari xulosalari bilan ifodalanadi.

5. Loyiha bo'yicha bitimlar (shartnomalar) qiymati. Tomonlar o'rtasida tuzilgan bitimda uning qiymati, bitim qiymatining asosiligi, ya'ni xarajatlarning er, uskuna, xodimlarni o'qitish, qurilish-montaj ishlari, talab qilingan aylanma kapital va boshlang'ich xarajatlarga bo'linishi hamda ularning bahosi, xarajatlarning milliy va xorijiy valutada qiymati va tuzilishi, investitsiya xarajatlari kabilar mukammal tarzda aks ettirilgan bo'lishi zarur.

6. Loyihani moliyalashtirish rejasi. Moliyalashtirish rejasida moliyalashtirishning tarkibiy tuzilishi to'g'risidagi boshlang'ich tasavvurlar, kreditlar, mahalliy va xorijiy qarzlar hamda xususiy mablag'larni olish manbalari, loyihaning likvidililigini ta'minlash uchun talab etiladigan muddat va shart-sharoitlar, ya'ni kreditlarning qaytarilishi va qo'yilgan mablag'larning qoplanishi uchun talab etiladigan vaqt va shartlar, moliyaviy rejalarda aniqlangan etishmovchiliklar aniq mazmunda va tartibda bayon etilishi kerak.

7. Loyihadagi xomashyo va boshqa xarajatlar. Loyiha bo'yicha xomashyo va materiallar xarajatlari va ularning bozori, resurslar bozorining joylashuvi va hajmi, xomashyo va resurslarni yetkazib beruvchilar, ularning ishonchliligi va sifatli xizmati, xomashyolarning sifati, milliy va xorijiy valutadagi baholari, xomashyo va materiallar bilan

ta'minlashdagi ko'zda tutilgan tavakkalchiliklar, ularni yetkazib berish sxemasi, shartlari va xarajatlari, xomashyolarning bevosita yoki vositachlar orqali sotib olinishi hamda resurslar bozori marketingi tadqiqotlari, asosiy ishlatiluvchi xomashyolar va ularning zaxiralari ko'rsatilishi zarur.

8. Loyiha bo'yicha tovar va xizmatlarni sotish bozorlari. TIAning mazkur bo'limi yetkazib beriluvchi tovar va xizmatlarning raqobatbardoshligi, asosiy sifat ko'rsatkichlari va ularning xalqaro standartlarga javob berishi, afzalligi, qadoqlashning o'ziga xos xususiyatga egaligi, tovar xizmatini tashkil etish, mahsulotning ichki va tashqi bozorlardagi harakati, korxona tovarlari va xizmatlari bo'yicha sotish bozorining holati, bozor joylashuvi, iste'molchilar turlari, korxonaning bozordagi ulushi, mahsulotga bo'lgan talabning o'sishiga ta'sir etuvchi omillar, raqobatchilar, marketing rejasi, tovarlarning bozorda joylashtirilish sxemasi (xususiy do'konlari, ulgurji tijorat tashqilotlari va maxsus iste'molchilar), narxni shakllantirish, reklamani tashkil etish va reklama xarajatlari, mijozlarga xizmat ko'rsatishni tashkil etish shartlari va imkoniyatlari hamda yuz berishi mumkin bo'lgan tavakkalchiliklar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan boyitilgan bo'lishi lozim.

9. Loyihaning tashqiliy masalalari. Bunda korxonaning tashqiliy sxemasi va tuzilishi, boshqaruv tizimi, tayyor malakali mutaxassis va ishchilarning mavjudligi, agar yo'q bo'lsa, ularni o'qitishning tashqiliy ijrosi, xorijiy hamkorlar yoki mutaxassis xodimlar tomonidan ko'rsatiluvchi kerakli yordamlar va ularning sifati, muddati va xarajatlari, xodimlarning loyihani qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish yo'lida samarali va ishonchli ish yuritishlarini tashkil etish uchun kerakli bo'lgan dasturlarga bog'liq ma'lumotlar to'plami tahliliy asosda tashkil etilgan bo'lishi lozim.

10. Loyiha bo'yicha mulk va uskunalarni sug'urtalash. TIAning ushbu bo'limida loyiha bo'yicha barcha mulk va uskunalarni sug'urtalash bo'yicha tuzilgan shartnoma shartlari, muddati, shakli, summasi, sug'urtalovchi tashqilot va uning faoliyati, imidji to'g'risidagi ma'lumot, sug'urtalanayotgan mulk va uskunalarning to'liq tarkibiy elementlari va shu kabilar ifodalangan bo'lishi zarur.

11. Loyiha bo'yicha atrof-muhitni muhofaza qilishga doir ma'lumotlar. Loyihaga bog'liq holdagi atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari obyektning joriy va tarixiy holati va uning atrof-muhitga ta'siri, atrof-muhit to'g'risidagi ma'lumotlarning mavjudligi, loyiha bo'yicha atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishlarni kamaytirish uchun qo'llanilishi ko'zda tutilgan texnologik usullar, qarz oluvchining atrof-muhit bo'yicha umumiy siyosati, baxtsiz hodisalar va «fors-major» holatlarida atrof-muhit uchun salbiy oqibatlarining kelib chiqish tavakkalchiliklari kabilar Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining loyiha bo'yicha ekspertiza xulosalari asosida hal etilgan bo'lishi lozim.

12. Loyiha bo'yicha qonun va qoidalar. Loyihani amalga oshirish va u bo'yicha tegishli shartnomalarni tuzishda mavjud qonun va qoidalariga hamda tegishli yuqori tashqilot organlarining ruxsatnomalariga va atrof-muhitni muhofaza qilish tartiblariga qat'iy amal qilinishi, agar korxona tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanadigan bo'lsa, u holda Tashqi iqtisodiy aloqalar agentlikdan, agar qo'shma korxona bo'lsa, Moliya vazirligidan ro'yxatdan o'tganligi, agar korxona faoliyat turi maxsus litsenziyalarni talab etsa, unda tegishli litsenziyalarga egaligi kabilar ko'zda tutilgan bo'lishi lozim.

13. Loyiha bo'yicha texnologiya va uskuna. Bu bo'limda ko'zda tutilgan uskuna va texnologiyani olish manbasi, yetkazib beruvchi firma, ixtisoslashgan firma va ular to'g'risida qisqacha ma'lumot (manzili, rahbarlari, ish tajribasi, telefon raqamlari va fakslari), yetkazib berish shartlari va kafolatlari, uskuna va texnologiyaning ishonchliligi, uskuna va texnologiyalarni yetkazib beruvchi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar, ularning energiya va boshqa resurslarni iste'mol qilishlik darajasi, texnologik kommunikatsiyaning saviyasi, ishlab chiqarish sifati va jarayoni, texnologiya va uskunaning raqobatbardoshligi va ularning xalqaro standartlarga sifat jihatdan mosligi, bahosi, talab etiladigan ishlab chiqarish maydoni va binosi, ularning tayyorliligi, texnologiya va uskunalarining mahalliy xomashyolarga mos kelishi, shartnoma mavjudligi holatida Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi ekspertiza xulosalari, uskuna va texnologiyaning muqobil variantlari bilan taqqoslanganligi va afzalligi asoslanganligi, ularning texnik hujjatlari, kadrlarni o'qitish va «nou-xau»,

qurilish-montaj ishlari qiymati, ehtiyot qismlar va tashish xarajatlar qiymati kabilar aniq ko'rsatilishi kerak.

14. Loyihani kreditlashda banklarning o'rni. Mazkur bo'limda loyihani amalga oshirishda uni moliyalashtiruvchi bankning o'rni, uning bir o'zi yoki boshqa kreditorlar bilan birgalikda qarz oluvchiga kreditni taqdim etishi, bank tomonidan o'rnatilgan shart-sharoitlar, talablar va qarz oluvchi bilan tuzgan shartnomasi, kredit uchun taqdim etilgan garovlar yoki mulkning sug'urtalanganligi, maslahat xizmatlari, uskunaning lizing asosida taqdim etilishi, ustav kapitaliga kiritilayotgan investitsiyalar qisqa, lo'nda va mukammal ma'lumotlar to'plami asosida tayyorlanishi lozim.

15. Loyiha bo'yicha kafolatlar. Unda kafolat turlari: mulk, uskuna, tovarlar, kafolat xati, sug'urtalangan kreditlar va shu kabilar ko'rsatilishi zarur.

16. Loyiha quvvati va uning yillar bo'yicha o'zlashtirilishi. Bunda loyiha quvvatining nimaga asoslanib baholanganligi va ishonchiligi, uning yillar bo'yicha o'zlashtirilish bosqichi va muddati, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning sotuvchilar bilan birgalikda rejalashtirilganligi kabilar tahliliy asosda aks ettirilgan bo'lishi talab etiladi.

17. Loyihadagi tayyor mahsulotning yillar bo'yicha sotilishi. TIAning mazkur bo'limida mahsulotning ichki va tashqi bozorda sotilish tarkibi va tuzilishi, ularning baholari va olinadigan tushumlar, korxonada har yilning oxiriga qoldirilishi mo'ljallangan tayyor mahsulot zaxiralari (kunlarda), sotiladigan mahsulot turlari va mahsulotlarning yillar bo'yicha sotilish hajmi rejasi ishlab chiqilgan bo'lishi shart.

18. Loyiha bo'yicha xarajatlar. Xarajatlar tarkibi mahsulotni ishlab chiqarish va sotish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar tarkibidan tashkil topgan holda ularning xomashyo va materiallarga, ishchilar va ijtimoiy sug'urta va boshqa ajratmalarga, elektr energiya, gaz, suv va shu kabilarga, amortizatsiya ajratmalari, umumishlab chiqarish xarajatlariga, zaxiralarga, reklama va transport xarajatlariga hamda sotish xarajatlariga ajratilishi bilan yillar bo'yicha ketma-ketlikda va o'zaro aloqadorlikda ifodalanishi jadval ma'lumotlari asosida bajarilishi lozim.

19. Loyiha bo'yicha kredit to'lovlari va foizlarning yillar bo'yicha hisob-kitobi. Hisob-kitob ishlaridan avval kreditlash shartlarini, ya'ni

kredit taqdim etilish muddatini, kreditning davriyligini, qaytarilish shartlari, foizlarning qaytarilish shartlari va foiz stavkalari o'zgarishini bilib olish zarur. Shu asosda loyihada asosiy qarzlari va ular bo'yicha foizlarning yillar bo'yicha davriy hisoblash va to'lash rejalari jadval ko'rinishida aks ettirilishi lozim.

20. Loyiha bo'yicha daromadlar jadvali. Avvalgi hisob-kitob ma'lumotlari asosida daromadlarning yillar bo'yicha tashkil topish rejasini jadval ma'lumotlari orqali aks ettiriladi. Daromadlar umumiy holda hamda alohida mahsulot turlari bo'yicha ichki va tashqi bozorda sotilishi hisobiga hosil qilinishi nuqtai nazaridan ham milliy, ham xorijiy valyutada aks ettirilishi zarur. Bunda daromadlar sotishdan tushgan tushumdan umumiy xarajatlarni, foizlarni va soliqlarni to'lash ketma-ketligi va ularning natijasi sifatida olingan sof foyda ko'rinishida ifodalanishi lozim.

21. Loyiha bo'yicha joriy aktivlar va passivlarning, aylanma kapital (ishchi kapital)ning hisob-kitobi. Ushbu ma'lumotlarning barchasi jadvali ko'rinishda, umumiy holda yillar bo'yicha tuzilishi lozim. Bunda ularning alohida bandlari bo'yicha tegishli ma'lumotlar tushunarli tarzda aks ettirilishi, ya'ni kelib tushishi kutilayotgan tushumlar, debitorlik qarzlari tayyor mahsulot zaxiralari, joriy aktivlar, kreditorlik qarzlari, joriy passivlar, sof ishchi kapitali va ularning o'zgarishi o'zaro bog'liqlik asosida berilgan bo'lishi shart.

22. Loyiha bo'yicha pul oqimi hisob-kitobi. Mazkur hisob-kitob yuqorida olingan ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Unda soliq va foizlarni to'lagungacha daromadlar va amortizatsiya ajratmalari, ishchi kapitalidagi o'zgarishlar, faoliyat bo'yicha pul oqimi, moliyalashtirish manbalari (kreditlar, o'z kapitali va boshqalar), kredit uchun asosiy qarz va u bo'yicha foiz to'lovlari, soliq to'lovlari, taqsimlanmagan foyda, investitsiyaga yo'naltirilgan mablag'lar (foydadan ajratilgan), taqsimlash fondlari, dividendlar va sof pul oqimi ma'lumotlari ketma-ketlik va tartib asosida, jadval ko'rinishida rejalashtirilgan yillar bo'yicha ishlab chiqilishi zarur.

Loyihaning TIASi yuqorida ko'rsatilgan tartib va bo'limlar asosida amalga oshirilishi loyihannng yuqori sifat darajasini ta'minlashga xizmat

qiladi va u qarz oluvchilarga ham, qarz beruvchilarga ham muayyan iqtisodiy samaraga erishishga imkon beradi.

Tayanch soʻz va iboralar:

Investitsion strategiya va taktika, investitsion qarorlar, investitsion loyihalarni baholash, investitsiya loyihasini moliyalashtirish manbalari, chet el kapitalini investitsiyalash, tadbirkorlik loyihalarini tuzish.

Oʻz-oʻzini tekshirish uchun savollar

1. Investitsion strategiya - inqirozga qarshi strategik rejalashtirish nima?
2. Investitsion qarorlarni qabul qilishning baʼzi qoidalarini ayting?
3. Investitsion loyihalarni baholashning kriteriylarini ayting?
4. Inqirozga qarshi davlat investitsion strategiyasi, uning maqsadi nimadan iborat?
5. Moliyaviy resurslarni taqchilligi sharoitida investitsiyani moliyalash manbalarini ayting?

VII BOB. INQIROZLI KORXONA PERSONALINI BOSHQARISH

7.1. Korxonalarda antiinqiroziy kadrlar siyosatining ahamiyati

Kadrlar siyosati – bu kadrlar bilan ishlashning turli elementlari va shakllarini birlashtirgan inson resurslari bilan ishlashning yagona strategiyasidan iborat bo‘lib, u yukori unumli va yukori malaka darajasiga ega bulgan, tashqi va ichki uzgarishlarga tez moslasha oladigan, birlashgan va ma’suliyatli jamoani shakllantirish maqsadiga ega.

Keng ma’noda kadrlar siyosati – shunday bir tizimki, unda inson resurslari bilan tashqilot strategiyasi bir-biriga mos koida va normalar asosida faoliyat olib boradi. Bunga kadrlar bilan ishlashning barcha tadbirlari – kadrlarni tanlash, shtat jadvalini tuzish, attestatsiyadan utkazish, ukitish va malakasini oshirish, xizmat martabasini kutarish kabi masalalar tashqilotning umumiy maqsadlari va vazifalari sifatida oldindan rejalashtiriladi va tasdiklanadi.

Tor ma’noda kadrlar siyosati – xodimlar va tashqilotning o’zaro munosabatlarida aniq koida, xoxish-istak va cheklashlarni tanlashni takozo etishini anglatadi.

Kadrlar siyosati kuyidagilardan tashkil topadi:

1. Normalashtirish: tashqilotning maqsadlariga mos xolda kadrlar bilan ishlashning umumiy tamoyillari va maqsadlari shakllantiriladi.

2. Dasturlash: kadrlar texnologiyasi holati va tadbirlarini ma’lum bir tizimga keltirish.

3. Kadrlar monitoringi: kadrlar bilimi, qobiliyati va maxoratini shakllantirish va rivojlantirishning aniq tadbirlari bilan ishlash va ularning kadrlar siyosatiga ta’sirini baxolash.

Kadrlar siyosatining **kuyidagi turlari mavjud: *Passiv kadrlar siyosati:***

- tashqilot boshqaruv dasturlarida kadrlarga bulgan munosabatning mavjud emasligi, oxir-okibatda salbiy holatlarga olib kelishi mumkin;

- tashqilotda kadrlar bilan ishlash xizmati kadrlar ehtiyojini bashoratlay olmaydi, natijada kadrlarni baxolash vositalarini tug'ri taksimlay olmaydi.

Tashkilot raxbarlari kadrlar haqida faqatgina ma'lumotnoma orkali axborot olishsa, tashqilotda kadrlar holatini taxlil kilib bulmaydi.

Reaktiv kadrlar siyosati:

- tashqilot boshqaruvida kadrlar vaziyatining ba'zi holatlarida (karama-karshiliklar sodir bulganda, malakali ishchi kuchining bor yoki yukligi, sifatli mahsulot ishlab chiqarish mexnat motivatsiyasining yukligi) nazoratni amalga oshiradilar va ularni bartaraf etishning zarur chora-tadbirlarini ishlab chikadilar;

- tashqilotda kadrlar bilan ishlash xizmati sodir bulgan vaziyatlarga tugri tashxis kuyishni taksimlaydilar.

- tizimni rejalashtirishda kadrlar muammolari ajratilib olinadi va shunga mos ularning echimini aniqlaydilar.

Ogohlantiruvchi kadrlar siyosati:

- tashqilot boshqaruvida kadrlar vaziyatini asosli bashoratlashni rivojlantiradi, lekin kadrlar dasturining maqsadli rivojlanishini ta'minlay olmaydi;

- tashqilotda kadrlar bilan ishlash xizmati kadrlarga tashxis kuyish vositalarini taksimlaydi va kadrlar vaziyatini bashoratlash imkoniyatiga ega buladi.

Korxonada kadrlar siyosati ochiq va yopiq ko'rinishlarda ham bo'lishi mumkin. Ochiq kadrlar siyosati tashqilotning xohlagan tuzilma darajasidagi salohiyatli xodimlari uchun aniq-ravshan tarzda tavsiflanadi. Yangi xodim ishni eng past lavozimdan ham oliy raxbariyat darajasidagi lavozimdan ham boshlashi mumkin. Imkoni boricha bunday tashqilotda xohlagan mutaxassisni agarda u mos keluvchi malakaga ega bo'lsa, ushbu yoki boshqa shunga o'xshash tashqilotdagi tajribasini hisobga olmagan tarzda ham ishga qabul qilishga tayyor bo'ladi. Kadrlar siyosatining bunday tipi odamlarni xohlagan lavozimga u oldin shunga o'xshash tashqilotlarda ishlagan yoki ishlamaganligiga qaramasdan "sotib olishga" tayyor bo'lgan tashqilotlar uchun xosdir, bunday tashqilotlarga zamonaviy telekommunikatsiya kompaniyalari va avtomobil kontsemlarini kiritish mumkin. Ochiq turdagi

kadrlar siyosati o'z sohasida tezda o'sishga yo'naltirilgan va oldingi qatorlarga chiqish uchun intilayotgan, bozorni egallash uchun tajovuzkorlik bilan faoliyat yuritayotgan yangi tashqilotlar uchun ma'qul bo'lishi mumkin.

Yopik kadrlar siyosati shu bilan tavsiflanadiki, bunda tashqilot o'z tarkibiga yangi personalni faqat quyi lavozim darajasidagilardan va yuqori lavozimdagi vakantsiya joylarni almashtirishga esa fakat tashqilot xodimlari tarkibidan amalga oshiradi. Yopik turdagi kadrlar siyosati qatnashishning o'ziga xos ruxga daxldor bo'lgan ma'lum korporativ muhit yaratishga yo'naltirilgan kompaniyalar uchun, shuningdek, kadrlar resurslari taqchil sharoitlarda ishlovchilarga taalluqlidir.

Asosiy kadrlar jarayonlari bo'yicha ushbu kadrlar siyosatining ikki turining taqqoslanishi quyidagi (7.1-jadvalda) keltirilgan.

7.1 -jadval

Kadrlar jarayoni	Kadrlar siyosatining turlari	
	Ochiq	Yopik
Personalni tanlash	Mehnat bozoridagi yukori raqobat vaziyati	Ishchi kuchining etishmovchilik vaziyati
Personalning moslashuvi	Raqobat munosabatlariga tezda kirish imkoniyati, tashqilot uchun yangi xodimlar tomonidan taklif etilgan yondashuvlarni joriy etish	Murabbiylar instituti hisobiga samarali moslashish, an'anaviy yondashuvlarga kirgan jamoaning yuqori birligi
Personalni o'qitish va rivojlantirish	Ko'pincha tashqi markazlarda amalga oshiriladi, yangi tajribani almashtirishga moslashadi	Ko'pincha ichki korporativ markazlarda amalga oshiriladi, yakka qarashning shakllanishiga olib keladi, umumiy texnologiya tashqilot ishining ixtisosligiga moslashgan

Personalning ko'tarilishi	Bir tomondan o'sish imkoniyatining yangi kadrlarning doimiy kelishi hisobiga qiyinligi, boshqa tomondan «Boshni aylantiruvchi karera» kadrlarning yuqori safarbarligi hisobiga bir muncha ehtimolli	Yuqori lavozimga tayinlashda ustuvorlik hamisha kompaniyaning xizmat ko'rsatgan xodimlariga beriladi, karerani rejalashtirish amalga oshiriladi
Motivatsiya va rag'batlantirish	Ustuvorlik mehnatni rag'batlantirishga (avvalo moddiy) qaratiladi	Ustuvorlik motivatsiyaga (barqarorlikka, xavfsizlikka, ijtimoiy munosabatlarga) beriladi
Innovatsiyalarni joriy etish	Yangi xodimlar tomonidan doimiy innovatsion ta'sirlar, innovatsiyaning asosiy mexanizmi - xodim va tashqilot javobgarligini aniqlovchi shartnoma	Innovatsion xulq-atvorni yoki maxsus qo'llab-quvvatlash kerak yoki u xodimning o'z taqdirini korxonaning taqdiri bilan umumiyligini anglashning natijasi hisoblanadi

Kadrlar siyosati kadrlarni tanlab olish va yuqori lavozimlariga ko'tarish, kadrlar bilan ishlash borasida axborot almashinishning maxsus ravishda ishlab chiqilgan texnologiyalari va usullarini qo'llash, kadrlarga bo'ladigan ehtiyojni bashorat qilish, personalni baholash, muayyan vazifalarni hal qilish uchun jamoalar shakllantirish va hokazolar orqali amalga oshiriladi.

Quyidagilar kadrlar siyosatini tuzish bosqichlaridir:

- tashqilotning maqsadlari va qadriyatlariga muvofiq ravishda personal bilan ishlashning umumiy printsip va maqsadlarini ta'riflash;
- kadrlar texnologiyalari-tadbirlar va taomillar tizimini tuzish;
- personal monitoringini olib borish: personalning bilimlari, qobiliyatlari va malakalarini rivojlantirish va qo'llashning konkret

chora-tadbirlarini ishlab chiqish, ushbu chora-tadbirlar samaradorligini baholash.

7.2. Korxonalarda kadrlarni antiinqiroziy boshqarishning o'ziga xos tizimi

Korxonada kadrlar siyosati, odatda korxonani rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Uning asosiy g'oyasi tarmoqda etakchilikni qo'lga kiritish, raqobatchilardan o'zib ketish va korxonaning innovatsion salohiyatini oshirishga qaratilgan strategiya bilan belgilanadi. Respublikamizda bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi tashqilot va korxonalar oldiga bir kator muxim masalalarni xal etishni asosiy maqsad kilnb kuydi. Bulardan biri mavjud resurslardan, xususan eng kimmatli bulgan inson resurslaridan tugri foydalanishni yulga kuyish xozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Sababi korxona va tashqilotlar uz tasarrufidagi barcha resurslardan kanchalik samarali foydalansa ularning yakuniy natijasi shunchalik yukori buladi. Korxona resurslari orasida inson resurslari asosiy hisoblanib u uz xususiyatlari va ahamiyati bilan ajralib turadi. Chunki boshqa resurslardan farkli ularok inson resurslari uz navbatida ham ishlab chiqarish resursi va boshqa resurslarni boshqaruvchi, foydalanuvchi va iste'mol kiluvchi ham hisoblanadi. Demak, ushbu resurs turini boshqarish va undan foydalanish murakkab jarayon bo'lib, uziga xos boshqaruv san'atini talab etadi.

Xozirgi uzgaruvchan va murakkab bozor sharontnda korxona va tashqilotlarda mexnat unumdorligining oshnshida inson omilining ahamiyati xar kachongidan ham yukoridir.

Korxonaning yakuniy natijasi kupincha undagi personaldan kay tarzda foydalanishiga boglik buladi. Korxonada personalni boshqarishning samaradorligini oshirish yu-llarinn urganish va uni ishlab chiqarishga tatbik etish xozirgi kunning talabi hisoblanadi. Korxona va tashqilotlarda bundan tashkari personalni boshqarishda raxbar-menejer avvalo uz xodimlarning ruxiyatini va salohiyatini yaxshn bilishi, ularning kungliga yul topa olishi, shuningdek, kadrlar bilan ishlashning zamonaviy usullari yordamida inson salohiyati va

imkoniyatlarining kuppina kirralarini ocha bilishi va ularni rivojlantirishga imkon yaratib berishi lozim. Inqiroz sharoitida korxonaning kadrlar siyosati maqsadga ko'ra transformatsiyalashadi. Uni amalga oshirish bevosita moliyaviy resurslarning cheklanganligi, ijtimoiy rivojlanish dasturlarining oxirigacha bajarilmasligi va personalni qisqartirish bilan bog'liq tashqiliy chora-tadbirlarni qo'llash hamda jamoadagi ijtimoiy-psixologik holatlarga bog'liq.

Inqiroz sharoitida korxonada kadrlar siyosati quyidagi vazifalarni echishga qaratilgan bo'lishi kerak:

1. Korxonani saqlab qoluvchi va faoliyatini rivojlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqib, uni amalga oshira oladigan "moslashuvchan" menejerlar guruhini shakllantirish.

2. Korxona uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan ishchi xodimlar, mutaxassislar va menejerlardan iborat bo'lgan kadrlar salohiyatini saqlab qolish.

3. Quyida keltirilgan holatlarga asoslanib korxona kadrlar salohiyatini qaytadan tashkil etish:

Korxonani qaytadan shakllantirish natijasida yuzaga keladigan tashqiliy chora-tadbirlar;

Innovatsion-investitsion loyihalarni amalga oshirish;

Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash.

4. Jamoadagi ijtimoiy-psixologik ziddiyatlarni kamaytirish.

5. Ishdan chetlashtirilayotgan xodimlarni ijtimoiy himoyalash va yangi ish o'rinlari bilan ta'minlash.

Kadrlar siyosatiga, jumladan zarur bulgan kadrlar salohiyatini shakllantirish va uning tarkibiga ijobiy o'zgartirishlar kiritish, xodimlar malakasini oshirishga e'tiborni karatmasdan, ishlab chiqarishni rivojlantirish vazifalarini muvaffakiyatli xal qilish, korxonalar xayotiga fan-texnika tarakkiyoti yutuklarini joriy qilish, eng asosiysi, korxonaning barqaror va daromad keltiruvchi faoliyat yuritishni ta'minlashi kiyin. Korxonaning rivojlanishi bevosita kadrlarga boglikdir. Shu bois korxonalarning samaradorligini oshirish uchun kuyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- korxonalarda kadrlar siyosatini amalga oshirishda birinchi navbatda oliy ukuv yurtlari va ilmiy markazlar bilan o‘zaro alokalarni yulga kuyish;
- kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlashga e’tiborni kuchaytirish;
- korxonalaridagi kadrlarni xar yili bir marotaba kiska muddatli o‘quv kurslari va seminarlarda malaka oshirishini yulga kuyish;
- kadrlar bilan ishlashni takomillashtirib borish maqsadida respublika ilmiy-amaliy anjumanlarni utkazish, ularning natijalarini korxonalarga yetkazish va joriy etishni jadallashtirish;
- xorijiy va milliy ilgor tajribalarni urganish orkali ularni amaliyotga joriy qilish, respublikada boshqaruv bo‘yicha faoliyat olib borayotgan ukuv, ilmiy, malaka oshirish muassasalari ishlarini muvofiqlashtirish va boshkalar.

7.3. Korxonalarda kadrlar salohiyatining qiymati, uni baholash va qayta shakllantirish

Korxonada kadrlar potentsiali (salohiyati) deganda uning samarali faoliyat yuritishi uchun talab etiladigan kadrlarning imkoniyatlari va qobiliyatlarining yig‘indisi tushuniladi. Kadrlar potentsiali korxonadagi “inson resurslari”ning qiymatini tavsiflaydi. Korxonaning faoliyatini saqlab qolish uchun kadrlar potentsialini shakllantirish muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Salohiyat (potentsial) tushunchasining uzi lotin tilidan olingan bo‘lib, imkoniyat ma’nosini anglatadi. Lug‘at va qo‘llanmalarda u mavjud va harakatga keltirilishi, ma’lum bir maqsadlarga erishish uchun foydalanish mumkin bo‘lgan vosita, zaxira, manba, deb ko‘rsatilgan.

Kadrlar salohiyati - mehnat resurslarining umumiy soni va jinsi, yoshi, ma’lumoti, kasbiy ko‘nikmalari, korxonaning u yoki bu bo‘g‘inlarida va jamoatchilik ishlab chiqarishida qatnashishi bilan ifodalanuvchi mehnat resurslari yoki imkoniyatlarini ifodalaydi. Kadrlar salohiyati - jamiyat mehnat salohiyatining tarkibiy qismidir.

Inqiroz holatidagi korxonada kadrlar potentsiali nafaqat korxonaning o‘zi uchun, balki korxonani sotib olish istagida bo‘lgan tashqi investorlar va kreditorlar uchun ham yuqori ahamiyat kasb etadi.

Investorlar, xaridorlar va kreditorlar uchun kadrlar salohiyati korxonani baholashda “gudvill”ning tarkibiy qismi sifatida e’tirof etiladi.

Ma’lumki, korxona nomini, uning obro’sini inson yaratadi. Shu sababli gudvillning bahosi (korxonaning balans va bozor qiymati o’rtasidagi farq sifatida) ma’lum darajada korxonaning kadrlar salohiyati qiymatini ifodalaydi.

Kadrlar salohiyatini kompleks baholashda bir-birini to’ldirib boruvchi quyidagi 3 guruh baholardan foydalaniladi:

- Qiymat bahosi. Kadrlar salohiyatini qiymatli baholashda aktivlar modeli (xarajatlar) va foydalilik modeli qo’llaniladi;

- Aktivlar modeliga korxona kapitali va uning amortizatsiyasiga xarajatlar, uzoq muddatli quyilmalar va “inson kapitali” hajmini oshirish, amortizatsiyaning me’yoriy muddatlari kabalar kiradi;

- Foydalilik modeliga esa u yoki bu kadrlarga yo’naltirilgan investitsiyalar samaradorligini baholash va kadrlarning mehnat intizomi natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy oqibatlarni baholash;

- Miqdor bahosi. Bunda personalning miqdori, malakaviy tarkibi, yosh va jinsiy jihatdan tarkibi, ishchilarning razryadlar bo’yicha muvofiqligi kabilar e’tiborga olinadi;

Sifat bahosida korxona jamoasiga umumiy baho berilib, tashqiliy madaniyat, korporativ birlashganlik, ijtimoiy-psixologik muhit asos qilib olinadi. Korxonaning "mehnat resurslari", "kadrlar", "personal" tushunchalarini, garchi ular o’rtasida ma’juziy ma’noda aytganda "xitoy devori" yo’q bo’lsa va ular kadrlar salohiyatini shakllantirish va ulardan foydalanishda bir xilda kullansada, bir- biridan farklash lozim;

Korxona faoliyatini rejalashtirish va tahlil qilishda, ayniqsa, mehnat unumdorligi, o’rtacha ish haqi, kadrlar aylanishi va oqimini hisoblashda o’rtacha ro’yxat soni ko’rsatkichi qo’llaniladi. Bu ko’rsatkich yil yoki chorak uchun korxona faoliyat ko’rsatgan barcha oylar uchun ishchilarning o’rtacha ro’yxatdagi sonini ko’shish va hosil bo’lgan yig’indisini mos ravishda 3(12) ga bo’lish yo’li bilan aniqlanadi. Bu ko’rsatkichni to’g’ri aniqlash uchun xodimlarni ishga qabo’l qilish, boshqa ishga o’tkazish va mehnat shartnomasini bekor qilishni inobatga olgan holda har kuni hisobga olib borishni yo’lga qo’yish zarur.

Kadrlarning korxonada harakatlanishini tavsiflash uchun quyidagi jadval orqali ko'rsatkichlar hisoblanadi va tahlil qilinadi:

Ishchilarni qabul qilish bo'yicha aylanish koeffitsienti (K_{kk}):

$$K_{kk} = PS / P_{o'n}$$

Bu yerda:

PS – ishga qabo'l qilingan personal soni;

$P_{o'n}$ – personalning o'rtacha ro'yxatdagi soni.

Ishdan ketish bo'yicha aylanish koeffitsienti (K_{ik})

$$K_{ik} = I_{bx} / P_{o'n}$$

Bu yerda:

I_{bx} – ishdan bo'shagan xodimlar soni;

$P_{o'n}$ – personalning o'rtacha ro'yxatdagi soni.

Kadrlar oqimi koeffitsienti (K_{ok})

$$K_{ok} = O'B_{xs} / P_{o'n}$$

Bu yerda:

$O'B_{xs}$ – o'z hoxishiga ko'ra va mehnat intizomini buzganlik uchun ishdan bo'shagan xodimlar soni;

$P_{o'n}$ – personalning o'rtacha ro'yxatdagi soni.

7.4. Inqirozli korxonalarda personalni boshqarish tamoyillari va usullari

Personalni boshqarish muayyan, aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni ko'rish jarayonida amalga oshiriladi. Bu jarayon quyidagilarni ko'zda tutadi:

- personal bilan ishlashning maqsadlari va asosiy yo'nalish larini aniqlash;
- qo'yilgan maqsadga erishishning vosita, shakl va uslublarini aniqlash;
- qabul qilingan qarorlar ijrosini ta'minlash bo'yicha ishlarni tashkil etish;
- belgilangan tadbirlar bajarilishini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;
- personal bilan ishlashni muntazam takomillashtirib borish.

Korxona ishlab chiqarishining umumiy strategiyasi mavjud bo'lgan taqdirdagina personalni boshqarish funksiyalariga anqlik kiritish imkoni bo'ladi.

Personalni boshqarish strategiyasi bilan tadbirkorlik strategiyasini muvofiqlashtirish boshqaruvning asosiy funksiyalarini qamrab oladi va quyidagilardan iborat bo'ladi:

- ishlab chiqarish maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish uchun korxona personalini tanlash, yollash va shakllantirish;

- personalni baxolash;

- tashqiliy tuzilmani rivojlantirish hamda korxonada xar bir xodim ijodiy faolligini namoyon etishga yordam beradigan ma'naviy muxitni yaratish;

- xodimlar salohiyatidan imkon boricha yaxshi foydalanish, mazkur salohiyatni rag'batlantirish;

- korxonaning xar bir xodim oldidagi ijtimoiy mas'uliyati kafolatini ta'minlash.

Amaliy jixatdan personalni boshqarishning quyidagi asosiy funksiyalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- o'z korxonasi strategik va taktik maqsadlarini, bularni amalga oshirish yo'llarini aniq bilish;

- oldini olish choralari ko'rish uchun mexnat bozori va o'z jamoasidagi ahvolni bashorat qilish;

- mavjud kadrlar salohiyatini taxlil qilish va istiqbolni ko'zlagan xolda bu salohiyatni rivojlantirishni rejalashtirish;

- personalni qiziqtirish, kadrlarni baxolash va o'qitish, joriy etilgan yangiliklarga xodimlar ko'nikishiga ko'maklashish, jamoada ijtimoiy qulay muxitni yaratish, xodimlarning psixologik jixatdan o'zaro bir-birlariga mos kelishlari masalalarini xal etish va boshqalardir. Bu o'rinda personal bilan ishlashda an'anaviy vazifalar ham saqlanib qolishini ta'kidlash lozim.

Personalni boshqarish nazariyasida, odatda, sakkizta asosiy funksiyani bajaradi. Bular:

- 1) personalga extiyojlarni rejalashtirish;

- 2) personalni tanlash;

- 3) personalni yollash;
- 4) personalni rivojlantirish;
- 5) personalni yo'naltirish;
- 6) martaba;
- 7) personalni baxolash;
- 8) personalni rag'batlantirish.

Bugungi iqtisodiyotda ushbu funksiyalar amal qilishi xaqida keyingi boblarda batafsil bayon etiladi.

Korxona personalini boshqarishning tashqiliy tuzilmasi ushbu korxonada tarkib topgan faoliyat turi, vazifalar taqsimotiga bog'liqdir. Korxonada mehnatni tashkil etishning turli shakllari - pudrat, brigada, vaxta usullari bo'lishi mumkin.

Mutaxassislar personalni boshqarishning bir necha tashqiliy tuzilmalari mavjudligini ko'rsatadilar. Ularning xar biri bu masalaga yondashuv tamoyilini ifoda etadi.

Personalni boshqarishning umum e'tirof etilayotgan uch - oddiy, liniyalı (chiziqli) va funksiyalı tashqiliy tuzilmasi mavjud.

Personalni boshqarishning **oddiy tashqiliy tuzilmasi** ikki darajalı tuzilma bo'lib, kichik korxona yoki yirik kompaniya va korxonalarning turli bo'lim va filiallariga xosdir. Bunday tizimda yuqori (raxbar) va quyi (ijrochi) daraja mavjuddir.

Bu usul ishlab chiqarishda bir turdagi ishlarni bajarishda, personal ixtisosliklari bo'yicha tabaqalashtirilmaydigan sharoitlarda qo'l keladi. O'rtacha va yirik kompaniya va korxonalarda personalni boshqarishning liniyalı (chiziqli) tashqiliy tuzilmasi, odatda, bu korxonalarning quyi bo'g'inlari (guruxlar, brigadalar, bo'limlar)da samara keltiradi. Ishlab chiqarish ixtisoslashtirila boshlanishi bilan boshqa tashqiliy tuzilmalarga o'tish zarurati tug'ilaadi.

Ushbu tuzilmada tez qaror qabul qilish, tashqi muxitdagi o'zgarishlarga qarab, shoshilinch choralar ko'rish, personalni qiziqtirish va ular faoliyati ustidan nazorat qilish uchuy norasmiy yondashish imkoniyatlari katta. Bu korxonaga muayyan afzalliklar tug'diradi. Shu bilan birga, oddiy tashqiliy tuzilma raxbarining volyuntarizmga berilish extimollari bor. Ayni vaqtda, bu tuzilmaga raxbar kundalik ishlar bilan

o‘ralashib qolib, istiqbolli masalalarni xal qilish imkoniyatlari keskin cheklab qo‘yiladi.

Personalni boshqarishning **chiziqli tashqiliy tuzilmasi** ishda nisbatan mustaqillikni, aloqalarning yuqoridan pastga (vertikal) bo‘lishi, o‘z-o‘zini boshqarish imkoniyatlari berilishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ular quyi ishlab chiqarish bo‘g‘inlari, oilaviy va xususiy tadbirkorlikda keng qo‘llaniladi.

Personalni boshqarishning **funksiyali-tashqiliy tuzilmasi** mexnatning funktsional taqsimoti va funktsional ixtisoslashishga asoslangan ishlab chiqarishlar uchun mo‘ljallangan. Bu eng ko‘p uchraydigan tashqiliy tuzilma hisoblanadi. Korxonada ayrim funksiyalar (masalan, mutaxassislarni ishga qabul qilishni rejalashtirish, mexnatga xaq to‘lash va tarif siyosati, ijtimoiy rivojlanish) tashqiliy jihatdan shakllanishi bilan mazkur tuzilmalarni yagona tizimga bog‘lovchi va bo‘ysunish tartibini belgilovchi personalni boshqarishning tashqiliy tuzilmasi tarkib topadi.

Personalni boshqarishning funksiyali-tashqiliy tuzilmasi oliy raxbariyatga asosiy diqqat-e‘tiborni strategik masalalarga qaratish, ixtisoslashtirish hisobiga ishlab chiqarishda yuksak samaradorlikka erishish uchun qulay imkoniyatlar yaratib beradi.

An‘anaviy tashqiliy tuzilmalardan yangi turdagi tashqiliy tuzilmalarga o‘tish barcha xodimlar mexnat faoliyatini boshqarish tizimini qayta qurish zaruriyatini tug‘diradi. Ko‘p funksiyali komanda yoki gurux ana shunday tizimning asosini tashkil etib, ushbu komandalar va gypxlap zimmasiga barcha iste‘molchilar ehtiyojlarini va bozor talablarini qondirish vazifasi yuklatiladi.

Personalni boshqarishning **matritsali tashqiliy tuzilmasi** kompaniya yoki korxona jamoasi a‘zolari mexnat jarayonidan to‘la qoniqish xosil qilishlari uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadini ko‘zlaydi.

Personalni boshqarishning(matritsali) guruxli tashqiliy tuzilmasining ijobiy tomonlari bilan birga, o‘z kamchiliklariga ham ega. Bunday tuzilmada guruxlar amalda barqaror bo‘lmaydi, ulardan intensiv foydalanish gurux, a‘zolarini doimiy ish o‘rinlaridan maxrum etadi.

Bundan tashqari, bunday guruxlarda menejerlarning personal bilan shug'ullanishi murakkablashadi, raxbar va mutaxassislarning tez-tez almashib turishi esa nazoratni bo'shashtirib yuboradi.

Personalni boshqarishning u yoki bu shaklini tanlash bir qator omillarga bog'liq.

Ular orasida eng ahamiyatlilari quyidagilardir:

- faoliyat miqyosi va xilma-xilligi;
- korxonaning tashqiliy-xuquqiy shakli;
- texnologiya turi;
- raxbarlar va xodimlar tomonidan korxonaga munosabat;
- ichki muxit dinamikasi;
- personalni boshqarish strategiyasi.

Personalni boshqarishning tashqiliy tuzilmasi korxona katta-kichikligiga mos kelishi va murakkab bo'lmashligi lozim. Bu biznes uchun juda muximdir. Xususan, korxona uncha katta bo'lmasa va raxbarning o'zi personal faoliyatiga raxbarlik qila olsa, oddiy tashqiliy tuzilma qo'llaniladi.

Agar personal soni ortib, raxbar bir o'zi ularni boshqarishga qodir bo'lmay qolsa yoki ishlab chiqarishda ayrim ixtisoslashgan faoliyat turlari vujudga kelsa, chiziqli yoki funksiyali tashqiliy tuzilmaga o'tishga to'g'ri kelinadi.

Korxonaning tashqiliy-xuquqiy shakli ham xuddi shunday o'zgarishlarni taqozo etadi. Bu shakl qanchalik murakkab bo'lsa, personalni boshqarishning tashqiliy tuzilmasi ham shunchalik ko'p daraja va bo'linmalarga ega bo'ladi.

Personalni boshqarish xizmatlari korxonada personal bilan ish olib boruvchi asosiy bo'g'indir. Ishlab chiqarishda inson omilining ortishi, hozirgi bozor sharoitida raqobatning kuchayishi, moliyaviy muvaffaqiyatga erishish zarurati personalni boshqarish xizmatlarining roli va ahamiyatini kuchaytirib yuboradi.

Samarali faoliyat ko'rsatayotgan kompaniya va korxonalar bugungi kunda innovatsiya strategiyalari, yangi mahsulot turlari, tashqiliy tuzilmalar yaratish bilan inson resurslarini boshqarish, mexnat salohiyatini rivojlantirish uslublari o'rtasidagi mavjud uzilishlarni

bartaraf etishga eng asosiy masala sifatida qaramoqdalar. Muammoni ijobiy xal etish ko'p jixatdan personalni boshqarish xizmatiga bog'liq bo'lib qoladi.

Iqtisodiyotda ro'y berayotgan o'zgarishlar an'anaviy kadrlar bo'limlarining funksiyalari yo'q bo'lib ketadi, degan ma'noni bermaydi. Ishga qabul qilish, kadrlarni tayyorlash, ish xaqi, ijtimoiy imtiyozlarni taqsimlash masalalari bundan buyon ham personalni boshqarish xizmati funksiyalarida asosiy o'rinlarni egallashi aniq. Shu bilan bir qatorda, bu funksiyalarni amalga oshirish shakl va uslublarida sifat jixatidan o'zgarishlar qilish ham xayotiy zaruratga aylanmoqda.

Personalni boshqarish xizmatlari jaxondagi etakchi kompaniyalar va korxonalarda korxonaning asosiy bo'linmasi hisoblanadi. Amaliyotda ular zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

- kompaniya yoki korxonani yuqori malakali va manfaatdor xodimlar bilan ta'minlash;
- personalni ishga qiziqtirish tizimlarini takomillashtirish;
- personalning barcha toifalarini o'z mexnatidan qoniqish xosil qilish darajasini oshirish;
- personal malakasini oshirish va kasbiy ta'lim tizimini rivojlantirish va yuksak darajada ushlab turish;
- qulay ma'naviy muxitni saqlash;
- xodimlar va raxbariyat uchun o'zaro foyda keltirishini ko'zlagan xolda personalni korxona ichida almashinuvlarini boshqarish;
- martabani rejalashtirish;
- personal ijodiy faolligini oshirish, kompaniya yoki korxona innovatsiya rejalarini amalga oshirishda ko'maklashish;
- personal faoliyatini baxolash va boshqaruv personalini attestatsiyadan o'tkazish uslublarini takomillashtirish.

Personalni boshqarish xizmati va menejerlar korxona (korxona) uchun kadrlar tanlar ekan, ularda ro'y berayotgan o'zgarishlarni (oilaviy ahvol, funksiyalari o'zgartirilgan xolda xizmat vazifalarining o'zgartirilishi va xokazolarni) ham hisobga olishni talab etadi.

Personalni o'qitish, malakasini oshirish yoki qayta tayyorlashda xodimlarni chet ellarda stajirovkadan o'tkazishni ko'zda tutish, faoliyat

yo'nalishi bo'yicha zarur maxsus adabiyotlar, video va audio materiallar bilan ta'minlashni ham talab etadi.

Personalni samarali mehnat qilishi, ularga yaratilgan qulay sharoitlar (psixologik muxit, qulay ish joyi, transport, ovqatlanish va xotimazolar)ga bog'liqligini hisobga olgan xolda xabarixatga ishchi, xizmatchilarning maishiy sharoitini yaxshilash yuzasidan tegishli tavsiyalar tayyorlashi kerak bo'ladi. Ijtimoiy masalalarga e'tibor katta bo'lgan kompaniya va korxonalarda personalning sixat-salomatligi, uy-joy sharoitlari xaqida g'amxo'rlik qilinadi, xodimlarni tug'ilgan kuni bilan tabriklash, bayramlarda covg'a berish, turli imtiyozlar (masalan, nufuzli kurortlarga imtiyozli yo'llanmalar) berish ham an'anaga aylanadi.

Personalni boshqarish xizmaty xodimlarga ma'muriyat bilan shartnomalar tuzishda yordam beradi. Shuningdek, tashqi tashqilotlar – mehnat inspeksiyalari, xuquq-tartibot idoralari, yuqori tashqilotlar, tarmoq kasaba uyushmalari, ta'lim muassasalari, maxalliy xokimiyat idoralari va boshqalar bilan aloqada bo'lishi ham xizmat vazifalari hisoblanadi.

Ko'pgina kichik xususiy va oilaviy korxonalar personalni boshqarish xizmatiga ega emas, bu vazifani ushbu korxona egasi bajaradi. Kichik korxonalar ish hajmi ortgandan so'ng hisob-kitob va idora ishlarini olib borish uchun xodim yoki mutaxassis yollaydi.

Bugungi amaliyotda personalni boshqarish bo'yicha mutaxassisga extiyoj xodimlar soni 100-150 taga etganda tug'ilishini ko'rsatadi. Korxona faoliyatiga qarab undagi jamoa a'zolari soni 200-500 kishiga etganda, odatda, personal xizmati tashkil qilinadi.

Uncha katta bo'lmagan korxonalarda (100-200 kishi) kadrlar xizmati tarkibi 1-2 mutaxassis (shu jumladan, xizmat xabarixi), 1-2 yordamchi xodimdan iborat bo'ladi. Personal miqdori 201-300 bo'lganda 2-3 mutaxassis va 2 ta yordamchi xodimni tashkil etadi. Personal soni 500 tagacha kompaniyalarda xizmat xabarixi 1-4 mutaxassis va 2-3 yordamchi xodim bilan ishlaydi. Ishlab chiqarishda band bo'lganlar 1000 kishini tashkil etsa, kadrlar xizmati 10-13 kishidan, shu jumladan, xabarixi, 5-6 mutaxassis va deyarli shuncha

yordamchi xodimlardan iborat bo'ladi. Personal 2,5 ming kishiga etganda esa kadrlar xizmati 17-18 mutaxassis va rahbar, 15 taga yaqin texnik xodimni tashkil qiladi.

Xozirgi vaqtda amalda bo'lgan me'yorlar 1 ming kishilik mexnat jamoasiga 10 nafar personalni boshqarish xodimining to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda. Odatda, ularning 6 tasi maxsus oliy ma'lumotga, 4 tasi to'liqsiz oliy ma'lumotga ega bo'lishi talab qilinadi.

Personalni boshqarish xizmati funksiyalari xar bir korxona faoliyatiga bog'liq. Shunday bo'lsada, odatda ularning funksiyali tuzilmasi quyidagicha bo'ladi:

Bu tuzilmada kadrlar bo'limi:

- personalni yollash va tanlash, shu jumladan, ularni test sinovidan o'tkazish;

- yangi xodimlarni xizmat vazifasiga joylashtirish;

- xizmatni o'tash va xizmat vazifasida ko'tarilishini rejalash;

- faoliyatni baxolash;

- kasbga yo'naltirish;

- ishdan bo'shayotganlar bilan suxbat o'tkazish funksiyalarini bajaradi.

Ish xaqi bo'limi:

- xizmat vazifalarini taxlil etish;

- ishlar tasnifi va ularni tariflash;

- xaq to'lash va mukofotlash tizimini ishlab chiqish;

- tarif stavkalari va shaxsiy xaq to'lash me'yorlarini qayta ko'rib chiqish bilan shug'ullanadi.

Mexnat munosabatlari bo'limi:

- jamoat shartnomalarida ishtirok etadi va kelishilgan siyosatni faol o'tkazadi;

- mexnat shartnomalarida belgilangan asosda shikoyatlar bilan ishlaydi, barcha baxslarni xal etadi;

- korxona ma'muriyati va xodimlar o'rtasida shaxsiy va guruxiy aloqalar va munosabatlarni rivojlantirishga ko'maklashadi;

- shaxsiy ishlar va mexnat statistikasini olib boradi.

Kasbiy ta'lim va qayta tayyorlash bo'limi:

-ishlab chiqarish ta'limi bilan shug'ullanadi, shu jumladan yangi xodimlarga yo'riq beradi;

-korxona xodimlari orasidan malakali ishchilarni qayta tayyorlash dasturlari „ustoz—shogird" tizimini yo'lga qo'yadi;

-yo'riqchilar (ustalar, texniklar, boshqaruvchilar)ni maxsus kurslarda o'qitadi;

-o'quv materiallari tayyorlaydi;

-korxona xodimlarining shaxsiy dasturlar asosida o'qish xarajatlarini qoplaydi;

-kutubxona fondini boyitadi;

-korporativ nashrlar (ko'p nusxali gazetalar va jumallar), ratsionalizatorlik takliflarini to'plash bilan shug'ullanadi;

-tashqi o'quv markazlari bilan aloqada bo'ladi;

-o'quv dasturlari hisob-kitobi va statistikasini olib boradi.

Ijtimoiy rivojlanish bo'limi:

-jamo'a (gurux) bilan ixtiyoriy sug'urta (xayotni, sog'liqni, baxtsiz xodisalardan sug'urta) qilish;

-pensiya ta'minoti tizimi, korxona xodimlari uchun xuquqiy yordam;

-ishdan bo'shaganda kompensatsiya to'lash;

-ovqatlanishni tashkil etish;

-dam olishni tashkil etish: ijtimoiy va sport-sog'lomlashtirish dasturlari (tadbirlari).

Mexnat xavfsizligi va tibbiy yordam bo'limi:

-texnika xavfsizligi standartlarini ishlab chiqish;

-tovarlar, loyixalar, jixozlarning xavfsizlik standartlariga muvofiqlik ekspertizasini amalga oshirish;

-baxtsiz xodisalarni tekshirish, bu xaqda tegishli xujjatlarni rasmiylashtirish;

-ishlab chiqarishda mexnat xavfsizligini ta'minlash, bu masalada tegishli targ'ibot ishlarini olib borish;

-personalga tibbiy xizmat ko'rsatish;

-xodimning ishlab chiqarishda yo'qligi sabablarini aniqlash va taxlil etish.

Personal bo'yicha tadqiqotlar bo'limi:

- ma'lumotnomalar tayyorlash;
- kadrlar xizmati uchun xujjatlar aylanishi shaklini ishlab chiqish;
- kadrlar bilan ishlash qoidalari, me'yoriy usullari va tartiblarini ishlab chiqish;
- mexnat munosabatlarini taftish qilish;
- xayot qiymati, mexnat bozorida ish xaqi darajasi to'g'risida ma'lumotlar to'plash va ma'muriyat hisobotlarini taqdim etish, ish xaqi, mexnat ta'tili tizimlari bo'yicha takliflar tayyorlash;
- turli tadqiqotlar o'tkazish va statistika soxalarida barcha bo'linmalar bilan hamkorlik qilish vazifalarini bajaradi.

Yangi iqtisodiy sharoitlar personalni boshqarish xizmatiga ana shunday juda muxim va ishlab chiqarishni rivojlantirishda xal qiluvchi vazifalarni yuklaganiga qaramasdan, xanuzgacha bu masalaga etarlicha e'tibor qaratilayotgani yo'q. Ayniqsa, personalni boshqarish xizmati raxbari katta samara bilan ishlayotgan kompaniya va korxonalarning personalni boshqarish xizmati faoliyatini muntazam taxlil etishi kerak. Bu raxbar quyidagi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirishi zarur:

- jamoaning ijtimoiy etakchisi bo'lish;
- oliy ma'lumotga, kamida 5 yillik raxbarlik tajribasiga, yuksak ma'naviy-axloqiy xislatlarga ega bo'lishi;
- ishlab chiqarishning umumiy texnologiyasini, ishlab chiqarish jarayoni va ma'naviy rag'batlantirish shakllarini, ularni takomillashtirish yo'llarini, korxona oldida turgan vazifalarni, uni rivojlantirish istiqbollari, kadrlar siyosati tamoyillarini, personal bilan ishlashni rejalashtirish va tashkil etishning shakl va uslublarini, mexnat qonunchiligi asoslarini, boshqaruv psixologiyasi asoslarini, mexnat sotsiologiyasi va ishlab chiqarish pedagogikasini, axborot texnologiyasidan foydalanish asosida xujjatlarni yuritishni tashkil etish asoslarini bilishi;
- personalni boshqarish tamoyillarini, xodimlarning shaxsiy xislatlarini va jamoa ishi natijalarini baxolashni, notiklik san'atini egallagan bo'lishi;

-mexnat jamoasida ijtimoiy jarayonlarni tadqiq va taxlil etish uslublari, mexnatkashlarning jamoatchilik tashqilotlari bilan ishlash tamoyillari to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishlari va mexnat nizolarini xal eta olishlari;

-aloqa o'rnatishni, muloqot san'atini bilishi, belgilangan maqsadga erishishga qodir bo'lishi, tashqilotchilik qobiliyati, taxliliy tafakkurga ega bo'lishi;

-kompaniya yoki korxona etakchi raxbarlari bilan teng sherik bo'la olishi, o'z dasturlarini korxona strategiyasi bilan birlashtiraolishi;

-o'z xodimlari maqsadlarini aniqlab berishi kerak.

Ishlab chiqarishning strategik vazifalarini xal etishda personalni boshqarish rolining beqiyos o'sishi ushbu xizmat raxbarining ham kompaniya va korxonadagi nufuzini belgilaydi. Mutaxassislar o'tkazgan taxlillarga ko'ra, XX asrning 60- yillarida personalni boshqarish xizmati raxbarining strategik vazifalarni xal etishdagi ishtiroki deyarli kuzatilmagan bo'lsa-da, bugungi kunga kelib etakchi kompaniya va korxonalarda ular ishtirokisiz amalda birorta strategik qaror qabul qilinmayapti. Boshqacha qilib aytganda, ushbu xizmat raxbari kompaniya yoki korxonaning etakchi raxbari darajasiga ko'tarildi.

Inson resurslarini boshqarish evolyutsiyasi va uni rivojlantirishdagi kelgusi yo'nalishlarga baho berish uchun yirik korporatsiyalarni boshqaradigan yapon va amerika mutaxassislarning fikrlari bilan tanishib chiqish foydalidir. Yapon menejerlari boshqarish sohasidagi bo'lajak siyosatni quyidagi yo'nalishlarning rivojlanishida deb biladilar:

/Javoblar%/

Inson resurslari (IR) potentsialining rivojlanishi.....	86,6
IR potentsialidan puxta foydalanish.....	78,9
Gurux tarzidagi faoliyatining rivojlanishi.....	47,1
Katta yoshdagi ish bilan bandlarning rivojlanishiga e'tibor berish.....	42,4
Malaka darajasidagi xilma-xillikni kengaytirish.....	38,3
Mehnat munosabatlarining barqarorlashuvi.....	35,3
Mehnatning boyitilishi va rotatsiya.....	33,9
Motivatsiya fondlarining to'ldirilishi.....	29

AQSh kompaniyalarining 1500 menejerlari XXI asrdagi inson resurslarini boshqarish IRBning roli xaqida quyidagilarni aytadilar:

- ertangi extiyoj uchun inson resurslarini rejalashtirish korporatsiya strategiyasini shakllantirishning bir qismi hisoblanadi;

- inson resurslarini boshqarishning rahbari hamma joyda boshqaruvning yuqori bo'g'ini a'zosi bo'ladi va biznes strategiyasi, rejalari, texnologiyasi, bozor mahsulotlari va vositalari xaqida to'liq xabardor bo'ladi:

- inson resurslarini boshqarishning vazifalari roli protsessual aktivatordan /ma'lumotlar to'plash va ishlov berish/ inson resurslarini tanlash va foydalanishdagi muhim aktivatorga aylanadi;

- malaka oshirishdagi asosiy mezonlar uning xilma-xilligi va kengligi, aniq natijalarga erisha olishi, dinamizm, komandada ishlay bilishi, mo'ljal olishi va ishchanlik ahloqidir;

- inson resurslarini boshqarishning eng muhim vazifalaridan biri korporatsiya madaniyati, qadriyatlar va maqsadlari birikmasidan iborat bo'lib qoladi.

7.4. Inqiroz sharoitida kadrlarni ijtimoiy himoyalash va ijtimoiy-psixologik holatlarni yaxshilash

Ma'lumki, korxonadagi inqirozli holatlar bevosita unda faoliyat olib boruvchi xodimlarning ijtimoiy-psixologik holatida namoyon bo'ladi. Bu jarayon birdaniga sodir bo'lmaydi. Korxonaning to'lovga qobiliyatsizligi natijasida yuzaga kelgan inqirozli holatlar xodimlar ish haqining o'z vaqtida to'lanmasligiga, bu esa ularning noroziligiga yoki ijtimoiy-ruhiy vaziyatning keskinlashishiga olib keladi. Ijtimoiy-ruhiy vaziyatning salbiy jihatdan o'zgarishiga xodimlarning:

- kerakli axborot bilan ta'minlanmaganligi va qat'iyatsizligi;

- ijtimoiy himoyalanmaganligi;

- ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta'minot bo'yicha o'z huquqlarini bilmasligi;

-ishsiz qolish, ish haqining pasayishi yoki to'lanmasligi bilan bog'liq bo'lgan moddiy yo'qotishlar, yangi ish sharoitiga kasbiy jihatdan layoqatsizlikni his qilish, shuningdek lavozimini yo'qotish kabi o'zgarishlardan hadiksirash kabi omillar ham sabab bo'ladi.

Ijtimoiy-ruhiy vaziyat - bu korxona va tashqilot xodimlariga ta'sir qiluvchi ko'pgina omillarning ta'siridan keladigan jamlama samaradir. U mehnat qilish jarayonida, xodimlarning muomalasida, ularning shaxslararo va guruhiiy aloqalarida o'z ifodasini topadi. Bu munosabatlarning normal vaziyati har bir xodimga o'zini jamoaning bir zarrasi deb his qilish imkonini beradi, uning ishga bo'lgan qiziqishini va zarur ruhiy kayfiyatini ta'minlaydi, yutuqlar va yo'l qo'yilgan kamchiliklarga adolatli baho berishga undaydi.

Jamoaning ijtimoiy-ruhiy vaziyati uchta asosiy tarkibiy qismdan iboratdir: xodimlarning ruhan mos kelishi, ularning ijtimoiy intilishlari, axloqiiy tarbiyalanganligi kabi bog'liq kuchlar o'zaro ta'sirida bo'ladi. Bu tarkibiy qismlar insoniiy muomalaning eng nozik torlariga, aql-idrok, iroda va his-tuyg'ularga taalluqli bo'ladi, ko'p jihatdan shaxsning foydali ishiga ijodiiy faoliyatiga, boshqalar bilan hamkorlik qilishi va jipsligiga yordam beradi. Ijtimoiy-ruhiy vaziyat xodimlarning birgalikda mehnat qilishi va bir-biriga munosabatini ifodalab, birinchi o'ringa shunday sabablarni, chunonchi moddiy rag'batlantirish va iqtisodiiy foyda kabi omillardan kam bo'lmagan sabablarni ilgari suradi, xodimni rag'batlantiradi, unda kuch-quvvatning ortishini yoki pasayishini, mehnat g'ayratini yoki unga qiziqmaslikni, ishdan manfaatdorlik yoki befarqlikni ifodalaydi.

Mehnatni moddiy rag'batlantirish korxona va tashqilotni ijtimoiy rivojlantirishning muhim bandi sifatida namoyon bo'ladi. Unda ishchi kuchiga bo'lgan chiqimlar, xodimlar mehnat sarfining qoplanishi, ularning ijtimoiy maqomi shu bilan birga oilaviiy byudjetlar, kishilarning hayot ne'matlariga bo'lgan zarur ehtiyojlarining qondirilishi o'z ifodasini topadi.

Mehnatga haq to'lash ijtimoiy minimumga - insonning munosib turmush darajasini saqlashi ishlash qobiliyatini takror xosil qilishi, uning faqat o'zi uchun emas, shu bilan birga o'z oila a'zolari uchun ham

tirikchilik vositalarini ishlab topishi zarurligiga asoslanadi. Ish haqining miqdori sanoati rivojlangan mamlakatlarda aholining umumiy pul daromadlarining tahminan uchdan ikki qismini tashkil etadi. Respublikamizda esa bunga pensiyalarning barcha turlari, ta'lim muassasalarida o'qiyotgan talabalar va o'quvchilarning stipendiyalari, bolalar nafaqalari va bolani parvarish qilganlik uchun nafaqalar, yordamchi xo'jalikdan olinadigan mahsulotlar qiymati, shuningdek mulkchilikdan keladigan daromadlar, yordamchi xo'jalik mahsulotlarini bozorda sotishdan va tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daromadlar (bularga banklarga qo'yilgan omonatlardan olinadigan foizlar va aksiyalardan keladigan dividendlar ham kiradi) qo'shiladi.

Tayanch so'z va iboralar:

Kadrlar siyosati, passiv kadrlar siyosati, reaktiv kadrlar siyosati, ogohlantiruvchi kadrlar siyosati, kadrlar salohiyati, kadrlarni ijtimoiy himoyalash.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Korxonalarda antiinqiroziy kadrlar siyosatining ahamiyatini ayting?
2. Korxonalarda kadrlarni antiinqiroziy boshqarishning o'ziga xos tizimi mavjud?
3. Korxonalarda kadrlar salohiyatining qiymati, uni baholash va qayta shakllantirish mavjud?
4. Inqirozli korxonalarda personalni boshqarish tamoyillari va usullari mavjud?
5. Inqiroz sharoitida kadrlarni ijtimoiy himoyalash va ijtimoiy-psixologik holatlarni yaxshilash yullari mavjud?

VIII BOB. KORXONANI TUGATILISHINING TASHKILIY MEXANIZMI

8.1. Korxona tugatilishining qiymatini baholash xususiyatlari. Baholash maqsadi va funksiyalari. Tugatish qiymati, uni amalga oshirish shartlari va turlari

Korxonaning tugatish qiymatini baholash ushbu jarayon bilan bevosita bog'liq bo'lgan xususiyatlar orqali namoyon bo'ladi. Baholashning bu turi orqali qo'lga kiritilgan natijalar asosida ko'plab manfaatdor subyektlar oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Korxonani tugatish qiymati deganda korxona egasi tomonidan korxonani tugatish chog'ida hamda uning aktivlarini alohida bo'lib sotish natijasida oladigan sof pul mablag'lari qiymati tushuniladi.

Korxonaning tugatish qiymatini baholash quyidagi holatlarda amalga oshiriladi:

Korxonanning ishlab chiqarishdan olingan daromadi va aktivlarning sof qiymati o'rtasidagi farq katta bo'lmaganda (korxona zarar bilan ishlay boshlaganda);

Korxonani tugatish haqida qaror qabul qilinganda;

Korxona bankrotlik holatiga yuz tuta boshlaganda.

Tugatish qiymati uch turga bo'linadi:

1. Tartiblashtirilgan tugatish – bunda korxona aktivlari ma'lum bir vaqt davomida sotiladi, natijada aktivlarning qimmat narxlarda sotilishi ta'minlanadi. Odatda bu vaqt ikki yilni tashkil etadi. Bu vaqt davomida aktivlar sotishga tayyor holga keltiriladi, potentsial mijozlarga axborot etkaziladi, korxona rahbarlari uchun so'nggi qarorlarni qabul qilish imkoni bo'ladi.

2. Majburiy tugatish qiymati.

3. Korxona aktivlarining mavjudligini tugatish qiymati. Bunday holda korxona aktivlari sotilmasdan, aksincha hisobdan chiqariladi va yo'q qilinadi. Uning o'rniga iqtisodiy va ijtimoiy samara beradigan korxona barpo etiladi. Baholashning bu turida aktivlarni tugatishga

ma'lum bir mablag' talab qilinishi bois korxona qiymati manfiy kattalikda bo'ladi.

Tugatish qiymatini aniqlaganda korxona aktivlarining to'liq tiklanish qiymatidan korxonani tugatish xarajatlari hisobga olinadi va ayirib tashlanadi. Bunday xarajatlarga rieltorlar, baholovchi tashqilotlar va huquqshunoslarning komission haqlari, shuningdek korxonani qo'llab-quvvatlash bilan, xususan uni tugatish bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy xarajatlari, dam olish kunlari uchun to'lovlar, sotilgan aktivlarni tashish xarajatlari kiradi.

Korxonaning tartiblashtirilgan tugatish qiymati bo'yicha ishlarning ketma-ketligi quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- A. korxona aktivlarini tugatish kalendar rejasini ishlab chiqish;
- B. aktivlarning sotish xarajatlarini hisobga olgan joriy qiymatini aniqlash;
- C. korxona majburiyatlarining kattaligini aniqlash;
- D. aktivlarning tuzatish kiritilgan joriy qiymatidan korxona majburiyatlari kattaligini ayirib tugatish qiymatini aniqlash.

8.2. Korxona aktivlarining tugatish jadvalini ishlab chiqish

Korxona aktivlarining tugatish jadvalini ishlab chiqish avvalo korxonaning qarzдорligini kamaytirish maqsadida aktivlarni eng yuqori narxlarda sotish uchun tuziladi. Turli ko'rinishdagi aktivlarni sotish muddati turlicha bo'ladi, masalan ko'chmas mulk (bino, er) bir yildan ikki yilgacha bo'lgan muddatda sotilsa, boshqa aktivlar (xom ashyo va materiallar, zaxiralar) aktivlarni sotish bo'yicha qaror qabul qilingan paytdan boshlab sotilishi mumkin.

Korxonani sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar tarkibiga soliq, sug'urta va aktivlarning sotilganigacha bo'lgan saqlash xarajatlari, korxona ishchi xodimlariga dam olish kunlari uchun beriladigan to'lovlar, boshqaruv xarajatlari kiradi. Korxona ishchilariga to'lanadigan to'lovlardan tashqari barcha xarajatlar yuqori stavka bo'yicha diskontlanadi.

Korxonani tugatish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar aniqlanganidan keyin balans aktivlarining tuzatilgan qiymati tugatish bilan bog'liq bo'lgan joriy xarajatlar summasiga va korxonaning barcha majburiyatlari qiymatiga kamaytiriladi. Natijada korxonaning tugatish qiymati kelib chiqadi.

Korxonaning tugatish qiymatiga nisbatan yakuniy xulosa berishdan avval yana bir marotaba bankrotlikni keltirib chiqargan omillar tahlil qilinadi.

Korxonalarni tugatish uchun:

➤ korxona muassislari (qatnashchilari)ning qarori (ixtiyoriy tugatish);

➤ xo'jalik sudi qarori;

➤ oilaviy korxonada yagona qatnashchi qolishi asos bo'lib hisoblanadi.

Moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va (yoki) qonunchilikda belgilangan muddatlarda o'zlarining ustav jamg'armalarini shakllantirmagan korxonalar faoliyatini bundan buyon davom ettirishning maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi masalani hal etish, shuningdek korxonalarni tugatish jarayonini xo'jalik sudlari qarorlari bo'yicha tugatish ishlarini bajarish quyidagilar asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 iyuldagi 327-son qarori bilan tasdiqlangan Moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va qonunchilikda belgilangan muddatlarda o'zlarining ustav jamg'armalarini shakllantirmagan korxonalarni tugatish tartibi to'g'risidagi nizomga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va (yoki) qonunchilikda belgilangan muddatlarda o'zlarining ustav jamg'armalarini shakllantirmagan korxonalar faoliyatini bundan buyon davom ettirishining maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi masalani hal etish, shuningdek korxonalarni tugatish jarayonini xo'jalik sudlari qarorlari bo'yicha amalga oshirish (ularning muassislari, qatnashchilari ularni tugatishga rozi bo'lmagan, shuningdek ko'rsatib o'tilgan shaxslar turar joyini aniqlash va ularni tugatish jarayoniga jalb etishni ta'minlash mumkin bo'lmagan hollarda):

➤ adliya organlari tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan korxonalar bo'yicha – Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi maxsus komissiyalar tomonidan;

➤ shaharlar, tumanlar hokimliklari tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan korxonalar bo'yicha – ushbu hokimliklar huzuridagi tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatga olish inspeksiyalari komissiyalar tomonidan amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik subyekti – jismoniy shaxs faoliyatini ixtiyoriy to'xtatish uning ro'yxatdan o'tkazgan organga taqdim etgan arizasi asosida amalga oshiriladi.

Moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va (yoki) qonunchilikda belgilangan muddatlarda o'zlarining ustav jamg'armalarini shakllantirmagan korxonalarni tugatish jarayonida soliq organining vazifalariga to'xtalib o'tamiz.

Soliq organi bank muassasasidan ko'rsatilgan ma'lumotlar olingan kundan boshlab ikki hafta muddatda moliya-xo'jalik faoliyatini so'nggi olti oy mobaynida amalga oshirmagan korxonalarni (bank operatsiyalarini uch oy mobaynida amalga oshirmagan savdo, savdo-vositachi korxonalarni), shu jumladan:

- davlat ro'yxatidan o'tkazilgan vaqtdan boshlab moliya-xo'jalik faoliyatini boshlamagan;

- mol-mulkka ega bo'lmagan va (yoki) mol-mulkini aniqlash mumkin bo'lmagan (bundan keyin mol-mulki bo'lmagan korxonalar deb ataladi);

- muassislari (qatnashchilari)ning turar joyini aniqlash, tugatish jarayoniga mazkur shaxslarni jalb qilishni ta'minlash imkoni bo'lmagan (bundan keyin muassislari bedarak bo'lgan korxonalar deb ataladi) korxonalarni aniqlaydi.

Bundan tashqari, qonunchilikda belgilangan muddatlarda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan korxonalarning aniqlanishiga ko'ra, ro'yxatdan o'tkazuvchi organga mol-mulki bo'lmagan va (yoki) muassislari bedarak bo'lgan korxonalarni tugatish to'g'risida taqdimnoma yuboradi.

Shuningdek, korxona faoliyatini bundan keyin davom ettirishning maqsadga muvofiq emasligi to'g'risida maxsus komissiya xulosasini olgan taqdirda uch kun muddatda uni korxonani tugatish to'g'risidagi taqdimnoma bilan birga ro'yxatdan o'tkazuvchi organga yuboradi.

Maxsus komissiya tomonidan korxona faoliyatini bundan keyin davom ettirishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida qaror qabul qilinishi mumkin.

Bunday holatda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan korxonalar bo'yicha – bayonnoma bilan moliya-xo'jalik faoliyatini tiklash uchun muddat belgilanadi va nazorat qilib boriladi, shuningdek qonunchilikda belgilangan muddatlarda o'zlarining ustav jamg'armalarini shakllantirmagan korxonalar bo'yicha – ustav jamg'armasini shakllantirish uchun muddat belgilanadi va nazorat qilib boriladi.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va (yoki) qonunchilikda belgilangan muddatda o'z ustav jamg'armasini shakllantirmagan korxonalar faoliyatini bundan keyin davom ettirishning maqsadga muvofiq emasligi to'g'risida soliq organining taqdimnomasini yoki maxsus komissiyaning xulosasini olgan kundan boshlab bir hafta muddatda muassislarga (qatnashchilarga) asoslarini ko'rsatgan holda yozma ravishda, korxonani ixtiyoriy tugatishni taklif etadi.

Agar korxona ikki hafta muddatda (aksiyadorlik jamiyati – bir oy muddatda) ixtiyoriy tugatishga kirishmagan yoxud korxona muassislari (qatnashchilar) ixtiyoriy tugatishni amalga oshirishni rad etgan, shuningdek ko'rsatib o'tilgan shaxslarni aniqlash mumkin bo'lmagan taqdirda, ro'yxatga oluvchi organ bir hafta muddatda xo'jalik sudiga korxonani tugatish to'g'risidagi da'vo arizasini belgilangan tartibda yuboradi.

8.3. Korxona aktivlarining joriy qiymatini hisoblash. Korxona balansining aktiv va passivlarini aniqlash

Tarkibiy o'zgartiriladigan korxona yoki unga nisbatan bankrotlik tartiboti qo'llanilgan korxona baholash xizmatlarini amalga oshirishga buyurtmachi hisoblanadi.

Baholashni o'tkazish uchun xizmatlar qiymatining qolgan qismini to'lash baholangan obyekt sotilgan va korxona hisobiga pul mablag'lari tushgandan keyin navbatdan tashqari tartibda amalga oshiriladi.

Korxonani xatlovdan o'tkazish natijalariga ko'ra baholanadigan mol-mulk tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

korxona balansida bo'lgan, shu jumladan, texnik holatidan qat'i nazar, boshqa korxona va tashqilotlarga foydalanish uchun (ijaraga) berilgan ham ishlab turgan (shu jumladan vaqtinchalik mukammal ta'mirlashda va zamonaviylashtirishda bo'lgan), ham konservatsiyada turgan asosiy vositalar;

- nomoddiy aktivlar;
- tugallanmagan qurilish;
- o'rnatiladigan asbob-uskunalar;
- boshqa uzoq muddatli aktivlar;
- joriy aktivlar.

Xatlovdan o'tkazishda korxona mol-mulki balans (qoldiq) qiymati bo'yicha baholanadi. Mol-mulkning balans (qoldiq) qiymatini baholash Buxgalteriya hisobi milliy standartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Tarkibiy o'zgartiriladigan korxonalarning sotiladigan mol-mulkini baholash maqsadida - vakolatli organning va unga nisbatan bankrotlik tartiboti qo'llanilgan korxonalarning qarori bo'yicha, - kreditorlar (kreditorlar qo'mitasi) majlisi qaroriga ko'ra baholash tashqiloti jalb etiladi. Mulkida davlat ulushi bo'lgan korxonalar uchun baholovchi tashqilotni jalb etish majburiydir.

Baholashni o'tkazishda, atamalar, tushunchalar va metodikalardan foydalanishda, shuningdek baholash bo'yicha hisobot tuzishda baholovchi tashqilot qonun hujjatlari talablariga rioya etishi va mavjud baholash standartlariga amal qilishi shart.

8.4. Korxonaning tugatish xarajatlarini aniqlash

Tarkibiy o'zgartiriladigan korxonalar va ularga nisbatan bankrotlik tartiboti qo'llanilgan korxonalar mol-mulkini baholashda baholovchi tashqilot tomonidan qiymatning quyidagi turlari aniqlanadi:

- bozor qiymati;
- tugatish qiymati;
- foydalaniladigan qilish qiymati;
- investitsiya qiymati.

Korxonaning bozor qiymatini baholash baholovchi tashqilot tomonidan korxonaning (mol-mulkning) balans (qoldiq) qiymatini, baholash sanasida mazkur mol-mulkka bo'lgan aniq talabni, uning joylashgan joyini, uning tarkibida maxsus mol-mulkning, bozorda xaridorgirligi cheklangan mol-mulkning mavjudligini, shuningdek fizik va/yoki ma'naviy eskirgan mol-mulkni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Unga nisbatan bankrotlik tartiboti qo'llanilgan korxona mol-mulkining bozor qiymatini baholash - kreditorlar majlisi qaroriga ko'ra, tarkibiy o'zgartiriladigan korxonaga nisbatan esa - vakolatli organ qaroriga ko'ra savdolarida sotishning boshlang'ich (dastlabki) narxi belgilangan taqdirda amalga oshiriladi.

Korxonalar mol-mulkining tugatish qiymatini baholash mol-mulkning bozor qiymatiga asoslanadi, bunda mol-mulkni majbur etuvchi holatlar mavjudligi tufayli qisqa muddatlarda sotish zarurligi faktori yuzasidan diskont qilish, shuningdek mazkur mol-mulkni saqlash va qo'riqlash bo'yicha qo'shimcha xarajatlar hisobga olinadi.

Unga nisbatan bankrotlik tartiboti qo'llanilgan korxona mol-mulkining tugatish qiymatini baholash kreditorlar (kreditorlar qo'mitasi) majlisi qaroriga ko'ra, savdolarida sotishning boshlang'ich (dastlabki) narxi belgilangan taqdirda amalga oshirilishi mumkin.

Mol-mulkning foydalaniladigan qilish qiymatini baholash baholash sanasida ma'naviy (funktsional) eskirganligi yoki texnik holatiga ko'ra belgilangan maqsadda foydalanilishi mumkin bo'lmagan,

faqat unda sotish uchun materiallar majmui mavjudligi tufayli qiziqish tug'diradigan obyektlarga nisbatan qo'llaniladi.

Investitsiya qiymatini baholash mol-mulkning bozor qiymatini baholashga asoslanadi va ikki qismga - badal to'loviga hamda sotib olinayotgan mol-mulkdan foydalangan holda biznes tashkil etish uchun zarur bo'lgan investitsiya majburiyatlariga bo'linadi.

Unga nisbatan bankrotlik tartiboti qo'llanilgan korxona mol-mulkining investitsiya qiymatini baholash kreditorlar (kreditorlar qo'mitasi) majlisi qaroriga ko'ra, tarkibiy o'zgartiriladigan korxonalarga nisbatan esa - vakolatli organ qaroriga ko'ra savdolarida korxona (yoki uning bir qismi) mol-mulk kompleksi yoki biznes sifatida sotilgan taqdirda amalga oshiriladi.

Mol-mulkni investitsiya qiymati bo'yicha sotishda savdolarning majburiy shartlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

badal to'lovini to'lash summasi va muddatlari (qoidaga ko'ra, shartnoma tuzilgandan keyin ayni bir vaqtda);

investitsiya majburiyatlarini bajarish, shu jumladan bankrot korxonaning qolgan kreditorlik qarzini to'lash summasi va to'lash muddatlari (qoidaga ko'ra, shartnoma tuzilgandan keyin bir yil mobaynida).

Badal to'lovlari va investitsiya majburiyatlari miqdorlari nisbati savdolar shartlarida belgilab qo'yiladi va kreditorlar (kreditorlar qo'mitasi) majlisi qarori bilan tasdiqlanadi, mulkida davlat ulushi bo'lgan korxonalar bo'yicha esa - vakolatli organ qarori bilan tasdiqlanadi. Ayrim bankrot korxonalarni tijorat banklariga sotishda balansni tashkil etish uchun zarur bo'lgan sotib olish to'lovlari va boshqa majburiyatlar miqdorlari qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Tarkibiy o'zgartiriladigan korxonalar va ularga nisbatan bankrotlik tartiboti qo'llanilgan korxonalar mol-mulkini sotish quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

kimoshdi savdolari;

tanlov bo'yicha savdolar;

oshkora oferta shartlaridagi to'g'ridan to'g'ri savdolar.

Korxonalarning davlatga qisman yoki to'liq tegishli bo'lgan mol-mulki savdolarini o'tkazish shakli O'zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi bilan kelishiladi.

Unga nisbatan bankrotlik tartiboti qo'llanilgan korxona mol-mulkini sotish hollarida (tugatish ishlaridan tashqari) savdolar tashqilotchisiga (ixtisoslashtirilgan tashqilotga) quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- muassislar (qatnashchilar)ning vakolatli organi yoki mulkdorning belgilangan tartibdagi qarori protokoli;
- kreditorlar majlisi protokoli;
- sotuvga qo'yiladigan mol-mulk ro'yxati;
- baholovchi tashqilot tomonidan baholangan mol-mulkni sotishning dastlabki narxini belgilash to'g'risidagi hujjat.

Korxona mol-mulkini sotishda tugatish ishlarini o'tkazish davomida sud boshqaruvchisi savdolar tashqilotchisiga belgilangan shakl bo'yicha quyidagi hujjatlar paketi bilan birga buyurtmanoma beradi:

- sudning korxonani bankrot deb e'lon qilish to'g'risidagi qarori nusxasi;
- sotilayotgan mol-mulkka egalik huquqini tasdiqlovchi hujjatlar, shu jumladan ko'chmas mulk obyektlari uchun kadastr hujjati;
- sotuvga qo'yilayotgan mol-mulk ro'yxati, unda baholovchi tashqilot tomonidan baholangan har bir obyektning dastlabki narxi ko'rsatilgan bo'ladi;
- belgilangan tartibga muvofiq boshqa materiallar.

Savdolar o'tkazilishi to'g'risidagi axborotni ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish va manfaatdor shaxslarni sotiladigan obyektlar hamda savdolar shartlari bilan tanishtirish tartibi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Dastlabki savdolarida sotilmagan mol-mulk takroriy savdolarga qo'yiladi yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda oldi-sotdi shartnomasi asosida sotilishi mumkin.

Ularga nisbatan bankrotlik tartiboti qo'llanilgan korxonalarning oldingi savdolarida sotilmagan mol-mulki narxi takroriy savdolarida kreditorlar (kreditorlar qo'mitasi) majlisi qaroriga ko'ra, tarkibiy o'zgartiriladigan korxonalarning oldingi savdolarida sotilmagan mol-mulki narxi esa - vakolatli organ qaroriga ko'ra pasaytirilishi mumkin.

Korxona mol-mulki takroriy savdolarida bir oy mobaynida sotilmagan taqdirda hujjatlar belgilangan tartibda oldi-sotdi shartnomasi asosida sotish uchun sotuvchiga qaytariladi.

Kreditorlar (kreditorlar qo'mitasi) majlisining roziligi mavjud bo'lgan taqdirda, sud boshqaruvchisi takroriy savdolar o'tkazmasdan, korxonani mulkiy kompleks sifatida oshkora oferta shartlarida to'g'ridan to'g'ri shartnoma asosida sotishi mumkin.

Mulkni sotish birinchi badalning shartnoma tuzilgan vaqtdan boshlab o'n kun mobaynida to'lanishini nazarda tutadigan olti-sotdi shartnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Bunda birinchi badal miqdori mulkning kamida 15 foizini tashkil etishi kerak.

Korxonaning mol-mulki tugatish ishlari davomida oxirgi oshkora savdolar o'tkazilgandan keyin kelgusida korxonaning mol-mulkini tasarruf etish «Bankrotlik to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 142¹ va 143-moddalarida nazarda tutilgan tartibda sud boshqaruvchisi tomonidan amalga oshiriladi.

Tugatish ishlari tartibotida turgan korxonalar mol-mulki qiymati bo'lib-bo'lib to'lanadigan holda sotilishi mumkin.

Mol-mulkni qiymati bo'lib-bo'lib to'lanadigan holda sotish sud boshqaruvchisi tomonidan, kreditorlar (qo'mitasi) majlisi bilan kelishuv bo'yicha va sotib oluvchi tomonidan unga xizmat ko'rsatuvchi tijorat bankining tegishli kafolatnomasi taqdim etilgan holda amalga oshiriladi. Xo'jalik sudi mol-mulkni uning qiymati bo'lib-bo'lib to'lanadigan holda sotish to'g'risida xabardor qilinadi.

Mol-mulkni qiymati bo'lib-bo'lib to'lanadigan holda sotish oldi-sotdi shartnomasi bilan rasmiylashtiriladi, shartnoma u tuzilgan paytdan boshlab o'n kun mobaynida dastlabki badal to'lanishini nazarda tutadi. Bunda dastlabki badal miqdori mol-mulk qiymatining kamida 15 foizini tashkil qilishi kerak.

Mol-mulkni qiymati bo'lib-bo'lib to'lanadigan holda sotishning umumiy muddati bir yildan oshmasligi kerak. Mol-mulk qiymatiga ko'ra uni qiymati bo'lib-bo'lib to'lanadigan holda sotishning quyidagi muddatlari belgilanadi:

mol-mulkning qiymati eng kam oylik ish haqi miqdorining yuz baravariga teng bo'lganda - uch oygacha;

mol-mulkning qiymati eng kam oylik ish haqi miqdorining yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha teng bo'lganda - uch oydan olti oygacha;

mol-mulkning qiymati eng kam oylik ish haqi miqdorining to'rt yuz baravaridan ming baravarigacha teng bo'lganda - olti oydan to'qqiz oygacha;

mol-mulkning qiymati eng kam oylik ish haqi miqdorining ming baravaridan yuqori bo'lganda - to'qqiz oydan bir yilgacha.

qiymati bo'lib-bo'lib to'lanadigan holda sotiladigan mol-mulk qiymatini to'lash oldi-sotdi shartnomasiga ilova qilinadigan jadvalga muvofiq amalga oshiriladi. Sotuvchida shartnomada belgilangan summani muddatidan oldin to'liq hajmda to'lash huquqi saqlanib qoladi.

Bankrot korxonaning qiymati bo'lib-bo'lib to'lanadigan holda sotilgan mol-mulkni sotib oluvchi tomonidan sotib olish muddati oldi-sotdi shartnomasi shartlariga muvofiq tugatish ishlari muddatidan oshgan taqdirda sud boshqaruvchisi tugatish ishlarini tugallashni va bankrot korxonani reestrdan chiqarishni tugatish ishlarini tashkil etish, o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar majburiy to'langandan va bankrot korxonaning «Bankrotlik to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni 134-moddasida belgilangan majburiyatlari birinchi navbatda bajarilgandan keyin amalga oshiradi.

Sotuv summasi navbatda turgan barcha kreditorlarning talablarini to'liq qondirish uchun etishmagan taqdirda ikkinchi va keyingi navbatdagi qarzlarni uzish jadvali «Bankrotlik to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni 134 moddasining sakkizinchi va to'qqizinchi qismlariga muvofiq tuziladi.

Bankrot korxonaning ikkinchi va undan keyingi navbatdagi kreditorlar talablarini qondirish sotib oluvchi tomonidan O'zbekiston

Respublikasi Fuqarolik kodeksining 322-moddasiga muvofiq bevosita ularning talab qilib olinadigan depozit hisob raqamiga amalga oshiriladi.

Dastlabki badal to'langandan keyin mol-mulk sotib oluvchiga beriladi. Tugatuvchi boshqaruvchi tomonidan mol-mulkni berish va uni sotib oluvchi tomonidan qabul qilib olish tomonlar imzolaydigan topshirish-qabul qilib olish dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Sotib oluvchida mulk egasi huquqi mol-mulk qiymati to'liq to'langandan keyin tuzilgan ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomaga muvofiq, zarur hollarda amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq boshlanadi.

Mol-mulkning qiymati bo'lib-bo'lib to'lanadigan holda oldi-sotdi shartnomasi imzolangan paytdan boshlab tugatuvchi boshqaruvchining kreditorlar bilan o'zaro munosabatlari, ushbu Nizomning 26-bandida nazarda tutilgan hollarda alohida shartnoma bilan rasmiylashtiriladi, unda kelgusidagi xarajatlar (shu jumladan tugatuvchi boshqaruvchining haqi) miqdori, ularni to'lash tartibi va muddatlari ko'rsatiladi, keyinchalik u xo'jalik sudi tomonidan tasdiqlanadi.

Mulkni qiymati bo'lib-bo'lib to'lanadigan holda sotishdan olingan mablag'lar tugatish hisob raqamiga tushganda tugatuvchi boshqaruvchi bankrotlik to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan navbat bo'yicha kreditorlar talablarini qondiradi.

Mol-mulkning qiymati bo'lib-bo'lib to'lanadigan holda oldi-sotdi shartnomasi sotib oluvchining tashabbusi bilan bekor qilingan taqdirda mol-mulk belgilangan tartibda qaytariladi. Bunda sotib oluvchi ushbu shartnomaning bekor qilinishi oqibatida ko'rilgan zararlarni qonun hujjatlariga muvofiq to'lashi shart.

Qaytarilgan mol-mulk tugatuvchi boshqaruvchi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda qaytadan savdolarga qo'yiladi.

Tayanch soʻz va iboralar:

Korxona tugatilishi, korxona qiymatini baholash, tugatish qiymati, korxona tugatilishida xarajatlarni aniqlash.

Oʻz-oʻzini tekshirish uchun savollar

1. Korxona tugatilishining qiymatini baholash xususiyatlari mavjud?
2. Baholash maqsadi va funksiyalari mavjud?
3. Tugatish qiymati, uni amalga oshirish shartlari va turlarini ayting?
4. Korxona aktivlarining tugatish jadvalini ishlab chiqish tartibini ayting?
5. Korxona aktivlarining joriy qiymatini hisoblashni aytib bering?
6. Korxona balansining aktiv va passivlarini aniqlash mumkin?
7. Korxonaning tugatish xarajatlarini aniqlash mumkin?

IX BOB. O'ZBEKISTONDA BANKROTLIK TO'G'RISIDAGI QONUNNING TAKOMILLASHUVI

9.1. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi kuzatilgan davrda davlatlarning inqirozga qarshi siyosati

2008 yilning avgust oyida boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va shu davrgacha bo'lgan boshqa global inqirozlar bilan kurashishning yo'l-yo'riqlarida iqtisodiyotni sog'lomlashtirish va inqirozga qarshi choralarlarning bir necha yo'nalishlarini ko'rish mumkin. Mazkur yo'nalishlarning asosiy mohiyati kasallik kelib chiqqan sohani moliyaviy barqarorligini oshirishdan boshlanib, inqiroz davri o'tguncha ishlab chiqarish himoya qilinadi va rag'batlantiriladi. Bu usullar haqiqatda, shu davrgacha o'z natijalarini samarali tartibda berib kelgan. Shu bilan birga, inqirozga qarshi choralarning barcha davlatlar va inqirozlarning barcha turi uchun birdek bo'lgan umumiy choralari ham mavjud. Bu ko'proq iqtisodiyotda o'sishni rag'batlantirish, rivojlanish imkoniyatlari mavjud bo'lgan sohalarga davlat kafolati ostida kredit, dotatsiya, subsidiyalar va davlatning maqsadli yordamlarini ajratish bilan belgilanadi.

So'nggi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi aytish mumkinki, davlatning inqirozga qarshi choralari nazariyasini rivojlanishiga olib keldi. Bu nazariya bir payitni o'zida amaliyotda ham sinaldi. Masalan, aksariyat rivojlangan mamlakatlar moliya tizimini tubdan isloh qilish zarurligini keltirib chiqardi. Shunga ko'ra, AQSh va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o'zlarining bank tizimlarini inqirozdan qutqarish uchun yirik tijorat banklarining aksiyalarini sotib olib, ularni byudjet mablag'lari hisobiga likvidli aktivlar bilan ta'minlay boshladi.

AQSh hukumati iqtisodiyotga yirik masshtabdagi davlat aralashuvi siyosatini yurita boshladi. AQShning sobiq moliya vazirining tashabbusi bilan Kongress «Polson rejasi» deb nomlanuvchi rejani qabul qildi. Mazkur rejaning umumiy hajmi 700 mlrd. dollarni tashkil qiladi.

Evropa Ittifoqi mamlakatlari inqirozdan chiqish bo'yicha tijorat banklari kreditlari uchun davlat kafolatlari tizimidan foydalanishga kelishib olishdi. Bu holatda kafolatlar banklararo kreditlar bo'yicha 5 yil muddatga taqdim etiladi va hukumat banklarning imtiyozli aksiyalarini sotib olish orqali ularni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlariga ega bo'ldi.

Masalan, AQShda Federal zaxira tizimi qimmatli qog'ozlarni sotib olish orqali xususiy sektorni to'g'ridan to'g'ri moliyalashtirish amaliyotiga o'tish orqali likvidlilikni taminlashning yangi usuliga o'tdi.

Buyuk Britaniya hukumati banklar va moliyaviy muassasalar aksiyalariga 37 mlrd. funt sterling mablag'larini investitsiya qilishini e'lon qildi. Germaniya hukumati esa, bank tizimini qo'llab-quvvatlash uchun kapital va kreditlar bo'yicha kafolatlar shaklida 500 mlrd. evro ajratishini e'lon qildi. Avstraliya hukumati esa barcha jamg'armachilar pul jamg'armalarini 3 yilga kafolatlashini e'lon qildi va ipoteka qimmatli qog'ozlarini sotib olish uchun 2,6 mlrd. dollar mablag' ajratdi. Yevropaning yirik banklari milliyashtirildi, ya'ni davlat tomonidan sotib olindi(-jadval).

Bundan ko'rinib turibdiki, bugungi kunda davlatning inqirozga qarshi choralari yirik moliyaviy xarajatlarni talab qiladi. Chunki, bunday moliyaviy kafolatisiz inqiroz bilan kurashib bo'lmaydi. Inqirozning sababi qaysi faoliyatga borishidan qat'i nazar moliyaviy zarar bilan yakunlanadi. Shu sababdan ham inqirozni engish va oldindan bartaraf etishda asosiy omil investitsiyani nazarda tutadi. Zero, Prezidentimiz aytganlaridek, **“barchamiz oddiy bir haqiqatni yaxshi anglab etishimiz darkor investitsiyalarsiz modernizatsiya ham, yangilanish ham bo'lmaydi”**²². Moliyaviy xarajatlar esa bevosita inqirozni likvidatsiya qilish jarayonida investitsiya ko'rinishida aks etadi.

²² Ўзбекистон Республикаси Президентини И Каримовнинг 29 январ 2010 йилда “Асосий вазифамиз – ватанимиз таракқиети ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтириш” номи 2009 йилининг асосий якули ва 2010 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлаштиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси.

**Jahon mamlakatlarining inqirozga qarshi kurashga sarflangan
moliyaviy xarajatlari²³**

Mamlakat	Moliyaviy xarajatlar, mlrd. dollar	Mamlakat YaIMga nisbatan foiz hisobida (2008 yil)
Rossiya	222	13,9
Buyuk Britaniya	1020	37
AQSh	3539	25
Germaniya	893	23
Yaponiya	576	12
Xitoy	570	13
Dunyo bo'yicha	9400	15

Inqirozdan qutqarish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlardan ko'rinib turibdiki, rivojlangan mamlakatlar tartibga solinmaydigan erkin bozor haqidagi ideologik dogmani orqaga tashlab, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish usullaridan keng foydalana boshladilar.

Tijorat banklarini «milliylashtirish»ni nazarda tutuvchi davlat byudjetidan ajratilgan mazkur investitsiya resurslari ma'lum bir davrga o'zining ijobiy natijasini berishi mumkin.

Inqiroz davrida dunyo mamlakatlari tomonidan inqirozga qarshi kurash bo'yicha yirik miqdorda moliyaviy resurslar ajratiladi. Ularning hajmi va yalpi ichki mahsulotga nisbatan salmog'i inqirozning ta'sir ko'lamini va har qaysi mamlakatlarning inqirozga qarshi kurash bo'yicha ishlab chiqqan rejalari hajmiga asoslanadi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, dunyo bo'yicha jami sarflangan mablag'larning hajmi 9400 mlrd. dollarni tashkil qilgan. AQSh hukumati sarflagan mablag'larining hajmi 3539 mlrd. dollarni tashkil qilgan bo'lib, bu mamlakat yalpi ichki

²³ Бекмуродов А.Ш., Гафуров У.В., Тухлиев Б.К. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2008. – 120 б.

mahsulotining 25% ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich Buyuk Britaniyada 1020 mlrd. dollarni (mamlakat yalpi ichki mahsulotining 37%), Germaniyada 893 mlrd. dollarni (23%) tashkil qilgan. Bundan ko'rinadiki, hozirgi sharoitda inqirozdan AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya nisbatan ko'proq aziyat chekmoqda.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida davlatlar o'zlarining bor imkoniyatlarini ishga solib tezroq retsessiya jarayonlarini bartaraf etishga harakat qildilar. Shu sababdan, inqirozga qarshi choralarni so'nggi global inqiroz bilan dunyo mamlakatlari o'rtasidagi kurash orqali ham izohlash mumkin.

Unga ko'ra, davlatlarning moliyaviy-iqtisodiy inqirozga qarshi kurashlarini quyidagi tartibda ko'rishimiz mumkin:

1. Kredit mablag'lariga davlat kafolatini berish;
2. Moliyaviy institutlar ustav kapitallariga qo'yilmalar qo'yish;
3. Yuqori riskli shubhali aktivlarni harid qilish;
4. Mahsulot import qilinayotgan davlatlarga nisbatan proteksionizm siyosatini qo'llash;
5. Ichki ishlab chiqarishni rag'batlantirish choralari ni maksimallashtirib iqtisodiy salohiyatni ushlab qolishga intilish;
6. Shu kabilar.

Demak, keltirib o'tilgan choralarni dastlabki 3 tasi davlatning moliyaviy salohiyatini tiklash va moliya institutlarini ishonchlilikini oshirish choralari hisoblansa, keyingilari bevosita ishlab chiqarish jarayonlarini sog'lomlashtirish va imkoniyatini saqlab qolishga harakat sifatida izohlanadi.

Global inqirozining natijalaridan xulosa chiqarilsa, iqtisodiyoti rivojlangan va barqarorlikni bir necha yillardan buyon ushlab turgan mamlakatlar dastlab moliyaviy salohiyatni ushlab qolishga harakat qiladilar. Sababi:

Birinchidan, inqiroz shu davlatlarda boshlangan va ular jahon iqtisodiyotining gigantlari hisoblanadi.

Ikkinchidan, mazkur davlatlar guruhida ishlab chiqarish salohiyatini yanada oshirish imkoni kam, chunki, ishlab chiqarishda cho'qqini zabt etib bo'lingan.

Uchinchidan, ishlab chiqarish korxonalarini moliyaviy barqarorligi bir qancha muddat ushlab turish ularni jahon bozoridagi mavqeiga katta zarar yetkazmaydi.

To'rtinchidan, korxonalar moliyaviy tomondan ta'minlanib turilmasa, ishlab chiqarish jarayoni to'xtashi va u katta iqtisodiy talofatlarga olib kelishi mumkin.

Beshinchidan, ular globallashuv jarayonining eng katta ishtirokchilari va o'z-o'zidan jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi ham benihoya yirik, shu sababdan, moliyaviy richaglar yordamida o'z valutalarini qadr-qimmatini ham ushlab turishga majburlirlar.

Boshqa davlatlar asosan bu vaziyatda ishlab chiqarishni yanada rivojlantirishga va eksportni rag'batlantirishga harakat qildilar. Chunki:

Birinchidan, ular jahon iqtisodiyotida katta ulushga ega emaslar va payitdan foydalanib o'z ulushlarini oshirishga intiladilar.

Ikkinchidan, ishlab chiqarishda hali cho'qqini zabt etmaganlari uchun salohiyatni oshirish imkoni mavjud edi.

Uchinchidan, globallashuv jarayonida jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv maksimal emas, bu esa inqiroz ta'sirini mazkur davlatlarga nisbatan kamaytirdi. Shu sababli, ishlab chiqarishni oshirish qolgan davlatlar uchun ayni muddao bo'ldi.

Respublikamizda esa inqirozga qarshi choralar o'zining yangi ko'rinishi va amalga oshirib kelinayotgan islohotlarning mantiqiy davomi sifatida o'rin olgani uchun iqtisodiyotimiz barqarorligini yanada mustahkamlashga va inqiroz davrida Respublikamizni katta sinovdan muvaffaqiyatli o'tishiga sabab bo'ldi. Davlatning inqirozga qarshi choralari amalga oshirish bankrotlik institutiga asoslanadi.

9.2. Mamlakatimizda bankrotlik institutining shakllanish sabablari

Davlat iqtisodiyotining rivojlanishi hech qachon sof iqtisodiy qonuniyatlarning asosiga qurilmaydi. Sababi, bunday qonuniyatlar mavjud bo'lgani bilan ijtimoiy va tabiiy omillar oqibatida ularning amal qilishi buziladi. Natijada, insonlar tomonidan sof qonuniyatlarning

kamchiliklarini yopish, davlat iqtisodiyotining rivojlanish yoʻnalishlarini ichki va tashqi sharoitlarga bogʻlash maqsadida meʼyoriy hujjatlar tuzilib hayotga tatbiq etiladi. Mazkur masalani ikkinchi tomondan qaraganda, huquqiy hujjatlar faqatgina tartibga solish yoki boshqa maqsadlar uchun xizmat qilmasligini anglash qiyin emas. Yaʼni, davlat huquqiy-meʼyoriy hujjatni buzilgan tartibni tuzatish maqsadida yoki buzilishini oldini olish maqsadida qabul qiladi. Shu sababli ham huquqiy tizim davlatning qudrati hisoblanadi.

Davlat huquqiy tizimi jamiyatning barcha sohalari faoliyatining harakatlanish prinsiplarini belgilab beradi. Huquqning bu funksiyasi ichki va tashqi tartibotlar uchun yoʻnalish hisoblanadi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan qaraganda, davlat iqtisodiyotni oʻzining huquqiy meʼyorlari bilan tartibga solib turadigan iqtisodiy tizimning subyekti kabi tavsiflanadi. Davlat korxona uchun tashqi muhit hisoblanib, bozor iqtisodiyoti sharoitida maʼlum tizimlarni nazorat qiladigan, boshqaradigan va tartibga soladigan subyektdir. Iqtisodiyotni tartibga solish hukumatning yuqoridagi vaziflarini bir qismi hisoblanadi. Buni u qonun, soliqqa tortish, bojxona bojlari, valuta kurslari va boshqa vositalarni oʻzgartirish hamda chegaralash yoʻli bilan amalga oshiradi. Davlat iqtisodiyotni tartibga solish jarayonida u yoki bu davrdagi rejalarni ishlab chiqish bilan asosiy funksiyalarini bajaradi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy vazifalaridan biri korxonalar faoliyatida inqirozli vaziyatlarni bartaraf etish uchun sharoitni hosil qilish evaziga bozor mexanizmini amal qilishida hatoliklarga yoʻl qoʻymaslik boʻlib, bu vazifa inqirozga qarshi davlat tadbirlarini ishlab chiqish va tatbiq etish bilan hal etiladi.

Davlatning inqirozga qarshi choralari korxonalarda ishlab chiqarish maromiyligini saqlash, bozor mexanizmlarini shikastlanishini oldini olish va iqtisodiyotning oʻsish darajasini ushlab turish maqsadida amalga oshiriladi. Shu yoʻl bilan davlat muntazam iqtisodiyotning “kichik yacheykasiga virusni tushirmaslikka yoki uni davolashga” harakat qiladi va makroiqtisodiy barqarorlikni taʼminlaydi.

Davlatning inqirozga qarshi choralari qaysi yo'nalishda bo'lishi iqtisodiyotni tubdan tahlil qilish va aniq vaziyatlarga asosan baholashga bog'liq. Choralar qanchalik darajada aniq ishlab chiqilsa, uning samaradorligi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Inqirozga qarshi choralarning maqsadi va joriy vaziyatga oid holatdan kelib chiqib, ular muayyan yo'nalish va strategiyaga asoslangan bo'ladi. Bankrotlik jarayonida ishtirok etuvchi subyektlarning manfaatlaridan kelib chiqib, inqirozga qarshi choralar:

Kreditorlar manfaatlarini himoya qilishga;

Qarzdor manfaatini himoya qilishga qaratilgan bo'ladi.

Mazkur yo'nalishlar jahonning eng rivojlangan davlatlari tomonidan sinalgan bo'lib, AQSh, Fransiya va Yaponiya tajribasida inqirozga qarshi choralar qarzdorga qaratilgan va shu sababdan ham, ularning maqsadi qarzdorni sog'lomlashtirish hisoblanadi. Buyuk Britaniya va Germaniyaning huquqiy tizimi kreditorga qaratilgan bo'lib, birinchi navbatda qanday usul bilan bo'lmasin, qarzlarni kreditorga qaytarish hisoblanadi. Bu holda qarzni uzish bankrot korxonaning mol-mulkini sotish hisobiga ham amalga oshiriladi.

Germaniya modelida restrukturizatsiya likvidatsiyadan ustun turadi. Bu tizim kreditorlar qiziqishini himoya qilishga yo'naltirilgan. Shu bilan birgalikda, Germaniyada reabilitatsion (jonlantiruvchi) taomillar kreditorlar o'rtasida qarzdorning aktivlarini bo'lishni maksimallashtirishga qaratilgan.

Angliya modeli ham kreditorlarni himoya qilishga yo'naltirilgan bo'lib, kreditorlar o'rtasida qarzdor aktivlarini taqsimlash mexanizmini samarali va operativ tarzda amalga oshirishga harakat qilinadi. Bankrotlik taomillari davrida korxona nazoratini kreditorlar o'z qo'liga oladi. Bu model kamchiligi shundan iboratki, maqsad qarzdorni qutqarib olishga emas, balki uni tugatishga qaratiladi. Amaliyot bunday mexanizm makroiqtisodiyotning asosiy vazifasini samarali bajarishga to'sqinlik qiladi.

AQShning iqtisodiy nochorlikni baholash tizimida likvidatsiyadan ko'ra qayta tarkibiy tuzish taomili afzal ko'riladi. Qarzdor qayta tarkibiy

tuzish rejasini kreditorlar aralashuvisiz o'zi amalga oshiradi. Kompaniya menejeri esa qayta tarkibiy tuzishni amalga oshiruvchi shaxs hisoblanadi. Qayta tarkibiy tuzish rejasi bir necha yilni o'z ichiga olish mumkin. Kreditorlar esa uni amalga oshirishga ta'sir eta olmaydi. Agarda qayta tarkibiy tuzish samarasiz amalga oshsagina, likvidatsiya qilinadi. Bunday usulni kuchli iqtisodiyotdagina amalga oshirish mumkin. AQSh uchun bu usul juda samara beradi.

Fransuz tizimida nochorlikni boshqarish qarzdor korxonaning infratuzilmasini kreditorlar huquqini qisqartirish hisobiga himoya qilish g'oyasiga asoslanadi. Kreditorlarning hohish irodasiga qaramasdan har qanday holda ham qat'iy tartib o'rnatiladi. Vaholanki, buni natijasida kreditorlarning aktivlardagi ulushi qisqarsa ham²⁴.

Davlatning inqirozga qarshi choralari – bu makroiqtisodiy kategoriya bo'lib, korxonalarni inqirozdan himoya qilish, bankrotlikni oldindan yo'qotish yoki inqiroz ostida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni istiqboldagi faoliyatini to'xtatish uchun davlatning tashqiliy-iqtisodiy va huquqiy sohadagi harakatlarini hosil qiluvchi munosabatlarni aks ettiradi²⁵. Demak, davlat tomonidan korxonalarni inqirozdan saqlash va sog'lomlashtirish ishlari bankrotlik institutiga asoslanadi.

Bankrotlik instituti – xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlar amaliyoti va huquqiy tartibga solish tizimida nisbatan yangi institut bo'lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida uning o'rni va rivoji alohida ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda bankrotlik institutini to'laqonli o'rganish va tahlil etish maqsadga muvofiqdir.

O'tgan davr mobaynida yurtimizda bankrotlik institutini chuqurroq o'rganish maqsadida chet ellik mutaxassislar va olimlar bilan yaqindan hamkorlik o'rnatilib, ularning bu boradagi tajribasi va amaliyoti o'rganildi. Buning amaliy natijasi o'laroq, qisqa davr ichida bankrotlik instituti bo'yicha o'zimizga xos tajriba maktabini yaratdik desak,

²⁴ Дуйсекул Куканбаева. Регулирование несостоятельности организации. // Рынок, Деньги и Кредит. – 2008. - №1. стр. 57-59

²⁵ Кошкин В.И. и др. Антикризисное управление: 17-модульная программа для менеджеров "Управление развитием организации". Модуль 11. – М.: "ИНФРА-М", 1999. – 560 с.

mubolag'a bo'lmaydi²⁶. 2007 yilda Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JIKA) bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi hamkorligida "Bankrotlik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga sharh tayyorlandi. Bu amaliy hamkorlik Respublikamiz Bankrotlik institutining nazariy- amaliy sohadagi muammolarini hal bo'lishiga va takomillashishiga sabab bo'ldi.

To'lovga qodir bo'lmagan xo'jalik yurituvchi subyektlarning bankrotlik mexanizmini shakllantirish O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlanishining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ushbu mexanizm yordamida samarasiz bo'lgan mulkdorlarni almashtirish, korxonalarni tugatish, ijtimoiy muhim ahamiyat kasb etadigan va daromad keltiradigan korxonalarni saqlab qolish, mulkchilik munosabatlarining barqarorligini ta'minlash hamda ish bilan bandlikni kafolatlash maqsadi nazarda tutilgan.

Bankrotlik instituti asosan ikki xil yo'l bilan iqtisodiyotga ta'sir qiladi va uni sog'lomlashtiradi. Bularga: birinchidan, to'lovga qodir bo'lmagan qarzdorlarni tijorat faoliyatini tugatish; ikkinchidan esa, iqtisodiy nochor ahvolga tushib qolgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga o'z faoliyatini qayta tashkil qilish va to'lov qobiliyatini tiklashga imkoniyat berish. Bundan Respublikamizning bankrotlik instituti ham qarzdorni ham kreditorni manfaatini himoya qilishni ko'zlaganligini ko'rishimiz mumkin.

Shunday qilib, Respublikamizda inqirozga qarshi choralarni amalga oshirishning tub mohiyati bankrotlik instituti va "Bankrotlik to'g'risida"gi qonunning amal qilish mexanizmiga tayanadi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Respublikamizda bankrotlik huquqi umuman amal qilmagan. Sababi, hali davlat mulki to'liq xususiylashmasdan turib, korxonalarning iqtisodiy nochorligi va bankrotlik masalalarigi ehtiyoj yo'q edi. Lekin, bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'nalishi va talabi davlatga qarashli bo'lgan mulkni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish ishlarni

²⁶ Ўзбекистон Республикасининг "Банкротлик тўғрисида"ги қонунига шарҳлар // муаллифлар жамоаси: М.К.Азиев ва бошқ. – Тошкент: 2007 – 640 б. (15-бет)

tezlashtirish edi. Shuning uchun, mustaqillikning birinchi yillaridan mulkni xususiylashtirish jarayonlariga katta e'tibor qaratildi va bosqichma-bosqich xususiylashtirish ishlari amalga oshirildi. Mulk xususiylashib mulkdorlar sinfi hosil bo'lishi bilan sekin-astalik bilan ko'p korxonalar va tashqilotlar muvaffaqiyatli faoliyat yuritdi. Ba'zilar esa ma'lum sabablarga ko'ra bozorda o'z salohiyatini namoyish eta olmadi. Oqibatda, korxonalarda iqtisodiy nochorlik, to'lovga qobiliyatsizlik muammolari va korxonalar o'rtasida debitorlik-kreditorlik munosabatlarida o'z vaqtida to'lovni amalga oshirmaslik holatlari vujudga kela boshladi. Shunda, yangi bankrotlik institutiga ehtiyoj sezildi.

1994 yilga qadar Respublikada birorta ham bankrotlik va iqtisodiy nochorlik bo'yicha ishlar aynan mazkur institutning amal qilmaganligi va qonuniy asoslari yaratilmaganligi sababidan ko'rilmadi. Lekin, korxonalar o'rtasidagi to'lov intizomini buzilishi bo'yicha ziddiyatlarning vujudga kelishi Respublika uchun korxonalarni inqirozdan chiqarish va sog'lomlashtirishda yangi institutsional-huquqiy tizimining zarurligini ko'rsatdi.

Korporatsiyalarni kreditorlardan himoya qiladigan bankrotlik to'g'risidagi birinchi qonun AQShda 1867 yilda qabul qilingan va keyinchalik 1898 yilda himoya kuchaytirilgan²⁷.

Angliyada nochorlik bilan kurashadigan birinchi me'yor akt ko'rinishida 1543 yilda qabul qilingan. U jinoiy-huquqiy xarakterga ega bo'lgan. U 1914 yilgacha har 5-7 yilda o'zgarib borgan. 1914 yilda "Bankrotlik to'g'risida"gi qonun sifatida shakllantirilgan. U 1979 yilda "Iqtisodiy nochorlik to'g'risida"gi qonunga o'zgaritirilgan²⁸.

Bundan tashqari, MDHning boshqa davlatlarida ham bu tizimga e'tibor qaratila boshlagan edi. Masalan, Rossiya Federatsiyasida 1992 yildanoq inqirozga qarshi kurashning huquqiy asosi "Bankrotlik to'g'risida"gi qonun amalgi kiritilgan edi. Bu qonunni O'zbekiston

²⁷Салимова Барно Илёровна Формирование и развитие института банкротства в Узбекистане. 08.00.03 – "Индустриал тармоқлар иқтисодийлиги" иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун. – Т.: - 2008. – Б. 20.

²⁸Уша манба – Б. 24.

Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritishi bilan ishlab chiqishga kirishgan.

9.2. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozigacha bo'lgan davrda Respublika bankrotlik institutining bosqichma-bosqich rivojlanishi

«Bankrot» atamasi qadimgi italyanchada «banca» – kursi, o'rindiq va «rota» – singan, ya'ni singan kursi degan ma'noni anglatadi. Shimoliy Italiyaning savdo shaharlari – Genuya va Venetsiyada barcha bitimlar maxsus binolarda amalga oshirilgan. Har qaysi urug', oila savdo uylarida yog'ochdan yasalgan kursiga ega bo'lib, urug' boshlig'i yoki uning vakili o'sha kursida o'tirib bitimlar tuzgan. Agar urug' boshlig'i o'zining moliyaviy majburiyatlarini bajara olmasa va nochor bo'lib qolsa, uning kursisi odamlar ko'z oldida sindirilgan.

O'zbekistonda bankrotlikka oid qonunchilikning rivojlanish tarixini uch bosqichga ajratish mumkin:

- birinchi bosqich - musulmon huquqi davri;
- ikkinchi bosqich - mustaqillikkacha bo'lgan davr;
- uchinchi bosqich - mustaqillikdan keyingi davr.

Bankrotlikka oid munosabatlar musulmon huquqining asosiy manbai bo'lgan muqaddas Qur'onda, hadislarda va musulmon faqihlarning asarlarida bayon etilgan.

Ikkinchi bosqichga to'xtaladigan bo'lsak, RSFSR Grajdanklik kodeksiga jismoniy shaxs va savdo shirkatlarining bankrotligi to'g'risidagi normalar kiritilganligi bois, sudlar tomonidan Oliy sud Plenumining tushuntirishlari qo'llangan. 1930 yilga kelib davlat mulki monopoliyasi o'rnatilgani sababli bankrotlikka oid normalar sovet huquqi tizimidan olib tashlangan.

Mustaqillikdan keyin bankrotlik instituti O'zbekiston Fuqarolik kodeksida o'z aksini topdi. Xususan, Fuqarolik kodeksining 26- va 57-moddalarida yuridik shaxs va yakka tartibdagi tadbirkorning bankrotligi to'g'risidagi norma belgilab qo'yilgan.

Bankrotlik institutini tartibga soluvchi asosiy normativ huquqiy hujjat O'zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to'g'risida»gi qonunidir. Ushbu qonun uch marta yangi tahrirda qabul qilingan.

Bizning fikrimizcha, Respublikada bugungi kunda shakllangan bankrotlik instituti o'zining ma'lum xususiyatlariga ko'ra bir necha bosqichlarda rivojlanib, takomillashib kelgan. Quyida Respublika bankrotlik institutining yillar bo'yicha rivojlanish bosqichlari keltirib o'tilgan

Birinchi bosqichga 1994 - 1997 yillarni kiritish mumkin. Bu bosqich "Bankrotlik to'g'risida"gi qonunni amalga kiritilishi, Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 28 dekabrda №465-sonli "Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo'mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"gi qaroriga asosan Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash Qo'mitasi huzurida iqtisodiy nochor korxonalar ishlari Qo'mitasining tashkil etilishini o'z ichiga oladi.

1994 yilga qadar Respublikada birorta ham bankrotlik va iqtisodiy nochorlik bo'yicha ishlar aynan institutning amal qilmaganligi va qonuniy asoslari yaratilmaganligi sababidan ko'rilmadi. Lekin, korxonalar o'rtasidagi to'lov intizomini buzilishi bo'yicha ziddiyatlarning vujudga kelishi Respublika uchun korxonalarni inqirozdan chiqarish va sog'lomlashtirishda yangi institutsional-huquqiy tizimining zarurligini ko'rsatdi. Bundan tashqari, MDHning boshqa davlatlarida ham bu tizimga e'tibor qaratila boshlagan edi. Masalan, Rossiya Federatsiyasida 1992 yildanoq inqirozga qarshi kurashning huquqiy asosi "Bankrotlik to'g'risida"gi qonun amalgi kiritilgan edi²⁹.

Respublikamizda inqirozga qarshi boshqarishning davlat mexanizmi 1994 yilning 5 mayida o'zining huquqiy asosi "Bankrotlik to'g'risida"gi qonunni amalga kiritish bilan ega bo'ldi. Dastlab mazkur qonun juda ham soddalashgan ko'rinishda ishlab chiqilgan bo'lib, 35-moddadan iborat edi. Qonun bankrotlik masalalari bo'yicha barcha muammolarni qamrab olmas edi. Shu bilan birgalikda qonun qabul

²⁹Федеральный закон: выпуск 55(238). О несостоятельности (банкротстве). – М.: "ИНФРА-М", 2004. – 186 с.

qilingan birinchi yilda deyarli ishlamadi. O'sha yili xo'jalik sudlariga qarzdorni bankrot deb topish bo'yicha ikkita ish kelib tushgan.

Bankrotlik masalalari yuzasidan davlat nazoratini ta'minlash maqsadida 1996 yil 11 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korxonalarining bankrotligi to'g'risidagi qonunni amalda qo'llash chora-tadbirlari haqida"gi № PF1685-sonli farmoni³⁰ e'lon qilindi va mazkur farmonni amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 28 dekabrda №465-sonli "Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo'mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"gi qarori³¹ga asosan maxsus organ – iqtisodiy nochor korxonalar ishlari bo'yicha Qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat Qo'mitasi huzurida tashkil etildi.

Ikkinchi bosqich, 1998-2002 yilgacha. Bu bosqich bankrotlik bo'yicha ko'rilayotgan ishlarni ko'payib borishi, Bankrotlik bo'yicha jinoyi ishlarni tartibga solishning takomillashuvi, Qishloq xo'jaligi korxonalarini sanatsiya qilishni ishlab chiqilishi, "Bankrotlik to'g'risida"gi qonunga o'zgartirishlar kiritilishi va yangi tahrirdagi qonunni qabul qilinishi, Tashqi boshqaruv taomilining joriy qilinishi xo'jalik sudlarida bankrotlik bo'yicha ishlarni ko'rilishini yagona tizimga solish, Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari Qo'mitasini Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash Qo'mitasi tarkibidan chiqarilishi va Iqtisodiyot Vazirligiga bo'ysundirilishi, iqtisodiy nochor korxonalar bo'yicha axborotlar bazasini Qo'mita miqyosida tashkil etilishi va takomillashtirilishini o'z ichiga oladi.

Yuqorida keltirib o'tilgan ishlarni samarasi sifatida qonuniy tizim nisbatan takomillashdi va 1997 yil xo'jalik sudi tomonidan 137 ta xo'jalik yurituvchi subyekt bankrot deb topildi.

1998 yil 28 avgustga kelib "Bankrotlik to'g'risida"gi qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi hamda yangi tahrirdagi "Bankrotlik to'g'risida"gi (ikkinchi tahrirdagi) qonun qabul qilindi. Eski

³⁰Мазкур Фармон Ўзбекистон Республикаси Президентининг 06.11.2005 й. ПФ-3675-сон Фармонида мувофиқ ўз кучини йўқотган

³¹ -Ўзбекистон Республикаси Хукумати қарорлари тўплами", 1996 й., Н 12, 38-модда.

tahriridan farqli ravishda yangisi ko'plab moddalar bilan boyitildi (eski tahrir 35-modda, yangi tahrir 133-modda), ayrim turdagi qarzdorlarni bankrotlik to'g'risidagi ishlarni ko'rishni to'liq tartibga soldi, yangi taomil – tashqi boshqaruv qo'shildi va bu o'z o'rnida kreditorlarning huquqlarini kengaytirdi. Eng muhimi yangi tahrirdagi qonunda bankrotlik alomatlarini o'zgartirildi: to'lovsizlik alomatidan to'lovga qodir bo'lmagan alomatiga o'tildi.

Qonun yangi tahrirda qabul qilingandan so'ng bankrotlik to'g'risidagi ishlar dinamikasi quyidagi ko'rinishda bo'ldi: 1998 yil 439 ta, 2002 yil esa 1250 ta subyekt bankrot deb topildi³².

1999 yilning 23 iyulida "Korxonalar bankrotligi va sanatsiyasi mexanizmini takomillashtirish to'g'risida" №PF-2342 sonli Prezident farmoni qabul qilindi. Farmon Iqtisodiy nochor korxonalarni tugatish jarayonini tezlashtirish, vaqtincha iqtisodiy qiyinchilikka duch kelgan, biroq moliya-xo'jalik faoliyatini sog'lomlashtirish uchun haqiqiy imkoniyatga ega bo'lgan korxonalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida tuzilgan bo'lib, unga asosan Iqtisodiy nochor korxonalar ishi bo'yicha qo'mita O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi tizimidan chiqarilib, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligiga bo'ysundirilgan.

1999 yilda bankrotlik institutining tashqiliy-huquqiy asosi yanada mustahkamlanish yo'lida davom etib, 26 iyulda "Korxonalar bankrotligi to'g'risidagi qonunchilikni amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar haqida" Vazirlar Mahkamasining 362-sonli qarori qabul qilindi. Qaror o'z ichiga quyidagilarni olgan:

1. O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi xuzuridagi Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo'mitasi to'g'risida Nizom³³;

2. Sudgacha sanatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida Nizom;

3. Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo'mitasi xuzuridagi Korxonalarni sanatsiyalash jamg'armasi to'g'risida Nizom³⁴;

³² Ўзбекистон Республикасининг "Банкротлик тўғрисида"ги қонунга шарҳлар // муаллифлар жамоаси: М.К.Азимова ва бошқ. – Тошкент: 2007 – 640 б. 15-18 бетлар

³³ Мазкур Низом ЎЗР ВМ 18.02.2004 й. 77-сон Қарорига мувофиқ ўз кучини йўқотган

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarorlariga kiritiladigan o'zgartirishlar ro'yxati.

Qarorning qabul qilinishi bankrotlikka oid ishlarning tezlashuvi, huquqiy tushunmovchiliklarning kamayishi hamda bankrotlikka oid jinoiy ishlarning tartibga solinishiga olib keldi.

Uchinchi bosqich, 2003-2008 yillgacha. Bu bosqich modernizatsiyalash uchun qilinadigan xarajatlar hisobidan qo'shimcha soliqlar bo'yicha imtiyozlar yaratib berish, "Bankrotlik to'g'risida"gi qonunga qo'shimchalarni kiritilish va yangi tahririning qabul qilinishi, kuzatuv va sud sanatsiyasi taomillarining joriy etilishi, barcha bankrotlik taomillariga sud boshqaruvchilarini mas'ul etib qo'yilishi, Iqtisodiyot Vazirligi huzuridagi Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari Qo'mitasining vazifalari, va boshqa faoliyatlarini tashkil etish choralarini ishlab chiqilishi korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy monitoringi va tahlilini o'tkazish mezonlarini aniqlash tartibini takomillashtirilishi, O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash Qo'mitasini tashkil etilishi va Iqtisodiyot Vazirligi huzuridagi Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari Qo'mitasini uning tarkibiga kiritilishi, sud boshqaruvchilari faoliyatini va ularni attestatsiyadan o'tkazish qonun-qoidalarini yanada takomillashtirilishi, tadbirkorlik subyektlari-yuridik shaxslarni ixtiyoriy tugatish va tadbirkorlik subyektlari-jismoniy shaxslar faoliyatini to'xtatish tartibini belgilanishidan iborat.

Bankrotlikka oid ishlarning ko'payishi, Respublikamizda bankrotlikni boshqarishda huquqiy va amaliy jihatdan tajribani oshirdi va shu bilan birgalikda bankrotlik ishlarini tashqiliy-iqtisodiy tomonlarini va huquqiy tartibga solishdagi kamchiliklar hamda qonunda ham bo'shliqlar mavjudligini ko'rsatdi. Yuqoridagi masalalar bo'yicha kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida ikkinchi tahrirdagi "Bankrotlik to'g'risida"gi qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish ehtiyojini keltirib chiqardi.

2003 yil 24 aprelda O'zbekiston Respublikasi "Bankrotlik to'g'risida"gi qonunga navbatdagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, yangi (uchinchi) tahrirda e'lon qilindi. Endilikdagi qonun 192-moddadan iborat bo'lib, bankrotlik belgilari va taomillariga tegishli bo'lgan, to'lovga qodir bo'lmagan qarzdorlarning to'lov qobiliyatini tiklashni maqsad qilib qo'ygan ko'plab yangi qoidalarini o'zida mujassamlashtirdi. Qonunga ikkita yangi ma'ruza kiritildi va ular yangi bankrotlik taomillarini o'zida ifoda etdi: kuzatuv va sud sanatsiyasi. Unga ko'ra barcha bankrotlik taomillar sud boshqaruvchilari tomonidan amalga oshiriladi. Sud boshqaruvchilari xo'jalik sudi tomonidan tayinlanadi va nazorat qilinadi. Mazkur qonun keyingi yillarda yanada takomillashtirib kelinmoqda.

Bankrotlik to'g'risidagi milliy qonunchilik mulkiy munosabatlarda ishonchsiz ishtirokchilarni chiqarib tashlash g'oyasini ilgari suradi. Shu bilan bir qatorda shunisi ham aniqki, har bir xo'jalik yurituvchi subyekt o'z tadbirkorlik faoliyatini tavakkalchilik asosida olib boradi va mana shu tavakkalchilikning maksimal darajasi sifatida bankrotlikka uchrash ehtimoli tan olinishi kerak. Bu xo'jalik yurituvchi subyektlarning bankrotligidan jamiyat manfaatdor degani emas. Aynan mana shuning uchun ham, qonunchilik o'zini qayta tiklash imkoniyatini beruvchi taomillarni nazarda tutadi.

Bu qonunning barcha tahrirlarida mavjud. Misol, 1994 yil birinchi tahrirdagi qonun sanatsiya ko'rinishidagi taomilni nazarda tutib, uning maqsadi qarzdor yuridik shaxsni xo'jalik subyekti sifatida saqlab qolishdan iborat edi. 1998 yilgi ikkinchi tahrirdagi qonunda xo'jalik yurituvchi subyektlarni bankrotlikdan saqlab qolishning qo'shimcha taomili tashqi boshqaruv joriy qilindi. Hozirda amalda bo'lgan yangi tahrirdagi qonunda xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy tiklanishini maqsad qilib qo'ygan yangi taomil – sud sanatsiyasi qo'shildi. Bundan tashqari, barcha tahrirlarda qarzdorning tadbirkorlik faoliyatini davom ettirishini kafolatlaydigan taomil – qarzdor va kreditor o'rtasida kelishuv bitimining tuzilishi tartibi hamda asoslari mustahkamlangan.

2003 yilgi qonunning yangiliklaridan yana biri sud boshqaruvchilariga muhim maqom belgilangan, chunki ular kreditor yoki qarzdor manfaatidan kelib chiqib, bankrotlik taomiliga noxolis ta'sir o'tkazishi ta'qiqlandi. Qonunda ushbu masalaga bag'ishlangan "Sud boshqaruvchisi qarzdor yoki kreditorlarga nisbatan manfaatdor shaxslar bo'lishi ta'qiqlanadi"³⁵ degan norma belgilangan bo'lib, bu oxir oqibatda qonunni hayotda amalga oshirishga xizmat qiladi.

2004 yilda bankrotlik institutini takomillashtirish maslalarining tashqiliy-huquqiy jihatlariga ko'proq e'tibor berildi. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 18 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot Vazirligi huzuridagi Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari Qo'mitasining Nizomi va tuzilmasini tasdiqlash to'g'risida"gi 77-sonli qarori³⁶ga asosan Qo'mitaning vazifalari, nizomi, tashqiliy tuzilmasi, markaziy apparati tuzilmasi va hududiy boshqarmasining namunaviy tuzilmalari qarorga ilova shaklida ishlab chiqildi. Bankrotlik institutining 77-sonli qarorda belgilab berilgan tuzilmaviy tizimi 2005 yilgacha amal qildi. Shu bilan birgalikda, "Bankrotlik to'g'risida"gi (yangi tahriri) qonunni endigina amalga kiritilgan 2004 yilda uni amaliyotda qo'llash bilan bog'liq xo'jalik sudida tushunmovchiliklar kelib chiqishini oldini olish maqsadida, 2004 yil 20 fevralda O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudining Plenumida "O'zbekiston Respublikasining "Bankrotlik to'g'risida"gi qonunini (2003 yil tahririda) amalga kiritish bilan bog'liq ayrim masalalar to'g'risida"gi 112-sonli qarori³⁷ qabul qilindi. Unda, bankrotlik institutini O'zbekiston bo'yicha bir xil tartibda qo'llashning uslubiy yo'l-yo'riqlari ishlab chiqildi.

2005 yilga kelib, korxonalar uchun tahlil o'tkazish sifatida hukumat tomonidan belgilangan mezonlarni³⁸ yangilashga ehtiyoj

³⁵ Ўзбекистон Республикасининг "Банкротлик тўғрисида"ги Қонуни, 2003 йил 24 апрел, 18-молда.

³⁶ Мазкур Қарор ЎзР ВМ 12.08.2005 й. 196-сон Қарорига мувофиқ ўз кучини йўқотган

³⁷ Мазкур Қарор Ўзбекистон Республикаси Олий ҳужалик суди Пленумининг 27.01.2006 й. 142-сон Қарорига мувофиқ ўз кучини йўқотган

³⁸ "Корхонанинг иқтисодий ночорлиги белгиларини аниқловчи меzonлар тизими" Ўзбекистон Республикаси Макроиктисодиёт ва статистика Вазирлиги ҳузуридаги Иқтисодий ночор корхоналар ишлари Қўмитаси томонидан 1999 йил 27 июлда 12-сон билан тасдиқланган, Молия Вазирлиги билан 1999 йил 18 августда Н

sezildi. Shundan so'ng, iqtisodiyot Vazirligi huzuridagi Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari Qo'mitasining 2005 yil 16 martda "Korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy monitoringi va tahlilini o'tkazish mezonlarini aniqlash tartibi to'g'risida Nizomni tasdiqlash haqida"gi №GS-05/0271/1-sonli qarori³⁹ qabul qilindi. Korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy monitoringi va tahlilini o'tkazish mezonlarini aniqlash tartibi to'g'risidagi Nizom mazkur qarorga ilova tariqasida kelitirib o'tilgan. Nizom eski mezonlar tizimidan tubdan farq qilgan va o'zida 7 ta asosiy moliyaviy koeffitsientlarni aks ettiradi.

2005 yil 30 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat Qo'mitasini tashkil etish to'g'risida" PF-3602 sonli farmoni⁴⁰ qabul qilindi. Farmonga asosan O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo'mitasi hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasining kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish boshqarmasi negizida O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi tashkil etildi. Shuningdek, Qo'mitaning vazifalaridan biri sifatida iqtisodiy nochor korxonalar to'g'risidagi masalalarni hal etish chog'ida davlat manfaatlarini ifoda etish, korxonalarni tarkibiy jihatdan o'zgartirish va ularning bankrotligi sohasida davlat boshqaruvi vazifalarini amalga oshirish deb belgilandi.

Prezidentning yuqoridagi farmoniga muvofiq hamda iqtisodiyotni Monopoliyadan chiqarish, raqobat muhitini rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish borasidagi ishlarni yanada avj oldirish maqsadida 2005 yilning 5 mayida

ЭГ/17-05/1725-сон билан келишилган, Адлия Вазирлигида 1999 йил 28 августда 803-сон билан рўйхатдан ўтган.

³⁹ Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги томонидан 2005 йил 14 апрелда 1469-сон билан рўйхатта олинган.

⁴⁰ Мазкур Фармон Ўзбекистон Республикаси Президентининг 26.02.2010 й. Фармонига мувофиқ ўз кучини йўқотган

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat Qo'mitasi faoliyatini tashkil qilish to'g'risida"gi № PQ-66 sonli qarori⁴¹ qabul qilindi. Mazkur qaror Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash Qo'mitasining ish yuritish tartibi, tashqiliy tuzilmasi, markaziy apparati hamda hodimlar soni haqidagi umumiy faoliyati yoritib berildi.

Shuningdek, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi natijasida 2008 yilda korxonalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy nochor va zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarni tarkibiy o'zgartirish, moliyaviy sog'lomlashtirish sohasida yangi yo'nalishlar ishlab chiqildi. Bir so'z bilan aytganda, bankrotlik institutini rivojlanishining beshinchi bosqichi sifat bosqichi bo'lib, Respublikadagi islohotlarning amaliy natijalarini namoyon qildi.

To'rtinchi bosqich 2009 yildan hozirgi davrlargacha. Bu bosqich bankrotlik bo'yicha ishlarni ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi takomillashtirishi monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash Qo'mitasining kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari bilan shug'ullanuvchi bo'limi Savdo-sanoat palatasi va tadbirkorlik subyektlarining Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari uyushmasi sifatida ajratib yuborilishi. Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish Qo'mitasi tarkibidagi iqtisodiy nochor korxonalar ishlari bo'limi strukturasining o'zgartirilishini o'z ichiga oladi.

Bankrotlikning tashqiliy-huquqiy shaklini takomillashtirishda 2010 yilda islohotlar amalga oshirildi. Monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish, raqobat muhitini izchil rivojlantirish, tabiiy monopoliya korxonalari faoliyatini nazorat qilishni kuchaytirish va xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan narxlarning asossiz oshirilishiga yo'l qo'ymaslik, iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish ishlarini faollashtirish maqsadida 2010 yil

⁴¹ Mazkur Qaror Ўзбекистон Республикаси Президентининг 02.03.2010 й. ПҚ-1293-сон Қарорига мувофиқ ўз кучини йўқотган

26 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga solish va raqobatni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-adbirlari to'g'risida" PF-4191-sonli farmoni⁴² qabul qilindi. Sobiq Qo'mitaning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari bilan shug'ullanuvchi bo'limi Savdo-sanoat palatasi va tadbirkorlik subyektlarining Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari uyushmasi sifatida ajratib yuborildi. Farmonga asosan Qo'mita Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish Qo'mitasi sifatida qayta ro'yxatdan o'tkazildi.

Yuqoridagi farmonga muvofiq va iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish, raqobat muhitini rivojlantirish va iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish borasidagi ishlarni faollashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 2 martda "O'zbekiston Respublikasi monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat Qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-1293-sonli qarori qabul qilindi. Qarorda yangi tashkil etilgan Qo'mitaning vazifalarini belgilab berish bilan birga tashqiliy tuzilmasi ham qaytadan ishlab chiqildi.

Respublikamizda olib borilayotgan barcha yo'nalishdagi islohotlar bugungi kunga kelib o'zining asl natijalarini sekin-astalik bilan berib kelmoqda. Bu holatni har bir sohadagi o'zgarishlar, yangilanishlar va ularni yo'naltiruvchi huquqiy asoslarning bosqichma-bosqich takomillashib borayotganligidan ko'rish mumkin. Huddi shuningdek, Respublikamizning bankrotlik instituti hamda inqirozga qarshi choralari ham o'zining bosichma-bosqichlik ko'rinishiga ega bo'lib, uning takomillashishi natijasida yildan-yilga bankrotlikning tashqiliy-huquqiy asoslari rivojlanishi bilan birgalikda iqtisodiy nochor va zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshlik darajasi o'sib bormoqda.

⁴² "Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами", 2010 йил, 9-сон, 66-модда.

Tayanch soʻz va iboralar:

Bankrotlik instituti, inqirozga qarshi choralar, restrukturizatsiya, likvidatsiya, sanatsiya.

Oʻz-oʻzini tekshirish uchun savollar

1. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi kuzatilgan davrda davlatlarning inqirozga qarshi siyosatini ayting?
2. Mamlakatimizda bankrotlik institutining shakllanish sabablari mavjud?
3. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozigacha boʻlgan davrda Respublika bankrotlik institutining bosqichma-bosqich rivojlantirish yullarini ayting?

X BOB. KORXONANING BANKROTLIGI VA MOLIVAVIY SOG'LOMLASHTIRISH TAOMILLARINING HUQUQIY TARKIBI

10.1. Bankrotlik taomillarining turlari va tarkibi

Avvalambor bankrotlik va uning taomillari haqida so'z yuritishdan oldin bankrotlik va u bilan bog'liq bo'lgan bir qancha atamalar o'rtasidagi ziddiyatni ko'rib chiqish muhim. Iqtisodiy fanlarda iqtisodiy nochorlik, moliyaviy nobarqarorlik, to'lovga noqodirlik, bankrotlik kabi so'zlar bir xil mazmun beruvchi atamalar kabi ishlatilib kelinadi. **Lekin aslida ham shundaymi?**

2003 yil 24 aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi "Bankrotlik to'g'risida"gi qonunini huquqiy xujjat sifatida keltirish mumkin. Qonunning 3-moddasida bankrotlik tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan:

Bankrotlik(iqtisodiy nochorlik) – xo'jalik subyektlari tomonidan e'tirof etilgan, qarzdorning pul munosabatlari bo'yicha kreditorlar talablarini to'la hajmda qondirishga majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini to'la hajmda bajarishga qodir emasligidir.

Butun dunyoda bankrotlik bo'yicha ta'rif va tushuntirishlar, har qaysi davlatning mavjud huquqiy me'yor va amliy xujjatlarida ham bankrotlik turli usullar yordamida ta'riflanagan bo'lsada butun jahon olimlari tomonidan uni e'tirof etiladigan bitta mohiyati mavjud, u ham bo'lsa: **bankrotlik – bu korxona o'z aktivlari yuzasidan majburiyatlarini kompensatsiya qila olmasligi natijasida uning to'lov qobiliyatini pasayib ketishidir. Boshqa ta'riflarning barchasi mazkur tushunchaga asoslanadi.**

Bundan tashqari bankrotlik alomatlari deb nomlanadigan qonunning 4-moddasida ham bankrotlik alomatlari bo'lishi uchn korxonani boshqa korxonalar bilan kreditorlik aloqadari qay tarzda bo'lishi qonunan ifodalab berilgan. Unga ko'ra:

Bankrotlik alomatlari - Qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini qondirishga va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha

o'z majburiyatini bajarishga qodir emasligi, agar tegishli majburiyatlar va (yoki) to'lovlar majburiyati yuzaga kelgan kundan e'tiboran uch oy davomida qarzdor tomonidan bajarilmagan bo'lsa, uning bankrotlik alomatlari deb e'tirof etiladi.

"Bankrotlik to'g'risida"gi qonuning sharhidan ko'rinib turibdiki, bankrotlik va bankrotlik alomatlari korxona to'lovga qodirlik darajasi bilangina emas, o'z qarzdorligining muddati bilan aniqlanmoqda. Iqtisodiy nochorlik va moliyaviy nobarqarorlik tushunchalari esa bankrotlikdan tushunchasidan farqli ravishda korxona faoliyati tahlil(monitring) qilinayotganda qo'llaniladi. Unda hisob-kitob qilinayotgan har bir ko'rsatkich bo'yicha aynan shu ko'rsatkich bo'yicha iqtisodiy nochorlik aniqlanadi. Masalan to'lovga qodirlik darajasi normal bo'lishi uchun 1.25 dan katta bo'lishi kerak bo'lsa, lekin natija 1.1 koeffitsientni tashkil qilsa, demak korxona aynan shu ko'rsatkich bo'yicha iqtisodiy **nochor deb yuritiladi** va bu holat ham korxonaning ito'liq iqtisodiy nochor deyilishiga sabab bo'lmaydi. Bunday xulosaga kelish uchun korxona boshqa barcha ko'rsatkichlar bo'yicha normal shartdan past natijani ko'rsatishi kerak. Agar ma'lum ko'rsatkichlar pastroq qolganlari normal shartdan balandroq natijani bersa, u holda korxonani tarmoq xususiyati, shartlari va o'ganilayotgan holatning premeti va obyektiga qarab, bundan tashqari koeffitsientni ko'rsatkichlar tizimida tutgan o'rniga qarab nochor yoki barqaror degan xulosa berish mumkin.

Iqtisodiy inqiroz tushunchasi esa yuqoridagi barcha tushunchalardan farq qilib faqatgina korxonagan iqtisodiy jihatdan tahdid mavjudligini ko'rsatib berish bilan kifoyalanadi. Chunki, iqtisodiy inqiroz degani bankrot degani emas, faqatgina shuni ehtimolini mavjudligidan dalolat beradi xolos. Iqtisodiy nochorlik ko'rsatkichlarni normal shartni qanoatlantirishga qarab topilsa, aynan ishu tahlilni xulosasi iqtisodiy inqiroz tahdidi mavjudiligini ko'rsatib beradi.

Yuqoridagi tushunchalarni izohidan shuni aniqlash mumkinki, bankrotlik "Bankrotlik to'g'risida"gi qonuninng 4-moddasi asosida aniqlansa, iqtisodiy nochorlik biznes diagnostikasi yordamida aniqlanadi va har qanday nochor korxona ham bankrot bo'lavermaydi. Iqtisodiy

inqiroz esa tahdid hisoblanib diagnostikaning xulosasi asosida belgilanadi.


Xo'jalik yurituvchi subyektlar bankrotlik holatidan chiqish va to'lov qobiliyatini tiklash uchun juda ko'p chora-tadbirlardan foydalanadilar. Yuqorida inqirozdan chiqishni davlat tomonidan amalga oshirilish mumkin bo'lgan chora-tadbirlarini huquqiy xujjatlari bilan tanishib chiqildi, unda faqatgina xujjatlar strukturasi ko'rildi, endi inqirozga qarshi boshqaruvni davlat tomonidan amalga oshirilishini, ya'ni "Bankrotlik to'g'risida"gi qonun asosidagi taomillarda ko'rib chiqiladi. Unga asosan bankrotlik taomillari kuzatuv taomilidan to tugatishga doir ish yuritish taomiligacha korxonani holatidan kelib chiqib qo'llanilaveradi. Uni quyidagi rasmda aks ettirish mumkin(10.1-rasm).

10.1-rasmdan ko'rinib turibdiki, bankrotlik taomillarini umumiy turkumlaydigan bo'lsak, sanatsiyalash ikkiga bo'linganini ko'rish mumkin:

➤ Sud sanatsiyasi;

➤ Sudgacha sanatsiya.

Qonunning 3-moddasida keltirilishicha: **sudgacha sanatsiya qilish** – bu qarzdor yuridik shaxsning muassislari yoki uning mol-mulki egalari, kreditorlar va boshqa shaxslar tomonidan qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash, hamda bankrotligining oldini olish maqsadida ko'riladigan chora-tadbirlar majmuasidir.



10.1-rasm. Bankrotlik taomillarini qonun doirasida amal qilishi

Sud sanatsiyasi - xo'jalik subyektlari tomonidan qarzdor yuridik shaxsaga nisbatan to'lov qobiliyatini tiklash hamda kreditorlar oldidagi qrazini uzish maqsadida qarzdorning ishlarini boshqarish vakolatini sanatsiya qiluvchi boshqaruvchiga o'tkazmagan holda qo'llaniladigan bankrotlik taomili.

Bankrotlikka qarshi tashqi boshqaruv taomili ham ko'p natija beradigan taomillardan biridir.

Tashqi boshqaruv - xo'jalik subyektlari tomonidan yuridik shaxslarga nisbatan uning to'lov qobiliyatini tiklash maqsadida qarzdorning ishlarini boshqarish vakolatlarini tashqi boshqaruvchiga o'tkazgan holda qo'llaniladigan bankrotlik taomili;

Tugatishga doir ish yuritish - xo'jalik sudi tomonidan kreditorlarning talablarini mutanosib ravishda qondirish hamda qarzdorni qarzlardan qutulgan deb e'lon qilish maqsadida bankrot deb topilgan qarzdorga nisbatan qo'llaniladigan bankrotlik taomili;

Kelishuv bitimi - taraflarning sud nizosini o'zaro yon berish asosida tugatish to'g'risidagi bitimi;

Kuzatuv - xo'jalik sudi tomonidan qarzdor yuridik shaxsaga nisbatan uning mol-mulki but saqlanishini ta'minlash, qarzdorning moliyaviy ahvoli tahlilini o'tkazish maqsadida qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza qabul qilingan paytdan e'tiboran keyingi taomilga qadar qo'llaniladigan bankrotlik taomili⁴³.

Taomillar qonuniy tartibda quyidagi bosqichlarda qo'llaniladi. Bankrotlik to'g'risidagi ish xo'jalik sudi tomonidan ko'rib chiqiladi. Bankrotlik to'g'risidagi ish bankrotlik alomatlari mavjud bo'lgan taqdirda, agar qarzdor yuridik shaxsaga nisbatan jami talablar eng kam ish haqi miqdorining kamida besh yuz karrasini tashkil etadigan bo'lsa, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorga nisbatan esa eng kam ish haqi miqdorining kamida o'ttiz karrasini tashkil etadigan bo'lsa, xo'jalik sudi tomonidan qo'zg'atilishi mumkin, pul majburiyatlarini bajarmaganligi natijasida qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza bilan xo'jalik sudiga murojaat etish huquqiga qarzdor, kreditor va prokuror ega. Qarzdor, agar uning ushbu qonunning 4-moddasida belgilangan

⁴³ Ўзбекистон Республикасининг "Банкротлик тўғрисида" (янги тахрирда) ги қонуни. – Т.: "Ўқитувчи". – 2003

muddatda pul majburiyatlarini qondirishga va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini bajarishga qodir emasligidan dalolat beruvchi holatlar mavjud bo'lsa, o'zini bankrot deb topish to'g'risidagi ariza bilan xo'jalik sudiga murojaat etishga haqli.

Kuzatuv - sud tomonidan bankrotlik to'g'risidagi ish qo'zg'atilgan kundan boshlab qo'llaniladigan birinchi sud taomilidir. Kuzatuv mulkni saqlanishini ta'minlash, qarzdorning moliyaviy ahvolini tahlil qilish maqsadida qo'llanilib, shu bilan birga qarzdorning mulkiy ahvoli yomonlashuvini oldini olish taomili hisoblanadi. Qarzdorning katta hajmdagi mulki va kreditorlarning mavjudligi kuzatuv joriy etilishiga ehtiyoj tug'diradi. Kuzatuv mobaynida muvaqqat boshqaruvchi kreditorlarning talablari reestrini yuritadi (qonunning 67-moddasi birinchi qismi), qarzdorning moliyaviy ahvolini tahlil etadi, qarzdorning majburiyatlari bo'yicha masalalarni hal qiladi, qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash mumkinligi yoki mumkin emasligini o'rganadi (qonunning 69-moddasi birinchi qismi). Aynan u kreditorlarning birinchi yig'ilishiga qarzdorning moliyaviy ahvoli haqida xabar berishi va korxonaning keyingi taqdirini tanlash uchun hujjatlarni taqdim etishi shart (qonunning 67-moddasi uchinchi qismi). Kuzatuv birinchi sud majlisi o'tkazilgunga va bankrot korxonaning keyingi taqdiri hal qilingunga qadar amalda bo'ladi. Keyingi taomilni tanlash kreditorlar yig'ilishi fikriga bog'liq bo'ladi. Ushbu sud taomilidan so'ng quyidagi taomillar joriy qilinishi mumkin: sud sanatsiyasi, tashqi boshqaruv, tugatishga doir ish yuritish yoki kelishuv bitimi. Umumiy qoida bo'yicha kuzatuv uch oydan ortiq bo'lmagan muddat cho'zilishi mumkin (qonunning 49-moddasi), lekin alohida hollarda ikki oydan oshmagan muddatgacha uzaytirilishi mumkin. Biroq, ishni o'z vaqtida hal qilish maqsadida muvaqqat boshqaruvchi tomonidan barcha tartib-qoidalarga amal qilgan holda kuzatuv qisqa muddatlarda olib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Kuzatuv taomili shaxsning soddalashtirilgan bankrotlik taomillarida qo'llanilmaydi (qonunning 186-moddasi ikkinchi qismi, 189-moddasi ikkinchi qismi), chunki kuzatish taomilini o'tkazish uchun qonunda belgilangan tadbirlarni amalga oshirish zaruriyati mavjud bo'lmaydi va tugatishga doir ish yuritishdan o'zga

taomilni tanlash imkoniyati bo'lmaydi. Kuzatuv shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorning bankrotligi to'g'risidagi ish ko'rilayotganda ham qo'llanilmaydi.

Sud sanatsiyasi - tiklash tusidagi taomil hisoblanib, qarzdor, qarzdor muassislari (ishtirokchilari) yoki qarzdor mol-mulkinging egasi, shuningdek uchinchi shaxslarning qarzdor korxonani to'lovga qobiliyatligini tiklash va qarzdor faoliyatini boshqarishni qarzdor rahbarining o'zida g'oldirish yo'li bilan kreditorlar talablarini qanoatlantirish maqsadida murojaat qilish natijasida kreditorlar yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qaror asosida xo'jalik sudi tomonidan joriy etiladi. Ushbu taomil qarzdorning to'lovga qobiliyatlik holatini tegishli choralar qo'llash yordamida tiklashning iloji bo'lsa hamda bankrotlikning sababi qarzdor rahbarining boshqaruvchanlik qobiliyati bilan bog'liq bo'lmagan bo'lsa, o'z maqsadiga etishishi mumkin. Boshqaruvchining boshqaruv chanlik qobiliyatiga nisbatan gumon mavjud bo'lgan taqdirda Ushbu chorani qo'llash maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Sud sanatsiyasi joriy etilgan vaqtdan e'tiboran muassislar (ishtirokchilar), qarzdor molmulkinging egasi o'zlarining qonuniy manfaatlarini himoya qilish, xo'jalik yuritishga oid bo'lmagan faoliyat bilan shug'ullanishga yoki mulkning boshqa shaxsga o'tkazilishiga yo'l g'o'ymaslik maqsadida qarzdor faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishlari kerak. Sud sanatsiyasi xo'jalik sudi kuzatuvi va sanatsiya g'iluvchi boshqaruvchi harakatlari ustidan nazorat ostida amalga oshiriladi. Xo'jalik sudi qarzlarni to'lash bo'yicha jadvalni tasdiqlaydi va unga o'zgartirishlar kiritadi, sanatsiya taomilida yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni (shikoyatlarni), sanatsiya g'iluvchi boshqaruvchi hisobotini ko'rib chig'adi. Sud sanatsiyasi yigirma to'rt oygacha bo'lgan muddatda qo'llaniladi. Sud sanatsiyasini joriy etish haqida qarzdor bo'lmagan boshqa shaxslar murojaat g'ilsa uni joriy etishning sharti sifatida ushbu shaxslar hisobiga qarzdor majburiyatlari bajarilishini ta'minlash va qarzlarni to'lash bo'yicha reja va jadval tasdiqlash hisoblanadi. Majburiyatlarni bajarish bo'yicha asosiy majburiyat qarzdorga yuklatiladi, ta'minot bergan boshqa shaxslarning majburiyatlari sud tomonidan sudgacha sanatsiya qilishni to'xtatish yoki

tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilingandan so'ng vujudga keladi (qonunning 88-moddasi birinchi qismi).

Kelishuv bitim - miqdor, ijro etish tartibi va boshqalar bo'yicha o'zaro murosalar asosida kreditorlarning talablarini qanoatlantirish bo'yicha kreditorlar va qarzdorlar o'rtasida kelishuvga erishilganda xo'jalik sudi tomonidan qo'llaniladigan taomildir. Kelishuv bitimi bankrotlik to'g'risidagi ishlarning har qanday bosqichida kreditorlar yig'ilishining barcha kreditorlar umumiy ovozining ko'pchilik ovoz berishi orqali qabul qilingan qarori asosida tuzilishi mumkin. Xo'jalik sudi kelishuv bitimini qonunning VIII bobida belgilab qo'yilgan shartlarning taraflar tomonidan bajarilishi, garov bilan ta'minlangan majburiyatlar bo'yicha barcha kreditorlarning roziligi, qonunning 134-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan barcha talablarning qondirilishi hamda ish haqi bo'yicha barcha qarzdorlikni to'lanishidan so'ng tasdig'lashi mumkin.

Kelishuv bitimining aksariyat kreditorlar va garovga oluvchilar rozi bo'ladigan shartlarini ko'rib chiqish va qabul qilish juda muhim, chunki bu kelishuv natijasida bankrotlik to'g'risidagi ish tugatiladi hamda keyinchalik shu orqali ancha murakkab bo'lgan bankrotlik taomilining oldini olish mumkin. Agar qarzdorning kreditorlari soni ko'p bo'lsa, u holda kelishuv bitimini tuzishda yirik kreditorlarning fikri muhim ahamiyatga ega bo'ladi. O'atto kelishuv bitimi qabul qilingandan so'ng ham, uni haqig'iy emas deb topish uchun asoslar bo'lganda, ya'ni kelishuv bitimi ayrim kreditorlar uchun afzallik berilishini yoki ayrim kreditorlarning hug'ug'lari va qonuniy manfaatlari kamsitilishini nazarda tutuvchi shartlarga ega bo'lsa, u tegishli ariza asosida haqig'iy emas deb topilishi mumkin (qonunning 153-moddasi), bunday holda ish qayta tiklanishi mumkin.

Kelishuv bitimini - tiklash ko'rinishidagi taomil deb ham hisoblanadi, chunki ish yuritish tugatiladi, qarzdor tashqilot esa o'z faoliyatini davom ettirishi va tiklanishi mumkin. Lekin, sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruv taomillaridan farqli ravishda kelishuv bitimini tuzish uchun qandaydir reja yoki jadval tuzish talab etilmaydi. Shuningdek, kelishuv bitimining qabul qilinishi va ishning tugatilishi

bilan sud boshqaruvchisining vakolatlari ham tugatiladi va kelishuv bitimi talablarining bajarilishi sud tomonidan nazorat qilinmaydi. Shuning uchun qarzdor tomonidan kelishuvning biror-bir sharti bajarilmasligi xavfi mavjud bo'lganda, kreditorlar qarzdorni o'ziga olgan majburiyatlarni bajarish yuzasidan faoliyati ustidan nazoratni o'z qo'llariga olishlari lozim. Ammo shu o'rinda kreditorlar shuni anglashlari kerakki, kelishuv bitimining shartlari bajarilmasa, ular o'z talablarini qoniqtira olmaydilar, shuning uchun uni tuzishga rozilik berishning foydasi yo'q.

Tashqi boshqaruv - kreditorlar yig'ilishining qaroriga yoki bankrotlik to'g'risidagi ish bo'yicha davlat organining arizasiga binoan xo'jalik sudi tomonidan kiritiladigan tiklash tusidagi taomil. Tashqi boshqaruv yigirma to'rt oygacha muddatga joriy etiladi (91-modda uchinchi qism). Tashqi boshqaruvning maqsadi ham qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash, kreditorlar talablarini qanoatlantirishdir. Bunda yuridik shaxsni boshqarish va uning mulkini tasarruf etish bo'yicha qarzdor rahbari vakolatlarini majburiy ravishda tashqi boshqaruvchiga beriladi. Tashqi boshqaruv maqsadlariga tashqi boshqaruvchi tomonidan o'tkaziladigan g'ator tiklashga g'aratilgan tadbirlar natijasida erishilishi mumkin. Rahbarni chetlatishga va qarzdor faoliyatini boshqarish bo'yicha vakolatlarni sud boshqaruvchisiga berish uchun zarurat bo'lgan taqdirda, masalan, qarzdor rahbari tomonidan qarzdor mol-mulkini maqsadga nomuvofiq boshqarilishi og'ibatida qarzdor korxonaning moliyaviy ahvoli nochor bo'lib g'olganda, tashqi boshqaruvni joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ikkinchi tomondan, qarzdorning rahbari ega bo'lgan ishlarni boshqarish bo'yicha «nou-xau»ni korxona uchun joriy qilish zarur bo'lganda tashqi boshqaruvni joriy etish maqsadga muvofiq emas. Chunki, tashqi boshqaruv jarayonida mavjud insoniy munosabatlar va ularning izchilligi bilan bog'liq afzalliklardan foydalanish birmuncha qiyinchiliklar tug'diradi. Tashqi boshqaruv joriy etilgandan keyin joriy to'lovlar bo'yicha va mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chig'uvchi va boshqa talablardan tashg'ari (93-moddaning birinchi, beshinchi va oltinchi qismlari) kreditorlarning talablarini qanoatlantirishga moratoriy o'rnatiladi, shu sababdan bunday

talablari ko'p miqdorda bo'lganda tashqi boshqaruvni amalga oshirishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Talablarni qanoatlantirishning ikkita asosiy usuli mavjud:

Tashqi boshqaruv rejasining bajarilishi natijasida to'lov qobiliyati tiklangan sari muayyan navbatdagi kreditorlar bilan hisobkitoblarni boshlash to'g'risidagi xo'jalik sudining ajrimi asosida kreditorlar talabini qanoatlantirish (qonunning 120-moddasi);

Sudning tashqi boshqaruvni tugatish va kreditorlar bilan hisobkitoblarga o'tish to'g'risidagi ajrimiga asosan, barcha kreditorlar bilan hisob-kitoblar olib borishi (qonunning 119-moddasi).

Qaysi usul samaradorligini aniqlash uchun barcha holatlarni ko'rib chiqish kerak. Bu o'z navbatida tashqi boshqaruv rejasiga ham bog'liq. Tashqi boshqaruv sud sanatsiya singari xo'jalik sudi kuzatuv ostida hamda tashqi boshqaruvchining harakatini nazorat qilish orqali ham amalga oshiriladi.

Tugatishga doir ish yuritish - sudning qarzdorni bankrot deb topish to'g'risida qarori e'lon qilingan va tugatishga doir ish yuritish boshlangan paytdan boshlanadigan taomildir (qonunning 124-moddasi birinchi qism). Bunday holda qarzdor mol-mulkini boshqarish va tasarruf etish huquqidan mahrum bo'ladi (qonunning 125-moddasi uchinchi qism). Ushbu taomilni tugatish boshqaruvchisi olib boradi, tugatishga doir ish yuritishning umumiy muddati bir yil qilib belgilangan (qonunning 124-moddasi ikkinchi qism).

Mazkur taomilning maqsadi qarzdorning mol-mulkini realizatsiya qilish hamda tashqilotni tugatish yo'li bilan kreditorlar talablarini mutanosib ravishda qanoatlantirishdan iboratdir. Qarzdor tomonidan mol-mulkni yashirish yoki o'zga shaxsga taqdim etish yo'li bilan keltirilishi mumkin bo'lgan to'sig'larni oldini olish mag'sadida tugatuvchi boshqaruvchi barcha buxgalteriya hujjatlarini, muhrlarni, shtamlarni qarzdorning oldingi boshqaruvchisi g'o'ldan o'z yurituviga oladi, kreditor talablari reestrini yuritadi (qonunning 128-moddasi to'rtinchi qism ettinchi xatboshisi), kechiktirmagan holda mulkni inventarizatsiya qiladi va baholaydi hamda tugatish rejasini qabul qiladi (qonunning 131-moddasi birinchi qismi), tugatish rejasini tuzib chig'adi

(qonunning 129-moddasi). Tugatish rejasida bankrotning moliyaviy ahvoli to'g'risidagi ma'lumotlar, talablarni qanoatlantirish shartlari, mol-mulkni sotish tartibi aks ettirilgan bo'lishi zarur. Reja umumiy talablar yig'indisining $\frac{3}{2}$ qismini tashkil qiluvchi kreditorlar tomonidan tasdiqlanishi shartligi sababli, rejani ishlab chiqishda kreditorlarning fikrlari hisobga olinishi zarur. Mol-mulk realizatsiyasini adolatli va qonuniyligini ta'minlash maqsadida realizatsiya ochig' kimoshdi savdosi orqali o'tkaziladi (qonunning 135-137- moddolari).

Tugatishga doir ish yuritish tamomlanganda mol-mulk sotilgandan keyin kreditorlar o'z talablarining to'liq yoki qisman qanoatlantirilishidan qat'i nazar kreditorlarning barcha talablari qondirilgan deb hisoblanadi (qonunning 138-moddasi beshinchi qismi). Shu bilan bir qatorda tugatishga doir ish yuritish xo'jalik faoliyatini davom ettirish imkoniyati bo'lgan taqdirda kelishuv bitimini tuzish yoki kreditorlar talabini to'liq qanoatlantirish orqali tugatilishi mumkin, shuningdek qarzdorning qarzini to'lash imkoniyati tiklangan taqdirda tashqi boshqaruvga o'tish imkoniyati ham mavjud bo'ladi.

Sharhlanayotgan moddaning ikkinchi qismida yakka tartibdagi qarzdorga nisbatan qo'llaniladigan taomillar sanab o'tiladi: bu faqat kelishuv bitimi yoki tugatishga doir ish yuritishdir. Kelishuv bitimi yakka tartibdagi tadbirkorga nisbatan bankrotlik to'g'risidagi ishni mazkur tadbirkor hamda kreditor o'rtasida o'zaro murosaga kelish asosida tugatish maqsadida tuziladi. Kelishuv bitimini tuzish uchun kreditorlar tomonidan kreditorlar yig'ilishida barcha kreditorlar umumiy sonining ko'pchiligini tashkil etuvchi kreditorlar, shuningdek talabi garov bilan kafolatlangan barcha kreditorlar roziligi olinishi lozim (qonunning 145-moddasining ikkinchi qismi).

Kelishuv bitimi o'zida tiklash ko'rinishidagi taomilni aks ettirib, albatta yozma shaklda tuzilishi lozim (qonunning 147-moddasining birinchi qismi) va xo'jalik sudi tomonidan tasdiqlanganidan so'ng kuchga kiradi (qonunning 145-moddasining oltinchi qismi). yakka tartibdagi tadbirkorga nisbatan kuzatuv taomili qo'llanilmasligi tufayli, kreditorlarni belgilashda ma'lum bir qiyinchiliklar mavjud. Xususan, qonunning 182-moddasida belgilanishicha, kreditorlar va ularning

talablari miqdori sud tomonidan belgilanadi. yakka tartibdagi tadbirkorga nisbatan sudgacha sanatsiya qilish yoki tashqi boshqaruv taomillari ham qo'llanilmasligi tufayli uni tiklashga fag'at kelishuv bitimi tufayli erishish mumkin. Kelishuv bitimi bankrotlik to'g'risidagi ish yuritishning istalgan bosqichida tuzilishi mumkin bo'lsada (qonunning 145-moddasining birinchi qismi), lekin uni tuzish imkoniyati har doim ham bo'lavermaydi. Shuning uchun o'z ishini tiklamog'chi bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkor kelishuv bitimini tuzishda va ular bilan muzokaralarga tayyorlanishda kreditorlarning fikri va pozitsiyasini sinchkovlik bilan o'rganib chiqishi zarur.

Yakka tartibdagi tadbirkorga nisbatan tugatishga doir ish yuritish taomilini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Kreditorlarning e'tirozlari bo'lmagan taqdirda sud tomonidan tadbirkorning o'zi tomonidan ishlab chiqilgan qarzni uzish rejasi tasdiqlanishi mumkin (qonunning 176-moddasi ikkinchi qism). Bu holda kreditorlar talabini qanoatlantirish maqsadida ish yuritish ikki oygacha bo'lgan muddatga to'xtatilishi mumkin. Agar mazkur rejani bajarish asosida kreditorlarning barcha talablari g'ondirilsa, bankrotlik to'g'risidagi ish yuritish tugatiladi (qonunning 176-moddasi beshinchi qismi). Shu yo'l orqali qarzdor o'zini bankrot deb topish holatidan g'utilishi va tadbirkorlik faoliyatini davom ettirishi mumkin. Qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklanishi fag'atgina haqig'iy amalga oshirish imkoniyati bo'lgan qarzlarni uzish rejasi mavjudligiga bog'liq bo'lganligi uchun yakka tartibdagi tadbirkor qarzdor mazkur rejani amalga oshirish mumkin-mumkin emasligini e'tiborga olishi kerak. Qarzlarni to'lay olmaslik holatida u bankrot deb topiladi va g'olgan majburiyatlarni bajarishdan ozod etiladi, kreditorning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararining o'rmini g'oplash va shu kabi alohida toifadagi majburiyatlar bundan mustasno (184-modda birinchi qism)⁴⁴.

Bankrotlik va uning taomillari haqida shunday fikr yuritish mumkinki, iqtisodiy inqiroz korxona faoliyatiga xavf solayotgan davrda uni bartaraf etish maqsadida (tugatishga doir ish yuritish taomili bundan

⁴⁴Ўзбекистон Республикасининг "Банкротлик тўғрисида" (янги тахрирда) ги қонунига шарҳлар. – Т.: "Шарқ". – 2007.

mustasno) va korxonani to'lov qobiliyatini tiklash maqsadida taomillar qo'llaniladi. Taomillarni ijrosi esa korxona mulkchilik shaklidan va tanlangan taomil turidan kelib chiqib nazorat qilinadi.

10.2. Sudgacha sanatsiya qilish asosi

Sudgacha sanatsiya qilish suddan tashqari bajariladigan taomil bo'lib, qarzdorga nisbatan to'lov qobiliyatini tiklash va bankrotlikni oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

Sudgacha sanatsiya qilish xo'jalik sudi tomonidan bankrotlik to'g'risidagi ish qo'zg'atilmasdan oldin amalga oshiriladi. Shu tufayli, qarzdorni bankrot deb topish to'g'risida sudga ariza berishdan oldin qarzdorning muaasislarini, boshqaruv organlari yoki qarzdorning mol-mulki egasi qarzdorning moliyaviy ahvolini sog'lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rishlari mumkin.

Qarzdor bilan tuzilgan kelishuv asosida uning to'lov qobiliyatini tiklash choralari ko'rayotgan qarzdor yuridik shaxsning muassislari, qarzdorning mol-mulki egasi, davlat organlari va boshqa shaxslar sudgacha sanatsiya qilishining tsubyektlari bo'la oladilar.

Sudgacha sanatsiya qilishda qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklaydigan chora-tadbirlar, ya'ni qarzdorga moddiy yordam ko'rsatish, to'lov muddatini kechiktirish va uni bo'lib-bo'lib to'lashni uzaytirish, qarzlardan siylov berish, qarzdorni qayta tashkil etish kabilar ko'riladi.

Sudgacha sanatsiya qilishni quyidagi turlarga ajratish mumkin: davlat tomonidan yordam ko'rsatgan holda va davlat tomonidan yordam ko'rsatmagan holda. Davlat ko'magidan foydalangan holda sudgacha sanatsiya qilish ustav fondida davlat ulushi bor bo'lgan korxonalarga nisbatan qo'llaniladi.

Davlat yordami bilan sudgacha sanatsiya qilish o'n ikki oydan yigirma to'rt oygacha bo'lgan muddatga belgilanadi. **Davlat mablag'larini jalb etgan holda sudgacha sanatsiyalash quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:**

□ Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi hay'ati qaroriga ko'ra Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va

korxonalarni tarkibiy o'zgartirish jamg'armasidan tarkibiy o'zgartirish dasturlarini amalga oshirish uchun tasdiqlangan limitlar va smetalar doirasida mablag'larni maqsadli ajratish;

□ Muddati o'tkazib yuborilgan debitorlik va kreditorlik qarzlarni qisqartirish va byudjetga to'lovlar intizomini mustahkamlash bo'yicha Respublika komissiyasi qaroriga binoan sudgacha bo'lgan sanatsiyalash muddatida majburiy to'lovlarni to'lash, ilgari ajratilgan davlat kreditlarini qaytarishni kechiktirish va bo'lib-bo'lib to'lash, shuningdek hisoblangan penya va jarimalarni hisobdan chiqarish shaklida davlat mablag'larini jalb etish;

□ Davlat mablag'larini jalb etgan holda sanatsiyalash tartiboti Huqumat qarorlariga binoan boshqa chora-tadbirlarni o'z ichiga olishi mumkin;

□ Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan holda sanatsiyalash o'tkazilishida qarzdorga xizmat ko'rsatuvchi bankda ilgari amal qilgan hisob raqamlari to'xtatilgan holda sanatsiyalash bo'yicha so'mda va valutada hisob raqami ochiladi.

Sudgacha sanatsiya qilishda ishtirok etadigan subyektlar soni cheklanmagan. Ular: qarzdorning muassislari, mol-mulki egasi, davlat organlari shuningdek boshqa shaxslar ham bo'lishi mumkin.

“Bankrotlik to'g'risida”gi qonunga asosan sudgacha sanatsiya qilish taomilining chora-tadbirlariga quyidagilar kiradi:

- To'lov muddati o'tkazib yuborilgan qarzlarni to'la yoki qisman sotib olish;

- Ishlab chiqarishni raqobatbardosh mahsulot chiqarishga moslab qayta ixtisoslashtirish;

- Chetdan yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish;

- Xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash;

- Qarzdorning to'lov qobiliyati tiklanishi hamda faoliyatini davom ettirishidan manfaatdor bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan moliyaviy yordam ko'rsatilishi;

- Qarzdorning faoliyatni davom ettirishi uchun qarzdor bilan kreditorlar o'rtasida kreditorlarga to'lanadigan to'lovlar muddatini

kechiktirish va (yoki) uni bo'lib-bo'lib to'lash yoxud qarzlardan siylov berish to'g'risida ahdlashuvga erishishga qaratilgan bitim;

- Majburiy to'lov majburiyatini bajarishni va kreditlarni qaytarishni sudgacha sanatsiya qilish muddatiga kechiktirish;
- Qarzdor yuridik shaxsni qayta tashkil etish.

Mazkur taomil tarkibigi bundan boshqa tadbirlar ham kirishi mumkin.

Sudgacha sanatsiya qilishni uni o'tkazish muddati tugashi, uning samarasiz ekanligi aniqlanishi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari bajarilmaganligi munosabati bilan va amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa sabablarga ko'ra to'xtatilishi mumkin.

10.3. Kuzatuv

Kuzatuv qarzdor mol-mulki saqlanishini ta'minlanishi, shuningdek uning moliyaviy ahvolini tahlil etish maqsadida tashkil qilinadi. **Kuzatuvning ma'nosi qarzdorga uni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza qabul qilinganidan e'tiboran:**

1. Bankrotlikning keyingi taomili joriy etilgunga qadar o'z mol-mulkini boshqarishni ta'qiqlash;

2. Shuningdek, kreditorlar tomonidan mustaqil talablar qo'yishni cheklash;

3. Bunday imkoniyatni faqat bankrotlik to'g'risidagi ish doirasida yaratishdan iborat.

Ushbu taomil 2003 yilgi "Bankrotlik to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonunning amalga kiritilishi bilan qabul qilingan. Kuzatuv taomilini amalga oshirish uchun xo'jalik sudi tomonidan muvaqqat boshqaruvchi tayinlanadi.

Kuzatuv joriy etilishi bilan qarzdorning tashqi hisob-kitoblari to'xtatiladi. Yirik bitimlar bo'yicha qaror qabul qilish mas'uliyati muvaqqat boshqaruvchiga yuklanadi. Kreditorlar o'z talablarini faqat kuzatuvdan keyin keluvchi bankrotlik taomillari doirasida qanoatlantirishga erishishlari mumkin.

Kuzatuv bankrotlik to'g'risida ish qo'zg'atilganda xo'jalik sudi qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi arizani ish yuritishiga qabul qilgan sanadan e'tiboran joriy etiladi.

Kuzatuv taomilini joriy etish bilan birgalikda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- **Mulkiy undiruvlar bo'yicha ijro hujjatlarini ijro etish to'xtatib turiladi**, ish haqi bo'yicha, mualliflik shartnomalari bo'yicha haqlarni, alimentlarni to'lash bo'yicha qarzdorlikni undirish haqidagi, shuningdek hayot yoki sog'liqqa yetkazilgan zararining o'rmini qoplash va ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish haqidagi, xo'jalik sudi tomonidan qarzdorni bankrot deb topish haqidagi ariza ish yuritishga qabul qilingan paytga qadar qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlari asosida berilgan ijro hujjatlarini ijro etish bundan mustasno. **Xo'jalik sudining arizani ish yuritishga qabul qilish va bankrotlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi ajrimi ijro hujjatlarini ijro etishni to'xtatib turish uchun asos bo'ladi;**

- Qarzdor yuridik shaxs muassislari uning tarkibidan muassislari chiqib ketishi munosabati bilan qarzdorning mol-mulkidan ulushni ajratish haqidagi talablarini qondirish taqiqlanadi;

- Emissiya qimmatli qog'ozlari bo'yicha dividendlar va boshqa to'lovlarni to'lash taqiqlanadi;

- Muqobil bir xildagi talabni hisobga olish yo'li bilan qarzdorning pul majburiyatlarini tugatishga yo'l qo'yilmaydi.

Umumiy qoidaga ko'ra kuzatuv taomili 3 oy muddatga joriy etiladi va xo'jalik sudi tomonidan odatda kreditorlarning birinchi yig'ilishi qarori asosida sud hujjati qabul qilinishi bilan tugatiladi.

Kuzatuvning joriy etilishi qarzdorning rahbarini hamda qarzdorning cheklovlar bilan o'z vakolatlarini amalga oshirishni davom ettirayotgan boshqa boshqaruv organlarini chetlashtirish uchun asos hisoblanmaydi.

Qarzdorning boshqaruv organlari muvaqqat boshqaruvchining yozma roziligi bilan quyidagi bitimlarni tuzishlari mumkin:

- ko'chmas mol-mulkni ijaraga, garovga berish bilan yoki shu mol-mulkni boshqa usulda tasarruf etish bilan bog'liq bitimlarni;

- qarzdorning balans qiymati qarzdor aktivlari balans qiymatining o'n foizidan ko'prog'ini tashkil etadigan mol-mulkini tasarruf etish bilan bog'liq bitimlarni;

- zayomlar (kreditlar) olish va berish, kafolat xatlari va kafolatlar berish, talab qilish huquqlaridan o'zga shaxs foydasiga voz kechish, qarzni boshqa shaxsga o'tkazish, shuningdek qarzdorning mol-mulkini ishonchli boshqarish shartnomasini tuzish.

Qarzdorning boshqaruv organlari quyidagi qarorlarni qabul qilishga haqli emas:

- Qarzdorni qayta tashkil etish (qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish, o'zgartirish) va tugatish to'g'risidagi qaror;

- yuridik shaxslarni tuzish haqidagi yoki boshqa yuridik shaxslarning ishtiroki to'g'risidagi qaror;

- vakolatxonalar ochish va filiallar tashkil etish to'g'risidagi qaror;

- dividendlar to'lash yoki qarzdorning daromadini (foydasini) uning muassislari (ishtirokchilari) o'rtasida taqsimlash to'g'risidagi qaror;

- qarzdor tomonidan obligatsiyalar va boshqa emissiya qog'ozlarini joylashtirish to'g'risidagi qaror, aksiyalar chiqarish haqidagi qaror bundan mustasno;

- ilgari chiqarilgan aksiyalarni aksiyadorlardan sotib olish to'g'risidagi qaror.

Muvaqqat boshqaruvchi kreditorlar yoki bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat organi taklif etgan nomzodlar orasidan xo'jalik sudi tomonidan tayinlanadi. Muvaqqat boshqaruvchiga to'lanadigan haq miqdori va uni to'lash usullari xo'jalik sudining muvaqqat boshqaruvchini tayinlash to'g'risidagi ajrimida ko'rasatib o'tiladi. Agar haq miqdorini o'zgartishi talab etiladigan bo'lsa, u holda haqning miqdori kreditorlar yig'ilishining qarori asosida xo'jalik sudi tomonidan o'zgartirilishi mumkin.

Muvaqqat boshqaruvchining o'z vazifasini bajarishdan ozod etish to'g'risidagi iltimosnomasi qanoatlantirilgan taqdirda xo'jalik sudi

kreditorlar taklif etgan nomzodlar orasidan yangi muvaqqat boshqaruvchini tayinlaydi. Muvaqqat boshqaruvchining nomzodi ko'rsatilmagan bo'lsa, xo'jalik sudi muvaqqat boshqaruvchini bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat organi taklif etgan nomzodlar orasidan tayinlaydi. Muvaqqat boshqaruvchi yangi muvaqqat boshqaruvchi tayinlangunga qadar o'z vazifasini bajarishni davom ettiradi.

Muvaqqat boshqaruvchi quyidagi huquqlarga ega:

- bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risida, shuningdek qarzdor tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan talablar buzilgan holda tuzilgan yoki ijro etilgan o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitimlarning haqiqiy emasligi oqibatlarining qo'llanilishi haqida xo'jalik sudiga o'z nomidan talablar qo'yish;

- kuzatuv davrida kreditorlarning talablarini bajarishga e'tiroz bildirish;

- kreditorlarning talablari bo'yicha qarzdorning taqdim etilgan e'tirozlari asosiligi sudya tomonidan tekshirilishida ishtirok etish;

- qarzdorning mol-mulki but saqlanishini ta'minlash yuzasidan qo'shimcha choralar ko'rish haqidagi, shu jumladan muvaqqat boshqaruvchining roziligisiz bitimlar tuzishni ta'qiqlash haqidagi, mol-mulkni saqlash uchun uchinchi shaxslarga berish haqidagi, shuningdek bunday choralarni bekor qilish haqidagi iltimosnoma bilan xo'jalik sudiga murojaat etish;

- qarzdorning rahbarini vazifasini bajarishdan chetlashtirish to'g'risida xo'jalik sudiga iltimosnoma bilan murojaat etish;

- qarzdorning faoliyatiga taalluqli har qanday axborot va hujjatlarni olish.

Qarzdorning boshqaruv organlari muvaqqat boshqaruvchining talabiga binoan unga qarzdorning faoliyatiga taalluqli har qanday axborotni taqdim etishi shart.

Muvaqqat boshqaruvchi quyidagi majburiyatlarga ega:

- qarzdorning mol-mulki but saqlanishini ta'minlash choralarini ko'rish;

- qarzdorning moliyaviy ahvolini tahlil qilishi;

- qarzdorning kreditorlarini aniqlashi, kreditorlarning talablari reestrini yuritishi, qarzdorga nisbatan kuzatuv joriy etilgani haqida kreditorlarni xabardor qilishi;

- kreditorlarning birinchi yig'ilishini chaqirishi va o'tkazishi shart.

Muvaqqat boshqaruvchining vazifalaridan biri kreditorlarning birinchi yig'ilishini chaqirishi hisoblanib, mazkur yig'ilishda iqtisodiy nochor korxonaga taaluqli bo'lgan masalalar ko'rib chiqib quyidagi qarorlardan biri qabul qilinishi mumkin:

- **sud sanatsiyasini yoki tashqi boshqaruvni joriy etish** haqida iltimosnoma bilan xo'jalik sudiga murojaat qilish to'g'risidagi qaror;

- **qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash** haqida iltimosnoma bilan xo'jalik sudiga murojaat etish to'g'risidagi qaror;

- **kreditorlar qo'mitasining miqdoriy tarkibi**, uning a'zolarini saylash to'g'risidagi qaror;

- **sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining**, tashqi boshqaruvchining yoki tugatuvchi boshqaruvchining nomzodlarini ma'qullash to'g'risidagi qaror.

Xo'jalik sudi kreditorlarning birinchi yig'ilishi qarori asosida qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'g'risida qaror qabul qiladi yoki bankrotlikni sog'lomlashtirish taomillaridan birini joriy etish haqida ajrim chiqaradi yoki kelishuv bitimini tasdiqlaydi va bankrotlik to'g'risidagi ish yuritishni tugatadi.

Agar kreditorlarning birinchi yig'ilishida bankrotlik taomillaridan birini qo'llash haqida qaror qabul qilinmagan bo'lsa yoki xo'jalik sudiga uning qarorlaridan hech biri o'z muddatida taqdim etilmagan bo'lsa, xo'jalik sudi bankrotlik alomatlari bo'lgan taqdirda qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'g'risida qaror qabul qiladi.

Agar kreditorlarning birinchi yig'ilishi tomonidan qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida iltimosnoma bilan xo'jalik sudiga murojaat etish to'g'risida qaror qabul qilingan bo'lsa yoki xo'jalik sudiga uning qarorlaridan hech biri taqdim etilmagan bo'lsa, xo'jalik sudi qarzdor muassislarning yoki qarzdor

mol-mulki egasining, bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat organining, shuningdek uchinchi shaxsning iltimosnomasiga binoan, arizachilar tomonidan qarzdorning majburiyatlari ijrosining qarzni uzish jadvaliga muvofiq ta'minoti taqdim etilgan taqdirda sud sanatsiyasini joriy etish to'g'risida ajrim chiqarishga haqli.

Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi, tashqi boshqaruvchi yoki tugatuvchi boshqaruvchi tayinlangunga qadar uning vazifasini bajarish ilgari muvaqqat boshqaruvchi vazifasini bajarib turgan shaxs zimmasiga to'la hajmda yuklatiladi.

Xo'jalik sudi tomonidan qarzdor bankrot deb topilgan va tugatishga doir ish yuritish boshlangan yoki sud sanatsiyasi, tashqi boshqaruv joriy etilgan yoki kelishuv bitimi tasdiqlangan paytdan e'tiboran kuzatuv tugatiladi.

10.4. Kelishuv bitimini tuzish

Kelishuv bitimi – bu taraflarning o'zaro voz kechishlari asosida sud nizosini tugatish to'g'risida kelishuvdir. Kelishuv bitimi xo'jalik sudi tomonidan bankrotlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqishning istalgan bosqichida amalga oshiriladi. Bunda bankrotlikning kuzatuv, sud sanatsiyasi, tashqi boshqaruv, tugatishga doir ish yuritish taomillarini tushunish mumkin. **Lekin, sudga bankrotlik to'g'risida ishni qo'zg'atish to'g'risida ariza kelib tushgan paytdan kuzatuv jarayonida kreditorlar reestrini tuzishga qadar kelishuv bitimi tuzilishi mumkin emas,** chunki bu bosqichda kreditorlar reestri va tegishlicha kelishuv bitimi matnini ko'rib chiqishi va uni tuzishi to'g'risida qaror qabul qilish lozim bo'lgan kreditorlarning yig'ilishi bo'lmaydi.

Kelishuv bitimi to'g'risida qaror qabul qilish kreditorlar yig'ilishining mutloq vakolati hisoblanadi va u ikki shartga javob berishi kerak. **Birinchidan,** qaror kreditorlarning umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinishi kerak, **ikkinchidan,** bunday qaror uchun qarzdorning garov bilan ta'minlangan mol-mulki majburiyatlari bo'yicha kreditorlar ovoz berishi lozim.

Kelishuv bitmini tuzish qonunchilikka asosan bankrotlik taomillari ketayotgan davrda cheklangan bo'ladi. **Unga ko'ra xo'jalik protsessual qonunchiligidan farqli ravishda quyidagi hollarda qarzdor nomidan kelishuv bitimi tuzish haqida qaror qabul qilinadi:**

- Bankrotlik to'g'risidagi ish yakka tartibdagi tadbirkorga nisbatan qo'llanilganda uning o'zi tomonidan;

- Kuzatuv va sud sanatsiyasi taomilida rahbar tomonidan, agar u o'z xizmat vazifasidan ozod etilgan bo'lsa, taomillarga mos ravishda muvaqqat boshqaruvchi yoki sanatsiya boshqaruvchisi tomonidan qabul qilinadi;

- Agar bankrotlik taomillaridan boshqalari, ya'ni tashqi boshqaruv yoki tugatishga doir ish yuritish tamoillar ketayotgan bo'lsa, mos holda, shu taomilni olib borayotgan sud boshqaruvchisi tomonidan.

Kelishuv bitimining o'zi aniq huquq va majburiyatlarni o'zida ifoda etadigan hujjat hisoblanadi va xo'jalik sudi tomonidan tasdiqlangan payitdan boshlab huquqiy kuchga ega bo'ladi. Bundan tashqari, kelishuv bitimining tuzilishi korxonani iqtisodiy nochorligini bartaraf etilganligini ko'rsatishni inobatga olgan holda, aytish mumkinki, u bankrotlik jarayonini tugatilishini ham bildiradi. Agar kelishuv bitimi tugatishga doir ish yuritish jarayonida tuzilgan bo'lsa, xo'jalik sudi kelishuv bitimini tasdiqlash to'g'risida ajrim chiqaradi, unda qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'g'risidagi qaror ijro etilmasligi ko'rsatib o'tiladi.

Kelishuv bitimi qarzdor, kreditorlar, shuningdek kelishuv bitimida ishtirok etayotgan uchinchi shaxslar uchun xo'jalik sudi tomonidan tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi va ular uchun majburiy hisoblanadi. Kelishuv bitimi shartlarini bajarishdan bir tomonlama bosh tortishga qonunchilik yo'l qo'ymaydi. Agarda kelishuv bitimi shartlari bajarilmasa kreditorlar sudga umumiy tartibda da'vo qilishlari mumkin.

Agar kreditorlarning ba'zilari kelishuv bitmini tuzishga qarshi bo'lsalar yoki majlisda ishtirok etmagan bo'lsalar, kelishuv bitimi tuzish uchun ovoz bergan kreditorlar, muassislar ularning oldidagi qarzdorning majburiyatlarini bajarishga haqli. Agar majburiyatlar bajarilmasa,

bankrotlik bo'yicha ish tugatilganidan so'ng, mazkur kreditorlar xo'jalik sudiga da'vo arizasi bilan chiqish huquqiga ega.

Uchinchi shaxslar kelishuv bitimi bo'yicha qarzdor tomonidan pul majburiyatlari qondirilishi va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha majburiyati bajarilishi kafilligini yoki kafolatini berishga, xuddi shuningdek uning lozim darajada bajarilishini boshqacha tarzda ta'minlashga haqli. Agar kelishuv bitimining sharti qarzdorning mol-mulkini uchinchi shaxs foydasiga o'tkazishdan iborat bo'lsa, bitim mazkur mol-mulk kreditorlarning talablari faqat uchinchi shaxs tomonidan qanoatlantirilishini ta'minlovchi garovga berilgan taqdirda tuzilishi mumkin. Kelishuv bitimi yozma shaklda tuziladi.

Qarzdor nomidan kelishuv bitimini tegishincha qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor, qarzdorning rahbari yoki sud boshqaruvchisi imzolaydi. Kreditorlar nomidan kelishuv bitimini kreditorlar yig'ilishi tomonidan vakolat berilgan shaxsning o'zi imzolaydi.

Agar kelishuv bitimida uchinchi shaxslar ishtirok etayotgan bo'lsa, ular nomidan kelishuv bitimini shu shaxslarning o'zi yoki ularning vakillari imzolaydi.

Kelishuv bitimida qarzdorning pul majburiyatlari miqdori, ularni bajarish tartibi va muddatlari to'g'risidagi va voz kechish haqini berish, majburiyatlarni yangilash, qarzni kechish yo'li bilan yoxud qarzdorning pul majburiyatlarini qonun hujjatlarida nazarda tutilgan o'zga usullar bilan tugatish to'g'risidagi qoidalar bo'lishi kerak.

Kelishuv bitimida quyidagi shartlar ko'rsatilishi mumkin:

- Pul majburiyatlarining to'lovi kechiktirilganligi yoki bo'lib-bo'lib to'lanishi to'g'risidagi shartlar;
- Qarzdorning talab qilish huquqlaridan o'zganing foydasiga voz kechish to'g'risidagi shartlar;
- Qarzdorning pul majburiyatlarini uchinchi shaxslar tomonidan bajarish to'g'risidagi shartlar;
- Qarzlardan siylov berish to'g'risidagi shartlar;
- Majburiy to'lovlarni to'lash muddatlari va tartibini o'zgartirish to'g'risidagi shartlar;

- Kreditorlarning talablarini boshqa usullar bilan qondirish to'g'risidagi shartlar.

Qarzdorning o'z zimmasiga olgan majburiyatlari bajarilishini ta'minlovchi mol-mulk garovi saqlanib qoladi.

Kelishuv bitimi xo'jalik sudi tomonidan tasdiqlangan vaqtdan boshlab qonuniy kuchga kiradi. Kelishuv bitimini tasdiqlashda sud kelishuv bitimi uchinchi shaxslarining huquqlarini buzmayotganligini ham tekshiradi.

Kelishuv bitimining majburiy shartlari sifatida sud xarajatlari, sud boshqaruvchilariga to'lanadigan haq, joriy kommunal to'lovlar, qarzdor mol-mulkini sug'urtalash xarajatlarini qoplash, qarzdorning bankrotlik to'g'risida ish qo'zg'atilgandan so'ng yuzaga kelgan majburiyatlari bo'yicha talablar va boshqa joriy to'lovlarni qondirish, ma'naviy zararni qoplash bo'yicha, fuqarolarning ularning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar yuzasidan talablari uchun qarzdorning javobgarligi hamda ish haqi to'lovlariga pul mablag'larni berishni nazarda tutadigan to'lov hujjatlari bilan bog'liq talablar qondirilishi lozim.

10.5. Sud sanatsiyasi

Sud sanatsiyasi taomili bankrotlik jarayonida qoida tariqasida kuzatuvdan keyingi keladigan taomil bo'lib hisoblanadi. Agar kuzatuv jarayonida bankrotlik ishini davom ettirishga korxonada ehtiyoj paydo bo'lsa, kreditorlar yig'ilishining qaroriga ko'ra ushbu bankrotlik taomilini joriy etish mumkin.

Qarzdorga nisbatan sud sanatsiyasini joriy etish bo'yicha taklif dastlab kreditorlar yig'ilishiga taqdim etilishi va kreditorlar yig'ilishining qaroriga ko'ra amalga oshirilishi mumkin. Bunda kreditorlar yig'ilishiga sud sanatsiyasi taomilini joriy etish bo'yicha qarzdorning o'zi, uning muassislari yoki mol-mulking egasi, shuningdek uchinchi shaxslar sud sanatsiyasini joriy etish haqida xo'jalik sudiga murojaat qilish to'g'risidagi iltimosnoma bilan kreditorlarning birinchi yig'ilishiga yoxud sud sanatsiyasini joriy etish

haqidagi iltimosnoma bilan bevosita xo'jalik sudiga murojaat qilishi mumkin.

Qarzdorning sud sanatsiyasini joriy etish haqidagi iltimosnomasiga sud sanatsiyasining taklif qilinayotgan muddati va qarzni uzish jadvali ko'rsatilgan holda qarzdorning sud sanatsiyasi rejasi ilova qilinmog'i lozim.

Xo'jalik sudiga sud sanatsiyasini joriy etish haqida kreditorlar yig'ilishiga murojaat qilgan shaxs o'z iltimosnomasiga quyidagilarni ilova qilishi lozim:

sud sanatsiyasining rejasi;

qarzni uzish jadvali;

qarzdorning muassislari umumiy yig'ilishining bayonnomasi uning sud sanatsiyasini joriy etish haqidagi iltimosnoma bilan kreditorlar yig'ilishiga murojaat etish uchun ovoz bergan muassislari hamda bu shaxslar tomonidan qarzni uzish jadvali qarzdor tomonidan ijro etilishini ta'minlash to'g'risidagi hujjatlar.

Xo'jalik sudining sud sanatsiyasini joriy etish to'g'risidagi ajrimida sud sanatsiyasining muddati ko'rsatilishi, unda xo'jalik sudi tomonidan tasdiqlangan qarzni uzish jadvali, majburiyatlarni bajarish ta'minotini bergan shaxslar haqidagi, bunday ta'minotning miqdori va shakllari, sanatsiya qiluvchi boshqaruvchini tayinlash va unga to'lanadigan haq miqdori haqidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak.

Sud sanatsiyasi ko'pi bilan **yigirma to'rt oylik muddatga joriy etiladi**, bu muddat majburiyatlarni bajarish ta'minotini bergan shaxslar kreditorlarning talablarini qondirishi uchun **xo'jalik sudi tomonidan ko'pi bilan olti oyga uzaytirilishi mumkin.**

Sud sanatsiyasi joriy etish quyidalarga olib keladi:

- Kreditorlarning talablarini ta'minlash yuzasidan ilgari qabul qilingan choralar bekor qilinadi;

- Qarzdorning mol-mulkini xatlash va qarzdorga nisbatan uning o'ziga tegishli mol-mulkni tasarruf etish borasidagi vakolatlarini boshqacha tarzda cheklovlar faqat bankrotlik taomili doirasida joriy etilishi mumkin;

- Sud sanatsiyasi paytida yuzaga kelgan pul majburiyatlarini va majburiy to'lovlar bo'yicha majburiyatni bajarmaganlik uchun neustoyka (jarima, penya) va boshqa iqtisodiy (moliyaviy) sanksiyalar, to'lanishi lozim bo'ladigan foizlar qo'llanilmaydi.

Sud sanatsiyasini amaldagi tadbirlarini qo'llash vakolati qonunchilikka asosan sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi zimmasiga yuklatiladi. Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchilikka nomzod kreditorlar yig'ilishi yoki majburiyatlarni bajarish ta'minotini bergan shaxslar tomonidan xo'jalik sudiga taqdim etiladi.

Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi sud sanatsiyasi joriy etilgan paytdan e'tiboran va sud sanatsiyasi tugagunga qadar yoki muddatidan ilgari tugatilgunga qadar faoliyat yuritadi. Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi o'z vazifasini bajarishdan arizasiga binoan yoki kreditorlar yig'ilishining yoxud majburiyatlarni bajarish ta'minotini bergan shaxslarning iltimosnomasiga binoan xo'jalik sudi tomonidan ozod qilinishi mumkin.

Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi quyidagi huquqlarga ega:

- Qarzdorning rahbaridan qarzdorning joriy faoliyati to'g'risida va sud sanatsiyasi rejasida nazarda tutilgan tadbirlar amalga oshirilishi hamda qarzni uzish jadvali bajarilishi jarayoni haqida axborot talab qilish;

- Qarzdorning rahbaridan kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun pul mablag'lari o'z vaqtida va to'liq o'tkazilishini talab qilish;

- Qarzdor tomonidan mol-mulkning inventarizatsiyasi o'tkazilgan taqdirda unda ishtirok etish;

- Kreditorlar joriy talablarini qarzdor o'z vaqtida bajarishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

- Qarzdorning bitimlari va qarorlarini kelishib olish hamda mazkur bitimlar va qarorlar haqida kreditorlarga axborot taqdim etish;

- Qarzdorning kreditorlar talablarini tan olish yoki bunday talablarni aniqlangan deb topish uchun asoslarni tasdiqlash bo'yicha harakatlari yoxud qarzdorning kreditorlar talablarini ko'rib chiqish borasidagi harakatsizligi ustidan xo'jalik sudiga shikoyat berish;

□ Qarzdorning rahbarini vazifasini bajarishdan chetlashtirish to'g'risidagi iltimosnoma bilan xo'jalik sudiga murojaat etish;

□ Qarzdorning mol-mulki but saqlanishini ta'minlash yuzasidan qo'shimcha choralar ko'rish haqidagi, shu jumladan mol-mulkni saqlash uchun uchinchi shaxslarga o'tkazish, shuningdek bunday choralarni bekor qilish to'g'risidagi iltimosnoma bilan xo'jalik sudiga murojaat etish.

Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi quyidagi majburiyatlarga ham ega:

- Kreditorlarning talablari reestrini yuritishi;
- Kreditorlarning yig'ilishini chaqirishi;

Qarzdor tomonidan taqdim etilayotgan sud sanatsiyasi rejasi va qarzni uzish jadvali bajarilishi jarayoni haqidagi hisobotlarni ko'rib chiqishi hamda kreditorlarning yig'ilishiga tegishli xulosalarni taqdim etishi;

Sud sanatsiyasi rejasi amalga oshirilishining borishi haqida kreditorlar yig'ilishiga va kreditorlar qo'mitasiga, shuningdek agar korxona ustav fondida davlat ulushi bo'lsa, bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat organiga axborot taqdim etishi shart.

Sud sanatsiyasini amalga oshirish boshqa taomillar kabi maxsus tuzilgan reja va qarzni uzish jadvallari asosida olib boriladi. Sud sanatsiyasi rejasi odatda, qarzdorning rahbari, qarzdor muassislari yoki qarzdor mol-mulkinging egasi tomonidan tayyorlanadi va kreditorlar yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

Mazkur rejada sanatsiya davrida qarzdorning qarzni uzish jadvali va korxonani pul oqimlari bilan ta'minlash usullari ko'rsatib o'tilishi zarur.

Qarzni uzish jadvali ham alohida shakl sifatida xo'jalik sudi tomonidan tasdiqlanadi. Qarzdor qarzni uzish jadvalini bajarmagan hollarda, qarzdor talablarni bajarish sanasi boshlangan paytdan e'tiboran ikki hafta muddat ichida qarzni uzish jadvaliga kiritish mo'ljallanayotgan o'zgartishlarni ma'qullash to'g'risidagi iltimosnoma bilan kreditorlarga murojaat qilishi va uning muddatini uzaytirib olishi mumkin. Iltimosnomaning nusxasi sanatsiya qiluvchi boshqaruvchiga

yuboriladi. Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi iltimosnoma olingan paytdan e'tiboran ikki haftadan kechiktirmay shu iltimosnoma asosida kreditorlar yig'ilishini chaqiradi. Qarzni uzish jadvaliga o'zgartishlar kiritish haqida qaror qabul qilingan taqdirda kreditorlar yig'ilishi qarzni uzish jadvaliga oid o'zgartishlarni tasdiqlash to'g'risidagi iltimosnoma bilan xo'jalik sudiga murojaat qiladi.

Bankrotlik to'g'risida ish qo'zg'atilganligi haqida o'z vaqtida xabar qilinmagan va qarzni uzish jadvali xo'jalik sudi tomonidan tasdiqlanganidan keyin ishga qo'shilgan kreditorning talablari yoki majburiyatlarni bajarish muddati kuzatuv jarayonida boshlangan talablar xo'jalik sudining ajrimi asosida qarzni uzish jadvaliga kiritiladi.

Xo'jalik sudi faqat kreditorlarning talablari reestriga kiritilgan talablar xususida qarzni uzish jadvaliga o'zgartishlar kiritish to'g'risida ajrim chiqarishga haqli.

Agarda qarzni uzish jadvalidagi kreditorlarning majburiyatlari muddatidan avval tugatilgan bo'lsa, qarzdor korxonaning rahbari bu haqda xo'jalik sudiga sud sanatsiyasini muddatidan ilgari tugatilganligi bo'yicha hisobot beradi.

Sud sanatsiyasining belgilangan muddati tugashiga kamida **o'n besh kun qolganida** qarzdorning rahbari o'tkazilgan sud sanatsiyasi natijalari to'g'risida xo'jalik sudiga hisobot taqdim etadi. Mazkur hisobotga qarzdorning so'nggi sanadagi holatga ko'ra buxgalteriya balansi, qarzdorning moliyaviy natijalari to'g'risidagi hisobot, qanoatlantirilgan talablar miqdori va mazkur qanoatlantirishni tasdiqlovchi hujjatlar ko'rsatilgan holda kreditorlarning talablari reestri, sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining qarzdor rahbari hisoboti bo'yicha xulosasi, talablari qanoatlantirilmagan kreditorlarning shikoyatlari ilova qilinishi lozim.

Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi talablari qarzni uzish jadvaliga kiritilgan barcha kreditorlarni qarzdor rahbarining o'tkazilgan sud sanatsiyasi natijalari haqidagi hisobotini ko'rib chiquvchi sud majlisining sanasi, vaqti va joyi to'g'risida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xabardor qiladi.

10.6. Tashqi boshqaruv

Tashqi boshqaruv qarzdorning to'lash qobiliyatini tiklash va kreditorlarning qarzdorlarga bo'lgan talablarini qanoatlantirish maqsadida sudning ishtirokida o'tkaziladigan bankrotlik taomili bo'lib, bunda qarzdorning faoliyatini boshqarish va uning mulkini tasarruf qilish vakolati tashqi boshqaruvchiga beriladi.

Agar qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklashning haqiqiy imkoniyati aniqlangan bo'lsa, tashqi boshqaruv kreditorlar yig'ilishining iltimosnomasi, mol-mulkida davlat ulushi bo'lgan korxonalar bo'yicha esa bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat organining arizasi asosida xo'jalik sudi tomonidan joriy etiladi.

Tashqi boshqaruv **o'n ikki oydan yigirma to'rt oygacha muddatga** joriy etiladi. Sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruvning jami muddati esa o'ttiz olti oydan oshmasligi lozim.

Tashqi boshqaruv uchun belgilangan muddat kreditorlar yig'ilishining iltimosnomasiga, bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat organining qaroriga yoki tashqi boshqaruvchining arizasiga binoan xo'jalik sudi tomonidan qisqartirilishi yoki uzaytirilishi mumkin. Faqatgina qonunda keltirilgan muddatlardan chetga chiqmagan holda.

Iqtisodiy nochor korxonalarda tashqi boshqaruvni joriy etish quyidagi oqibatlarga olib keladi:

- Qarzdorning rahbari o'z vazifasini bajarishdan chetlashtiriladi, qarzdorning ishlarini boshqarish tashqi boshqaruvchi zimmasiga yuklatiladi. Bu holda, tashqi boshqaruvchiga qarzdorning rahbari bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinishi yoki mazkur rahbarni boshqa ishga o'tkazish to'g'risida buyruq chiqarish sharti qo'yiladi;

- Qarzdorning boshqaruv organlari vakolatlari tugatiladi. Qarzdorning rahbari va qarzdorning boshqa boshqaruv organlari vakolatlari tashqi boshqaruvchiga o'tadi. Qarzdorning boshqaruv organlari tashqi boshqaruvchi tayinlangan paytdan e'tiboran uch ish kuni ichida qarzdorning buxgalteriya hujjatlari va boshqa hujjatlari, muhrlari va shtamlari, moddiy va boshqa qimmatliklari tashqi boshqaruvchiga topshirilishini ta'minlashi talab etiladi;

- Kreditorlarning talablarini ta'minlash yuzasidan ilgari ko'rilgan chora-tadbirlar bekor qilinadi;

- Qarzdorning mol-mulkini xatlash va qarzdorga nisbatan uning o'ziga tegishli mol-mulkni tasarruf etish borasidagi vakolatlarini boshqacha tarzda cheklovlar faqat bankrotlik taomili doirasida qo'llanilishi mumkin;

- Qarzdorning pul majburiyatlari va majburiy to'lovlari yuzasidan kreditorlar talablarining qondirilishiga nisbatan **moratoriy** joriy etiladi.

Tashqi boshqaruvni joriy qilish haqida xo'jalik sudiga iltimosnoma bilan murojaat etish to'g'risida qaror qabul qilgan kreditorlar yig'ilishi tashqi boshqaruvchilikka nomzodni ma'qullaydi.

Tashqi boshqaruvchilikka nomzod kreditorlar yig'ilishiga har qanday kreditor tomonidan yoki bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat organi tomonidan taklif etilishi mumkin.

Tashqi boshqaruvchi rahbarlik vakolatlarini amalga oshiradi.

Tashqi boshqaruvchi quyidagilarga haqli:

- Kreditorlar yig'ilishini hamda kreditorlar qo'mitasini chaqirish;

- Qarzdorning mol-mulkini tasarruf etish;

- Qarzdor nomidan kelishuv bitimi tuzish;

- O'zining vazifalarini amalga oshirish uchun boshqa shaxslarni ularning faoliyatiga qarzdor mablag'laridan haq to'lagan holda shartnoma asosida ishga jalb etish;

- O'z vazifalarini bajarishni muddatidan ilgari tugatish to'g'risida xo'jalik sudiga ariza berish;

- Shartnomalarini bajarish rad etilishini ma'lum qilish.

- Qarzdor bankrotlikka olib borilganligi munosabati bilan qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha qonun hujjatlariga muvofiq subsidiar javobgar bo'ladigan uchinchi shaxslarga nisbatan tashqi boshqaruvchi o'z vakolatlarini amalga oshirish chog'ida talablar qo'yishga haqli.

Tashqi boshqaruvchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Tashqi boshqaruvchi:

- qarzdorning mol-mulkini o'z tasarrufiga qabul qilishi va uni inventarizatsiyadan o'tkazishi;

- qarzdorning uchinchi shaxslarda turgan mol-mulkini qidirish, aniqlash va qaytarishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rishi;

- tashqi boshqaruvni o'tkazish va kreditorlar bilan hisob-kitoblar qilish uchun maxsus hisobvaraq ochishi;

- tashqi boshqaruv rejasini ishlab chiqishi va kreditorlar yig'ilishi tasdiqlashi uchun taqdim etishi;

- buxgalteriya, statistika hisobi va hisobdorligini yuritishi;

- kreditorlarning qarzdorga nisbatan talablari yuzasidan belgilangan tartibda e'tirozlar bildirishi;

- qarzdor oldidagi qarzni undirish choralarini ko'rishi;

- kreditorlarning talablari reestrini yuritishi;

- kreditorlar yig'ilishiga tashqi boshqaruv rejasi bajarilishining borishi va yakunlari haqida hisobotlar taqdim etishi shart.

Tashqi boshqaruvchining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Tashqi boshqaruvchi bu ishga tayinlanganidan keyin bir oylik muddat ichida tashqi boshqaruv rejasini ishlab chiqib, tasdiqlash uchun kreditorlar yig'ilishiga taqdim etishi kerak.

Tashqi boshqaruv rejasida quyidagilar nazarda tutilishi kerak:

- Qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash chora-tadbirlari, mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish shartlari va tartibi, ularni amalga oshirish xarajatlari hamda qarzdorning boshqa xarajatlari;

- Qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash muddati.

Tashqi boshqaruv rejasi kreditorlarning yig'ilishi tomonidan ko'rib chiqiladi, yig'ilish tashqi boshqaruv joriy etilgan paytdan e'tiboran ikki oydan kechiktirmay tashqi boshqaruvchi tomonidan chaqiriladi. Tashqi boshqaruvchi barcha kreditorlarga kreditorlar yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joy haqida yozma shaklda xabar qiladi hamda mazkur yig'ilish o'tkaziladigan sanadan kamida ikki hafta oldin ularga tashqi boshqaruv rejasi bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta'minlaydi.

Tashqi boshqaruv rejasida qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash yuzasidan quyidagi chora-tadbirlar nazarda tutilishi mumkin:

- Ishlab chiqarishni qayta ixtisoslashtirish;
- Norentabel ishlab chiqarishlarni yopish;
- Debitorlik qarzlarini undirish;
- Qarzdor mol-mulkining bir qismini sotish;
- Qarzdorning talabidan o'zganing foydasiga voz kechish;
- Uchinchi shaxslarning qarzdorning majburiyatlarini bajarishi;
- Qarzdorning qo'shimcha aksiyalarini joylashtirish;
- Qarzdorning korxonasini (biznesini) mulkiy majmua sifatida sotish;
- Qarzdorning aktivlari o'rnini almashtirish.

Tashqi boshqaruv rejasida qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklashning boshqa chora-tadbirlari ham nazarda tutilishi mumkin.

Bankrotlik to'g'risidagi ish yuritishning tugatilishi yoki xo'jalik sudi tomonidan qarzdorni bankrot deb topish va qarzdorga nisbatan tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'g'risida qaror qabul qilinishi tashqi boshqaruvchining vakolatlari tugashiga olib keladi.

Agar tashqi boshqaruv kelishuv bitimi tuzilishi yoki kreditorlarning talablari qanoatlantirilishi bilan tamomlansa, tashqi boshqaruvchi yangi rahbar saylangunga (tayinlangunga) qadar qarzdorning rahbari vazifasini bajarishni davom ettirib turadi.

Tashqi boshqaruvchi qarzdorning rahbarini saylash (tayinlash) to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish uchun qarzdorning boshqaruv organini o'z tashabbusi bilan chaqirishga haqli. Qarzdorning va qarzdor mol-mulki egasining boshqa boshqaruv organlari vakolatlari tiklanadi.

Agar xo'jalik sudi tomonidan qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'g'risida qaror qabul qilingan hamda tugatish boshqaruvchisi etib boshqa shaxs tayinlangan bo'lsa, tashqi boshqaruvchi tugatish boshqaruvchisiga ishlarni topshirgunga qadar o'z vazifasini bajarishni davom ettirib turadi. Tashqi boshqaruvchi tugatish boshqaruvchisi tayinlangan sanadan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay ishlarni unga topshirishi shart.

10.7. Tugatishga doir ish yuritish taomili

Tugatishga doir ish yuritish taomili bankrotlik jarayonini tugatuvchi taomili bo'lib hisoblanadi. Mazkur taomilning maqsadi bo'lib qarzdorning mol-mulkini qonuniy realizatsiya qilish va olingan mablag'larni kreditorlar talablarini mos ravishda qondirishga yo'naltirish, shuningdek, qarzdorni qarzlardan holi deb topish hisoblanadi. Tugatishga doir ish yuritish taomili xo'jalik sudi tomonidan kreditorlarning yig'ilishi yoki bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat organi taqdimotiga ko'ra tayinlanadigan tugatish boshqaruvchisi tomonidan amalga oshiriladi.

Tugatishga doir ish yuritishning boshlanishi Xo'jalik sudi tomonidan qarzdorni bankrot deb topish to'g'risida qaror qabul qilinishi bilan boshlanadi. Uning umumiy muddati 12 oydan oshmasligi kerak. Lekin, xo'jalik sudining qarori bilan ba'zi hollarda bu muddat uzaytirilishi mumkin.

Xo'jalik sudi tomonidan qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'g'risida qaror qabul qilingandan so'ng quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- Qarzdorning mol-mulkini boshqa shaxsga o'tkazish bilan bog'liq yoki uning mol-mulkini uchinchi shaxslar foydalanishi uchun topshirishga sabab bo'luvchi bitimlar tuzishga bankrotlik to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda yo'l qo'yiladi;

- Qarzdorning barcha pul majburiyatlarini bajarish muddati, shuningdek kechiktirilgan majburiy to'lovlarni to'lash muddati boshlangan deb hisoblanadi;

- Qarzdorning barcha turdagi qarzlari bo'yicha neustoyka (jarima, penya) va foizlarni hisoblash tugatiladi;

- Qarzdorning moliyaviy ahvoli to'g'risidagi ma'lumotlar maxfiy toifaga (shu jumladan tijorat siriga) mansubligini yo'qotadi;

- Undiruvni qarzdorning mol-mulkiga qaratishga doir barcha cheklovlar olib tashlanadi;

- Ijro hujjatlarini ijro etish tugatiladi.

Xo'jalik sudi tomonidan qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'g'risida qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran qarzdorning boshqaruv organlari qarzdorning mol-mulkini boshqarish va tasarruf etish vazifalarini bajarishdan, agar ilgari chetlashtirilmagan bo'lsa, chetlashtiriladi, qarzdor rahbarining vakolatlari tugatiladi (qarzdorning rahbari bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinadi), qarzdorning ishlarini boshqarish tugatish boshqaruvchisiga yuklatiladi, shuningdek qarzdorning mol-mulkini boshqarish va tasarruf etish bo'yicha mulkdorning vakolatlari tugatiladi. Tugatish boshqaruvchisi qarzdorning rahbari bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish yoki mazkur rahbari boshqa ishga o'tkazish to'g'risida buyruq chiqaradi.

Xo'jalik sudi qarzdorni bankrot deb topish to'g'risida qaror qabul qilayotganda tugatish boshqaruvchisini tashqi boshqaruvchini tayinlash uchun nazarda tutilgan tartibda tayinlaydi. Ustav fondida davlat ulushi bo'lgan korxona bankrot deb topilgan taqdirda, bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat organi ham tugatish boshqaruvchiligiga nomzod taqdim etishi mumkin.

Tugatish boshqaruvchisi tayinlangan paytdan e'tiboran qarzdorning ishlarini boshqarish hamda qarzdorning mol-mulkini tasarruf etish bo'yicha barcha vakolatlar uning zimmasiga o'tadi.

Tugatish boshqaruvchisi quyidagi huquqlarga ega:

- Qarzdorning mol-mulkini tasarruf etish;
- Xodimlar bilan, shu jumladan qarzdorning rahbari bilan tuzilgan mehnat shartnomalarini bekor qilish;
- Qarzdorning shartnomalarini bajarishdan belgilangan tartibda bosh tortish;
- Qarzdor tomonidan tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risida da'volar taqdim etish;
- Qarzdorni bankrotlikka olib kelganligi munosabati bilan uning pul majburiyatlari va (yoki) majburiy to'lovlari yuzasidan subsidiar javobgar bo'ladigan uchinchi shaxslarga nisbatan talablar qo'yish.

Tugatishga doir ish yuritish taomili davrida tugatish boshqaruvchisi quyidagilarni amalga oshirishga majbur:

- Qarzdorning mol-mulkini o'z tasarrufiga qabul qilishi, uni inventarizatsiya qilishi va baholashdan o'tkazishni tashkil etishi, uning but saqlanishi choralari ko'rishi;

- Qarzdorning moliyaviy ahvolini tahlil etishi;
- Kreditorlar yig'ilishini va kreditorlar qo'mitasini chaqirishi;
- Qarzdor oldidagi qarzlarni undirish choralari ko'rishi;
- Qarzdor tugatilganda uning xodimlari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishi hamda ular bilan tuzilgan mehnat shartnomalari bekor qilinajagi to'g'risida ularni xabardor etishi;

- Kreditorlarning talablari reestrini yuritishi va ularning talablarini ko'rib chiqishi;

- Qarzdorning uchinchi shaxslarda turgan mol-mulkini qidirish, aniqlash va qaytarishga qaratilgan choralarni ko'rishi;

- Qarzdorning qonun hujjatlariga muvofiq saqlanishi lozim bo'lgan hujjatlarini saqlashga topshirishi shart.

Bankrot yuridik shaxsning barcha aktivlari, balanslarda ko'rsatilgan yoki ko'rsatilmaganligidan qat'i nazar, tugatish massasini shakllantiruvchi asosni tashkil etadi.

Tugatish massasiga quyidagilar kirmaydi:

- Qarzdor xodimlarining xususiy mulkidagi mol-mulk;
- Ishonchli boshqaruvdagi, qarzdor ijara huquqi asosida foydalanayotgan mol-mulk;

- Garov narsasi;

- Qarzdorga javobgarlik asosida saqlash uchun berilgan tovarlar;

- Qarzdorning mulki bo'lmagan boshqa mol-mulk.

Qarzdorning balansida belgilanganidan boshqa maqsadda, shu jumladan tijorat maqsadlarida foydalanish mumkin bo'lmagan ijtimoiy va kommunal infratuzilma obyektlari bo'lsa, qarzdor bankrot deb e'lon qilingan paytdan e'tiboran bir oylik muddat ichida ular qoldiq qiymati bo'yicha tugatish boshqaruvchisi tomonidan mahalliy davlat hokimiyati organlariga topshiriladi.

Tugatishga doir ish yuritish jarayonida tugatish boshqaruvchisi qarzdorning mol-mulkini inventarizatsiya qiladi va qiymatini belgilaydi. Tugatish boshqaruvchisi mazkur faoliyatni amalga oshirish uchun

baholovchi tashqilotni va boshqa mutaxassislarni, ularning xizmatlari uchun haqni, agar kreditorlar yig'ilishi yoki kreditorlar qo'mitasi tomonidan haq to'lashning boshqa manbai belgilangan bo'lmasa, qarzdorning mol-mulki hisobidan to'lagan holda, jalb etishga haqli. Ustav fondida davlat ulushi bo'lgan korxonaning mol-mulki baholanayotganda baholovchi tashqilot jalb etilishi shart. Qarzdorning kreditorlari yig'ilishi yoki kreditorlari qo'mitasi mazkur xizmatlar haqini to'lash majburiyati yuklanadigan, qilgan xarajatlari keyinchalik qarzdorning mol-mulki hisobidan navbatdan tashqari qoplanadigan shaxsni, agar uning o'zi rozi bo'lsa, tayinlashga haqli.

Agar tugatishga doir ish yuritish jarayonida haq to'lash ko'chmas mol-mulk bilan amalga oshirilayotgan bo'lsa, mazkur mol-mulk, agar kreditorlar yig'ilishi yoki kreditorlar qo'mitasi tomonidan boshqacha qoida belgilangan bo'lmasa, uni sotishdan oldin baholovchi tashqilot tomonidan baholanadi.

Qarzdorning garov narsasi bo'lgan mol-mulkini baholash baholovchi tashqilot tomonidan majburiy tartibda o'tkaziladi. Tugatish boshqaruvchisi tugatishga doir ish yuritish jarayonida qarzdorning so'mda ish yuritadigan yagona va valutada ish yuritadigan yagona hisobvaraqlaridan (bundan buyon matnda qarzdorning yagona hisobvaraqlari deb yuritiladi) foydalanishi shart. Tugatishga doir ish yuritish jarayonida kelib tushgan pul mablag'lari ham qarzdorning yagona hisobvaraqlariga o'tkaziladi.

Respublikamizning bankrotlikka oid qonunchiligiga asosan kreditorlar talablarini quyidagi navbatlarning ketma-ketligida qondiriladi:

- Sud xarajatlarini, sud boshqaruvchilariga haq to'lash bilan bog'liq xarajatlarni, kommunal xizmatlar va foydalanish xarajatlariga oid joriy to'lovlarni, qarzdorning mol-mulkini sug'urta qilish xarajatlarini qoplash, shuningdek qarzdorning bankrotlik to'g'risidagi ish qo'zg'atilganidan keyin yuzaga kelgan majburiyatlariga doir talablarni hamda qarzdor qaysi fuqaroning hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazilganligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'lsa, ana

shu fuqaroning talablarini qondirish navbatdan tashqari tarzda amalga oshiriladi.

- Majburiy to'lovlarni hamda ish haqi to'lash uchun pul mablag'lari berilishini nazarda tutuvchi to'lov (ijro) hujjatlari bo'yicha, alimentlarni undirish to'g'risidagi talablarni qondirish uchun hisobvaraqdan pul mablag'larini o'tkazishni yoki berishni nazarda tutuvchi ijro hujjatlari bo'yicha, mualliflik shartnomalari yuzasidan haq to'lash bo'yicha, qarzdorning mehnatga oid munosabatlar va ularga tenglashtirilgan huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi majburiy to'lovlar hamda talablar bo'yicha majburiyatlari bir xil - teng darajada bajarilishini ta'minlaydigan, shuningdek jinoyat yoki ma'muriy huquqbuzarlik oqibatida fuqarolarning mol-mulkiga yetkazilgan zararning o'mini qoplashga doir talablari birinchi navbatda qondiriladi.

- Majburiy sug'urta bo'yicha talablar, shuningdek banklarning kreditlari va bank kreditlari sug'urtasi bo'yicha talablar ikkinchi navbatda qondiriladi.

- Kreditorlarning garov bilan ta'minlangan talablari uchinchi navbatda qondiriladi.

- Kreditorlarning garov bilan ta'minlanmagan talablari to'rtinchi navbatda qondiriladi.

- Aksiyalar egalarining talablari beshinchi navbatda qondiriladi.

- Qolgan barcha talablar oltinchi navbatda qondiriladi.

Har qaysi navbat bo'yicha talablar oldingi navbat talablari to'la qanoatlantirilganidan keyin qondiriladi.

Undirib olinayotgan summa bir navbatning barcha talablarini to'la qondirishga etarli bo'lmasa, bu talablar har bir undiruvchi olishi lozim bo'lgan summaga mutanosib ravishda qondiriladi.

Qarzdorning mol-mulki inventarizatsiya qilinganidan va baholanganidan keyin tugatish boshqaruvchisi, ushbu mol-mulkni ochiq kim oshdi savdosida sotishga kirishadi. Qarzdorning mol-mulkini sotish tartibi va muddatlari (jadvali) kreditorlar yig'ilishi yoki kreditorlar qo'mitasi tomonidan ma'qullangan bo'lishi kerak.

Tugatish boshqaruvchisi kreditorlar bilan kreditorlarning talablari reestriga muvofiq hisob-kitob qiladi. Pul mablag'larini kreditorning

hisob varag'iga o'tkazish imkoniyati bo'lmasa, unga tegishli summa qarzdor joylashgan erdagi (yashash joyidagi) notarius yoki sud depozitiga tugatish boshqaruvchisi tomonidan o'tkazilib, bu haqda kreditorga xabar qilinadi. Mazkur summa notarius yoki sud depozitiga o'tkazilgan paytdan e'tiboran uch yil ichida kreditor tomonidan olinmasa, bu summa tegishincha notarius yoki sud tomonidan davlat byudjetiga o'tkaziladi.

Tugatishga doir ish yuritishni boshlashning e'lon qilingan ma'lumotda belgilangan kreditorlar talablarini taqdim etish muddati tugaganidan keyin kreditorlar tomonidan bildirilgan talablar, shuningdek tugatishga doir ish yuritish boshlanganidan keyin yuzaga kelgan majburiy to'lovlar bo'yicha talablar, ular qaysi muddatda taqdim etilganidan qat'i nazar, qarzdorning belgilangan muddatda bildirilgan kreditorlar talablari qondirilganidan keyin qolgan mol-mulklaridan qondiriladi.

Qondirilgan talablar, shuningdek voz kechish haqi to'g'risida bitimga erishilgan talablar yoki tugatish boshqaruvchisi tomonidan hisobga olinishi bildirilgan yoxud majburiyatlarni tugatishning boshqa asoslari bo'lgan talablar kreditorlarning qanoatlantirilgan talablari deb hisoblanadi.

Talabni hisobga olish, shuningdek voz kechish haqi orqali talabni qanoatlantirishga faqat bildirilgan talablarni qondirishning navbati va nisbati prinsipiga rioya etilgan taqdirda yo'l qo'yiladi. Voz kechish haqi to'g'risida bitim imzolash yo'li bilan kreditorlar talablarini qanoatlantirishga mazkur bitim kreditorlar yig'ilishi yoki kreditorlar qo'mitasi bilan kelishilgan taqdirda yo'l qo'yiladi. Tugatishga doir ish yuritishda qarzdorning majburiyatlarini yangilash to'g'risida bitim tuzish yo'li bilan kreditorlar talablarini qanoatlantirishga yo'l qo'yilmaydi.

Kreditorlarning qarzdor mol-mulki etarli bo'lmaganligi sababli qondirilmagan talablari ham qanoatlantirilgan talablar deb hisoblanadi. Tugatish boshqaruvchisi tomonidan kreditorlarning tan olinmagan talablari ham, agar kreditor xo'jalik sudiga murojaat etmagan bo'lsa

yoki bunday talablar xo'jalik sudi tomonidan asossiz deb topilgan bo'lsa, qanoatlantirilgan talablar deb hisoblanadi.

Tugatish boshqaruvchisi kreditorlarning talablari reestriga kreditorlar talablari qanoatlantirilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritadi.

Tugatish boshqaruvchisi qarzdorning kreditorlar talablari qanoatlantirilganidan keyin qolgan mol-mulki, shuningdek qarzdorning sotishga taklif qilingan, lekin tugatishga doir ish yuritish mobaynida realizatsiya qilinmagan mol-mulki to'g'risida kreditorlar mazkur mol-mulkni o'z talablarini qanoatlantirish uchun qabul qilishni rad etgan taqdirda va agar qarzdorning muassislari (ishtirokchilari) yoki qarzdorning mol-mulki egasi kreditorlarning talablari qanoatlantirilganidan keyin qolgan mol-mulkka bo'lgan huquqlari to'g'risida ariza taqdim etgan bo'lmasa, mahalliy davlat hokimiyati organlarini xabardor qiladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari xabarnoma olingan paytdan e'tiboran bir oylik muddat ichida mol-mulkni balansga oladi va uni saqlab turishga doir barcha xarajatlarni qoplaydi. Mol-mulkni qabul qilishdan bosh tortilgan yoki qabul qilishdan bo'yin tovlangan taqdirda tugatish boshqaruvchisi tegishli organni mazkur mol-mulk qabul qilishga undash to'g'risidagi ariza bilan xo'jalik sudiga murojaat etishga haqli. Xo'jalik sudi mol-mulk topshirilganligi to'g'risidagi hujjatlar asosida tugatishga doir ish yuritishni tamomlash haqida ajrim chiqaradi.

Tugatishga doir ish yuritish taomilini o'tkazish natijalari to'g'risida tugatish boshqaruvchisi tomonidan taqdim etilgan hisobot ko'rib chiqilganidan keyin xo'jalik sudi tugatishga doir ish yuritish tamomlanganligi haqida ajrim chiqaradi va tugatish boshqaruvchisi zimmasiga mazkur ajrimni yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organga o'n kun ichida taqdim etish majburiyatini yuklaydi.

Xo'jalik sudining ajrimi yuridik shaxslarning yagona davlat reestriga qarzdor tugatilganligi to'g'risida yozuv kiritilishi uchun asos bo'ladi. Reestrga tegishli yozuv xo'jalik sudining mazkur ajrimi taqdim etilgan paytdan e'tiboran uch kundan kechiktirmay kiritilishi lozim.

Yuridik shaxslarning yagona davlat reestriga qarzdor tugatilganligi to'g'risidagi yozuv kiritilgan paytdan boshlab, tugatish boshqaruvchisining vakolatlari tugatilgan, tugatishga doir ish yuritish tamomlangan, qarzdor esa tugatilgan deb hisoblanadi.

Tayanch so'z va iboralar:

Bankrotlik alomatlari, bankrotlik taomillari, sud sanatsiyasi, sudgacha sanatsiya, tashqi boshqaruv, kelishuv bitimi, kuzatuv.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Bankrotlik taomillarining turlari va tarkibini ayting?
2. Sudgacha sanatsiya qilish tartibni ayting?
3. Kuzatuv bu - ?
4. Kelishuv bitimini tuzish tartibini ayting?
5. Sud sanatsiyasi -bu?
6. Tashqi boshqaruv nima?
7. Tugatishga doir ish yuritish taomillarini ayting?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Конституция Республики Узбекистан.Т.: Узбекистан, 2014. - 76с.
2. Закон РУз «Закон Республики Узбекистан «О банкротстве» /Новая редакция/, ст.3 /Сб законодательства о предпринимательстве. Т.1.-Т.: Министерство юстиции Республики Узбекистан, 2002. - 680с.
3. Закон РУз «Об иностранных инвестициях», от 30 апреля 1998 г., № 609-I
4. Закон РУз «О гарантиях и мерах защиты прав иностранных инвесторов», от 30 апреля 1998 г., № 611-I
5. Постановление Президента Республики Узбекистан №ПП-916 от 15.07.2008 г. «О дополнительных мерах по стимулированию внедрения инновационных проектов и технологий в производство», Концепция инновационного развития Республики Узбекистан на 2013-2020 гг.
6. Постановление Президента Республики Узбекистан от 15.12.2010г. №ПП-1442 «О приоритетах развития промышленности Республики Узбекистан в 2011-2015 годах».
7. Постановление Президента Республике Узбекистан от 26 января 2009 года № ПП – 1047 «О дополнительных мерах по расширению производства продовольственных товаров и насыщению внутреннего рынка» и от 28 января 2009 года № ПП – 1050 «О дополнительных мерах по стимулированию расширения

производства отечественных непродовольственных потребительских товаров».

8. Указ Президента РУз «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» от 7 февраля 2017 г., № УП-4947.

9. Доклад Первого Президента Республики Узбекистан И.А. Каримова на заседании Кабинета Министров, посвященном итогам социально-экономического развития страны в 2014 году и важнейшим приоритетным направлениям экономической программы на 2015 год: «Создание в 2015 году широких возможностей для развития частной собственности и частного предпринимательства путем осуществления коренных структурных преобразований в экономике страны, последовательного продолжения процессов модернизации и диверсификации – наша приоритетная задача», www.press-service.uz. Дата обращения 17.01.2015г.

10. Критический анализ, жёсткая дисциплина и персональная ответственность должны стать повседневной нормой в деятельности каждого руководителя. Доклад Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на расширенном заседании Кабинета Министров, посвященном итогам социально-экономического развития страны в 2016 году и важнейшим приоритетным направлениям экономической программы на 2017 год. Народное слово, №5 от 18.01.2017 г.

11. 50 антикризисных мер академика С.Ю. Глазьева // Стандарты и качество. – 2009. – №3. – С.14-15.

12.Абалкин Л.И. Государственное регулирование рыночной экономики. – М.: Издательский дом «Путь России»; ЗАО «Издательский дом «Экономическая литература»», 2002. – 590 с.

13.Абдуллаев Ё. Малый бизнес и предпринимательство: Учебник для студентов высших учебных заведений, обучающихся по экономическим направлениям и специальностям / Ё. Абдуллаев, Ш.А. Юлдашев. – Т.: IQTISOD-MOLIYA – 2008. – 340 с.

14.Абдуназарова Н. Урманова Н. Новые подходы в кредитовании малого бизнеса // Рынок, деньги и кредит. – 2012. – С.26-28.

15.Аганбегян А.Г. Об особенностях современного мирового финансового кризиса и его последствий для России // Деньги и кредит. – 2008. – №12. – С.3-9.

16.Агурбаш Н.Б. Система государственной поддержки малого предпринимательства в России. – М.: «Анкил», 2000. – 48 с.

17.Алексащенко С. Кризис-2008: пора ставить диагноз // Вопросы экономики. – 2008. – №11. – С.25-37.

18.Алексащенко С. Обвальное падение закончилось, кризис продолжается // Вопросы экономики. – 2009. – №5. – С.4-20.

19.Алиева С.С., Мухаммедова З.М. Блокирование процесса кризисной деградации производства и обеспечение предпосылок их ускоренной модернизации // Казахстан в системе мирового экономического кризиса: природа, анализ и механизмы реализации антикризисной программы. Материалы международной научно-практической конференции. Караганда. КЭУ КП Республики Казахстан. 2009. – С.559-561.

20. Ансофф И. Новая корпоративная стратегия. – СПб.: Питер ком, 1999. – 416 с. – (Серия «Теория и практика менеджмента»).
21. Ансофф И. Стратегическое управление / И. Ансофф. – М.: Экономика, 1989. – 519 с.
22. Антикризисное управление. Теория и практика / Под ред. Владимира Захарова. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2013. – 320 с.
23. Антикризисное управление. Учебник. - 4-е изд., доп. и перераб. / Под ред. проф. Э.М. Короткова. – М.: ИНФРА-М, 2012. – 620 с.
24. Антикризисное управление: макро- и микроуровень: Учебное пособие / К.В. Балдин, И.И. Передеряев, А.В. Рукоусев. 6-изд., испр. и перераб. – М.: Дашков и К^о, 2011. – 268 с.
25. Антикризисное управление: от банкротства – к финансовому оздоровлению / Под ред. Г.П. Иванова. – М.: Закон и право, ЮНИТИ, 1995. – 320 с.
26. Антикризисное управление: теория, практика, инфраструктура: учебно-практическое пособие / отв. ред. Г.А. Александрова. – М.: Издательство БЕК, 2004. – 445 с.
27. Антикризисное управление: учеб. пособие для технических вузов / В.Г. Крыжановский, В.И. Лапенков, В.Н. Лютер и др.; под ред. Э.С. Минаева и В.П. Панагушина. – М.: Издательство «ПРИОР», 1998. – 432 с.
28. Антикризисное управление: Учебник / Под ред. И.К. Ларионова. – М.: Дашков и К^о, 2012. – 380 с.
29. Антикризисное управление: учебник / под.ред. Э.М. Короткова. – М.: ИНФРА-М, 2000. – 432 с.

30.Антикризисное управление: учебное пособие / И.К. Ларионов, Н.И. Брагин и др.; под ред. И.К. Ларионова. – М.: Дашков и К°, 2009. – 292 с.

31.Арутюнов Ю.А. Антикризисное управление: Учебник для студентов, обучающихся по специальности «Менеджмент организации» / Ю.А. Арутюнов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2009. – 416 с.

32.Архипов В. К вопросу о мировом финансовом кризисе // Экономист. – 2009. – №3. – С.50-56.

33.Бадалян Л.Г. Анализ финансового кризиса: модель рыночного маятника / Л.Г.Бадалян, В.Ф.Криворотов // Экономическая наука современной России. – 2009. – №2. – С.20-32.

34.Балацкий Е. Алхимия финансового кризиса-2008 // Свободная мысль. – 2008. – №12. – С.49-64.

35.Бандурин, А. В. Отдельные проблемы антикризисного управления предприятиями / А. В. Бандурин, С. А. Орехов, С. Ю. Медведев. – М.: Диалог-МГУ, 2010. – 369 с.

36.Банкротство / Под. ред. Подзорова, С.А. – М.: Экзамен, 2001. –196с.

37.Баранов А.О. Оценка перспектив преодоления финансово-экономического кризиса в России / А.О. Баранов, В.М. Гильмутдинов, В.Н.Павлов // ЭКО. – 2009. – №10. – С.23-35.

38.Баринов В.А. Антикризисное управление: Учебное пособие. – М.: ИД ФБК – ПРЕСС, 2002. – 520 с.

39. Батракова Л.Г. Экономический анализ деятельности коммерческого банка: Учебник для вузов. – М.: Изд. корпорация «Логос», 2000. – 344 с.
40. Батурина В. Поддержка развития малого инновационного предпринимательства // Рынок, деньги и кредит. – 2012. – С.38-42.
41. Батурина В. Формирование деловой среды для развития малого инновационного предпринимательства // Рынок, деньги и кредит. – 2011. – №3. – С.14-18.
42. Белкин В.Д. Кризис - выход есть / В.Д. Белкин, В.П. Стороженко // Экономическая наука современной России. – 2009. – №1. – С.39-52.
43. Беляев С.Г., Кошкин В.И. Теория и практика антикризисного управления: Учебник для вузов / – М.: Закон и право, ЮНИТИ, 1996. – 469 с.
44. Беляков, С.Г. Кошкин, В.Н. Теория и практика антикризисного управления. – М.: Закон и право, ЮНИТИ, 1996. – 489 с.
45. Блант М. Финансовый кризис / Максим Блант. – М.: АСТ; Астрель, 2009. – 286 с.
46. Блинов А. Малое предпринимательство: организационные и правовые основы деятельности. – М.: Ось – 89, 1997. – 335 с.
47. Бляхман Л.С. Основы функционального и антикризисного менеджмента. Учебное пособие / Л.С. Бляхман. – М.: Изд-во Михайлова В.А. – 2000. – 380 с.
48. Богомолов О.Т. Уроки глобального кризиса // Новая и новейшая история. – 2009. – №5. – С.27-40.

49. Богомолов О.Т. Уроки глобального финансового кризиса // Россия и современный мир. – 2009. – №2. – С.5-15.
50. Болдырев Ю. К диагностике кризиса и оценке дееспособности "властной вертикали" // Российский экономический журнал. – 2008. – №9-10. – С.17-24.
51. Бузгалин А. Мировой экономический кризис и сценарии посткризисного развития: марксистский анализ / А. Бузгалин, А.Колганов // Вопросы экономики. – 2009. – №1. – С.119-132.
52. Бусов В.И., Землянский О.А., Поляков А.П. Оценка стоимости предприятия (бизнеса): учебник для бакалавров / Под общ. ред. В.И. Бусова. – М.: Юрайт, 2013. – 432 с.
53. Валлерстайн И. Динамика глобального кризиса: тридцать лет спустя // Эксперт. – 2009. – №35. – С.48-56.
54. Васильев В.С. Мировой финансовый кризис и экономическая стратегия Б.Обамы - Т.Гайтнера / В.С.Васильев, Е.А.Роговский // США-Канада: экономика, политика, культура. – 2009. – №4. – С.3-29.
55. Воронин Ю. Великая российская депрессия // Рос. Федерация сегодня. – 2009. – №9. – С.36-37.
56. Галенко В.П. Бизнес и планирование в условиях открытой экономики: учеб. пособие для студ. высш. учеб. Заведений / В.П. Галенко, Г.П. Самарина, О.А. Страхова. – 2-е изд., стер. – М.: издательский цент «Академия», 2007. – 288 с.
57. Глава 1. Интервью с Василием Леонтьевым // О чём думают экономисты: Беседы с нобелевскими лауреатами / Под ред. П.

Самуэльсона, У. Баннета; Пер. с англ. – Московская школа управления «Сколково». – М.: Юнайтед Пресс, 2009. – 490 с.

58. Глазьев С. Антикризисные меры нужно увязать с решением долгосрочных проблем модернизации экономики // Рос. Федерация сегодня. – 2009. – №3. – С.19-20.

59. Глазьев С. Депрессию преодолеют нововведения // Коммерсантъ-Деньги. – 2009. – №8. – С.16-18.

60. Глазьев С. Об антикризисной стратегии России // Рос. экон. журнал. – 2009. – №6. – С.3-36.

61. Глазьев С.Ю. Антикризисные меры: просчеты, выводы, предложения // Экон. наука соврем. России. – 2009. – №2. – С.45-62.

62. Глобальный кризис, его российское преломление и реакция федеральных властей / М.В. Ершов, С.Ю.Глазьев, Р.С.Гринберг, О.Г.Дмитриева // Рос. экон. журнал. – 2008. – №9-10. – С.2-16.

63. Горфинкель В.Я. Экономика предприятия: Учебник для вузов / Под ред. В.Я. Горфинкеля, В.А. Швандара. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. – 670 с.

64. Градов А.П., Кузин Б.И. Стратегия и тактика антикризисного управления фирмой. – СПб.: Специальная литература, 1996. – 510 с.

65. Григорьев Л. Финансовый кризис – 2008: вхождение в мировую рецессию / Л.Григорьев, М.Салихов // Вопросы экономики. – 2008. – №12. – С.27-45.

66. Гурова Т. Без L-образного хвоста// Эксперт. – 2009. – №3. – С.14-20.

67.Гурова Т. Техника управления кризисом / Т.Гурова, В.Фадеев // Эксперт. – 2009. – №3. – С.22-26.

68.Деягин М. Антикризисная программа модернизации страны // Российский экономический журнал. – 2008. – №9-10. – С.25-34.

69.Дзарасов С. Российский кризис: истоки и уроки // Вопросы экономики. – 2009. – №5. – С.69-86.

70.Друкер П. Ф. Эффективное управление предприятием.: Пер. с англ. – М.: ООО «И.Д. Вильямс», 2008. – 224 с.

71.Евстигнеева Л. Стратегия выхода России из кризиса / Л.Евстигнеева, Р.Евстигнеев // Вопросы экономики. – 2009. – №5. – С.47-58.

72.Ершов М. В. Мировой финансовый кризис. Что дальше? / М.В. Ершов. – М.: Экономика, 2011. – 295 с.

73.Ершов М. Кризис 2008 года: Момент истины для глобальной экономики и новые возможности для России // Вопросы экономики. – 2008. – №12. – С.4-26.

74.Жамолов Х.Н., Олимжонов О.О. Финансовый менеджмент в предприятиях малого бизнеса / Х.Н. Жамолов, О.О. Олимжонов. Изд-во Санкт-Петербургского университета экономики и финансов. – 1996. – 106 с.

75.Жаровская Е.П. Антикризисное управление / Е.П. Жаровская, Б.Е. Бродский. – М.: Омега-Л, 2004. – 336 с.

76.Жумаев Н.Х. Мировой финансово-экономический кризис: причины и проблемы его предотвращения / Н.Х. Жумаев, О.К. Абдурахмонов. – Т.: Академия нашр, 2010. – 160с. (узб.яз);

77. Журавлев С. Остановка без требования // Эксперт. – 2009. – №3. – С.28-33.

78. Заде Л. Понятие лингвистической переменной и ее применение к принятию приближенных решений. – М.: МИР, 1976.

79. Зайналов Д.Р. Государственные меры по преодолению последствий мирового финансового кризиса // Казахстан в системе мирового экономического кризиса: природа, анализ и механизмы реализации антикризисной программы. Материалы международной научно-практической конференции. Караганда. КЭУ КП Республики Казахстан. 2009. – С.529-537.

80. Зайналов Д.Р. Факторы, влияющие на процентную ставку в условиях кризиса // Проблемы менеджмента и маркетинга в развитии экономики региона. Материалы международной научно-практической конференции 14-15 мая 2010. – Тамбов: ТГУ им. Г.Р. Державина, 2010. – С.356-361.

81. Зайналов Д.Р., Саттаров Т.А. Проблемы обеспечения финансовой стабильности предприятий. – Т.: Shark, 2011. – 232 с.

82. Зубов В. Кризис и задачи власти // Вопросы экономики. – 2009. – №2. – С.149-153.

83. Зубов В. Модель выхода из кризиса для России // Общество и экономика. – 2009. – №6. – С.33-41.

84. Ивасенко А. Г., Никонова Я. И. Финансы организаций (предприятий): учебное пособие / А. Г.Ивасенко, Я. И.Никонова. – М.: КноРус, 2012. – 208 с.

85.Игонина Л.Л. Финансовый кризис и стратегия развития финансового рынка России // Экономическая наука современной России. – 2009. – №1. – С.52-61.

86.Казанцев С.В. Кризис рукотворный // ЭКО. – 2009. – №2. – С.2-22.

87.Калянина Л. Придется работать / Л. Калянина, Л. Москаленко // Эксперт. – 2009. – №3. – С.50-53.

88.Каримова Д. Краткосрочное прогнозирование спроса потребителей. // Рынок, деньги и кредит. – 2011. – №5. – С.40-44.

89.Кашин В.А. Мировой финансовый кризис: причины и последствия // Финансы. – 2009. – №1. – С.14-19.

90.Кашкин А. Финансовый кризис 2008 года и государственная финансовая политика. Чем она может помешать экономике, а чем навредить? // Российский экономический журнал. – 2009. – №12. – С.3-15.

91.Квинт В. Формирующийся новый мировой порядок ведет к выходу из экономического кризиса // Проблемы теории и практики управления. – 2009. – №5. – С.19-21.

92.Кирканов К.А. Антикризисное управление. Учебное пособие / К.А. Кирканов и др.; – М.: МАЭП, 1999. – 144 с.

93.Кокшаров А. Каким будет новый кризис // Эксперт. – 2009. – №1. – С.18-21.

94.Кондратьев Н.Д. Большие циклы конъюнктуры и теория предвидения. – М.: Экономика, 2002. – 767 с.

95.Костиков И. Современный кризис: особенности и пути преодоления // Проблемы теории и практики управления – 2009. – №4. – С.13-15.

96.Кофман А., Хил Алука Х. Введение теории нечетких множеств в управление предприятиями. – Минск: Высшая школа, 1992.

97.Кочетков В.В. Что несет мировой финансовый кризис России: опасность или шанс? // Вестн. Моск. ун-та. Сер.18. Социология и политология. – 2009. – №9. – С.27-31.

98.Кошкарров А. Конец турбокапитализма // Эксперт. – 2009. – №3. – С.76-77.

99.Кризис, антикризисные меры и стратегия инновационного народнохозяйственного развития в зеркале теории долгосрочной мегатехнологической динамики // Российский экономический журнал. – 2009. – №12. – С.3-9.

100. Крутик А.Б., Горенбургов М.Д. Малое предпринимательство и бизнес-коммуникации: Учебное пособие / А.Б. Крутик, М.Д. Горенбургов. – СПб.: Изд. дом «Бизнес-пресса», 1998. – 295 с.

101. Крутик А.Б., Муравьев А.И. Антикризисный менеджмент. Превентивные методы управления. – СПб.: Питер, 2001. – 432 с.

102. Крюков В. Нефтяная промышленность России и финансовый кризис / В.Крюков, Ю.Шафраник // Политический класс. – 2009. – С.32-44.

103. Кудрин А. Мировой финансовый кризис и его влияние на Россию // Вопросы экономики. – 2009. – №1. – С.9-27.

104. Кулешов В.В. Условия выхода России из кризиса // ЭКО. – 2009. – №9. – С.3-21; №10. – С.3-22.

105. Лавровский Б. К вопросу о природе современного кризиса // Вопросы экономики. – 2009. – №4. – С.145-153.

106. Лавровский Б.Л. Гипотеза о природе современного мирового финансово-экономического кризиса // ЭКО. – 2009. – №5. – С.63-75.

107. Лапуста М. Г. Финансы организаций (предприятий) : учеб. для вузов/ М. Г. Лапуста, Т. Ю. Мазурина, Л. Г. Скамай. – Изд. испр. – М.: ИНФРА-М, 2011. – 575 с.

108. Лужков Ю. Кризис транскapитализма и Россия // Экономист. – 2009. – №5. – С.12-28.

109. Майкл Портер. Конкурентная стратегия: методика анализа отраслей и конкурентов / Портер Майкл.; пер. с англ. И. Минервин. – М.: Альпина Паблшер, 2011. – 454 с.

110. Майкл Трейси, Фред Варсема. Маркетинг ведущих компаний: выбери потребителя, определи фокус, доминируй на рынке / Пер. с англ. С. Давыдова. – М.: Вильямс, 2007. – 304 с.

111. Маликов Т.С., Хайдаров Н.Х. Финансы: общегосударственные финансы. Учебное пособие.(на узб. яз.) –Т.: «IQTISOD-MOLIYA», 2009. –556 с.

112. Маршалл А. Принципы экономической науки: В 1 Т.: Пер. с англ. – М.: Прогресс, 1993. – 415 с.

113. Маршалл А. Принципы экономической науки: В 2 Т.: Пер. с англ. – М.: Прогресс, 1993. – 310 с.
114. Маршалл А. Принципы экономической науки: В 3 Т.: Пер. с англ. – М.: Прогресс, 1993. – 351 с.
115. Материалы Госкомстата Республики Узбекистан. за 2009.
116. Материалы Государственного Статуправления Самаркандской области за 2008-2012 гг. и за I полугодие 2013.
117. Махмудов Э. Исаков М. Конкурентоспособность – входной билет на внешний рынок. – 2012. – №5. – С.31-34.
118. Мединский В.Р. Только вместе мы преодолеем кризис // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. – 2009. – №1. – С.2-4.
119. Мескон М.Х., Альберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента; Пер. с англ. – М.: Дело, 1998. – 800 с.
120. Минин Б.В. Деятельность «Группы 20» по преодолению мирового финансового кризиса / Б.В.Минин, Л.Г.Таранкова // Деньги и кредит. – 2009. – №5. – С.28-36.
121. Мицек С. Россия: вступление в кризис, кризис, выход из кризиса // Вестник общественная мнения. – 2009. – №1(99). – С.39-46.
122. Морозова В.С. Понятие и структура предпринимательской компетентности менеджера / В.С. Морозова // Ярославский педагогический вестник. – 2012. – № 2. – Том II. (Психолого-педагогические науки).

123. Муинов Д.К., Мишенькова О. Воздействие кризиса на инвестиционные процессы: ситуация в мире и Узбекистане // Биржа Эксперт. – 2009. – №2. – С.31-33.

124. Навой А. Российские кризисы образца 1998 и 2008 годов: найди 10 отличий // Вопросы экономики. – 2009. – №2. – С.24-38.

125. Надырханов У. «Рамочные условия» для прямых иностранных инвестиций // Рынок, деньги и кредит. – 2012. – С.44-46.

126. Накоряков В.Е. Россия может усилить свои позиции, воспользовавшись мировым финансовым кризисом // Наука в Сибири. – 2008. – 4 декабря (№47). – С.8.

127. Недосекин А.О. Применение теории нечетких множеств к задачам управления финансами // Вопросы анализа риска. – 2000. – №2.

128. Недосекин А.О. Применение теории нечетких множеств к задачам управления финансами//Аудит и финансовый анализ. – 2002. – № 2. –С.205-209.

129. Недосекин А.О., Максимов О.Б., Павлов Г.С. Учебно-методическое указание для проведения практических занятий по теме: Анализ риска банкротства предприятия. – СПб. – 2001.

130. Николаев А. Совершенствование форм оценочной деятельности как средство преодоления экономического кризиса // Стандарты и качество. – 2009. – №8. – С.50-52.

131. Новикова А.В. Кризис как способ движения вперед / А.В.Новикова, И.Я.Новикова // ЭКО. – 2009. – №6. – С.3-22.

132. Новый курс экономической теории: учебник: в 2 кн. 2-е изд., перераб. и доп. Кн. 1. Рыночные системы хозяйствования: микро и макроэкономика / колл. авт.; авт. проекта Г.П. Журавлева; ТРО ВЭО России РЭА им. Г.В. Плеханова, Тамб.гос.ун-т им. Г.Р. Державина.- М.: Тамбов: изд.дом ТГУ им. Г.Р. Державина, 2010. – 676 с.

133. Новый курс экономической теории: учебник: в 2 кн.: 2-е изд., перераб. и доп. кн.2. Основы теории трансформации экономических систем и формирования «Экономики будущего» . / колл. авторов. – 494 с.

134. Ногин В. Д. Принятие решений в многокритериальной среде: количественный подход. — М.: ФИЗМАТЛИТ, 2005. - 176 с.

135. Орлов А.В. Малое и среднее предпринимательство России: государство, модернизация, инновационный прорыв / под общ. ред. д.э.н., проф. А.В. Орлова, – М.: Изд. «Риалтекс», 2011. – 226 с.

136. Орлов А.В. Малое и среднее предпринимательство России: государство, модернизация, инновационный прорыв. Часть 2 / под общ. ред. д.э.н., проф. А.В. Орлова, – М.: Изд. «Риалтекс», 2011. – 128 с.

137. Осадчая И. Кризис пришел. Что делать государству? // Наука и жизнь. – 2008. – №12. – С.11-16.

138. Осипенко О. Институциональные уроки кризиса: корпоративно-управленческий аспект // Российский экономический журнал. – 2009. – №6. – С.54-65.

139. Основные показатели социально-экономического развития Республики Узбекистан за 2010 год. – Т.: Госкомстат Республики Узбекистан, 2011. – С.7-9

140. Основы управления персоналом организации – Учебное пособие / Под ред. К.Х. Абдурахмонова. – Ташкент: изд. ТГЭУ, 2000. – 185 с.

141. Оценка антикризисных мер по поддержке реального сектора российской экономики // Вопросы экономики. – 2009. – №5. – С.21-46.

142. Парахина В.Н. Стратегический менеджмент: Учебник / В.Н. Парахина, Л.С. Максименко, С.В. Панасенко. – 6-е изд., стер. – М.: КНОРС, 2012. – 496 с.

143. Патласов О. Ю., Сергиенко О. В. Антикризисное управление. Финансовое моделирование и диагностика банкротства коммерческой организации: учебное пособие / О. Ю. Патласов, О. В. Сергиенко. – М.: Книжный мир, 2009. – 512 с.

144. Пер Дженстер, Дэвид Хасси. Анализ сильных и слабых сторон компании: Определение стратегических возможностей / Пер. с англ. О.Л. Пелявского. – М.: Вильямс, 2004. – 364 с.

145. Петраков Н. Пути преодоления экономического кризиса // Экономист. – 2009. – №7. – С.3-7.

146. Петросян Л. А., Зенкевич Н. А., Шевкопляс Е. В. Теория игр. СПб: БХВ-Петербург, 2012. – 432 с.

147. Подвербных О.Е., Гасенко Е.В. Оценка уровня развития инновационного потенциала персонала организации // Известия

Иркутской Государственной экономической академии 2012. выпуск №4. – с. 88-91.

148. Попов Г. Глобальная перспектива кризиса 2008 // Проблемы теории и практики управления. – 2009. – №7. – С.17-21.

149. Попов Г. Об экономическом кризисе 2008 года // Вопросы экономики. – 2008. – №12. – С.112-119.

150. Попов С.А. Стратегическое управление: 17-модульная программа для менеджеров. Модуль 4 / С.А. Попов. – М.: ИНФРА-М, 1999. – 344 с.

151. Примаков Е. При кризисе автопилот не действует / Беседовали М. Завада, Ю. Куликов // Известия. – 28 апреля. – С.1, 5.

152. Примаков Е. Шесть шагов, необходимых для преодоления кризиса // Рос. Федерация сегодня. – 2009. – №3. – С.2-3.

153. Проблемы структурной перестройки российской экономики в условиях глобального кризиса / Н.П.Шмелев, И.Д.Иванов, Д.Е.Сорокин, А.Н. Спартак, В.П. Оболенский, Ю.И. Рубинский // Российский экономический журнал. – 2009. – №6. – С.37-53.

154. Расулов З.Ж. Проблемы обеспечения социально-экономического развития в условиях кризиса // Проблемы менеджмента и маркетинга в развитии экономики региона. Матер. межд. научно-практ. конфер. 14-15 мая 2010. – Тамбов: ТГЭУ им. Г.Р. Державина, 2010. – С.193-195.

155. Расулов З.Ж. Текущие задачи предотвращения разрушительного воздействия международного финансового кризиса // Социально-экономические и правовые проблемы развития информационного общества. Матер. межд. научно-практ. конф. (30 сентября 2009г.). Т.2. – Омск: ОЭИ, 2009. – С.178-182.

156. Расулов З.Ж. Налоговая минимизация как факторов стимулирования предпринимательства // Экономический вестник Узбекистана. – 2010. – №5-6 – С.82-83.

157. Савчук В. П. Управление финансами предприятия / В.П. Савчук. – Издательство: Бином. Лаборатория знаний. 2010. – 480 с.

158. Сайт [http://www.bed.com/this is bed/ mission/growth Share matrix.html](http://www.bed.com/this_is_bed/mission/growth_Share_matrix.html).

159. Селицкая Н.М. Типы антикризисной политики // ЭКО. – 2009. – №6. – С.23-37.

160. Семь основных приоритетов программы антикризисных мер Правительства Российской Федерации / подготовили к печати В. Варнаков, А. Ужегов // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. – 2009. – №10. – С.4-8.

161. Сенчагов В. Мировой финансовый кризис и пути преодоления его последствий // Проблемы теории и практики управления. – 2008. – №2. – С.16-22.

162. Сенчагов В.К. Финансовый кризис: механизм преодоления // ЭКО. – 2009. – №1. – С.49-60.

163. Сергеев В.М. О глубинных корнях современного финансового кризиса // ПОЛИС: Политические исследования. – 2009. – №3. – С.47-53.

164. Симония Н. Глобальный финансовый кризис и мировой нефтегазовый сектор // Мировая экономика и международные отношения. – 2009. – №4. – С.13-21.
165. Симонов В. Особенности антикризисной политики в России / В.Симонов, Д.Комаров // Экономист. – 2009. – №7. – С.8-15.
166. Словарь иностранных слов. 16-е издание, исправление. – М.: Русский язык, 1988.
167. Среднесрочный план социально-экономического развития Республики Казахстан на 2005-2007 годы // www.minplan.kz, www.minfin.kz*
168. Степашин С. На выходе из кризиса / С. Степашин, В. Горегляд // Свободная мысль. – 2009. – №8. – С.5-12.
169. Стратегия и тактика антикризисного управления фирмой / Под ред. А.П. Градова, Б.И. Кузина. – СПб.: Специальная литература, 1996. – 510 с.
170. Сухарев О. Мировой финансовый кризис и способность экономики к развитию // Экономист. – 2008. – №12. – С.16-22.
171. Сухарев О. С. Управление экономикой. Введение в теорию кризисов и роста / О.С. Сухарев. – М.: Финансы и статистика, 2012. – 280 с.
172. Суэтин А. О причинах современного финансового кризиса // Вопросы экономики. – 2009. – №1. – С.40-51.
173. Сэй Ж.Б. Трактат по политической экономии, Экономические софизмы, Экономические гармонии / Сост., вступ.

ст. и коммент. состав.: М.К. Бункина, А.М. Семенова. – М.: Дело, 2000. – 232 с.

174. Сэй Ж.Б. Трактат по политической экономии. – М.: Директ-Медиа, 2007. – 67 с.

175. Тамбовцев В. Финансовый кризис и экономическая теория // Вопросы экономики. – 2009. – №1. – С.133-138.

176. Татаркин А.И. Причины и последствия мирового финансового кризиса для России // Вестник Уральского отделения РАН. Наука, общество, человек. – 2008. – №4. – С.3-13.

177. Тепман Л. Н., Эриашвили Н. Д. Управление рисками в условиях финансового кризиса: учебное пособие / Л. Н. Тепман, Н. Д. Эриашвили. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2011. – 296 с.

178. Томпсон А.А., Стрикленд А.Дж. Стратегический менеджмент. Искусство разработки и реализации стратегии: Учебник для вузов / Пер. с англ. под ред. Л.Г. Зайцева, М.И. Соколовой. – М.: Банки и биржи, ЮНИТИ, 1998. – 576 с.

179. Управление в условиях неустойчивости финансово-экономической системы. Стратегия и инструменты / Под ред. Аллы Бобылевой. – М.: МГУ, 2011. – 217 с.

180. Уткин Э.А. Антикризисное управление. – М.: Ассоциация авторов и издателей «Тандем». Изд-во ЭКМОС, 1997. – 400 с.

181. Уткин Э.А. Управление компанией. – М.: ЭКМОС, 1997. – 290 с.

182. Уткин Э.А., Шабанов Д.С. Антикризисное управление в малом бизнесе. Учебное пособие / Э.А. Уткин, Д.С. Шабанов. –М.: ТЕИС, 2004. –124с.
183. Фадеев В. Затмение пройдет // Эксперт. – 2009. – №3. – С.8-12.
184. Федотова М.А. Доходы предпринимателя. – М.: Финансы и статистика, 1993. – 96 с.
185. Фельдман А. Современный экономический кризис и производные финансовые инструменты // Вопросы экономики. – 2009. – №5. – С.59-68.
186. Фетисов Г. О мерах по преодолению мирового кризиса и формированию устойчивой финансово-экономической системы // Вопросы экономики. – 2009. – №4. – С.31-41.
187. Филипп Котлер. Маркетинг, менеджмент / Котлер Ф.: пер. с англ. А. Железниченко, С. Жильцов. – 11-е изд. – М.: Питер, 2003. – 800 с.
188. Финансово-кредитный энциклопедический словарь. Под ред. А.Г. Грязнова. – М.: Финансы и статистика, 2002. – 844 с.
189. Финансовые, инженерные и научные расчеты в среде Windows 95. / Пер. с англ. – М.: Информационно-издательский дом «Филинь», 1996. – 712с.
190. Фишберн П. Теория полезности для принятия решений / П. Фишберн.: пер. с англ. под ред. Н. Воробьева. – М.: Наука, 1978. – 352 с.

191. Фомин Д. Конец воображаемого постсоветского благополучия / Фомин Д., Ханин Г. // Свободная мысль. – 2009. – №4. – С.17-30.
192. Фрумкин К. Государство и экономические кризисы // Свободная мысль. – 2009. – №4. – С.93-102.
193. Ханин Г.И. Экономический кризис 2008 г. в России: причины и последствия / Г.И.Ханин, Д.А.Фомин // ЭКО. – 2009. – №1. – С.20-37.
194. Хасанов Б., Вахабов А.В. Средний и малый бизнес: проблемы и решения. – Т.: ТМИ. – 2002. – 140 с.
195. Хизрич, Р., Питерс, М. Предпринимательство или как завести собственное дело и добиться успеха / Р. Хизрич, М. Питерс. – М.: Прогресс-Универс, 1993. – Вып.: Предприниматель и предпринимательство. – 166 с.
196. Хинштейн А., Мединский В. Кризис. – М.: ЗАО «ОЛМА Медиа Групп», 2009. – 464 с.
197. Чепель С. Макроэкономические и институциональные предпосылки инновационного развития Узбекистана. / Рынок, деньги и кредит. – №12. – С. 37-41.
198. Чернавский Д.С. Кризис образца 2008 года / Чернавский Д.С., Щербаков А.В. // Экономические стратегии. – 2009. – №1. – С.28-32.
199. Чернова М.В. Банкротство. Учет, анализ и аудит в конкурсном производстве: Учебное пособие / Под. ред. Черновой М.В. – М.: Дело и Сервис, 2012. – 256 с.

200. Шаланов Н.В. Математическая экономика: Учебник/ Н.В. Шаланов. – Новосибирск: НГУ, 2004. – 224 с.
201. Шаститко А. Мировой финансовый кризис – возможность для ремонта институтов? // Вопросы экономики. – 2008. – №12. – С.133-138.
202. Шаулов Д. Налоговые реформы в Республике Узбекистан.//Рынок, деньги и кредит. – 2009. – №9. – С.10-13.
203. Шимшилов С. Стратегия современного предпринимательства и социального развития корпораций: Учебник / Под ред. д-ра экон. наук М.Н. Кулапова. – М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К^о», 2004. – 246с.
204. Шумпетер Й. Теория экономического развития: (Исследование предпринимательской прибыли, капитала, кредита, процента и цикла конъюнктуры) / Пер. с нем. – М.: Прогресс, 1982. – 455 с.
205. Экономика предприятия. Учебник / Под редакцией О.И. Волкова – М.: ИНФРА-М, 1997. – 416 с.
206. Экономическая энциклопедия / под ред. Л.И. Абалкина. – М.: Экономика, 1999. – 1055 с.
207. Экономический кризис в России: экспертный взгляд // Вопросы экономики. – 2009. – №4. – С.4-30.
208. Югай А. Особенности управления малым бизнесом. // Рынок, деньги и кредит. – 2012. – №10. – С.22-25.
209. Юдина И.Н. Причины банковских кризисов и поведение государства // ЭКО. – 2009. – №2. – С.163-171.

210. Юнусова Д. Микрофинансирование малого бизнеса и частного предпринимательства. // Рынок, деньги и кредит. – 2011. – №6. – С.18-20.

211. Knight, F.H. (1921) Risk, Uncertainty and Profit (New York: Harper).

212. Lipsey R.G., Steiner P.O. (1975) Economics. (New York: Harper & Row).

213. McConnel C.R. (1978) Economics: Principles Problems and Policies. (Boston [etc.]: Irwin McGraw-Hill).

214. Miller R.L. (1979) Economics Today. (Prentice Hall).

215. Patterson, B. Crises impact on reputation management // Public Relations Journal, Nov 1993, v49 nl 1. P.46,47

216. Rouh-Dufort Ch. Crises: des possibilite' iaprentissage pour 3/4 enterprise // Revfransaise de gasion. Paris, 1996. 108. B. 81.

217. Schumpeter, J.A. (1961) The Theory of Economic Development (New York: Harper).

218. www.anticrisis.ru

219. www.bankrotstvo.ru

220. www.lex.uz

221. www.uzinform.com

222. www.financy.ru

223. www.cfin.ru

QAYDLAR UCHUN

Z.J.RASULOV

ANTIINQIROZIY BOSHQARUV

O'quv qo'llanma

Muharrir

N. Rustamova

Badiiy muharrir

K. Boyxo'jayev

Kompyuterda sahifalovchi

K. Boyxo'jayev

Nashr. lits. AI № 305. 22.06.2017.

Bosishga ruxsat 27.12.2019-yilda berildi.

Bichimi 60x84/16. Ofset qog'ozi. «New Times Roman» garniturası.

Shartli b.t. 17,3. Nashr hisob t. 18,0.

Adadi 100 dona. 64-buyurtma.

“IQTISOD-MOLIYA” nashriyoti.
100000, Toshkent, Amir Temur, 60^{«A»}.

“DAVR MATBUOT SAVDO” MChJ
bosmaxonasida chop etildi.
100198, Toshkent, Qo‘yliq, 4-mavze, 46.

58400

62.9(5)-97

ISBN 978-9943-13-883-4



9 789943 138834